

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYA

B.A. MIRENSKIY  
A.X. RAHMONQULOV  
H.J. CHINIBAYEV

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
ORGANLARI



Toshkent

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYA

B. A. MIRENSKIY

A. X. RAHMONQULOV

H. J. CHINIBAYEV

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
ORGANLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lif vazirligi tomonidan yuridik oliy o'quv  
yurtlari uchun darslik sifatida ruxsat etilgan*

*Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr*

Toshkent 2005

**M-63**  
**67.99(5Y)9я73**

**M-63 Mirenskly B. A., Rahmonqulov A. X., Chinibayev H. J.**

O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari:  
Darslik / Mas'ul muharrir prof. M. M. Fayziyev. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – 215 b.

Darslikda «O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari» kursining predmeti va asosiy tushunchalari, sud hokimiysi, uning tuzilishi va vakolatlari, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasidagi sud tizimi, xo'jalik sudlari, harbiy sudlar, Konstitutsiyaviy sud, Adliya vazirligi, prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlash organlari, soliq tizimi, bojxona organlarining, advokatura va davlat, tijorat korxonalari, muassasalari, tashkilotlaridagi yuridik xizmatlar, notariat, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ning vazifalari, tuzilishi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Interpolning O'zbekistondagi Milliy markaziy byurosining faoliyat yo'nalishlariga alohida e'tibor beriladi.

Darslik O'zbekiston Respublikasi qonunlarining 2005 yil 1 iyulgacha bo'lgan holati bo'yicha tayyorlangan.

Yuridik oliy o'quv yurtlari va O'zbekiston Respublikasi IIV o'quv yurtlarining o'qituvchilari, aspirantlari, ad'yunktlari, talabalari, tinglovchilari va kursantlariga, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlarining tuzilishi va faoliyati bilan qiziqqan barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

**BBK 67.99(5Y)9я73+5367.99(5y)116.2я73**

**Mas'ul muharrir – prof. M. M. Fayziyev**

**Taqribchilar:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;

O'zbekiston Respublikasi Prokururaturasi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati instituti;

Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining  
huquqshunoslik kafedrasи.

268550

**NAMANGAN DAVLAT  
UNIVERSITETI  
Ahborot-resurs markazi**

## **SO‘Z BOSHI**

O‘zbekiston Respublikasida 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun mamlakatimizdagi ruh va zamonga mos keluvchi yangi darsliklar chiqarishni talab qilmoqda. O‘tkazilayotgan islohotlar boshqaruvning ma’muriy-buyruqbozlik usulini qo‘llash davrida keng tarqalgan huquqiy nigelizmni bartaraf etish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Mutaxassislarning bugungi huquqiy tayyorgarligi darajasi jamiyatni bezovta qilmasligi mumkin emas. Professional yuristlarning huquqiy tayyorgarligidagi jiddiy muammolar alohida tashvish tug‘diradi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha ishlarni yaxshilash to‘g‘risida»gi qarorida ta‘kidlab o‘tilgan edi. Bularning hammasi yuridik oliy o‘quv yurtlari va Ichki ishlar vazirligining o‘quv yurtlari uchun yangi darsliklar chiqarishni talab qiladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan muassasalarda talabalar, tinglovchilar va kursantlar o‘qishning birinchi kundianoq huquqni muhofaza qilish organlarining ishini tashkil etish masalalariga duch kelishadi. Shuning uchun «O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari» kursi birinchi bosqichdayoq o‘rganilishi tasodif emas. Mustaqillik davrida o‘zbek tilida bu kurs bo‘yicha darslik chiqarilmagan edi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qilish organlarida islohot davom etmoqda. U doimiy qayta tashkil etishlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular chuqur e’tibor va o‘rganishni talab qiladi.

«O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari» darsligi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Ilmiy kengashida 1996 yil sentabrida tasdiqlangan shu nomdagagi fan dasturiga muvofiq tayyorlangan. Darslikning asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezident Islom Karimovning nutqlari va asarlari, Oliy Majlisning qarorlari va qonunlaridan o‘rin olgan huquqiy davlat qurishga oid nazariy qoidalar tashkil qiladi. Darslikda qonunlar va mamlakatiimiz yuridik fanining 1991 yil sentabrdan buyon erishgan yutuqlaridan foydalaniildi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlariga taalluqli barcha asosiy kategoriyalar, tushunchalar va institutlar; sud hokimiyati masalalari, uning organlari, ushbu organlar faoliyati va tuzilishining asosiy prinsiplari, sudlar, adliya, prokuratura tizimlari va ularning tuzilishi ko‘rib chiqilgan. Birinchi marta Konstitutsiyaviy sud, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Interpol va Interpolning O‘zbekistondagi Milliy markaziy byurosi ishining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan. Advokatura, uning davlat organlari va jamoat birlashmalar bilan munosabatiga, shuningdek, davlat va tijorat korxonalari, muassasalari, tashkilotlarida yuridik xizmatni tashkil qilishga yetarlicha e’tibor berilgan. Shu bilan birga, muayyan huquqni muhofaza qilish organlari boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalar bilan o‘zaro hamkorlikda tavsiflanadi. Yangi darslikning chop etilishi davlatimiz huquqni muhofaza qilish organlari uchun mutaxassislar tayyorlashni yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

**O‘zbekiston Respublikasi  
ichki ishlar vaziri  
general-polkovnik  
Z. ALMATOV**

## **1-BOB**

### **«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI» KURSINING PREDMETI VA ASOSIY TUSHUNCHALARI**

#### **1.1. «O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari» fanining predmeti, uning boshqa yuridik fanlarni o'rganishdagi ahamiyati**

Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qonuniylik va huquq-tartibot himoyasida turgan huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatiga har doim e'tibor berib kelmoqda. Oliy Majlisning har sessiyasida qabul qilinayotgan qonunlar va Prezident I.A.Karimovning ko'plab ma'ruzalari bundan dalolat beradi. Aynan huquqni muhofaza qilish organlari mustaqil O'zbekistonning oyoqqa turishi hamda demokratislik huquqiy davlat qurishida tartib va barqarorlikni ta'minladilar.

Huquqni muhofaza qilish organlari – sud, prokuratura, adliya, milliy xavfsizlik, soliq, bojxona, shuningdek, advokatura, Interpolning Milliy markaziy byurosi (MMB), korxonalaridagi yuridik xizmatning paydo bo'lish va rivojlanishi tarixi hamda zamонавиy tuzilishi ushbu kursning o'rganish *predmetidir*. Ushbu fanda davlatning o'tish davridagi huquqni muhofaza qilish faoliyati, huquqni muhofaza qilish organlari va muassasalarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, ularni tashkil etish principlari ko'rib chiqiladi. Ularning vazifalari, tashkil bo'lish tartibi, tarkibi, tizimi hamda tuzilishi batafsil o'rganiladi.

O'rganish predmetiga huquqni muhofaza qilish organlarining tuzilishi, konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliya, jinoyat-protsessual va boshqa bir qator huquq sohalari ham kiradi. Masalan, konstitutsiyaviy huquq normalarida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va davlat tuzilishi, butun davlatning huquqni muhofaza qilish mexanizmini, jumladan, uning muhim organlari bo'lgan sud va prokuratura organlarini tuzish belgilab berilgan.

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida alohida o'quv fani sifatida o'rganilayotgan davlat xizmati tizimida sud va prokuratura muhim o'rinnegallaydi. Shu munosabat bilan, ularning o'mni, o'ziga xosligi, sud va prokuratura haqidagi konstitutsiyaviy huquq normalarining maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqib, konstitutsiyaviy huquqning sud tuzilishi va prokuror nazorati degan kichik tarmoqlari vujudga keldi. Ularning

predmeti sud va prokuraturani tashkil qilishni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy huquq sohasidir. Biroq sud tuzilishi haqidagi normalar faqat sudsarning tuzilishini tartibga soladi. Ularning odil sudlovni amalgaloshirish bo'yicha faoliyat esa huquqning mustaqil sohalari bo'lgan jinoyat-protsessual va fuqarolik-protsessual huquq tomonidan batatsil tartibga solingan. Ushbu kursda esa odil sudlov haqidagi umumiy qoidalar keltirilgan.

Prokuror nazorati haqidagi normalar faqat prokuraturaning tuzilishinigina emas, balki faoliyatini ham tartibga soladi. Ichki ishlar vazirligi o'quv yurtlarida alohida «Prokuror nazorati» degan fan o'rganilmasligini hisobga olib, ushbu kursda prokuraturaning tuzilishi va faoliyat tartibi kengroq yoritilgan.

Konstitutsiyaviy huquq normalarida, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xo'jalik sudi, harbiy suds, adliya, advokatura va korxonalardagi yuridik xizmatlarning vazifasi mustahkamlab qo'yilgan, shuningdek, davlat mexanizmida Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi kabi huquqni muhofaza qilish organlarining bo'lishi ko'zda tutilgan. Shundan kelib chiqib, ushbu organlar va tashkilotlarga tegishli konstitutsiyaviy huquq normalari mazkur kursning o'rganish predmeti hisoblanadi.

Xo'jalik suds, harbiy suds, adliya organlari, soliq inspeksiyalari va boshqa organlarning faoliyat huquqning boshqa sohalari bo'lmish ma'muriy, moliyaviy, fuqarolik-protsessual, jinoyat-protsessual huquqda kengroq o'rganiladi. Ma'muriy, moliyaviy, fuqarolik-protsessual, jinoyat-protsessual huquqning ko'rsatilgan organlar va tashkilotlarga tegishli bo'lgan qismi ushbu fanning o'rganish predmetidir.

Interpol vakolatiga kiradigan xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash masalalari xalqaro huquq normalari tomonidan tartibga solinadi. Uning Interpol ishimi tashkil etish bilan, ayniqsa, O'zbekiston Milliy markaziy byurosi bilan bog'liq bo'lgan normalari «O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlari» kursining o'rganish predmetidir.

Bu kursning boshqa yuridik fanlar uchun ahamiyati shundaki, u, avvalambor, ijtimoiy fan. Shu bilan birga, huquqni o'rganuvchi yuridik fan hamdir. Ushbu kurs tufayli tinglovchilar, kursantlar va talabalar mustaqil mamlakatimizning huquqni muhofaza qilish tizimini bilib oladilar. Bu fanning birinchi kursda o'qitilishi bejiz emas. U tufayli talabalar huquqning turli sohalariga «yaqinroq keladilar». Bunda huquqni muhofaza qilish organlari yagona davlat-huquqiy ustqurmasining tarkibiy qismi hisoblanadi. U barcha huquqiy g'oyalar va tashkilotlarni o'zarol hamkorlik, doimiy harakatdagi va rivojlanishdagi dialektik bog'liqlikda ko'rib chiqadi.

Bundan tashqari, huquqni muhofaza qilish organlari bilan muayyan tarixiy yondashuv asosidagina tanishib chiqish mumkin. Bu huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini belgilab beruvchi va sud-huquqiy islohotlarning zarurligini shart qilib qo'ygan ijtimoiy-iqtisodiy prinsiplarni aniqlab olishni taqozo qiladi.

«O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari» kursi huquqiy fandir. Chunki unda respublikamizning yuridik muassasalari huquq normalari asosida o'rganiladi. Huquqni muhofaza qilish organlarining tuzilishini belgilab beruvchi huquq sohalari va normalari huquqning boshqa sohalari bilan o'zaro aloqada. Ular shu bilan yuridik ta'limdagi huquqiy fanlarning, o'zaro aloqada bo'lishlariga asos yaratadi.

## **1.2. Huquqni muhofaza qilish organlarining O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimidagi o'rni**

Huquqni muhofaza qilish organlarining davlat organlari tizimidagi o'rni shu bilan belgilanadiki, ular davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasini bajarish uchun maxsus yaratilgan. Bu ularning asosiy va bosh vazifasidir. Shu bilan huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyati boshqa davlat va boshqaruv organlarining funksiyasidan ajralib turadi. Bu ularning davlat organlari bilan aloqasini istisno qilmaydi, lekin huquqni muhofaza qilish organlarining mustaqilligini talab qiladi.

Sud – hokimiyatning butun tarmog'ini tashkil etuvchi maxsus organ. Fuqarolarning huquqlarini qonunga zid ravishda buzuvchi mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan belgilangan tartibda sudga murojaat qilish mumkin.

Ma'muriyatning noto'g'ri xatti-harakati bilan bog'liq har qanday nizolarni ko'rib chiqishda sud ma'muriyat faoliyatining qonuniyligini tekshiradi. Noqonuniy bo'shatilgan xodimni ishga tiklash, yashash joyiga order noto'g'ri berilganligini tekshirish, fuqarolik holatlari noto'g'ri qayd etilganligi ustidan shikoyatni tekshirish jarayonida sud boshqaruv organlarining faoliyatidagi qonuniylikni tiklaydi. Bunday ishlar bo'yicha sud chiqargan qaror bu qaror yo'llangan boshqaruv organlari tomonidan bajarilishi shart.

Sudlar tashkilotlar o'rtasida xo'jalik shartnomalari tuzish jarayonida kelib chiqqan nizolarni hal etadi, davlat organlarining aktlarini noqonuniy deb topadi, zararni undirish masalasini hal qiladi va h.k.

Ma'muriy va jinoiy ishlar bo'yicha odil sudslovni amalga oshirish ham qat'iyan sudsarning vakolatidir. Shuning uchun ular ma'lum ma'noda jamiyatdagи axloqiy-ruhiy muhitni shakllantiradilar.

Sudlar faoliyatini ta'minlash *adliya organlari* – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya

vazirligi, respublikamiz viloyatlari va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular sudsarning o'z vazifasini bajarishida ularning mustaqilligi va faqat qonunga bo'y sunishlari prinsipiiga qat'iy amal qilinishini ta'minlaydilar.

Adliya vazirligi va uning organlariga sudsarning ishini takomillashtirish yuklatilgan. Ular tegishli xalq deputatlari kengashlariga sudlar, xo'jalik va harbiy sudsarning faoliyatini takomillashtirish, xalq maslahatchilarini saylash bo'yicha takliflar kiritadilar va tayyorlaydilar, sud xodimlarining malakasini oshiradilar, sud statistikasi, sud qarorlarini ijro etish bo'yicha ish olib boradilar, sudsarning mustaqilligini mustahkamlash choralarini ko'radilar.

Shundan kelib chiqib, Adliya vazirligi va uning organlari sudsarning ishini tashkil etishning asosiy yo'naliishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatadilar. Bunda ular sudsarning odil sudlovni sifatli amalga oshirishlariga sharoit yaratib beradi, sudlar ishlarida ilmiy asoslangan normativlarni va tashkiliy ishlarning eng yaxshi shakllari hamda usullarini joriy qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida prokuratura alohida o'rinn tutadi. U mamlakatimizning butun hududida qonunlarning fuqarolar, mansabdar va yuridik shaxslar tomonidan bir xilda tushuniishi va qo'llanilishini nazorat qiladi. Prokuratura organlari qonuniylik, markazlashganlik, birlik, oshkorlik va mustaqillik prinsiplari asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Ular davlat boshqaruvi organlari va mansabdar shaxslarning noqonuniy hujjatlari va harakatlari protest bildiradilar, noqonuniy harakatlarning oldini oladilar, qonun aniq buzilgan hollarda kamchiliklarni tugatishga ko'rsatma beradilar, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladilar, shu bilan birga, ularning xatti-harakatlaridagi qonuniylikni nazorat qiladilar.

Prokurorlar qonunlar va Oliy Majlis qabul qilgan qarorlarning hamda quyi turuvchi hokimiyat va boshqaruvi organlari qonun osti hujjatlarining bajaralishini qat'iy nazorat qiladilar, qonuniylik va huquq-tartibotning ta'minlanishi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradilar. Prokuraturaning buzilgan qonuniylikni tiklashga doir talablari davlat boshqaruvining barcha organlari tomonidan bajarilishi shart. Prokuratura boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan kundalik aloqada bo'lgan holda faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, ularning hujjatlari va harakatlari qonuniyligini nazorat qiladi. U qonuniylikni ta'minlash, qoidabuzarliklar va jinoyat-chilikka qarshi kurash bo'yicha birgalikdag'i harakatlarning yanada samaraliroq bo'lishi uchun barcha huquqni muhofaza qilish organlari ishini muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi *Ichki ishlar vazirligi* va uning organlari katta, murakkab tuzilishga ega. Bu huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatidan kelib chiqadi. Ichki ishlar vazirligi va uning organlarining muhim vazifasi – qonuniylik va huquq-tartibotni muntazam mustahkamlab borish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashishdir.

Ichki ishlar vazirligi va uning organlari operativ qidiruv faoliyatini tashkil qiladilar, o'z vakolatlaridagi ishlar bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovni ta'minlaydilar, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga, O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar hamda milliy xavfsizlikni saqlash bo'yicha boshqa tadbirlarning o'tkazilishiga ko'maklashadilar.

Ichki ishlar organlari ishining muhimligi huquqiy davlatni shakllantirish, O'zbekiston Respublikasida huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish zarurati, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha qat'iy tadbirlar ko'rish munosabati bilan oshib bormoqda.

*Milli xavfsizlik xizmati* (MXX) organlari va xodimlarining kuchg'ayrati xorijiy maxsus xizmatlar – razvedka-qo'poruvchilik faoliyatining oldini olishga, shuningdek, mayjud huquq-tartibotni buzish maqsadida dushmanlik kayfiyatida bo'lgan kuchlarning harakatlariga chek qo'yishga qaratilgan.

Amaldagi qonunlar va Jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra, MXX organlari tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi ishlar bo'yicha jinoyatlar (urushni targ'ib qilish, agressiya, davlatga xiyonat, josuslik, terrorchilik, qo'poruvchilik, kontrabanda)ni ochish va tergov qilish vazifikasi yuklatilgan. MXX, shuningdek, maxsus aloqa vositalarini xorijiy maxsus xizmatlardan, radioelektron va boshqa razvedkalardan himoya qilishni, ularning xavfsizligi va nazorati bo'yicha tashkiliy-huquqiy prinsiplarni ishlab chiqishni ta'minlaydi.

Milliy xavfsizlik xizmatining faoliyati turli hokimiyat va boshqaruv organlari, jumladan huquqni muhofaza qilish organlarining hamkorligida amalga oshiriladi. Bu MXX mamlakat ichida turli huquqni muhofaza qilish vazifalarini bajarishdan kelib chiqadi.

MXX organlari faoliyatining qonuniyligini (xuddi boshqa huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyati kabi) O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi nazorat qiladi. Prokuratura MXX tergovchilari tomonidan jinoi ishlar qo'zg'atish va tergov qilishning qonuniyligiga katta e'tibor beradi. Bunday ishlar sudlar va harbiy sudsarga kelib tushadi. Ular esa MXX organlari dastlabki tergovining sifatini tekshiradi.

O'zbekiston Respublikasining *soliq tizimi* Davlat soliq qo'mitasi, uning joylardagi organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Davlat soliq

bosh boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmalari, tuman, shahar va shaharlardagi davlat soliq inspeksiyalardan iborat.

Yuqoridaagi soliq organlari yagona davlat soliq siyosati o'tkazish, mamlakatimiz iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan.

Davlat soliq qo'mitasining o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari mahalliy hokimiyat organlari, vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar (qanday shakldaligidan qat'i nazar), fuqarolar tomonidan bajarilishi shart. Davlat soliq qo'mitasi soliq qonunlarini ta'minlash bora-sidagi yagona markaziy davlat organi hisoblanadi. Yagona soliq tizimining vazifalari quyidagilardan iborat:

- soliq to'g'risidagi qonunlarga rioya etilishi, davlat soliqlari, yig'imlari va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri to'lanishini nazorat qilish;

- mamlakatimizda o'tkazilayotgan soliq siyosatida bevosita ishtirok etish;

- soliq organlarining vakolatiga kiramagan qoidabuzartiklar bo'yicha surishtiruv o'tkazish;

- soliq organlarining xavfsizligini ta'minlash, xodimlarini o'z xizmat vazifalarini bajarayotganda g'ayrihuquqiy tajovuzlardan himoya qilish, ushbu faoliyatni huquqni muhofaza qilish organlari bilan muvofiqlashtirish;

- amaldagi qonunlar buzilganda, shuningdek, aybdorlarni javobgarlikka tortish davlat soliq organlarining vakolati doirasidan tashqariga chiqqanda tergov va sud organlariga materiallarni berish;

- soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha fuqarolarning va yuridik shaxslarning shikoyat va arizalarini belgilangan tartibda ko'rib chiqish;

- fuqarolar va yuridik shaxslarga ular soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar haqida, ularni o'z vaqtida to'lash haqida murojaat etganlarida bepul yordam va maslahatlar berish;

- budget majburiyatlarini bajarish tartibi haqida ma'lumotlar berish.

Soliq organlari xodimlarining xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilinishi mumkin. Soliq tizimi mansabdar shaxslari ustidan qilingan shikoyatlar yuqori turuvchi soliq organlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

*Bojxona organlari* O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi (DBQ), uning markaziy apparati, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalardan, maxsus bojxona komplekslaridan, bojxona komplekslari va bojxona postlaridan tashkil topgan. Shundan kelib chiqib, ushbu bo'linmalar Davlat bojxona qo'mitasining organlari tizimini tashkil qiladi.

Fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy yordamni advokatura hamda korxonalaragi yuridik xizmatlar ko'rsatadi. *Advokatura* fuqarolar va tashkilotlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, odil sudlovni amalga oshirish, qonuniylikni saqlash va mustahkamlash, fuqarolarni qonunlarni aniq va so'zsiz bajarish ruhidha tarbiyalash, barcha shakldagi mulkchilikka ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, boshqa shaxslarning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatiga hurmatda bo'lishga ko'maklashadi.

Advokatlar kollegiyasi advokatlik faoliyati bilan shug 'ullanuvchi shaxslarning ko'ngilli uyushmasi hisoblanadi. Advokatlar kollegiyasining a'zoligiga O'zbekiston Respublikasining oliv yuridik ma'lumotga ega va yurist mutaxassisligi bo'yicha kamida ikki yil ishlagan fuqarolari qabul qilinadi. Bunda ko'rsatilgan shaxslar sinov muddatini o'tash sharti bilan qabul qilinishlari ham mumkin.

Yuridik yordam bo'yicha ish hajmi kam bo'lgan joylarda va huquqiy yordam ko'rsatish maqsadida korxonalarda advokatlarga yurist-maslahatchi vazifasida ishlashga ham ruxsat etiladi.

Fuqarolar va tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha advokatlarning ishini tashkil qilish uchun tumanlar, shaharlar va boshqa aholi punktlarida yuridik maslahatxona punktlari ochiladi. Ularning joyi va xodimlarining soni advokatlar kollegiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyat hokimiyatlarining adliya boshqarmalari bilan kelishuviga ko'ra, advokatlar hay'ati tomonidan belgilanadi.

Davlat va tijorat korxonalarida, tashkilotlarda, muassasalarida yuridik xizmatlar amal qiladi. U bo'lim, bo'linma, katta yurist-maslahatchi, yuriskonsult bo'lishi mumkin.

*Yuridik xizmat* o'z faoliyati sohasida qonuniylikni ta'minlash bo'yicha turli vazifalarni bajarishi mumkin. Jumladan: huquqiy aktlarga amal qilishni yaxshilash bo'yicha choralar ishlab chiqadi; qonunlarni qo'llash amaliyotini umumlashtiradi va o'z rahbariyatiga tegishli tavsiyalar kiritadi; buyruqlar, ko'rsatmalar, topshiriqlarning loyihalari, shuningdek, huquqiy tusdagi boshqa hujjatlarning qonuniyligini tekshiradi; rahbariyatga eskirgan ko'rsatmalar va buyruqlarni o'zgartirish yoki bekor qilish, mazkur soha yoki tashkilotni boshqarish tizimi va tuzilishini takomillashtirish, xo'jalik shartnomalarini o'z vaqtida tuzish va bajarish bo'yicha ishlarni amalga oshirish haqidagi tavsiyalarini kiritadi; tarmoq yoki tashkilotdagи shartnomalarini yuzasidan ishlarni tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalarini ishlab chiqadi; turli shakldagi mulkchilikni saqlash bo'yicha tadbirlarni yaratishda qatnashadi va h.k.

*Interpol* xalqaro politsiya tashkilotidir. U jinoyatchilikka qarshi kurashni muvofiqlashtiradi. Interpolga a'zo davlatlarning XMKOlariiga jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa, bir mamlakat hududida jinoyat

qilgan jinoyatchi boshqa mamlakatda yashiringan yoki xalqaro jinoyatchilar guruhi jinoyat sodir etgan hollarda yordam beradi.

Interpolda ma'lumotlar va eng yaxshi kriminalistik vositalar, yangi texnikalar, jumladan, turli mamlakatlarning politsiyachilari foydalanadigan kompyuterlarning namunalari to'planadi. Interpol orqali uning a'zosi bo'lgan har qanday mamlakat u yoki bu texnika turini sotib olishda maslahat va yordam olishi mumkin.

Interpol jinoyatlarning yaxshi yo'lga qo'yilgan hisobotlariga ega. Uning ishida kontrabanda, narkobiznes, quroq sotish, qalbaki pul yasash, suratlar, ikonalar va boshqa milliy-madaniy buyumlarni o'g'irlashga qarshi kurash alohida o'rinn tutadi. Keyingi 10-15 yil ichida Interpol xalqaro terrorizmga ham qarshi kurasha boshladi.

Interpol siyosatdan tashqari turishga harakat qiladi va BMT bilan hamkorlik qilayotgan nohukumat tashkilotlardan biri hisoblanadi.

### **1.3. Huquqiy davlat nazariyasi – o'rganilayotgan fanning metodologik asosi**

«Huquqiy davlat» atamasi yuridik adabiyotda XVIII–XIX asrlarda Farbiy Yevropada vujudga keldi (J. Russo, G. Grotsiy, B. Spenoza, J. Lokk, I. Kant, SH. Monteskyo va b.). Gegelning fikriga ko'ra davlat ijtimoiy hayotning eng takomillashgan tashkiloti bo'lib, unda hamma narsa ro'yobga chiqqan erkinlik saltanatidan iborat huquqiy asosga quriladi.

Rossiyada huquqiy davlat termini M. Reysner tomonidan birinchi marta qo'llanilgan edi. U XX asr boshlarida huquqiy davlatning nazariy muammolarini ishlab chiqish bilari shug'ullangan edi. U bilan birgalikda V. Gessen, B. Kistyakovskiy kabi olimlar ham ushbu masalalar bilan shug'ullangan edilar.

Biz uchun Kistyakovskiy yaratgan huquqiy davlat nazariyasi qiziqish uyg'otadi. U «haqiqiy rivojlangan huquqiy davlatda kuchli hokimiyat va sof huquqiy hokimiyat mavjud. U mulk egalari tomonidan va bo'y-sunuvchilar tomonidan ham huquq normalariga so'zsiz amal qilinishini kafolatlaydi», degan edi. Kuchli hokimiysiz islohotlarni amalga oshirish, jamiyat hayotini demokratlashtirish mumkin emas. Shuning uchun davlatning majburlov kuchi bilan mustahkamlangan qonun davlatni huquqiy davlatga aylantiradi. Lekin davlat shaxsning daxlsizligiga nisbatan tajovuz qilsa, unday davlatni huquqiy deb atash mumkin emas. Davlat hokimiysi organlari «subyektiv ommaviy huquqqa ega bo'lgan fuqarolar unga qarshi tura olganda va hokimiyat shaxs huquqini poymol qilmaslikka asoslangandagina» huq'q normalari bilan bog'liq bo'ladi.

Shu bilan birga, ba'zi mualliflar haqli ravishda ta'kidlaydilarki, totalitar davlatchilikni baholashda sovet sotsialistik davlatchiligi qaysi qoidalar asosida huquqiy davlat qurishning asoslariga yondashgantiklarini obyektiv tahlil qilish va unga jo'yali javob berish zarur. Bunday yondashuv totalitarizm tug'dirgan ko'plab ko'ngilsizliklarning oqibatini bartaraf qilishga yordam beradi. Bunda shuni unutmaslik kerakki, aynan huquqni muhofaza qilish organlari totalitarizmning kuchli dastaklari edilar. Ularning o'zi xuddi shundayin huquqiy davlat qurish qurollari ham, ushbu davlatning ajralmas qismi ham bo'lislari mumkin.

«Huquqiy davlat» tushunchasini ishlab chiqishda asosiy e'tibor quyidagi belgilarga qaratilishi kerak: hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish; huquqning hukmonlik, davlatning huquqiy normalar bilan bog'liqligi, qonunning ustuvorligi; davlat va jamiyatning o'zaro mas'uliyati; shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning mosligi; insонning sha'ni, qadr-qimmati, fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, gumanizm,adolat va barchaning qonun oldida tengligi; umuminsoniy qadriyatlarni himoya qilish va mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar tomonidan qonunlarga aniq amal qilish.

Shubhasiz, huquqiy davlatning barcha jihatlarini chuqurroq tahlil qilish jarayonida uning ilgari hech kimga ma'lum bo'Imagan xususiyatlari ochilib boraveradi. Bu xususiyatlar «qonuniylik», «qonunga itoatgo'ylik» kabi tushunchalar va ularni kundalik hayotga joriy qilish bilan chambarchas bog'liq.

Huquqiy davlatda hukm, farmonlar fuqaroga nisbatan munosabatlarda qonunni aniq bajarishga ularni qanday majbur etsalar, fuqarolar xudi shunday tartibda ularni bajarishlari lozim bo'ladi. Ya'ni qonuniylik va huquq-tartibot huquqiy davlatning asosi bo'lmog'i kerak.

Qonuniylik va huquq-tartibot biror jamiyatga ilgaridan xos bo'lgan aynan bir narsa emas. Ularni yaratish va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan o'rnatish zarur. O'tish davrida O'zbekiston Respublikasida qonuniylikni mustahkamlash uchun katta ishlar qilinmoqda. Tarixiy faktlar va mustaqillikka erishgan mamlakatimizda qonuniylikni tiklash va mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar ana shundan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat qurish g'oyasi u huquqiy kafolatlar bilan ta'minlangandagina amalga oshishi mumkin bo'ladi. Bular qonunchilikni doimiy takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish organlarining barcha bo'g'inlarini mustahkainlash, odamlar huquqiy ongini doimiy o'stirish, jamiyatning huquqiy daniyatini oshirish va qulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yaratishdir.

## **1.4. Kursning asosiy tushunchalari**

Qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Qonuniylik va huquq-tartibot jamiyatimiz siyosiy tizimining muhim qismidir. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida belgilab qo'yilgan, ya'ni davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi». Shunday qilib, «qonuniylik» butun siyosiy tizimni, davlat faoliyatini va ijtimoiy hayotni tashkil etuvchi eng umumiyl tushunchadir.

«Qonuniylik» tushunchasining mazmuni o'z ichiga quyidagilarni oladi: Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, ularning ko'rsatmalarini barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishini ta'minlash. «O'zbekiston Respublikasida, – deyiladi Konstitutsiyaning 15-moddasida, – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar».

*Huquq-tartibot* – ijtimoiy munosabatlarning shunday holatiki, unda qonuniylikning real amalga oshirilishi namoyon bo'ladi. Quyidagi xususiyatlar unga xosdir:

- ijtimoiy munosabatlarning qatnashchilari bo'lgan mansabdar shaxslar va fuqarolarning qonunlar va huquq normalarini qonun oldidagi tenglik asosida bajarishi;

- davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslar tomonidan davlat va ijtimoiy hokimiyat funksiyalarining qonunga to'la mos ravishda, ularning vakolatlari hamda qonunlar va huquqiy ko'rsatmalar asosida amalga oshirilishi;

- manfaatdar shaxslar tomonidan huquqning barcha shakllarini amalga oshirish, jumladan, uni qo'llash, unga amal qilish, bo'ysunish;

- qonun va huquqni, biror shaxsnинг subyektiv huquqlarini buzgan, o'z majburiyatlarini bajarmagan har qanday kishining jamiyat va davlat oldida teng va to'la javobgarligi;

- huquqbazarliklarni bartaraf etish va oldini olish maqsadida huquq va davlat majburlovin vakolatl davlat organlari, tashkilotlar hamda mansabdar shaxslar tomonidan samarali qo'llash;

- huquqni muhofaza qilish organlarining qonuniylik, fuqarolar, tashkilotlar, davlat va jamiyatning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan tezkor, samarali va qonuniy faoliyati.

Qonuniylik va huquq-tartibotning kafolati huquqni muhofaza qilish faoliyatidir. Bunday faoliyatning yo'nalishlari turlicha, lekin ulardan bir nechta asosiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

*Odil sudlov* – huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishi. Uni faqat sud alohida protsessual tartibda, huquqbazarlarga nisbatan davlat

majburlovini, jumladan, jinoiy jazoni qo'llash orqali amalga oshiradi. Hech qanday davlat organi yoki jamoat birlashmasi sud kabi vakolatlarga ega emas. Shuning uchun sud huquqni muhofaza qilish organlari piramidasining boshida turadi hamda qonuniylik va huquq-tartibotni saqlashning asosiy quroli hisoblanadi.

*Prokuror nazorati* O'zbekiston Respublikasi bosh prokurori va unga bo'yusunuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi hamda davlat boshqaruv organlarining, jamoat birlashmalarining noqonuniy xatti-harakatlariga protest bildirish va ularni bekor qilish, fuqarolar va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlarining oldini olishga qaratiladi.

*Dastlabki tergov* – tergovchilarning jinoyatlarning oldini olish, ularni ochish bo'yicha hamda jinoyatchilarni fosh etish, ularni sudga berish yoki aybdorlarni reabilitatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat.

Fuqarolar va tashkilotlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, avvalambor, advokatura tomonidan amalga oshiriladi. Advokatlar huquqiy masalalarda maslahatlar beradi, turli ish qog'ozlarini to'ldiradi, sudda jinoiy va ma'muriy ishlar bo'yicha himoyachi sifatida hamda fuqarolik ishlarida vakil sifatida qatnashadilar.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida huquqni muhofaza qilishning bir shakli bo'lgan huquqiy faoliyat xo'jalik sudlari va davlat, tijorat tashkilotlari, muassasalari, korxonalarining yuridik xizmatlari zimmasiga yuklatilgan. Yurist-maslahatchilar shartnomalar tuzish, buyruqlarni rasmiylashtirish, xodimlarga maslahatlar berish orqali huquqtartibotga ko'maklashadilar.

O'rganilayotgan kursning asosiy tushunchalari shulardan iborat. Bundan shakllangan ijtimoiy munosabatlarni buzgan shaxslarga nisbatan majburlovni qo'llash bilan shug'ullanuvchi davlat organlari va jamoat birlashmalarini huquqni muhofaza qilish organlariga kiradi, deb xulosa qilish mumkin. Ular qonunga binoan va tegishli shakllarda qonuniylikni va huquq-tartibotni ta'minlaydilar, fuqarolar, jamoalar, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar.

## **2-BOB**

### **SUD HOKIMIYATI, UNING TUZILISHI VA VAKOLATLARI**

#### **2.1. «Sud hokimiyati» tushunchasi**

Konstitutsiyaning 106-moddasiga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi».

Sud hokimiyati hokimiyatlarning bo'linish nazariyasida ham, amaliyotda ham alohida o'rinn tutadi. Xorijiy va o'z adabiyotlarimizda ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyatlarning bog'liqligi va hatto ba'zan bir-birlariga qo'shilib ketishlarining foydaliligi yoki maqsadga muvofiq emasligi haqidagi bahslar uchrab tursa-da, sud hokimiyatiga kelganda ochiq fikrga erishilganlik ko'rinish turibdi. Uning funksiyasi juda aniq belgilab berilgan. Sud muassasalari davlat tuzilishining mustaqil tuzilmalaridir. Qayerdaki hokimiyatlarning bo'linishi doktrinasi qabul qilingan va konstitutsiyaviy tarzda amalga oshirilayotgan bo'lsa, ushbu davlatda hokimiyat to'la va izchil namoyon bo'ladi.

Sud ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotga, insonning maqoriiga, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir kishida o'zining sudga murojaati mustaqil, obyektiv va adolatli qaror bilan yakunlanishiga qat'iy ishonch bo'lishi kerak. Aslida sudga murojaat qilish huquqiy davlat sharoitida odamlarning xatti-harakatidagi odatiy hol hisoblanadi.

Konstitutsiyamizda sud hokimiyatiga bag'ishlangan maxsus bob mavjud. Mamlakatimiz Asosiy qonuni sud hokimiyati vakolatlariga kiradigan quyidagi masalalarni belgilab bergen:

- qonunlarni ro'yobga chiqarish va qonuniylikni himoya qilish sohasida mustaqillik va sud hokimiyatining ustuvorligi;
- sndlarni tashkil qilish prinsiplari va sudyalar maqomining asoslari;
- demokratik odil sudlovning asosiy g'oyalari;
- sndlар faoliyatining prinsiplari;
- fuqarolar huquq va erkinliklarining odil sudlov sohasida kafolatlanganligi.

Konstitutsiya sndlarni o'tkazishda sud ishlarini yuritishning quyidagi prinsiplarini mustahkamlab qo'ygan:

- 1) sndlarning mustaqilligi va sudyalarning daxlsizligi (106, 108-m);

2) sndlarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi (112-m);

3) sudyalarning deputatlik mandati bilan birga olib borilmasligi (108, 112-m);

4) hamma sndlarda ishlarning ochiq va oshkora ko'riliishi (ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi (113-m);

- sud ishlarning o'zbek, qoraqalpoq tili yoki muayyan joylardagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tillarda olib borilishi (115-m);

- tergov va sud ishlarning har qanday bosqichida advokatlarning qatnashishi (116-m);

- sud hokimiyati hujjatlarining barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishining majburiyligi (109, 110, 114-m)

Sovet davrida sud an'anaviy tarzda shunchaki huquqni muhofaza qilish organi sifatida qaralardi. Huquqiy davlatda esa bunday munosabatga yo'l qo'yilmaydi. Sud oddiy huquqni muhofaza qilish organi emas, balki to'la huquqli davlat hokimiyati subyektidir. U adolat ifodasi va to'la ma'noda qonun himoyachisidir. Sud inson o'z taraqqiyoti davomida yaratgan eng oliy yutuqlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi (1992 y.) bilan sud va huquq islohotlariga keng yo'l ochildi. Bu islohotlarning bosh vazifasi sudsning mustaqilligini ta'minlash va fuqarolarning huquq va erkinliklarini kengaytirishdir. Konstitutsiyada bunga asos yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 13-sessiyasi (1993 y. 2 sentabr) «Sudlar to'g'risida»gi qonun va Xo'jalik protsessual kodeksni qabul qildi, shuningdek, «Harbiy sndlarning faoliyatini to'g'risida»gi, «Sudyalar malaka hay'ati to'g'risida»gi, «Sudyalar malaka darajasi to'g'risida»gi, «Sudyalar mansab darajalari to'g'risida»gi nizomlarni tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 16-sessiyasi (1994 y. 22 sentabr) Jinoyat-protsessual kodeksni qabul qildi. U dastlabki tergov bilan birgalikda butun sud faoliyatini tartibga solib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 30 avgustdagi ikkinchi chaqiriq uchinchi sessiyasida «Sudlar to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri bиринчи o'qishda qabul qilindi. Bu qonun 2000 yilning 14 dekabrida Oliy Majlisning sessiyasida qabul qilindi va hozirda amal qilmoqda.

Aytib o'tilgan huquqiy hujjatlar sud hokimiyatini yanada mustahkamlashning kafolatidir. Jumladan, «Sudlar to'g'risida»gi qonunda odil sudslov asoslari va respublika sud tizimi, ularning muhim vazifalari va

269550

demokratik sudlovning asosiy prinsiplari belgilab berilgan. Konstitutsiyadan so'ng «Sudlar to'g'risida»gi qonun ilk bor aybsizlik prezumpsiyasini mustahkamlab qo'ydi. Bu prinsip shuni bildiradi, tergovdag'i yoki sudlanayotgan shaxs o'z aybsizligini isbot qilishi shart emas. «Ayblanuvchi uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha, aybsiz hisoblanadi», – deyiladi ushbu qonunning 9-moddasida.

«Sudlar to'g'risida»gi qonun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining, viloyat sudlarining, harbiy sudlarning, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining, viloyat xo'jalik sudlarining maqomini belgilab berdi. Qonunda sudyalar maqomiga maxsus bob bag'ishlangan.

Odil sudlovni amalga oshirish amaldagi qonunlar tomonidan himoya qilinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida odil sudlovga qarshi qilingan jinoyatlar uchun (16-bob), Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda esa odil sudlovga qilingan tajovuzlar uchun (14-bob) javobgarlik nazarda tutilgan.

Shunday qilib, sud hokimiyatining amalda ta'minlanishi qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, shuningdek, ma'lum ma'noda hayotimizdagi keng miqyosli o'zgarishlarga ham ko'p jihatdan ta'sir qiladi.

## 2.2. Sudyalarning maqomi

O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga egadirlar va faqat vakolatlari hamda huquq doirasi bo'yicha o'zarlo farqlanadilar. O'zbekiston Respublikasining 25 yoshga to'lgan, oliy yuridik ma'lumotli, huquq ixtisosligi bo'yicha kamida uch yil mehnat stajiga ega bo'lgan, malaka imtihonini topshirgan fuqarosi tuman (shahar) sudi, xo'jalik sudi sudyasi etib tayinlanishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotli, huquq ixtisosni bo'yicha kamida besh yillik, jumladan, odatda sudyalik lavozimida kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, Qurolli Kuchlar harbiy sudi sudyasi etib tayinlanishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotli, huquq ixtisosni bo'yicha kamida yetti yillik, jumladan, odatda sudyalik lavozimida kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan mamlakatimiz fuqarosi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi sudyasi etib saylanishi mumkin.

Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy unvonga ega, belgilangan talablariga javob beruvchi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi harbiy sud sudyasi etib tayinlanishi mumkin. Harbiy sudlar sudyalariga O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni, harbiy nizomlar, harbiy xizmatchilar uchun belgilangan va «Sudlar to'g'risida»gi qonunda ko'zda tutilgan huquqiy va ijtimoiy himoya choralarini tafbiq qilinadi. Fuqarolarning yashash yoki ish joylaridagi yig'ilishlarida ochiq ovoz berish yo'li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O'zbekiston Respublikasining 25 yoshga to'lgan fuqarosi xalq maslahatchisi bo'lishi mumkin. Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan, saylov kunigacha 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy sudning xalq maslahatchisi bo'lishi mumkin. Bunday xalq maslahatchilari harbiy qism xizmatchilarining yig'ilishlarida ochiq ovoz berish yo'li bilan bir yarim yil muddatga saylanadilar.

Har bir sud uchun xalq maslahatchilari soni respublika adliya vaziri tomonidan belgilanadi. Ular sndlarga o'z vazifalarini bajarish uchun yiliga ko'pi bilan ikki haftaga navbatma-navbat chaqiriladilar, ularning ishtirokida boshlangan sudlov ishini ko'rib chiqishni tugallash zarurati tug'ilganidagi bu muddatni uzaytirish hollari bundan mustasnodir. Shu davrda ularning ish joyidagi o'rtacha ish haqi korxona, tashkilot, muassasaning mulkchilik shaklidan qat'i nazar, saqlab qolinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi sudyalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga binoan Oliy Majlis tomonidan saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadilar yoki tayinlanadilar.

Viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman (shahar) sudlari sudyalari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan, xo'jalik sudlari sudyalari esa – Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadilar.

Harbiy sudlar sudyalari O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka

komissiyasining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan tayinlanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi sudyalarining soni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan, Oliy Majlis tomonidan viloyat sndlari, Toshkent shahar sudi, tuman (shahar), harbiy, xo'jalik sndlari sudyalarining soni esa tegishlicha O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri, Oliy sudi raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Ilk bor sudyalik lavozimiga tayinlangan (saylangan) shaxs odil sudlovnii amalga oshirishda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni halol va vijdonan bajarishga, tantanali qasamyod qiladi.

Sudyalar odil sudlovnii amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan o'z farmoyishlarining bajarilishini mansabdar shaxslar va fuqarolardan talab qilishga, davlat idoralari va jamoat birlashmalari, ilmiy muassasalar va axborot markazlaridan ma'lumotlar talab qilib olishga haqli. Davlat idoralari, jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyaning odil sudlovnii amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan talab va farmoyishlarini so'zsiz bajarishlari shart. Odil sudlovnii amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, hujjatlar va ularning nusxalari sudyaning so'roviga muvofiq bepul beriladi. Sudyaning talab va farmoyishlarini bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalar fuqarolik, jinoiy, xo'jalik va ma'muriy ishlarni ko'rish chog'ida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmati va mulklari, korxona, muassasa va tashkilotlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashlari, beg'araz va odil bo'lishlari shart. Sudyalar o'z vazifalarini bajarish chog'ida, shuningdek, xizmatdan tashqari munosabatlarda odil sudloving obro'sini to'kadigan, sudyalik qadr-qimmatiga yoki uning xolisligiga shubha tug'diradigan har qanday xatti-harakatdan o'zlarini tiyishlari kerak. Sudyalarning o'zaro maslahat sirini hamda yopiq sud majlislari o'tkazish vaqtida olingan ma'lumotlarni oshkor qilishlari man etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi sudyalar Oliy Majlis deputati bo'lolmaydilar. Bundan tashqari, barcha sudyalar siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishlari hamda boshqa haq

to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas. O'zbekiston Respublikasida Sudyalar assotsiatsiyasi faoliyat ko'rsatadi.

### **2.3. Sudyalar mustaqilligining asosiy kafolatlari**

Sudyalarning mustaqilligi ularni qonun bilan belgilangan tartibda saylash, tayinlash va ozod qilish; sudyalar daxlsizligi; odil sudloving qat'iy tartibda amalga oshirilishi; qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi; sudga hurmatsizlik yoki muayyan ishlarni hal qilishga aralashish, sudyalar daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik; sudyaga uning oliv maqomiga munosib ravishda davlat hisobidan moddiy va ijtimoiy ta'minot belgilash orqali ta'minlanadi.

Davlat idoralari va boshqa tashkilotlar, muassasalar, mansabdor shaxslar, fuqarolar sudyalar mustaqilligini hurmat qilishlari va shunga rivoja etishlari shart. Sudyaga hurmatsizlik bildirish, shuningdek, uni ochiqdan-ochiq mensimaslikdan dalolat beruvchi harakatlar qilish qonunga binoan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarning odil sudlovnvi amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Muayyan ishni har tomonlama, to'la va xolisona ko'rishga to'sqinlik qilish yoki g'ayriqonuniy sud qarori chiqarilishiga erishish maqsadida sudyalarga qanday tarzda bo'lmasin ta'sir o'tkazish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyadan ko'nigan yoki sudlovida bo'lgan ishlar mohiyati bo'yicha tushuntirishlar berishni, shuningdek, qonun hujjatlarda ko'zda tutilgan hollardan tashqari, kim bo'lmasin, ishni tanishib chiqish uchun taqdim etishni talab etish taqiqlanadi. Ommaviy axborot vositalari o'z xabarlarida muayyan ish yuzasidan sud muhokamasi natijalarini oldindan bashorat qilishga yoki sudga boshqacha tarzda ta'sir etishga haqli emas.

Sudyalarning shaxsi daxlsiz. Sudyalar daxlsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, foydalanadigan transport va aloqa vositalariga, uning xat-xabarlariga, unga tegishli mulklar va hujjatlarga ham taalluqlidir. Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularga tegishlichcha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi, adliya vaziri tomonidan belgilangan ro'yxatga binoan, o'qotar quroq beriladi. Zarur hollarda esa, tegishli sud raisining qaroriga binoan, ichki ishlarni organi sudyalar va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi.

Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Sudya tegishlicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining roziligesiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas. Sudyani ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishga tegishli malaka hay'atining roziliqi bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

Sudyaning turar joyiga yoki xizmat xonasiga, uning shaxsiy yoki foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazish yoki ashyoni olish, telefonda so'zlashuvini eshitish, sudyani ko'zdan kechirish va uni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek, unga tegishli mulklar va hujjatlarni, xat-xabarlarini ko'zdan kechirish yoki olishga faqat Qoraqlopg'iston Respublikasi prokurorining, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorining, Qurolli Kuchlar harbiy prokurorining ruxsatiga yoki sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Tuman (shahar) sudi, garnizon harbiy sudi sudyasiga nisbatan jinoyat ishi – yuqori turuvchi sud sudloviga, boshqa sudlar sudyalariga nisbatan esa – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga tegishli. Xalq maslahatchilari sudda o'z vazifalarini bajarayotgan davrda sudyalar daxlsizligining barcha kafolatlaridan foydalanadilar.

Sudyalar jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda, vakolatlari to'xtatiladi. Sudyalarning vakolati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va adliya vazirining birgalidagi taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari va harbiy sudlar sudyalarining vakolati – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining, xo'jalik sudlari sudyalarining vakolati esa – Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan, quyidagi hollarda sudyalarning tegishli malaka hay'ati qaroriga asosan to'xtatiladi: sudya lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa; sudya tibbiy tartibdag'i majburiy davolash choralariga tortilgan yoki qonuniy kuchga kirgan sud qarori yoki ajrim bilan muomala layoqati cheklansa; sudya qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan bedarak yo'qolgan deb topilsa. Bunda sudyaning vakolati uni to'xtatishga sabab bo'lgan asos tugagunga qadar to'xtatiladi.

Sudyaning vakolati quyidagi hollarda tugatiladi: u sudyalik qasamyodini buzganda; yozma arizasiga ko'ra; tegishli sudyalar malaka hay'ati tomonidan qilingan ogohlantirish yoki vakolatinig to'xtatilishiga qaramasdan, o'z lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanishni davom etirganda; sudyaning qonuniy kuchga kirgan qaroriga asosan muomalaga

layoqatsiz deb topilsa; sudya O'zbekiston fuqaroligini yo'qotgan taqdirda; unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi mavjud bo'lsa; sudning qonuniy kuchga kirgan qaroriga ko'ra o'lgan deb e'lon qilingan taqdirda; salomatligi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra, uzoq vaqt davomida sudyalik vazifasini bajarolmay qolgan bo'lsa va nihoyat sudya vafot etgan bo'lsa.

### **3-BOB KONSTITUTSIYAVIY SUD**

#### **3.1. Konstitutsiyaviy sudning O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlari tizimidagi o'rni. Uning vakolatlari**

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi 1995 yil 30 avgust qonunga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatlari hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish bo'yicha sud hokimiyati organidir. Uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

– O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qabul qilgan boshqa hujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlash;

– Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xusosa berish;

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh berish;

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan o'z vakolatidagi boshqa ishlarni ham ko'rib chiqish.

Konstitutsiyaviy sud ishlarni hal qiladi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'ian amal qilgan holda xulosa beradi. Konstitutsiyaviy sud Oliy Majlis Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga binoan rais, rais o'rinosarları va beshta sud a'zolaridan iborat tarkibda (Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyasini ham hisobga olgan holda) saylanadi. Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanadi. Oliy Majlis Senati a'zolarining ko'pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi.

Sud o'z tarkibining kamida to'rt a'zosi saylanishi bilan faoliyatga kirishishi mumkin. Sudya Konstitutsiyaviy sud tarkibidan chiqqanda Oliy Majlis Senatining o'rniga boshqa shaxsni saylaydi.

Konstitutsiyaning 107-moddasiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud besh yil muddatga saylanadi va doimiy amal qiluvchi organ hisoblanadi. Uning majlislari zarur hollarda o'tkaziladi.

Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplari mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasiga amal qilish, mustaqillik, kollegiallik, oshkoraliq va sudyalar huquqining tengligidir.

Ta'kidlanganidek, Konstitutsiyaviy sud va uning sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar, faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'yusunadilar. Sudyalar qaror chiqarar ekanlar, siyosiy mansublik va boshqa ta'sirlardan xoli bo'lgan o'z huquqiy pozitsiyalarini bildiradilar. Konstitutsiyaviy sudning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bu qonunga mos ravishda javobgarlikka olib keladi.

Ishlarni ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish Konstitutsiyaviy sud tomonidan kamida to'rt suda tarkibida kollegial hal qilinadi. Sud majlislari, qoida tariqasida, ochiq o'tkaziladi. Ishlarning Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko'rib chiqilish va ovoz berishda rais, rais o'rinnbosari va Konstitutsiyaviy sud a'zolari teng huquqqa ega. Konstitutsiyaviy sud qarorlari barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir. Uning normativ hujjatlarni, hujjatlar va ularning nusxalarini berish haqidagi, ko'rيلayotgan masalalar to'g'risida maslahatlar berish haqidagi talablari barcha organlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiyidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud qonun tashabbusi huquqiga ega. Konstitutsiyaviy sud faoliyatining tartibi 1995 yil avgustda qabul qilingan Konstitutsiyaviy sud to'g'risidagi qonun bilan belgilanadi. Konstitutsiyaviy sud o'z tashabbusiga ko'ra har qanday davlat organi, jamoat birlashmasining normativ hujjatlari Konstitutsiyaga mos ekanligini ko'rib chiqish huquqiga ega.

Konstitutsiyaviy sud reglamentida normativ hujjatlarning konstitutsiyaviligi prinsipi nazarda tutilgan. Masalalarni ko'rib chiqishda sud qonunlar, davlatlararo shartnomalar va O'zbekiston Respublikasining boshqa majburiyatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda mahalliy davlat organlarining normativ hujjatlari konstitutsiyaviligi prezumpsiyasidan kelib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyyati hujjatlarining konstitutsiyaviligi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha faoliyati Konstitutsiya normalarini sharhash bilan uzviy bog'liq. Konstitutsiya normalarini sharhash bilan ushbu normalarning mazmuni va mohiyatini tushunishning birligi va barqarorligiga erishiladi. Chunki ular huquqiy davlat asosini tashkil qiladi va bevosita qo'llanilishi shart.

Konstitutsiyaviy sud qonunda belgilangan shaxslarning taklifiga binoan ishlarni ko'rib chiqadi. Bunday huquqqa, O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti, Senat Raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Qonunchilik palatasining deputatlar umumiy sonining to'rtadan birini tashkil qilgan deputatlar guruhi, Oliy sud raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ega. Alovida fuqarolarga Konstitutsiyaviy sudga bevosita murojaat qilishga ruxsat berilmagan. Zarur hollarda ular bunday huquq berilgan organlar va shaxslar orqali murojaat qilishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining yurisdiksiyasi qonuniy kuchga kirgan normativ hujjalarga ham taalluqlidir. Bu sud preventiv nazoratni amalga oshirmaydi. Lekin u qonun loyihalari va takliflarni muhokama qilishda maslahat ovoziga ega holda qatnashishi mumkin.

Konstitutsiyaviy emas deb topilgan qonunlar va normativ hujjalalar e'lon qilingan kunidan boshlab yuridik kuchga ega emas deb hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari qat'iy va ular ustidan shikoyatga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud agar qaror qabul qilingan paytda ishning yangi holatlari ochilgan bo'lsa yoki u qabul qilgan konstitutsiyaviy norma o'zgargan bo'lsa, o'z qarorlarini o'zi qayta ko'rib chiqishi mumkin.

### **3.2. Konstitutsiyaviy sudni saylash tartibi, uning tarkibi va tuzilishi hamda hisoboti**

Siyosat va huquq sohasi mutaxassisi bo'lgan, yuksak ma'naviy fazilat va zarur malakaga ega O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylanishi mumkin. Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylangan shaxs quyidagi mazmunda qasamyod qiladi:

«Konstitutsiyaviy sudning sudyasi vazifalarini halol va vijdoran bajarishta, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishga, bunda faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunishga tantanali qasamyod qilaman». Konstitutsiyaviy sudning sudyalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qildiradi.

Konstitutsiyaviy sudning sudyasi vazifalarini bajargan vaqtida deputatlik mandatiga ega bo'lish, siyosiy partiyalarga va harakatlarga a'zolik, haq to'lanadigan boshqa lavozimni egallashi mumkin emas. Konstitutsiyaviy sudning sudyasi o'z vakolatlari davrida almashtirilmaydi. Sudyaning vakolatlari «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunda belgilangan tartib hamda asoslardan o'zga tarzda tugatilishi yoki to'xtatilishi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudning sudyasi Senatning rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi yoki unga sud tomonidan ma'muriy jazo chorralari berilishi mumkin emas. Konstitutsiyaviy sudning sudyasiga nisbatan jinoiy ish faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Konstitutsiyaviy sud sudyasini majburiy

keltirish, ushlab turish, shuningdek, shaxsiy ashylari, yuki, transporti, turar joyi yoki xizmat binosini ko'zdan kechirish mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari quyidagi hollarda to'xtatilishi mumkin:

- u jinoiy javobgarlikka tortilganda;
- u sudyu lavozimiga to'g'ri kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullannganida;
- sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan u bedarak yo'qolgan deb hisoblanganida.

Lekin sudyaning vakolatlarini to'xtatish, sudyani ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olish hollarini istisno etganda, unga ish haqi to'lashning to'xtatilishiga sabab bo'lmaydi va uni daxlsizlik kafolatlaridan mahrum etmaydi.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari quyidagi hollarda Senat qarori bilan muddatidan ilgari tugatiladi:

- u sudyalik qasamyodini buzganda;
- u iste'foga chiqish to'g'risida iltimos qilganida
- unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi mavjud bo'lsa;
- sudyu ogohlantirilganidan yoki uning vakolatlari to'xtatilganidan keyin ham o'z vazifasiga to'g'ri kelmaydigan faoliyatni davom ettirganida;
- tibbiy komissiyaning xulosasiga ko'ra sudyu uzoq davom etadigan kasallikka uchragan bo'lsa;
- sudyu O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganida.

Konstitutsiyaviy sud sudyasi uchun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamma narsadan ustun. Konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishda sudyu Konstitutsiya talablari va o'z vijdoniga ko'ra ish yuritadi. Hech qanday «oliy adolat» Konstitutsiyadan ustun qo'yilmasligi kerak. Sudya faoliyati va xulqi bilan mansabdor shaxslar va fuqarolarda Konstitutsiyaga hurmatni shakllantirishi, qonunga itoatgo'ylik namunalarini ko'rsatishi kerak. O'z burchini bajarish sudyu uchun boshqa har qanday faoliyatdan ustun turadi. Shuning uchun sudyu jamoatchilik fikri ta'siridan xoli bo'lishi kerak.

Sudya, kim bo'lishidan qat'i nazar, biror shaxsning manfaatlarini Konstitutsiyaga zid ravishda qondirishga haqli emas. Sudya do'stlar va tanishlar orttirishda ehtiyyot bo'lishi, uning obro'sini to'kadigan aloqalardan xoli bo'lishi kerak. Har qanday holda u o'z harakatlarini o'ylab amalga oshirishi, uning oqibatlarini ko'ra bilishi, ularning Konstitutsiya va axloq qoidalariga to'g'ri kelishini o'yashi kerak.

Sudya uni Konstitutsiyani buzganlikda, o‘z xizmat mavqeini suiiste’mol qilganlikda, ishlarni ko‘rib chiqishda g‘arazgo‘ylik qilishda jamoa oldida ayblastghan hollarda bunday ayblarni e’tiborsiz qoldirmasligi lozim va asossiz ayblastghanlarida o‘z hamkasblarining qo‘llab-quvvatlashlariga umid qilishlari kerak.

O‘z xizmat vazifasini bajarayotganda, shuningdek, xizmatdan tashqari hollarda fuqarolar bilan munosabatda umumaxloq qoidalariga rioya qilishi lozim, munosabatda xushmuomalalik, sabrlilik, barchaga barobarlik, prinsipiiallik, boshqalarning nuqtai nazarlarini tinglay olish va tushunish, aytilayotgan fikrlarining mulohazaligi uni boshqalardan ajratib turishi kerak. U o‘z hamkasblari va kotibiyat xodimlarini shunga undashi lozim.

Konstitutsiyaviy sudda o‘rganilayotgan yoki ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha qaror qabul qilingunicha sudya jamoatchilik oldida ushbu masalalar bo‘yicha o‘z fikrini aytishga haqli emas. Shuningdek, u ko‘rilayotgan masalalar haqida qarorlar kuchga kirmagunicha jamoatchilik oldida izoh berishga yoxud o‘z xizmat mavqeidan foydalanib, Konstitutsiyaviy suddan tashqarida nizolar va bahslarni hal qilishda hakam yoki boshqa vositachi sifatida chiqishga haqli emas. O‘z moliyaviy va boshqa aloqalarini amalga oshirishda sudya ishning natijalariga ta’siri bo‘lishi mumkinligini o‘ylab, ehtiyyot bo‘lishi talab etiladi. Sudya mutazam ravishda o‘z kasbiy mahoratini oshirib borishi lozim. U ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishi hamda qonunlarni takomillashtirishga qaratilgan ishlarda qatnashishi mumkin.

Sudya boshqa sudyani tanqid qilishdan o‘zini tiyishi kerak. U biror usul (so‘z, ishora, yuz ifodasi) bilan protsessning biror qatnashchisiga o‘z munosabatini bildirmasligi lozim. Sudya ochiq sud majlislarida olingan axborotlardan tashqari, o‘z xizmat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq axborotlarga nisbatan kasbiy sir saqlashga majbur.

Mansab yoki boshqa turdag‘ jinoyat sodir etganligi uchun sudya qonunga muvofiq, javobgarlikka tortiladi, Konstitutsiyaviy sudning obro‘sini to‘kadigan qilmishi uchun esa uning vakolatlari to‘xtatilishi yoki qonunda belgilangan tartibda tugatilishi mumkin. Bunda Konstitutsiyaviy sudning obro‘sini to‘kadigan harakat yoki harakatsizlik deb shu anglashiladiki, u o‘z xususiyatiga ko‘ra jinoyat deb hisoblanmasa-da, sudya degan yuqori nomga to‘g‘ri kelmaydi va uning o‘z vakolatlarini kelgusida davom ettirishiga imkon bermaydi. Masalan, umum qabul qilingan axloq normalarini qo‘pol ravishda buzish; qonunni qasddan buzish; doimiy ravishda o‘z qasamyodiga noloyiq harakat yoki harakatsizlik sodir etish va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining bosh mansabdor shaxsi – uning raisi. Rais quyidagilarni amalga oshiradi:

- Konstitutsiyaviy sud majlisini tayyorlashga rahbarlik qiladi;
- Konstitutsiyaviy sud e'tiboriga havola qilinayotgan masalalar «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunning 1, 19-moddalariga to'g'ri kelmaganda, arizalarni ishni ko'rib chiqishning iloji yo'qligi yoki rasmiylashtirishdagi kamchiliklarni ko'rsatgan holda, qaytarib yuboradi;
- Konstitutsiyaviy sudga uning majlisida ko'riliishi kerak bo'lgan masalalarni taqdim etadi;
- Konstitutsiyaviy sudni chaqiradi va uning majlisida raislik qiladi;
- Konstitutsiyaviy sud raisi o'rinnbosarlarining vazifalarini belgilaydi, ushbu sud sudyalariga topshiriqlar beradi va Konstitutsiyaviy sudga uning sudyalari o'rtaisdagi majburiyatlarni taqsimlash bo'yicha taqdimnomalarini kiritadi;
- Konstitutsiyaviy sud apparatining umumiy ishiga rahbarlik qiladi, xizmatchilar va kichik xizmatchi xodimlarni ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;
- Konstitutsiyaviy sudga Konstitutsiyaviy sud apparati, uning tuzilishi, shtatlar jadvali haqidagi nizomni hamda bo'limlar va ushbu sud apparatining boshqa bo'limlari haqidagi qoidalarni taqdim etadi;
- mamlakatimiz qonunlariga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud haqidagi boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi bo'lmagan, uning vakolatlari tugatilgan yoki uning zimmasidan olib tashlangan hollarda Konstitutsiyaviy sud raisi vazifalarini sudyalardan biri vaqtinchada bajaradi.

Konstitutsiyaviy sud raisining o'rinnbosarlarini uning vazifalarini uning topshirig'iga ko'ra, shuningdek, rais bo'lmaganda, vakolatlari tugatilganda to'xtatilganda va bekor qilinganda bajaradi.

Konstitutsiyaviy sud qoshida ilmiy maslahat kengashi faoliyat ko'rsatadi. U taniqli yurist olimlar va amaliyotchilar, qonunchilik sohalaridagi boshqa mutaxassislardan tashkil topadi. Bu kengash maslahat organi hisoblanadi.

### **3.3. Konstitutsiyavly sudda ishni tashkil qilish**

O'zbekiston Respublikasi parlamenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat Raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy tarkibining kamida to'rtdan bir qismidan iborat deputatlar guruhi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining Raisi va Bosh prokuror Konstitutsiyaviy sudda ko'rib chiqish uchun masalalar kiritish

huquqiga egadirlar. Masala Konstitutsiyaviy sudning kamida uch sudyasi tashabbusi bilan ham kiritilishi mumkin.

Agar olingan materiallar qo'yilayotgan talablarga javob bersa, Konstitutsiyaviy sud ular olingan kundan e'tiboran yetti kunlik muddatdan kechiktirmay masalani o'rganib chiqishga kirishadi. Konstitutsiyaviy sudda tegishli material olingan paytdan boshlab kechi bilan uch oy ichida ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud majlisini tayyorlash ushbu sud raisining rahbarligida o'tkaziladi. Sud ko'rib chiqishi kerak bo'lgan masalalar oldindan o'rganib chiqilishi lozim. Rais masalani o'rganib chiqishni bir yoki bir necha sudyaga topshiradi va uning tugallanish muddatini belgilaydi. Masalani o'rganib chiqqan sudyu ma'lumotnomma tuzadi va bu haqda Konstitutsiyaviy sud raisiga, lozim hollarda esa, sud majlisiga xabar qiladi.

Sud raisi masalani ko'rib chiqish, qaror, xulosa yoki boshqa to'xtamga kelish loyihasini tayyorlash hamda materiallarni bayon qilish uchun ma'ruzachi sudyu tayinlaydi. Odatda, masalani dastlabki tarzda o'rganib chiqqan sudyu ma'ruzachi bo'ladi. U zarur hujjatlar, materiallarni berish, tekshiruvlar, tadqiqotlar o'tkazishni talab qilish, mutaxassislarning maslahatlarini olish, so'rov jo'natish huquqiga ega. Ma'ruzachi sudyu, Konstitutsiyaviy sud raisi o'rinnbosari majlisiga topshirilishi kerak bo'lgan ishlar toifasini belgilaydi, majlis o'tkaziladigan vaqt va joy haqida xabar beradi, shuningdek, ishtirokchilarga zarur materiallarni jo'natishga buyruq beradi.

Konstitutsiyaviy sud majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat raisi, uning o'rinnbosarlari, Bosh vazir, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va adliya vaziri qatnashishlari mumkin. Ular ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bayon etishga haqlidirlar.

Konstitutsiyaviy sudda ish yuritish O'zbekiston Respublikasi davlat tilida amalga oshiriladi. Davlat tilini bilmaydigan majlis qatnashchilari o'z ona tilida so'zga chiqishlari va tushuntirishlar berishlari hamda tarjimon xizmatidan foydalanishlari mumkin. Konstitutsiyaviy sudga ishlarni ko'rish munosabati bilan jaib etilgan ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlarga, qonun hujjatlariga muvofiq, haq to'lanadi.

Konstitutsiyaviy sudning masalalarni ko'rib chiqish tartibi quyidagicha: belgilangan vaqtida raislik qiluvchi sud majlisini ochadi va unda ko'rib chiqiladigan masalalarni e'lon qiladi, sudyalarning yig'ilganligini aniqlaydi va bayonlashtirishning ta'minlanishini tekshiradi.

Bayonnomada quyidagilar bo‘lishi kerak: majlisning o‘tkazilish o‘rni va joyi, uning boshlanish va tugallanish vaqt; qatnashayotgan sudyalar va qatnashmayotgan sudyalarning soni (har birining qatnashmayotganligi sababi va bunday sabablarning noma‘lumligi ko‘rsatilgan holda); raislik qiluvchining familiyasi va lavozimi; ko‘rib chiqilayotgan masalalarning bayoni; majlis qatnashchilari haqidagi ma’lumotlar; Konstitutsiyaviy sud harakatlari va ularning natijalari haqidagi ma’lumotlar; majlis qatnashchilarining tushuntirishlari va chiqishlari; guvohlar va ekspertlarning qasamyodi haqidagi belgi; majlis qatnashchilari, guvohlar, ekspertlarga berilgan savollar va ularning javoblari; qatnashchilar bayonnomada qayd etib qo‘yilishini talab qilgan faktlarning ko‘rsatilishi; Konstitutsiyaviy sudga nisbatan hurmatsizlik bildirilgan holatlar yoki boshqa protsessual qoidabuzarliklarning qayd etilganligi; yig‘ilishda sudyalar bildirgan fikrlar; sudyalarning ovoz berishiga qo‘yilgan masalalar va ovoz berish natijalari.

Agar Konstitutsiyaviy sud ko‘rilayotgan masala bo‘yicha Konstitutsiyaviy sud sudyalari bo‘limgan shaxslar ishtirokisiz maslahat o‘tkazish yoki ovoz berish haqida qaror qilsa, maslahatda sudyalar bildirgan fikrlar, ovozga qo‘yilgan masalalar va ovoz berish natijalari alohida bayonnomaga yoziladi. Uning mazmuni oshkor qilinmaydi. Bayonnomaning to‘liq bo‘lishini ta’minalash uchun stenografiyadan foydalanish mumkin. Stenografik yozuv bayonnomaga ilova qilinmaydi.

Sud majlisi paytida ovoz yozish, videoyozuv yoki kinoga olish mumkin. Bunday holda fonogramma, videoplyonka yoki kinoplyonka bayonnomaga uning bir qismi sifatida ilova qilinadi. Bu haqda bayonnomaga yozib qo‘yiladi.

Bayonnomaga yig‘ilish tugagach, uch kun ichida tuzilishi kerak. Unga Konstitutsiyaviy sud raisi imzo chekadi..

Konstitutsiyaviy sud majlisida taraflar va ularning vakillari ishtirok etadi. Bular quyidagilardir:

- konstitutsiyaga muvofiqligi tekshirilayotgan normativ hujjatlarni chiqargan yoki xalqaro shartnomalarga imzo chekkan davlat organlarining vakillari;

- xalqaro shartnomaga yoki normativ hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish yoxud xulosa berish haqida taqdimnomasi yuborgan davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslar, shuningdek, ularning vakillari;

- taraflarning ishonchiga ko‘ra, yuridik soha bo‘yicha ilmiy darajaga ega advokatlar va shaxslar.

Taraflar Konstitutsiyaviy sud chaqirushi bo‘yicha hozir bo‘lishlari va savollarga javob berishlari shart.

Konstitutsiyaviy sud majlisiga Oliy sud raisi, Bosh prokuror, adliya vaziri, shuningdek, tomonlar va ularning vakillarining kelmasligi ishni ko'rib chiqish, qaror chiqarish, xulosa berish va boshqa to'xtamga kelishga to'sqinlik qilmaydi.

Sud majlisini ochgach, raislik qiluvchi kun tartibi bo'yicha ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan masalalarni ketma-ket e'lon qiladi. Konstitutsiyaviy sud kun tartibining ketma-ketligini o'zgartirishi ham mumkin.

Shundan so'ng, raislik qiluvchi taraflar, guvohlar, ekspertlarning kelganligini tekshiradi, ularning vakolatlariga ishonch hosil qiladi. Agar ulardan birortasi kelmagan yoki vakillarning hujjatlari to'g'ri rasmiylashtirilmagan bo'lsa, raislik qiluvchi ishni ko'rib chiqishning mumkin yoki mumkin emasligi to'g'risidagi masalani ovozga qo'yadi. Agar sud ishni ko'rib chiqish mumkin emas deb topsa, u keyinga qoldiriladi.

Raislik qiluvchi taraflarga huquq va majburiyatlarini, chaqirilgan shaxslarga majburiyatlarini va javobgarligini tushuntirishi shart.

Har bir masalani ko'rib chiqish ma'ruzachi-sudyaning chiqishidan boshlanadi. U masalaning mohiyatini bayon qiladi, ko'rib chiqilishi sabab va asoslarini, mavjud materiallarning mazmunini ko'rsatib beradi, masalani ko'rish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar haqida xabar beradi. Ma'ruzachi-sudyaga Konstitutsiyaviy sud sudyalar savollar berishlari mumkin.

Shundan so'ng taraflarning izohlari tinglanishi lozim. Sudyalar va boshqa ishtirokchilar ularga savollar berishi mumkin. Zarur bo'lganda, sud guvohlar va ekspertlarning ko'rsatmalarini tinglaydi, ularga savollar beradi. Bu taklif etilgan shaxstarga ham taalluqli. Sud majlisida hujjatlarni oshkor qilinishi mumkin. Tushuntirishlar, ko'rsatmalar va hujjatlarni o'rganib chiqqandan so'ng Konstitutsiyaviy sud Oliy sud raisi, Bosh prokuror, adliya vaziri va tomonlarning yakuniy nutqlarini (agar ular so'zlashni xohlasalar) eshitadi.

Masala yetarlicha oydinlashganida raislik qiluvchi sudyalar maslahatini ochiq deb e'lon qiladi. Aksincha bo'lganda esa, raislik qiluvchi o'z tashabbusi yoki sudyalardan birortasining talabi bo'yicha muhokama etishni qayta tiklash yoki keyinga qoldirish haqidagi masalani ovozga qo'yadi. Maslahat davomida sudyalar ko'rilayotgan masala bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini erkin bayon qilishi va boshqa sudyalarning nuqtai nazarlarini so'rashi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviyligi shubha tug'dirgan ko'rib chiqqilayotgan aniq masalalar yuzasidangina to'xtamga keladi. U normativ hujjatning konstitutsiyaviyligini tekshirib, bir vaqtning o'zida tekshirilgan normativ hujjatga asoslangan yoxud uning qoidalarini takrorlaydigan normativ hujjatlar xususida ham, garchi Konstitutsiyaviy sud qarab

chiqishi uchun kiritilgan masalada ular xususida so'z yuritilmagan bo'lsa-da, to'xtamga kelishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sudning to'xtami ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Sudya ovoz berishda betaraf qolishga yoki qatnashmaslikka haqli emas. Majlisda qatnashayotgan sudyalarining ko'pchiligi yoqlab ovoz bergan bo'lsa, Konstitutsiyaviy sudning to'xtami qabul qilingan deb hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudning to'xtamiga qo'shilmagan Konstitutsiyaviy sudning sudyasi o'z fikrini yozma tarzda bayon qilish va uni Konstitutsiyaviy sud majlisi bayonnomasiga qo'shib qo'yishga haqli.

Davlatlararo shartnomaning va normativ hujjatning konstitutsiyaviligi yuzasidan ko'rib chiqilgan ishning mohiyati bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning to'xtami *qaror* deb ataladi. Qarorlar Konstitutsiyaviy sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi. Boshqa hollarda Konstitutsiyaviy sudning to'xtami *xulosa* deb ataladi yoki boshqacha shaklda ham bo'lishi mumkin.

Har qanday holatda Konstitutsiyaviy sud qarori asoslangan bo'lishi lozim. Alovida hujjat hisoblanmish bu qarorda masalalar xususiyatidan kelib chiqib, quyidagi ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- qarorning nomi, vaqtি va qabul qilingan joyi;
- qaror qabul qilgan Konstitutsiyaviy sudning tarkibi, taraflar va ularning vakillari, ko'rileyotgan masalaning bayoni, uni ko'rib chiqish sababli;
- ushbu masalani ko'rib chiqish uchun Konstitutsiyaviy sudning huquqini belgilovchi Konstitutsiya va «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunning normalari;
- taqdimmoma yoki so'rovdagи talablar;
- konstitutsiyaviligi tekshirilayotgan shartnoma yoki normativ hujjatlarning to'liq nomi (u e'lon qilingan yoki olingan manba ko'rsatilgan holda);
- mansabdor shaxsnинг konstitutsiyaviligi tekshirilgan qarori, Konstitutsiyaviy sud chiqargan qarorga kelingan sabablar, zarur bo'lganda esa boshqa fikrlarni rad etuvchi sabablar;
- konstitutsiyavilikni baholashda Konstitutsiyaviy sud asoslangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normasi;
- qarorning qisqacha bayoni, bajarilish tartibi va muddati, e'lon qilinish xususiyati, qarorning qat'iyligi, shikoyatga o'rinn yo'qligi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari, xulosalari va boshqa to'xtamlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi va matbuotda e'lon qilingan paytdan kuchga kiradi.

Konstitutsiyaviy sudning to'xtami uning o'z tashabbusi bilan quyidagi hollarda qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin: to'xtamga qabul qilingan

paytda Konstitutsiyaviy sudga noma'lum bo'lgan yangi muhim holatlar ochilsa; to'xtam qabul qilinishiga asos bo'lgan konstitutsiyaviy norma o'zgargan bo'lsa; Konstitutsiyaviy sud ushbu to'xtam ish yuritish tartibi buzilgan holda qabul qilingan deb topsa.

Konstitutsiyaviy sud o'zining alohida hujjat holida chiqarilgan to'xtamini u chiqarilgan kundan boshlab bir oydan kam bo'lmagan muddat ichida quyidagi adresatlarga yuboradi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyalariga;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisiga;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga;
- O'zbekiston Respublikasi adliya vaziriga;
- taraflarga.

Konstitutsiyaviy sudning majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nashri bo'ladi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari sudlov ishini maxsus kiyimda olib boradilar.

#### **4-BOB**

### **FUQAROLIK, JINOIY VA MA'MURIY SUD ISHLARI SOHASIDAGI SUD HOKIMIYATI ORGANLARI, XO'JALIK SUDLARI, HARBIY SUDLAR**

#### **4.1. O'zbekiston Respublikasining sud tizimi**

Konstitutsiyaning 107-moddasiga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasi ning sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat». Biroq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 14 avgustdag'i «Sud tizimini takomillashtirish» to'g'risidagi farmoniga binoan, 2001 yilning 1 avgustidan boshlab mayjud umumiy yurisdiksiya sudlari negizida Qoraqalpog'iston Respublikasi Fuqarolik ishlari bo'yicha oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar; Qoraqalpog'iston Respublikasi Jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) Jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tashkil qilindi.

Yuqorida sanab o'tilgan sudlar birgalikda sud tizimini tashkil qiladi. Ular Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek, demokratik prinsiplarga asoslangan hamda O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishini hisobga olgan holda Oliy sud rahbarligida faoliyat ko'rsatadilar.

Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish asoslari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasida belgilab qo'yilganidek, alohida qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qoida «Sudlar to'g'risidagi» qonunning 1-moddasida ham takrorlangan bo'lib, sud tizimiga boshqa biror jamoat yoki davlat organlari kirmaydi.

Tashkiliy aloqalar sudlarning tuzilishi to'g'risidagi qonunlar bilan, funksional aloqalar esa fuqarolik, protsessual, jinoiy va ma'muriy protsessual qonunlar bilan boshqarib boriladi. Barcha sudlar sud tizimining turli organlari tarzida o'zaro bog'langan. Bir bo'g'inda bir xil vakolatga ega sudlar joylashgan (masalan, Toshkent shahridagi tumanlar sudlari va Samarqand, Andijon shaharlardagi shahar sudlari).

Sud tizimi uchun uning bo'g'inlari orasidagi aloqalar bilan birgalikda funksional aloqalar ham katta ahamiyatga ega. Bu aloqalar shundan kelib chiqqanki, sud sud faoliyati bilan birga bir necha faoliyatni, ya'ni birinchi,

ikkinchi instansiyadagi yoki nazorat instansiyasi funksiyalarini amalga oshiradi.

«Bo‘g‘in» va «instansiya» tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Lekin ularni almashtirib yubormaslik kerak. «Bo‘g‘in» – sud tuzilishiga oid tushunchadir. U sudning sud tizimidagi o‘rnini (uning ma’lum hududdagi faoliyatidan kelib chiqib) belgilaydi.

«Instansiya» – sud ishlarini yuritishga oid tushuncha. U sudda ishlarni ko‘rib chiqishning maqsadidan kelib chiqadigan sud faoliyatining turiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi ancha murakkab bo‘lib, uch bo‘g‘indan iborat. Chunki mamlakatning tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va 12 ta viloyat kiradi. Bundan tashqari, Toshkent shahar sudi viloyat sudi mavqeiga ega va poytaxt hududidagi tuman sudlariga nisbatan yuqori turuvchi organ hisoblanadi.

Shuningdek, Toshkent shahar Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi, Toshkent shahar Jinoyat ishlari bo‘yicha sudi, viloyat Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari bilan teng huquqiy mavqega ega bo‘lib, poytaxt tumanlari va tumanlararo sudlar ustidan yuqori turuvchi hisoblanadi.

Ikkinchi pog‘onani Qoraqalpog‘iston Respublikasi Fuqarolik ishlari bo‘yicha oliy sudi, viloyatlardagi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar, Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jinoyat ishlari bo‘yicha oliy sudi, viloyatlar Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari, Toshkent shahar Jinoyat ishlari bo‘yicha sudi tashkil qiladi.

Sud tizimining birinchi bo‘g‘ini tuman va shahar sudlaridir. Ular barcha fuqarolik va ma’muriy ishlarni, jinoiy ishlarning ko‘pini ko‘rib chiqadi. Ikkinchi bo‘g‘inni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudlari va Toshkent shahar sudi tashkil qiladi. Uchinchi bo‘g‘in – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi. Ularni shu tariqa uch bo‘g‘inga bo‘lish yagona sud tizimining buzilishi emas. Chunki barcha sudlar bir xil prinsiplar, bir xil qonunlar asosida faoliyat ko‘rsatadi, yagona vazifani bajaradi.

Sud tizimimizning yana bir xususiyati shundaki, ularning barchasiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rahbarlik qiladi. Konstitutsiyaning 110-moddasida: «O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi – fuqarolik, jinoiy va ma’muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat’iy va Respublikaning barcha hududida bajarilishi majburiy. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, shahar va tuman sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega», – deyilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi harbiy sudlar ustidan ham to'la nazoratni amalga oshiradi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 107-moddasida «Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi» – deb yozib qo'yilgan. Shu tariqa tarixda o'ta salbiy iz qoldirgan (alovida uchliklar, harbiy dala sudlari va h.k.) favqulodda sudlar yaratilishining oldi olingan.

«Instansiya» deganda, ma'lum sud funksiyasini bajarishga vakolatlari bo'lgan, ya'ni ishlarni mohiyatan ko'rib chiqish yoki sud hujjatlarini kassatsion yoxud nazorat tartibida tekshirish vakolati bo'igan sud organlari tushuniladi.

Bu yerda gap u yoki bu sudning funksiyalari haqida bormoqda. Masalan, Toshkentdagi tuman sudi faqat bir funksiyani – birinchi instansiya sudi, Toshkent shahar sudi esa uchta sud funksiyasini: birinchi, ikkinchi va nazorat instansiyalari funksiyasini bajaradi. Agar birinchi instansiyadagi sud ishni mohiyatan ko'rib chiqsa, ikkinchi yoki nazorat instansiyasidagi sud birinchi instansiyadagi sudning hukmi qonuniyligi va asosliligini tekshiradi.

Umumiy qoidaga ko'ra, ish birinchi va ikkinchi instansiyalarda ko'rib chiqilishi mumkin. Nazorat tartibida ishni qayta ko'rib chiqish uchinchi instansiya hisoblanmaydi, chunki bunga istisno tariqasida yo'l qo'yiladi.

Ikkinci yoki nazorat instansiyasida ishlarni ko'rib chiqar ekanlar, sudlar amalda quyi turuvchi sudlarning ishlariga rahbarlik qiladilar. Bu birinchi instansiyadagi sudlar ko'rib chiqadigan ishlarning ahamiyati kam yoki noto'g'ri degani mas. Instansiyalar bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishga kengroq to'xtalamiz.

Ishni birinchi instansiyadagi sudning ko'rib chiqishi mohiyatan olganda ayblanuvchini sud qilish yoki oglash (jinoiy ishlarda), da'voni rad etish (fuqarolik ishlarida) maqsadida ishning muhokama etilishidir. Birinchi instansiyadagi ishlarni barcha sudlar o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqadilar. Murakkabroq ishlar to O'zbekiston Respublikasi Oliy sudigacha bo'igan yuqori turuvchi sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ishlarni mohiyatan ko'rib chiqishning xususiyati shundaki, sud xalq maslahatchilarining ishtirokida yoki ishtirokisiz dalil-isbotlarni tahlil qiladi va ish uchun zarur bo'lgan barcha faktlarni aniqlaydi. Bunda ishga aloqasi bo'lgan barcha shaxslar qatnashadilar. Jinoiy ishni ko'rib chiqishning yakuni bo'yicha sud hukm chiqaradi, fuqarolik ishi bo'yicha esa qaror chiqaradi.

Sud hujjatlari barqarordir. Shuning uchun birinchi instansiya sudi o'z qarori yoki hukmini o'zi o'zgartira olmaydi. Kassatsiya shikoyati yoki protest berilgan taqdirda ularning asoslangan-asoslanmaganligidan qat'i nazar, ish ikkinchi instansiyadagi sudda ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasida tuman yoki shahar sudlari uchun ikkinchi instansiyadagi

sud Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar sudlari, Toshkent shahar sudlaridir, keyingi sanab o'tilganlari uchun esa – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudidir.

Kassatsiya tartibida faqat kassatsiya shikoyati va kassatsiya protestiga asoslangan ishlargina ko'rib chiqiladi. Ikkinci instansiyadagi sud ishni uch sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqadi. Ulardan biri rais, ikkinchisi esa ma'ruzachi bo'ladi. Ma'ruzachi-sudya birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukmi, hal qiluv qarori yoki ajrimining qonuniyligi va asoslanganligini tekshiradi.

Kassatsiya instansiyasi hukm yoki qarorni to'g'ri deb topgan hollarda uni o'zgartirishsiz qoldiradi, kassatsion shikoyat yoki protestni qondirmaydi. Agar birinchi instansiya sudining hukmi yoki qarori ish materiallariga to'g'ri kelmasa, noqonuniy chiqarilgan bo'lsa, ikkinchi instansiya sudi ularni bekor qiladi va ishni yangitdan ko'rib chiqish uchun o'sha sudning o'ziga (lekin endi sudyalarning tarkibi o'zgargan bo'ladi) yoki boshqa sudga yuboradi.

Shu bilan birga, ikkinchi instansiyadagi sud FPK va JPKda ko'rsatilgan asoslarga binoan, qaror yoki hukmni bekor qilish paytida ishni to'xtatishi, jinoiy ishni qayta tergovga yuborishi mumkin, shuningdek, qaror yoki hukmni to'la bekor qilmay, ma'lum qismini o'zgartirishi mumkin. Bunda ikkinchi instansiyadagi sud ajrim chiqaradi. U darhol kuchga kiradi va kassatsion tarzdagi shikoyatga ham, protestga ham o'rinn qolmazdi. U faqat sud nazorati tartibida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Ikkinci instansiyadagi sud taftish xususiyatiga ham ega. Bu shunda ko'rindiki, u qaror yoki hukmni bekor qila turib, quyi sudlar yo'l qo'ygan xatolarni ko'rsatadi, o'z qarorining asoslanganligini isbotlaydi. Ikkinci instansiyadagi sudning ko'rsatmalari quyi sudlar uchun majburiydir.

Ikkinci instansiyadagi sud qaror yoki hukmni bekor qilish bo'yicha o'z huquqini amalga oshirar ekan, haqiqatan ham u sud nazorati funksiyasini bajaradi. Uning bu sohadagi faoliyatni sud amaliyoti uchun rahbarlik va yo'naltiruvchilik ahamiyatiga ega. Shu o'rinda sud hujjatlarining qonuniyligini nazorat qilishni prokuror nazoratidan ajrata bilish kerak.

Qonuniy kuchga kirgan qaror yoki hukm bajarilishi shart. Ular kassatsiya tartibida rad etilishi, kassatsiya shikoyati yoki ikkinchi instansiyadagi sudga kassatsiya tartibida shikoyat qilinishi mumkin emas. Bu ko'rsatilgan sud hujjatlari noqonuniy va asoslanmagan bo'lishi mumkin emasligini kafolatlaydi. Nazorat tartibida sud ishlarini qayta ko'rib chiqishning alohida tartibi joriy qilingan.

Bunday qayta ko'rib chiqish qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlariiga taalluqli bo'lganligi tufayli, unga faqat istisno tariqasidagina yo'l qo'yiladi. Bunday hollar maxsus protsessual qonunlarda nazarda tutilgan.

Birinchidan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, hukm, ajrim yoki qarorni<sup>n</sup> nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlarida huquq berilgan prokuror, sud raisi, ularning o'rinnbosarlarining protestlariga ko'ra amalga oshiriladi. Quyidagilar protest keltirish huquqiga ega:

a) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Oliy sud raisi, ularning birinchi o'rinnbosarları va o'rinnbosarları, Oliy sud plenumi qaroridan tashqari O'zbekiston Respublikasi barcha sudlarining qarorlariga, hukmlariga, ajrimlariga va qarorlariga;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat prokurori, Toshkent shahar prokurori, unga tenglashtirilgan prokurorlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Fuqarolik ishlari bo'yicha oliv sudi raisi, viloyat fuqarolik ishlari bo'yicha sud raisi, Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sud raisi tegishlichcha ishni ko'rib chiqqan tuman, tumanlararo yoki shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarori yoki ajrimlariga kassatsiya tartibida qaror chiqaradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jinoyat ishlari bo'yicha oliv sudi raisi, viloyat Jinoyat ishlari bo'yicha sud raisi hukm va ajrimlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jinoyat ishlari bo'yicha oliv sudi, viloyat Jinoyat ishlari bo'yicha oliv sudi, Toshkent shahar Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarining qarorlariga tegishlichcha kassatsiya tartibida qarorlar chiqaradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining raisi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining raislari tuman yoki shahar sudlarining qarorlari, hukmlari va ajrimlariga, tegishlichcha sud kollegiyalarining fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha ajrimlariga kassatsiya tartibida qarorlar chiqaradi.

Protest keltirgan shaxs uni qaytarib olish huquqiga ham ega. Prokuror keltirgan protest yuqori turuvchi prokuror tomonidan chaqirib olinishi mumkin. Protestni prokurorning qaytarib olishiga faqat ishni ko'rish boshlangunicha yo'l qo'yiladi.

Ikkinchidan, nazorat tartibida ishni qayta ko'rib chiqish faqat viloyat, Toshkent shahar sudlari rayosatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining kollegiyalarida, rayosatida va plenumidagina mumkin.

Nazorat tartibida ishni ko'rib chiqish o'z xususiyatlariga ega. Muhokama, xalq maslahatchilarisiz va odatda, ishdan manfaatdor bo'lgan shaxslarsiz amalga oshiriladi. Sudning nazorat instansiysi ishini ko'rib chiqib, protest bildirilgan sud hujjatlarini o'zgarishsiz qoldirishi,

noqonuniy sud hujjatlarini bekor qilishi yoki o'zgartirishi mumkin. Nazorat instansiyalari ham xuddi kassatsion instansiylar kabi rahbarlik va yo'naltiruvchilik rolini o'yaydi. Ular quyi turuvchi sndlarning hujjatlarini asosizligi yoxud noqonuniyligini ko'rsatgan holda, bekor qilishi yoki o'zgartirishi mumkin.

Bundan tashqari, nazorat instansiysi quyi turuvchi sudga ishni ko'rib chiqishning yo'llarini belgilab berishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida nazorat tartibida ko'rib chiqilgan ba'zi ishlar «Qonun nomi bilan» jurnalida (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi axborotnomasi) yoki mamlakatimizda chiqarilayotgan boshqa yuridik jurnallarda e'lon qilinadi. Bu qonunlarning sudyalar tomonidan eng to'g'ri tushunilishi va ularning malakasi oshishiga xizmat qiladi.

#### **4.2. Sudlarni tashkil qilish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari**

Sudlarni tashkil qilish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari – davlat faoliyati ushbu turining muhim tomonlarini belgilab beruvchi umumiy rahbariy, asosiy boshlang'ich qoidalaridir. Bunday qoidalar sud faoliyatini tashkil etish, uning jamiyatimiz siyosiy tizimi va davlat mexanizmidagi o'rni, ahamiyati masalalari bo'yicha qonun ko'rsatmalariga asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qoidalar sud hokimiyatining alohida jihatlari bo'yic'a aniq qonun-qoidalar uchun tayanch bo'lgan bazasini tashkil qiladi.

Asosiy prinsiplarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ularda qoidalar faqat qonunlarga amal qilishi kerak bo'lgan fuqarolar, mansabdor shaxslar va organlar uchungina emas, balki o'z huquq ijodkorligi faoliyatları davomida sndlarning ishini tashkil etish bo'yicha mavjud demokratik talablar bilan hisoblashishi kerak bo'lgan qonun chiqaruvchi organlar uchun ham majburiydir.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda yangi tahrirda qabul qilgan «Sudlar to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, sudlarni tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– odil sudlovning faqat sndlар tomonidan amalga oshirilishi, sud hokimiyatining mustaqilligi;

- sud hujjatlarining majburiyligi;
- fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi;
- sudlovning oshkorligi;
- sudlov olib boriladigan til;
- sudda himoyalanish huquqi;
- aybsizlik prezumpsiyasi;

Ulardan har birini alohida holda qisqacha ko'rib chiqamiz.

Mamlakatimizda odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi. Boshqa hech kimga insonlarni sud qilish huquqi berilmagan. Faqat sudgina sud hokimiyatini namoyon qiladi, qarorlar, hukmlar, ajrimlar chiqarishi mumkin.

Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'y sunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sud ularning birini boshqasidan ustun qo'ymaydi.

Sud chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiy.

Barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengdirilar. Bu tenglik Konstitutsiya tomonidan kafolatlanadi va sud organlarining har kungi faoliyatlarida ta'minlanadi. Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'rildi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 19-moddasiga ko'ra, bunday hollar, davlat sirlarini qo'riqlash manfaatlariga zid keladigan, shuningdek, jinsiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlardir.

Bundan tashqari, 18 yoshga to'imagan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni, fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni oshkor qilmaslik maqsadida jabrlanuvchining, guvohning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, shuningdek, ularning oila a'zolari yoki qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash taqozo etgan hollarda boshqa ishlarni ham sud tomonidan ajrim chiqarib, yopiq sud majlisida ko'rishga yo'l qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yuritiladi. Sudlov olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarimon orqali ish materiallari bilan to'liq tanishish va sudlov harakatlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlashish huquqi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat boshqaruvi idoralari va mansabdar shaxslarning har qanday g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan, shuningdek, sha'ni va qadr-qimmati, hayoti va sog'lig'i, shaxsiy erkinligi va mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo'lish huquqiga ega. Korxona, muassasa va tashkilotlar ham sud himoyasida bo'lishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi 1995 yil 30 avgust qonuni 2-moddasiga ko'ra, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdon shaxslarning sudga shikoyat qilishga loyiq kollegial yoki yakka tartibdagi xatti-harakatlari (qarorlari) jumlasiga fuqaroning huquqlarini buzgan, ularning o'z huquqlari va erkinliklarining ro'yobga chiqarishiga monelik tug'dirgan, fuqaro zimmasiga qonunga xilof ravishda qandaydir majburiyat yuklatilishiga sabab bo'ladigan xatti-harakatlar (qarorlar) kiradi. Shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud qaror chiqaradi.

Ayblanuvchiga, sudlanuvchiga himoya huquqi ta'minlanadi. Sudlovning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi.

Himoyalanish huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasidagi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o'ziga qo'yilgan ayblovdan himoyalanish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalishnda haqiqiy imkoniyatga ega bo'lishiga qaratilgan choratadbirlar ko'rish majburiyati bilan ta'minlanadi.

Hech kim qynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kansituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mum'in emas.

Jamoat birlashmalari va kollektivlar sudda ishtirok etish uchun o'z vakillarini yuborishlari mumkin. Ular jamoat ayblovchisi yoki himoyachisi bo'lishlari mumkin. Jamoat birlashmalari yoki kollektivlar o'z vakillarini xohlagan paytda chaqirib olishlari yoki ularni boshqa vakillar bilan almashtirishlari mumkin.

Jamoatchilik vakillariga tuman (shahar) sudlarida besh yildan ortiq bo'Imagan muddatga jazo belgilanadigan jinoyatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etadigan xalq maslahatchilarini ham kiritish mumkin. Bunda jinoiy ishlarni ko'rib chiqishning kollegialligi ham namoyon bo'ladi. Sudlarni tashkil qilish va ular faoliyati asosiy prinsiplarining mazmuni ana shulardan iborat.

#### 4.3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 110-moddasiga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi – fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarni yurgizish borasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va Respublikaning barcha hududida bajarilishi majburiy. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, shahar va tuman sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega». Bu norma «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 13-moddasida ham takrorlangan, unda Oliy sud nazorat qilishi mumkin bo'lgan sudlar qatoriga harbiy sudlar ham kiritilgan.

Oliy sud ishlarni birinchi instansiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi. Birinchi instansiya bo'yicha ishlar Oliy sudning uch sudyasidan iborat tarkibida ko'riladi.

Sud hokimiyatining bu oliy organi rais, uning birinchi o'rinnbosari, o'rinnbosarlari, sudlov hay'atlari raislari, Oliy sud sudyalaridan iborat bo'lib, Oliy sud plenumi, Oliy sud rayosati, Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Jinoiy ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, Harbiy hay'atdan iborat tarkibda ish olib boradi.

Oliy sud – Oliy sud plenumining dasturiy ko'rsatmalari sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazorat olib boradi. Oliy sud plenumi eng yuqori sud instansiysi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarini va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining raisidan iborat tarkibda ish olib boradi. Plenum majlisida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. Oliy sud raisining taklifiga binoan, plenum majlisida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, oliy xo'jalik sudi raisi, adliya vaziri sudyalar Oliy sud huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari, vazirliklar, idoralar, ilmiy muassasalar, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalari vakillari ishtirok etishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumi, qoida tariqasida to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumiy masalalar bo'yicha hujjatlarning loyihasi plenum a'zolariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga, adliya vaziriga plenum yig'ilishidan yigirma kun ilgari yuboriladi. Oliy sud plenumi, o'z a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ishlarni nazorat tartibida ko'rish;
- sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqish va qonun hujjatlarini qo'llash masalalari yuzasidan dasturiy ko'rsatmalar berish;
- Oliy sud raisining taqdimiga binoan, Oliy sud rayosatini, sudlov hay'atlarining raislarini, shuningdek, Oliy sud plenumi kotibini tasdiqlash;
- Oliy sud raisining taqdimiga binoan, Oliy sud huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini tasdiqlash;
- rayosat ishi to'g'risidagi va Oliy sud sudlov hay'atlari raislarining hay'atlar faoliyati haqidagi axborotini tinglash;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va adliya vazirining qo'shma taqdimnomasiga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy

sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sndlari rayosati tarkibini va sudlov hay'atlari raislarini tasdiqlash;

– sudyalarning oly malaka hay'atini saylash va uning faoliyati to'g'risidagi axborotni tinglash;

– Qoraqalpog'ston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar va Toshkent

shahar sndlari, Qurolli Kuchlar harbiy sudi raislarining qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risida, shuningdek, Oliy sud plenumi dasturiy ko'rsatmalarining bajarilishi to'g'risida axborotlarini tinglash;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot organining tahrir hay'atini tasdiqlash;

– qonun hujjatlarida o'ziga berilgan boshqa vakolatlarni amalgalash.

Oliy sud plenumida sud ishlarini ko'rish tartibi quyidagicha: Oliy sud plenumi ishni nazorat tartibida ko'rish chog'ida Oliy sud sudyasining ish holatlari va protest vajlari haqidagi ma'rurasini tinglaydi. So'ngra Respublika Bosh prokurorining xulosasi eshitiladi. Muhokamadan so'ng protest ovozga qo'yiladi. Plenum a'zolari ovoz berishda betaraf qolishga haqli emaslar.

Protest yuzasidan qaror plenum a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ishni birinchi instansiyada, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rishda qatnashgan suda ovoz berishda ishtirok etishga haqli emas. Ko'pchilikning ovozini olmayan protest rad qilingan hisoblanadi. Shundan so'ng ravbatiga qarab boshqa takliflar ovozga qo'yiladi.

Qabul qilingan qarorga qarshi plenum a'zosi o'z mulohazalarini yozma ravishda bildirish huquqiga ega bo'lib, bu fikr plenum majlisi yozma bayoniga qo'shib qo'yiladi.

Oliy sud plenumining muayyan sud ishlari bo'yicha qarori qabul qilingan paytdan boshlab qonuniy kuchga kiradi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual hamda Jinoyat-protsessual kodekslarida ko'zda tutilgan tartibda ijro qilinadi. U xuddi plenum yig'ilishidagi yozma bayon kabi Oliy sud raisi va plenum kotibi tomonidan imzolanadi.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, Bosh prokurori yoki adliya vaziri tomonidan Oliy sud plenumining muhokamasiga kiritilgan va muayyan sud ishlarini hal etish bilan bog'liq bo'limgan masalalar tegishli ravishda ularning ma'ruzalari bo'yicha yoki ular vakolat bergen shaxslarning ma'ruzalari bo'yicha tinglanadi.

Oliy sud plenumi majlisiga taklif qilingan shaxslar ham ushbu masalalarni muhokama qilishda qatnashishlari mumkin. Plenum qarori majlisda ishtirok etayotgan plenum a'zolarining ko'pchiligi tomonidan

ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi va qabul qilingan paytdan kuchga kiradi.

Plenumning qonunlarni qo'llash masalalari bo'yicha dasturiy ko'rsatmalarini sudlar, ushbu ko'rsatmalar berilgan qonunni qo'llayotgan boshqa organlar va mansabdor shaxslar uchun majburiy. Oliy sud plenumining kotibi Oliy sud a'zosi vazifasini bajarish bilan birga, Plenum yig'ilishini tayyorlashga, majlis bayonini yuritishga doir ishlarni tashkiliy jihatdan ta'minlaydi, uning o'zi Plenum qabul qilgan qarorlarning ijrosi uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalgga oshiradi.

*Oliy sud rayosati* Oliy sud sudyalaridan Oliy sud plenumi belgilagan miqdorda tuziladi. Oliy sud raisi, uning birinchi o'rinosari, o'rinosarlari rayosat tarkibiga lavozimlari bo'yicha kiradilar.

Rayosat yig'ilishi oyida kamida bir marta o'tkaziladi va Rayosat a'zolarining ko'pchiligi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Uning qarorlari Oliy sud rayosati qarorlari kabi tartibda qabul qilinadi va Rais tomonidan imzolanadi.

Oliy sud rayosati quyidagilarni ko'rib chiqadi:

– ishlarni nazorat tartibida;

– sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sndlari, Toshkent shahar sudi va Qurolli Kuchlar harbiy sudi raislarining qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'ruzalarini;

– sudlov hay'atlari va Oliy sud apparati ishlarni tashkil qilishga oid masalalarni;

– qonun hujjatlarida o'ziga berilgan boshqa vakolatlarni amalgga oshiradi.

*Oliy sudning sudlov hay'atlari* ishlarni birinchi instansiya, appellatsiya, cassatsiya va nazorat tartibida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual, Jinoyat-protsessual kodekslarida va «Sudlar to'g'risida»gi qonunda ko'zda tutilgan qoidalarga binoan ko'radi.

Oliy sudning yuqori mansabdor shaxslariga alohida mas'uliyat yuklangan. Jumladan, *Oliy sudning raisi*:

– Oliy sud faoliyatiga tashkiliy rahbarlik qiladi;

– O'zbekiston Respublikasi sndlarning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest kiritadi;

– sud ishlarni nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;

– qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi sndlarning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari va qarorlarning ijrosini to'xtatib turadi;

- sud amaliyotini umumlashtirish, shuningdek, Oliy sud plenumi dasturiy ko'rsatmalarining bajarilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish ishlarini tashkil etadi;
    - ishlarni respublikaning bir sudidan ikkinchi sudiga olib berish masalasini hal qiladi;
    - Oliy sud plenumi va rayosatini chaqiradi, ularning majlisida raislik qiladi;
    - zarur hollarda bir hay'at tarkibiga kiruvchi sudyalarни boshqa hay'at tarkibida ish ko'rishga jalb etadi;
    - Oliy sud plenumining dasturiy ko'rsatmalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq emasligi haqida Oliy sud plenumiga taqdimnoma kiritadi;
    - O'zbekiston Respublikasi qonunlarini sharhlab berish va normativ hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos kelmasligi haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga taqdimnoma kiritadi;
    - Oliy sud plenumiga sudlov hay'atlarining tarkibi, ularning raislari haqida, Oliy sud rayosati va Sudyalarning oliy malaka hay'ati tarkibi to'g'risida taqdimnoma kiritadi;
    - viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) va harbiy sudlar sudyaligiga nomzodlar yuzasidan keyinchalik ular xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritish uchun O'zbekiston Respublikasi adliya vaziriga xulosalar yuboradi;
    - O'zbekiston Respublikasi sudlari sudyalarini intizomiy javobgarlikka tortish haqida ish qo'zg'atadi;
    - rais o'rinnbosarlar o'rtaida vazifalarni taqsimlaydi;
    - Oliy sud xodimlari bilan mehnat tuzadi va bekor qiladi;
    - fuqarolarni shaxsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishlarini tashkil etadi;
    - qonun hujjatlarida o'ziga berilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- Oliy sud raisining birinchi o'rinnbosari, o'rinnbosarlari:*
- Oliy sud plenumi qarorlaridan tashqari barcha instansiya sudlarining hukmlari, hal qiluv qarorları, ajrimlari va qarorlari ustidan protest kiritadilar;
  - Oliy sud sudlov hay'atlarining tashkiliy ishiga rahbarlik qiladi;
  - sud amaliyotning umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish bo'yicha ishni tashkil etadi;
  - ishlarni nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladilar;

- O‘zbekiston Respublikasi sudsidi tomonidan chiqarilgan, o‘zlari protest kiritish huquqiga ega bo‘lgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimlar va qarorlarning ijrosini to‘xtatib turadilar;
- fuqarolarni shaxsan qabul qiladilar;
- vazifa taqsimotiga muvofiq Oliy sudning tarkibiy bo‘linmalari ishiga rahbarlik qiladilar;
- qonun hujjatlarda o‘zlariga berilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

– Oliy sud raisi yo‘qligida uning vakolatini birinchi o‘rnbosari, birinchi o‘rnbosar yo‘qligida esa rais o‘rnbosarlaridan biri amalga oshiradi.

*Oliy sud sudlov hay’atlarining raislari:*

- sudlov hay’atlari ishini tashkil etadilar va ularning majlislarida raislik qiladilar;
- Oliy sud rayosati va plenumida sudlov hay’atlarining faoliyati to‘g‘risida ma’ruza qiladilar;
- sud amaliyotini umumlashtirish uchun sud ishlarini talab qilib oladilar;
- qonun hujjatlarda o‘zlariga berilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

#### **4.4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar sudsidi, Toshkent shahar sudi**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudsidi, Toshkent shahar sudi – rais, rais o‘rnbosarlari, sudlov hay’ati raislari, sudyalar, xalq maslahatchilaridan iborat bo‘lib, sud rayosati, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudsidi, Toshkent shahar sudi o‘z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘radi, tuman (shahar) sudsidining sudlov faoliyati ustidan nazorat clib boradi, sud amaliyoti ni umumlashtiradi va h.k. Bu sudsida Plenum yo‘q. Lekin ularning har birida rais, rais o‘rnbosarlari va sudyalardan iborat tarkibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi belgilagan miqdorda rayosat tuziladi. Rayosat yig‘ilishlari oyida kamida ikki marta o‘tkaziladi va rayosat a’zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Rayosat qarorlari ovoz berishda qatnashgan rayosat a’zolaridan ko‘pchiligining ovozi bilan qabul qilinadi va tegishli sud raisi tomonidan imzolanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudining rayosati o'z vakolatlari doirasida ishlarni nazorat tartibida ko'radi, sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sndlari, Toshkent shahar sudi raisining taqdimiga binoan, fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atlari tarkiblarini tasdiqlaydi, sudlov hay'atlari raislarining hay'atlar faoliyati to'g'risidagi, tuman (shahar) sndlari raislarining qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi, qonun hujjatlarida o'ziga berilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Fuqarolik ishlari bo'yicha oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar Fuqarolik ishlari bo'yicha sndlari – sud raisi, rais o'rnbosari, sudyalaridan iborat bo'lib, o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, appellatsiya kassatsion va nazorat tartibida ko'rib chiqadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar Jinoyat ishlari bo'yicha sndlari – sud raisi, rais o'rnbosari, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo'lib, o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va kassatsiya hamda nazorat tartibida ko'rib chiqadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudining raisi keng vakolatlarga ega, jumladan:

- sud ishlari bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimli r va qarorlar ustidan qonunda belgilangan doirada va tartibda protestlar kiritadi;
- ishlarni nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;
- o'zi protest kiritish huquqiga ega bo'lgan fuqarolik ishlari bo'yicha sud hal qiluv qarorlarining ijrosini to'xtatib turadi;
- sud rayosatini chaqiradi va uning majlislarida raislik qiladi;
- zarur hollarda bir hay'at tarkibiga kiruvchi sudyalarни boshqa hay'at tarkibida ishlarni ko'rib chiqish uchun jaib etadi;
- rais o'rnbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudyalarini intizomiy javobgarlikka tortish haqida ish qo'zg'atadi;
- sudyalar, sudning boshqa xodimlari hamda xalq maslahatchilarining malakasini oshirish, sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini yuritish ishlarni tashkil qiladi;
- fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini uyuştiradi;
- sudyalarning malaka hay'ati qarorlari ustidan Oliy malaka hay'atiga taqdimnomalar kiritadi;

– sud idorasi ishlariga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

– qonun hujjatlarida o'ziga berilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi raisining o'rinnbosarlarini vazifalar taqsimotiga muvofiq sudlov hay'atlarining ishini tashkil qiladi, sudlov hay'ati majlislarida raislik qilishlari mumkin, fuqarolarni shaxsan qabul qiladilar, sud raisi yo'qligida uning vakolatini amalga oshiradilar, qonun hujjatlarida o'zlariga berilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudingin *sudlov hay'ati raislari* – sudlov hay'ati ishini tashkil qiladilar; sudlov hay'ati majlislarida raislik qiladilar; sudlov hay'ati faoliyati to'g'risida rayosatga ma'ruzalar taqdim etadilar; qonunda o'zlariga berilgan boshqa vakolatlarini amalga oshiradilar.

#### **4.5. Tuman sudlari va tumanlararo (shahar) sudlar**

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlar – sud raisi, sudyalardan iborat bo'lib, qonun bilan ularning vakolatiga taalluqli bo'igan fuqarolik ishlarini ko'rib chiqadilar.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga O'zbekiston Respublikasi FPKda ko'zda tutilgan barcha ishlar taalluqlidir.

Jinoyat ishlari bo'yicha turman (shahar) sudlari – sud raisi, sudyalar, xalq maslahatchilaridan iborat bo'lib, qonun bilan ularning vakolatiga berilgan jinoiy va ma'muriy huquqbazarlik ishlarini ko'rib chiqadilar.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga O'zbekiston Respublikasi JPKda ko'zda tutilgan barcha ishlar hamda amaldagi qonun bo'yicha sudlarning yurituviga o'tkazilgan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Tuman (shahar) sudi qonun bilan o'z huquq doirasiga berilgan fuqarolik, jinoyat va ma'muriy ishlarni ko'radi. Tuman (shahar) sudiga sud raisi rahbarlik qiladi. U:

– sud majlislarida raislik qiladi, sudyalar o'rtasida sud ishlarini taqsimlaydi;

– fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini uyushtiradi;

– sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishiga rahbarlik qiladi, qonun buzilishini, huquqbazarlik sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish xususida davlat

organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslarga taqdimnomalarini kiritadi;

– sud xodimlari, shuningdek, xalq maslahatchilarining malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi;

– sud apparati ishiga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

– qonun hujjatlarida o'ziga berilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining raisi yo'qligida uning vakolatlari sudyalarning tegishli malaka hay'atining qarori bilan sudyalardan biri zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Tuman (shahar) sudining asosiy ishlovchi mansabdar shaxsi, xuddi yuqori turuvchi sudlardagi kabi, suda hisoblanadi. Muayyan ishlarni ko'rishda suda hisobdor emas. Qonunni qo'llar ekan, u quyidagi prinsiplarga amal qilishi kerak:

1) shaxs, to o'z aybi qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan tan olinmagunicha jinoyat qilganlikda aybdor hisoblanmaydi;

2) hech kim aynan bir huquqbazarlik uchun takroran jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas;

3) hech kimga o'zining rozilisiz qonunda uning uchun belgilangan sudsanganlik almashtirilishi mumkin emas;

4) sudda har bir kishi so'z olish huquqiga ega;

5) javobgarlikni belgilovchi yoki kuchaytiruvchi, fuqarolarga yangi majburiyatlar yuklovchi yoki ularning holatini yomonlashtiruvchi qonunlar qaytish kuchiga ega emas. Agar huquqbazarlik sodir etilgandan so'ng uning uchun javobgarlik qonun bilan bekor qilingan yoki yengillashtirilgan bo'lса, yangi qonun qo'llaniladi;

6) ayblanuvchi o'z aybsizligini isbot qilishi shart emas;

7) hech kim o'ziga, xotiniga (eriga) va qonunda belgilangan qarindoshlariga qarshi ko'rsatma berishga majbur emas. Diniy xizmatchilar ibodat paytida o'zlariga ishonch bildirganlarga nisbatan guvohlik bermaydilar;

8) shaxsnинг aybdorligi bo'yicha har qanday gumanlar ayblanuvchining foydasiga hal qilinadi;

9) noqonuniy yo'l bilan olingan dalil-isbotlar yuridik kuchga ega emas. Hech kim faqat o'zining tan olishiga asoslanib, sudsanganlari mumkin emas;

10) jinoyat qonunlarini o'xshashligi bo'yicha qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. Bayon qilingan prinsiplar mamlakatimizning barcha sudsanganlari uchun umumiy va yagona hisoblanadi.

#### **4.6. Sudyalarning malaka darajalari va ularni attestatsiyadan o'tkazish**

Sudyalik lavozimiga nomzodlar tanlash, intizomiy javobgarlik, vakolatlarni to'xtatish va muddatidan oldin tugatish, daxlsizligini ta'minlash, sudyalarning malaka attestatsiyasini o'tkazish, ularga malaka darajasini berish, sudyalar zaxirasini shakllantirish maqsadida Sudyalarning oliy malaka hay'ati va sudyalarning malaka hay'ati tuziladi.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunning 74-moddasiga ko'ra, sudyalar malaka hay'atini tashkil etish va uning faoliyat tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdiqlagan nizomga ko'ra amalga oshiriladi. Ushbu nizomga ko'ra, sudyalar uchun olita toifa belgilangan:

- oliy malaka toifasi;
- birinchi malaka toifasi;
- ikkinchi malaka toifasi;
- uchinchi malaka toifasi;
- to'rtinchi malaka toifasi;
- beshinchi malaka toifasi.

Oliy malaka darajasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi taqdimnomasiga asosan beriladi. Boshqa malaka darajalari Oliy malaka hay'ati va xo'jalik sudi sudyalarining malaka hay'ati tomonidan beriladi.

Birinchi marotaba saylangan yoki tayinlangan sudyalarga malaka darajasi ish faoliyatining birinchi uch oyi mobaynida beriladi. Har bir malaka darajasida bo'lish muddati ijobjiy malaka attestatsiyasi mavjud bo'lgan taqdirda tubandagicha belgilanadi: beshinchi malaka darajasida – 3 yil, to'rtinchi malaka darajasida – 5 yil, uchinchi malaka darajasida – 5 yil, ikkinchi malaka darajasida – 5 yil. Birinchi malaka darajasida bo'lish muddati belgilanmaydi.

Yuqori malakali sudyalarga ish tajribalarini hisobga olib, ko'rsatib o'tilgan qaysi mansabni egallashidan qat'i nazar, ketma-ketlikka rioya etmagan holda, lekin unga berilgan malaka darajasidan ikki darajadan ham yuqori bo'limgan malaka darajasi berilishi mumkin.

Bundan tashqari, sud xodimlarining mansab darajalari to'g'risidagi nizomga ko'ra bunday xodimlarning maxsus unvonlari quyidagi mansab darajalaridan iborat:

- 1-darajali adliya maslahatchisi;
- 2-darajali adliya maslahatchisi;
- 3-darajali adliya maslahatchisi;
- 1-darajali yurist;
- 2-darajali yurist;
- 3-darajali yurist.

Sud xodimlariga mansab darajalari ijobil tavsifnomasi, ixtisosiboy'icha oliy yuridik ma'lumotga egaligi, egallab turgan lavozimi va ish stajiga qarab, shuningdek, ilgarigi ish yoki xizmat joyida berilgan maxsus unvonini e'tiborga olgan holda birin-ketin beriladi.

Sudyalar odil sudlovnii amalgalashish vaqtida qonunni qo'pol buzgan, obro'sini to'kadigan xatti-harakat sodir etgan taqdirda, shuningdek, ularga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi bo'lganda, malaka darajasidan mahrum etilishlari mumkin. Bu sud xodimlarining malaka darajalariga ham tegishli. Farqi shundaki, yuqoridagi kamchiliklar uchun sud xodimlarining darajalari ikki darajadan past bo'lmagan holda pasaytirilishi mumkin.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunga hamda Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risidagi nizomga muvofiq, sudyalarining malaka hay'atlari sudyalar bilan ishlashda demokratik asoslarni kuchaytirish, sudda ishslash uchun munosib nomzodlar tanlash hamda sudyalar mustaqilligi kafolatlarini ta'minlash maqsadida tuziladi.

Sudyalarning oliy malaka hay'ati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi tomonidan Oliy sud raisining taqdimnomasiga binoan, Oliy sud sudyalaridan besh yil muddatga saylanadi.

Xo'jalik sudi plenumi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan xo'jalik sudlari sudyalaridan besh yil muddatga saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar sudyalarining malaka hay'atlari tegishli hududlardagi sudyalarning yig'ilishlarida, harbiy sudlar sudyalarining malaka hay'ati esa – harbiy sudlar sudlarining yig'ilishlarida, tegishli sudlar raislarining taqdimnomasiga binoan besh yil muddatga saylanadi.

Sudyalarning malaka hay'atlari a'zolari soni ularning ish hajmiga qarab belgilanadi, ammo hay'at raisi va uning o'rinnbosarlari bilan birgalikda o'n kishidan oshib ketmasligi kerak.

Oliy malaka hay'ati, sudyalarning malaka hay'atlari o'z faoliyatlarini to'g'risida o'zлari saylab qo'ygan organlarga bir yilda kamida bir marta hisobot beradilar.

Oliy malaka hay'ati, Xo'jalik sudlari sudyalarining malaka hay'ati:

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyaligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, Qurolli Kuchlar harbiy sudi raisi va rais o'rinnbosarligiga, xo'jalik sudi sudyaligiga nomzodlarning shu lavozimlarda ishlashga tayyorligini baholaydi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, Qurolli Kuchlar harbiy sudi raisi va rais o'rinnbosarlarini, xo'jalik sudi sudyalarini malaka attestatsiyasidan o'tkazadi;

- sudyalarga malaka darajalari beradi;
- sudyalarni ma'muriy javobgarlikka tortishga rozilik berish masalasini ko'radi;
- Oliy sud sudyalarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, Qurolli Kuchlar harbiy sudi raisi va rais o'rribbosarlarining, xo'jalik sudi sudyalarining intizomiy javobgarligi to'g'risidagi ishlarni ko'radi;
- Oliy sud sudyalarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, Qurolli Kuchlar harbiy sudi raisi va rais o'rribbosarlarining, xo'jalik sudi sudyalarining vakolatlarini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- sudyaning vakolatlarini tugatish haqida xulosa beradi.

Oliy malaka hay'ati, bundan tashqari, tegishli sudyalarga nisbatan o'xshash vakolatlarga ega bo'lgan hay'atlarining qarorlari ustidan tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Malaka hay'atlarining yig'ilishlari zaruratga qarab, jumladan malaka imtihoni va attestatsiyalarni qabul qilishni ham hisobga olgan holda o'tkaziladi.

#### **4.7. Sud apparati**

Sud apparati odil sudlovni amalga oshirish, sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish, shuningdek, sudning boshqa vazifalarini bajarishga doir ishlarni ta'minlaydi. Shu maqsadda Oliy sudda, Oliy xo'jalik sudida boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalar tashkil etiladi. Boshqarmalar, bo'limlar rahbarlari va ularning o'rribbosarları, yordamchilar, sudlarning bosh va katta konsultantlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi, adliya vaziri belgilagan tartibda malaka sinovidan o'tadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, xo'jalik sudlarining tuzilishi va umumiyligi soni tegishlichcha Oliy sud raisi, Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat va Toshkent shahar sudining, tuman (shahar) sudining tuzilishi va umumiyligi soni O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Sudyalarning shtatlar jadvali tegishlichcha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi va adliya vaziri tomonidan tasdiqlanadi. Bu mansabdar shaxslar zarur hollarda sudlarning shtatlar jadvaliga ularning umumiyligi soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi *Oliy sudi apparatida* quyidagi bo'linmalar faoliyat ko'rsatadi: sud amaliyotini umumlashtiruvchi bo'lim, kodifikatsiya bo'limi, shikoyatlar bo'limi, qabulxona, devonxona, xo'jalik ishlari bo'limi, Rayosat kotibiyati, fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha sud hay'atining kotibiyatlari.

Oliy sud va Oliy xo'jalik sudlarida tashkiliy ishlar ushbu sudlar apparatlarining xodimlari yordamida amalgalashiriladi. Ular quyidagilar: konsultantlar, inspektorlar, sud hay'atlarining kotiblari, rayosat va plenum kotiblari, sud majlisini kotiblari va boshqalar. Bunday ishlar quyidagi yo'nalishlarda bo'ladi: rejulashtirish, keluvchilarni qabul qilish, shikoyatlarni ko'rib chiqish, sud amaliyotini o'rganish va umumlashtirish, qonunlarni tizimga solish, kadrlar malakasini oshirish va hokazo.

Qoraqpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining *apparatlari* o'z ichiga konsultantlar, kotibiyat mudiri, sud kollegiyalarining kotiblari, sud majlislarining kotiblari, ish yurituvchilar, mashinkachilar, arxiv xodimlarini oladi.

Konsultantlar shikoyatlar va ishlarni o'rganadilar, ish haqida raisga xabar beradilar va boshqa ishlarni bajaradilar.

Kotibiyat mudiri sud hay'atlarining kotiblariga rahbarlik qiladi, raisning keluvchilarni qabul qilishini uyuştiradi, unga sudga kelgan xat-xabarlar haqida bildiradi, sudga xalq maslahatchilarini chaqiradi, raisning ruxsat bilan fuqarolarga turli sud hujjatlarining nusxalarini beradi va jo'natadi.

Sud hay'atlarining kotiblari hay'at raislarining topshiriqlarini bajarishni tashkil qiladi, sud ishlari va boshqa hujjatlarni saqlashni ta'minlaydi, belgilangan ishlar haqida zarur shaxslarni xabardor qiladi, ishlar ko'rib chiqilganidan keyin ularni rasmiylashtiradi va h.k.

Sud majlislarining kotiblari birinchi instansiadagi sud muhokamasi bayonnomalarini tuzadi, ishda qatnashuvchilarga chaqiruv qog'ozi yozadi, ishning ko'riliш vaqtini va joyi haqida prokuror va advokatga xabar beradi, belgilangan vaqtida sudlanuvchining sudga olib kelinishini ta'minlaydi va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi.

Rayosat kotibi rayosatdagi ishlarni yuritadi, majlis haqida prokuror va rayosat a'zolarini xabardor qiladi. Rayosat ishi natijalarini rasmiylashtiradi.

Shuningdek, sud apparatining boshqa xodimlari (kuryerlar, mashinkachilar, arxiv xodimlari) ham o'zlariga yuklatilgan ishlarni bajaradi.

*Tuman (shahar) sudi apparati* odil sudlov bo'yicha ushbu sudlarning sud amaliyotini umumlashtirish, statistikani tahlil qilish, qonunlarni tizimlashtirish va tashviqu qilish ishini ta'minlaydi.

Tuman (shahar) sndlarda sud qarorlari, ajrimlari va hukmlarini ijro etish alohida o'rIN tutadi. Sud qarorlarini majburiy ijro etish uchun sndlarda sud ijrochilari bo'ladi. Sudda ikki va undan ko'proq sud ijrochisi bo'lganda ulardan biri katta ijrochi hisoblanadi.

Sud ijrochisining shaxsiy xavfsizligini ta'minlash maqsadida, sud qarori bo'yicha ijro harakatlari o'tkazish vaqtida, zarur hollarda, unga belgilangan tartibda quroq yoki tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi tomonidan soqchilar ajratiladi.

Sud ijrochisi sud va boshqa hujjatlarning majburiy ijrosi bo'yicha hokimiyat vakolatlariiga ega. Uning talablari O'zbekiston hududidagi barcha tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Sud ijrochilari harakatining qonuniyligini sudyalar, barcha sud ijrochilari umumiy faoliyatining qonuniyligini esa tuman (shahar) sudi raisi nazorat qiladi. Sud ijrochisining harakatlaridan norozi shaxslar bu ijrochilar ishlaydigan sudga shikoyat qilishlari mumkin. Sud ijrochisi ustidan qilingan shikoyat, albatta, sud raisi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Manfaatdar shaxs o'z shikoyatiga javob oladi.

#### 4.8. Xo'jalik sndlarning tizimi va tuzilishi

Xo'jalik sndlarning tizimiga Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sndlari kiradi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi* xo'jalik sudlov sohasida sud hokimiyatining eng yuqori organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiy. Bu sud Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar xo'jalik sndlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. Shuningdek, Plenumning dasturiy ko'rsatmalari xo'jalik sndlari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, quyi xo'jalik sndlari faoliyatini tekshiradi, xo'jalik sndlarning ishlarini tashkil etish borasidagi ijobjiy tajribani o'rghanadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi.

Oliy xo'jalik sudi – rais, uning o'rinnbosarlari, sudlov hay'atlari raislari, Oliy xo'jalik sudi sudyalaridan iborat bo'ladi. Unda plenum, rayosat, Fuqarolik va ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati faoliyat ko'rsatadi.

*Oliy xo'jalik sudi plenumi* Oliy xo'jalik sudi sudyalarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi raisidan iborat tarkibda ish olib boradi.

Uning majlisida Bosh prokuror qatnashadi. Shuningdek, majlisda Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud raislari, adliya vaziri, sudyalar, Oliy xo'jalik sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari, vazirliklar,

idoralar, ilmiy muassasalar, boshqa davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, jamoat birlashmalarining vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy xo'jalik sudi plenumi bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumiy masalalarga doir hujjatlar loyihasi plenum a'zolariga va Bosh prokurorga plenum majlisidan yigirma kun ilgari yuboriladi.

Oliy xo'jalik sudi plenumi, o'z a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatlari hisoblanadi. U quyidagi vakolatlarga ega:

- sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo'llash masalalari yuzasidan tushuntirishlar beradi;

- Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimmomasiga binoan, Oliy xo'jalik sudi rayosatining tarkibini, sudlov hay'atlarining tarkibi va raislarini, plenum kotibini, Oliy xo'jalik sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini, Oliy xo'jalik sudi matbuot organining tahrir hay'ati tarkibini tasdiqlaydi;

- rayosat ishi to'g'risidagi axborotni va Oliy xo'jalik sudi sudlov hay'atlari raislarining hay'atlar faoliyati haqidagi ma'ruzalarini, qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti, shuningdek, Oliy xo'jalik sudi plenumi dasturiy ko'rsatmalarining bajarilishi to'g'risida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, viloyatlar xo'jalik sudlari raislarining ma'ruzalarini tinglaydi;

- qonun hujjatlarida o'ziga berilgan boshqa vakolatlarni amalgashiradi.

Plenum ishni nazorat tartibida ko'rish chog'ida, Oliy xo'jalik sudi sudyasining ish holatlari va protest vajlari haqidagi ma'ruzasini tinglaydi. So'ngra respublika Bosh prokurorining xulosasi eshitiladi. Shundan so'ng plenum protestni muhokama qilishga kirishadi. Muhokamadan so'ng protest ovozga qo'yiladi. Plenum a'zolari ovoz berishda betaraf qolishga haqli emaslar. Protest yuzasidan qaror sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ishni ilgari ko'rishda qatnashgan sudyu ovoz berishda ishtirok etishga haqli emas.

Ko'pchilik ovoz olmagan protest rad qilingan hisoblanadi. Shundan so'ng navbatiga qarab, boshqa takliflar ovozga qo'yiladi. Qabul qilingan qarorga qarshi plenum a'zosi o'z mulohazalarini yozma ravishda bildirish huquqiga ega bo'lib, bu fikr Plenum majlisining bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi.

Oliy xo'jalik sudi plenumining qarori majlisda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi va qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Plenum qarori va bayoni Oliy xo'jalik sudi raisi va plenum kotibi tomonidan imzolanadi.

Plenumning muhokamasiga, «Sudlar to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq, Oliy xo‘jalik sudi raisi, Bosh prokuror yoki adliya vaziri tomonidan kiritilgan, muayyan sud ishlarini hal etish bilan bog‘liq bo‘lmagan masalalar tegishli ravishda ularning ma‘ruzalarini bo‘yicha tinglanadi. Mazkur masalalarni muhokama qilishda Oliy xo‘jalik sudi plenumi yig‘ilishiga taklif qilingan shaxslar ham qatnashishlari mumkin.

Plenum yig‘ilishini tayyorlash, majlis bayoni yuritishga doir ishlarini tashkiliy jihatdan ta‘minlash, plenum qabul qilgan qarorlarning ijrosi uchun zarur bo‘lgan harakatlarni amalga oshirish Oliy xo‘jalik sudi plenumining kotibiga yuklatilgan. U ayni paytda sudyalik ham qiladi.

Oliy xo‘jalik sudi sudyalaridan Oliy xo‘jalik sudi plenumi belgilagan miqdorda Oliy xo‘jalik sudi *rayosati* tuziladi. Oliy xo‘jalik sudi raisi va uning o‘rnibosarlari rayosat tarkibiga lavozimlari bo‘yicha kiradilar.

Rayosatning yig‘ilishi oyida kamida bir marta o‘tkaziladi va a’zolarining ko‘pchiligi ishtiroy etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Oliy xo‘jalik sudi rayosati ishlarini nazorat tartibida ko‘radi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jalik sudi, viloyatlar xo‘jalik sudlari raislarining xo‘jalik sudlari ishlarini tashkil qilish haqidagi ma‘ruzalarini eshitadi, xo‘jalik sudlari, Oliy xo‘jalik sudi sudlov hay‘atlari va apparati ishni tashkil qilishga oid masalalarni ko‘radi va qonunga muvofiq o‘ziga yuklatilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

*Oliy xo‘jalik sudining sudlov hay‘atlari ishlarini birinchi instansiya*da va qarorlarning qonuniyligi va asosligini tekshirish tartibida Xo‘jalik protsessual kodeksi va «Sudlar to‘g‘risida»gi qonunda nazarda tutilgan qoidalarga binoan ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi *Oliy xo‘jalik sudi raisi*:

- Oliy xo‘jalik sudi faoliyatiga tashkiliy rahbarlik qiladi;
- Oliy xo‘jalik sudi plenumining tushuntirishlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq emasligi haqida Oliy xo‘jalik sudi plenumiga, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini sharhlab berish va normativ hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos kelmasligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga, Oliy xo‘jalik sudi plenumiga sudlov hay‘atlarining tarkibi, ularning raislari haqida, Oliy xo‘jalik sudi rayosati hamda Sudyalarning malaka hay‘ati tarkibi to‘g‘risida, xo‘jalik sudlari sudyaligiga nomzodlar haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritadi;

- O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan protestlar kiritadi,

- ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi:

– qonunda belgilangan tartibda barcha xo'jalik sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarolarining ijrosini to'xtatib turadi;

– sud amaliyotini umumlashtirish, shuningdek, Oliy xo'jalik sudi plenumi tushuntirishlarining bajarilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish ishlarini tashkil qiladi;

– ishlarni respublikaning bir xo'jalik sudidan ikkinchi xo'jalik sudiga olib berish masalasini hal qiladi;

– Oliy xo'jalik sudi plenumi va rayosatini chaqiradi, ularning majlisida raislik qiladi;

– zarur hollarda bir hay'at tarkibiga kiruvchi sudyalarini boshqa hay'at tarkibida ish ko'rishga jalb etadi;

– O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlari sudyalarini intizomiy javobgarlikka tortish haqida ish qo'zg'atadi;

– rais o'rinnbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

– Oliy xo'jalik sudi xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va bekor qiladi;

– fuqarolarni va korxona, muassasa, tashkilotlarning vakillarini shaxsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini tashkil qiladi.

#### *Oliy xo'jalik sudi raisining o'rinnbosarlari:*

– Oliy xo'jalik sudining, xo'jalik sudlarining xo'jalik nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'atlari chiqargan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest kiritadilar;

– Oliy xo'jalik sudi sudlov hay'atlarining majlislarida raislik qilishlari mumkin;

– ishlarni nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladilar;

– O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlari tomonidan chiqarilgan, o'zлari protest kiritish huquqiga ega bo'lган hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning ijrosini to'xtatib turadilar;

– fuqarolarni va korxona, muassasa, tashkilotlarning vakillarini shaxsan qabul qiladilar;

– vazifa taqsimotiga muvofiq, Oliy xo'jalik sudining tarkibiy bo'linmalari ishiga rahbarlik qiladilar;

– qonun hujjatlarida o'zlariga yuklatilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Oliy xo'jalik sudi raisining yo'qligida uning vakolatini rais o'rinnbosarlaridan biri amalga oshiradi.

#### *Oliy xo'jalik sudi sudlov hay'atlarining raislari:*

– sudlov hay'atlari ishini tashkil etadilar va ularning majlislarida raislik qiladilar;

– Oliy xo'jalik sudi rayosati va plenumiga sudlov hay'atlarining faoliyati to'g'risida ma'ruzalar taqdim etadilar;

– sud amaliyotini umumlashtirish uchun sud ishlarini talab qilib oладilar;

– sudyalarning malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etadilar;

– qonun hujjatlarida o'zlariga yuklatilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar. Oliy xo'jalik sudi mansabdar shaxslarining vakolatlari ana shulardan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, viloyat xo'jalik sudi, Toshkent shahar xo'jalik sudi – rais, rais o'rinosarlari, sudyalardan iborat. Zarur hollarda sudlov hay'atlari tuzilishi mumkin.

Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan boshqa shahar xo'jalik sudsulari ham tashkil etilishi mumkin.

Ushbu sudsular o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va appellatsiya tartibida ko'radi, sud amaliyotini umumlashtiradi, qonun hujjatlarida o'ziga berilgan boshqa vakolatlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar hududida amalga oshiradi.

#### *Ushbu sudsarning raislari:*

– sud faoliyatiga rahbarlik qiladi;

– sudlov hay'atlari majlislarida raislik qilishi mumkin;

– zarur hollarda bir hay'at tarkibiga kiruvchi sudyalarni boshqa hay'at tarkibida ishga kirishga jalg etadi;

– sudlov hay'atlari bo'limgan xo'jalik sudsarida qarorlarning qonuniyligi va asosliligini tekshiradi;

– rais o'rinosarlari va sudyalar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

– sudyalar va sudning boshqa xodimlari malakasini oshirish, sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritishga doir ishlarni tashkil etadi;

– fuqarolarni va korxona, muassasa, tashkilotlarning vakillarini shaxsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishlarini tashkil qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat hamda Toshkent shahar xo'jalik sudi raisining o'rinosari:

– taqsimotga muvofiq sud ishiga rahbarlik qiladi;

– sudlov hay'atlari ishini tashkil qiladi;

– fuqarolarni va korxona, muassasa, tashkilotlarning vakillarini shaxsan qabul qiladi;

– sud raisi yo'qligida uning vakolatini amalga oshiradi.

#### **4.9. Xo'jalik sndlari faoliyatini tashkil etish**

Xo'jalik sudi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, «Sudlar to'g'risida»gi qonuniga, Xo'jalik-protsessual kodeksiga va mamlakatimizning boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtaсидаги ko'п томонлама va ikki tomonlama shartnomasi hamda bitimlarga amal qiladi.

Xo'jalik protsessual kodeksining 1-moddasiga muvofiq, nizoli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlar bo'lmanan taqdirda xo'jalik sndlari shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini qo'llaydi. Boshqacha qilib aytganda, xo'jalik nizolarini ko'rib chiqishda o'xshash qonunlar qo'llanilishi mumkin.

Xo'jalik sndlari o'z vakolati doirasida fuqarolik huquqiy munosabatlari (iqtisodiy nizolar)dan yoki boshqaruv sohasidagi huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarini hal etadi. Xo'jalik sudiga uning sudloviga tegishli har xil shakldagi mulkka ega bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shu jumladan, jamoa xo'jaliklari, xususiy korxonalar, qo'shma korxonalar hamda O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar tashkilotlarining xalqaro birlashmalari o'zlarining buzilgan yoki da'vo qilinayotgan huquqlarini yoxud qonuniy manfaatlarini himoya etishni so'rab murojaat qilishga haqlidirlar. Xo'jalik sudiga murojaat etish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

Xo'jalik sudi manfaatdor tashkilotlarning, davlat organlari va boshqa organlarning, davlat va tashkilotlar manfaatlarini ko'zlab tegishli xo'jalik sudiga murojaat etgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki o'rinnbosarlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari yoki o'rinnbosarlarining arizalari asosida ish qo'zg'atadi.

Nizolarni hal etish bitta sudyadan iborat tarkibdagi, xo'jalik nizolarini hal etish bo'yicha sudlov hay'ati mavjud bo'lgan taqdirda esa bitta yoki uchta sudyadan iborat tarkibda xo'jalik sudi tomonidan amalga oshiriladi. Xo'jalik sudining son bo'yicha tarkibini xo'jalik nizolarini hal etish bo'yicha sudlov hay'atining raisi belgilab beradi.

Xo'jalik sudi taraflar o'rtaсида kelishuvga erishilishiga ko'maklashadi va shu kelishuvga muvofiq hal qiluv qarori qabul qiladi. Basharti, taraflar o'rtaсидаги kelishuv qonunlarga, haqiqiy ahvolga va ish materiallariga zid bo'lsa, xo'jalik sudi qaror qabul qilish chog'ida bunday kelishuvga amal qilmaydi.

Xo'jalik sudida nizolarni hal etish mulk shakli, bo'ysunishi va qayerda joylashganligidan hamda boshqa holatlardan qat'i nazar, tashkilotlarning qonun oldida va xo'jalik sudi oldida tengligi asosida amalga oshiriladi. Xo'jalik sudida nizolar oshkora hal etiladi, davlat yoki

tijorat sirlarini saqlash manfaatlariga zid keladigan hollar bundan mustasnodir.

Xo'jalik sudida sudlov ishi davlat tilida, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa qoraqalpoq tilida ham olib boriladi. Sud jarayoni olib borilayotgan tilni bilmaydigan taraflarning vakillariga, sudlov jarayonining boshqa qatnashchilariga tarjimon orqali ishga doir barcha materiallar bilan tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi. Mamlakatimiz va boshqa davlatlarning tashkilotiari o'rtaсидаги xo'jalik nizolarini sudning aniqloviga binoan tomonlarga ma'qul bo'lgan tilda ko'riladi.

Xo'jalik sudining qarori (hal qiluv qarori, ajrimi) qabul qilinishi bilanoq, darhol kuchga kiradi. Kuchga kirgan qaror ustidan shikoyat qilinishi yoki protest berilishi mumkin. Qaror O'zbekiston Respublikasi hududida va davlatlararo bitimga muvofiq boshqa davlatlarning hududida tashkilotlar hamda ularning mansabdor shaxslari tomonidan bajarilishi majburiydir.

Mulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan tashkilot bu huquqlari va manfaatlarini buzgan tashkilotga da'vo qilishga haqlidir. Da'vo yozma ravishda taqdim etiladi. Da'voda quyidagilar ko'rsatiladi: da'vo qilayotgan va da'vo qaratilgan tashkilotlarning nomlari; da'vo berilgan kun va tartib raqami; da'vo berish uchun asos bo'lgan holatlар; da'voda ko'rsatilgan holatlarni tasdiqlovchi dalil-isbotlar; arizachining talabi; da'veoning miqdori va uning hisob-kitobi, da'vo arizasi berayotganning to'lov va pochta ma'lumotlari; da'voga ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Da'vo tashkilot rahbari yoki uning o'rnbosari tomonidan imzolanadi. U buyurtma xat bilan yoki qimmatli xat shaklida, telegraf, teletayp orqali, shuningdek, uning jo'natilganligi qayd qilinishini ta'minlovchi boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda jo'natiladi yoki tilxat olib topshiriladi.

Da'vo taqdim etilgan tashkilot da'voni olgan kundan boshlab bir oy muddat ichida unga javob qaytarishi shart. Da'voni butunlay yoki qisman tan olgan taqdirda tashkilot ana shu tan olingan summani ixtiyoriy ravishda arizachiga o'tkazadi. Da'voni tan olish to'g'risida ma'lum qilinmagan bo'lsa, da'vogar javob olganidan keyin 20 kunlik muddat o'tgach, qarzdor tan olgan summani so'zsiz chegirib olish xususidagi farmoyishni bankka taqdim etishga haqlidir. Farmoyishga qarzdorning javobi ilova qilinadi.

Da'voni qondirishdan butunlay yoki qisman bosh tortilgan hollarda yoki javob o'z muddatida olinmaganda arizachi xo'jalik sudiga da'vo bilan murojaat qilishga haqlidir.

Xo'jalik shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish paytida tashkilotlar o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar shartnoma loyihasi, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida taklif olingan kundan boshlab 10 kunlik muddat ichida tashkilot rahbari yoki uning o'rribosarları tomonidan qarab chiqiladi. Shartnoma shartlari qabul qilinsa, uning loyihasi imzolanadi va shartnomaning ikkinchi nusxasi shartnoma loyihasini yo'llagan tarafga qaratiladi. Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi takliflar qabul qilinganligi haqida ikkinchi tarafga xat jo'natiladi.

Shartnoma shartlari bo'yicha e'tirozlar bo'lgan taqdirda shartnoma loyihasini olgan tashkilot kelishmovchiliklar bayonini tuzadi, bu haqda shartnomada qayd etib qo'yadi va 10 kunlik muddat ichida ikki nusxada tayyorlangan kelishmovchiliklar bayonini imzolangan shartnoma bilan ikkinchi tomonga jo'natadi.

Kelishmovchiliklar bayonini olgan tashkilot 20 kunlik muddat ichida shartnoma tuzilayotgan taraf bilan uni qarab chiqishi va shu muddatda murosaga kelinmagan masalalarni xo'jalik sudining muhokamasiga yo'llashi shart.

Bahsli masalalar shu muddatlarda xo'jalik sudi muhokamasiga kiritilgan hollarda shartnoma kelishmovchiliklar bayoni tahririda tuzilgan deb hisoblanadi. Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi taklifga javob olinmaganda yoki rad javobi olinganda manfaatdor tomon 20 kv'ilik muddat ichida xo'jalik sudiga murojaat qilishga haqlidir. Agar xo'jalik nizolarini sudgacha ko'rib chiqish kerakli natijalarni bermasa, materiallar tegishlichha xo'jalik sudiga beriladi. Oliy xo'jalik sudi quyidagi nizolarni hal qiladi:

1) 100 mln. so'mdan ortiq summaga xo'jalik shartnomalari tuzilganda, u o'zgartirilganda va bekor qilinganda, shuningdek, shartnomalarni ijro etish chog'ida va boshqa asoslar bo'yicha, da'vo besh mln. so'mdan ortiqni tashkil etganda turli davlatlar va O'zbekiston Respublikasining viloyatlarda joylashgan taraflar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni. O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq hal etilishi o'zga organlar ixtiyoriga berilgan nizolar bundan mustasno;

2) mamlakatimiz davlat boshqaruvi organlarining va boshqa respublika organlarining qonunlarga mos kelmaydigan hamda tashkilotlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini buzuvchi normativ xususiyatga ega bo'lмаган hujjatlarini butunlay yoki qisman haqiqiy emas deb e'tirof etish haqidagi nizolarni;

3) O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlari va boshqa respublika organlari tomonidan normativ xususiyatga ega bo'lмаган, qonunlarga mos kelmaydigan hamda tashkilotlarning huquqlarini va

manfaatlarini buzuvchi hujjatlarini nashr etish natijasida yoki ko'rsatib o'tilgan organlarning tashkilotlarga nisbatan o'z vazifalarini lozim tarzda amalga oshirmsaliklari natijasida tashkilotlarga yetkazilgan zararlarning o'mini qoplash haqidagi nizolarni;

4) respublika boshqaruv organlari o'rtasidagi iqtisodiy bitimlardan kelib chiqadigan nizolarni;

5) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini qo'llash bilan bog'liq bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlatlararo bitimlar va xalqaro shartnomalarda O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlari ixtiyoriga berilgan boshqa nizolarni.

Oliy xo'jalik sudi xo'jalik sudlari sudloviga tegishli har qanday nizoni o'z ijrosiga qabul qilishga va hal etishga haqlidir. Shuningdek, qonunda belgilangan da'vo qiymatidan yuqori yoki past bo'lgan nizolarni qabul qilish va hal etish haqida xo'jalik sudlariga umumiy topshiriq berish huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar xo'jalik sudlari o'ziga tegishli bo'lgan barcha nizolarni va ming so'mdan ortiq bo'lgan mulkiy nizolarni hal etadilar. Oliy xo'jalik sudi tasarrufiga kiritilgan nizolar bundan mustasnodir.

Xo'jalik shartnomalarini tuzish, ularni o'zgartirish va bekor qilish chog'ida yuzaga keladigan nizolar mahsulot yetkazib berayotgan yoki xizmat ko'rsatayotgan korxona (tashkilot) joylashgan yerdagi xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Shartnomalarni ijro etishda va boshqa asoslarda paydo bo'ladigan nizolar javobgar joylashgan yerda ko'rib chiqiladi. Davlat organlarining hujjatlarini haqiqiy emas deb topishga doir nizolar hujjatni chiqargan davlat organi joylashgan yerdagi xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Agar ish yuzasidan bir necha javobgar qatnashayotgan bo'lsa, nizo da'vogarning xohishiga binoan, javobgarlarning biri joylashgan yerdagi xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Transportda tashish shartnomalari bo'yicha, shu jumladan, xalqaro shartnomalar bo'yicha kelib chiqadigan nizolar javobgarlardan biri transport organi bo'lsa, bu ish o'sha organ joylashgan yerdagi xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Davlat hujjatini yoki respublika bo'ysunuvidagi o'z organ hujjatini haqiqiy emas deb topishga doir nizolar Oliy xo'jalik sudi tomonidan, mahalliy bo'ysunuvdagi organ hujjatini haqiqiy emas deb topishga doir nizo esa – Qoraqalpog'iston Respublikasi yoki viloyat xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Xo'jalik nizosi o'z sudloviga tegishli bo'lmasa, da'vo materiallarini besh kunlik muddat ichida tegishli xo'jalik sudiga jo'natadi. Ushbu nizo xo'jalik sudiga tegishli bo'lmasa, da'vo arizasini qaytarish

asoslari ko'rsatib, ajrim chiqargan holda materiallarni arizachiga qaytaradi, ajrimda arizaning qaytarilishi asoslab beriladi.

Nizoni qarab chiqish protsessida da'vo qiymati oshib ketishi, da'vo sababi o'zgarishi yoki ikkinchi tomon ham qarshi da'vo arizasini taqdim etishi tufayli, nizoning sudga mansubligi o'zgarsa, arizani qabul qilgan xo'jalik sudi nizoni mohiyati bo'yicha ko'rib chiqishi kerak. Viloyatlarning xo'jalik sudlari o'rtasida nizo kimga tegishli ekanligiga doir kelishmovchilik Olyi xo'jalik sudi tomonidan hal qilinadi.

Tomonlar, uchinchi shaxslar, prokuror zimmasiga yuklatilgan majburiyatlari tufayli protsessda ishtirokchi davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, hujjatlarni haqiqiy emas deb topishga doir ishlar yuzasidan arizachilar ishda qatnashuvchi shaxslar sifatida e'tirof etiladi. Bu shaxslarning barchasi ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxa ko'chirish, raddiya bildirish, dalil-asoslarni taqdim etish, o'rganib chiqishda qatnashish, sudlov protsessining qatnashchilariga savollar berish, iltimosnomalar kiritish, xo'jalik sudiga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, barcha masalalar yuzasidan o'z dalil-isbotlarini hamda mulohazalarini bildirish, boshqa ishtirokchilarning iltimosnomalari, dalil-isbotlari hamda mulohazalariga e'tiroz bildirish, xo'jalik sudi qarorlarining qonuniyligi va asoslilagini tekshirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish hamda XPK bilan berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanishga haqlidirlar. Shu bilan birga, ular o'zlar ega bo'lgan barcha protsessual huquqlardan foydalanishi shart.

Sud protsessidagi taraflar bo'lib tashkilotlar – mulk shaklidan qat'i nazar, yuridik shaxslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning qonunlariga asosan o'z huquqlari hamda manfaatlarini xo'jalik sudlarida himoya qilishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslar da'vogar yoki javobgar hisoblanadi.

Da'vo qilayotgan yoki manfaatlarini ko'zlab da'vo kiritilgan tashkilotlar da'vogar hisoblanadi. Da'vo talablari qaratilgan tashkilot javobgar hisoblanadi. Ikkalasi ham teng protsessual huquqlarga ega.

Da'vo bir necha da'vogarlar tomonidan birlgilikda taqdim etilishi yoki bir necha javobgarga qaratilishi mumkin. Ularning har biri protsessda boshqa tomonga nisbatan mustaqil ishtirok etadi. Sheriklar ishni yuritishni o'z sheriklaridan biriga topshirishi mumkin. Xo'jalik sudi yetarli asoslar mavjud bo'lganda, nizo bo'yicha qaror qabul qilingunicha, biror tomonning iltimosnomasiga yoxud o'z tashabbusiga ko'ra, tegishli tashkilotni boshqa da'vogar yoki javobgar sifatida ishda qatnashishga jalb etishga haqlidir.

Javobgarni ishga jalb etish to'g'risidagi iltimosnomasi ushbu javobgar bilan o'zaro munosabatlar ixtiyoriy ravishda tartibga solish choragi-

tadbirlari ko'rilgan taqdirda qanoatlantirilishi mumkin. Javobgarni xo'jalik sudi tashabbusi bilan ishga jalb etish, chora-tadbirlarning ko'rilganligidan qat'i nazar, amalga oshirilishi mumkin. Da'vogarni yoki javobgarni ishda qatnashishga jalb etish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Nizoli huquqiy munosabatda yoki xo'jalik sudining qaroriga binoan belgilangan huquqiy munosabatda qatnashayotgan taraflardan biri o'zining qayta tashkil etilishi oqibatida chiqib ketgan taqdirda, xo'jalik sudi ushbu tomonni uning huquqiy vorisi bilan almashtiradi hamda bu to'g'rida qarorda yoki ajrimda yozib qo'yadi. Huquqiy vorislik sud protsessining istalgan bosqichida amalga oshirilishi mumkin.

Da'vogar xo'jalik nizosi bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar da'vo asosi va mavzusini o'zgartirishga, da'veoning talablar miqdoriga doir qismida o'zaro munosabatlarni ixtiyoriy ravishda tartibga solish chora-tadbirlarini ko'rish sharti bilan da'vo talablarining miqdorini oshirishga haqlidir. U da'vodan voz kechishga yoki da'vo talablarining miqdorini kamaytirishga haqlidir. Javobgar da'voni to'la yoki qisman e'tirof etishga haqlidir.

Xo'jalik sudi da'vo asosi yoki mavzusiga doir o'zaro munosabatlarni ixtiyoriy ravishda tartibga solish chora-tadbirlari ko'rilgan-ko'rilmaganligidan qat'i nazar, da'vogarning roziligini olib, o'z tashabbusi bilan da'vo asosini yoki mavzusini o'zgartirishga haqlidir. Ushbu sud, qonun hujjatlariga zid keladigan bo'lsa, da'vodan voz kechishni yoki da'veoning e'tirof etilishini qabul qilmaydi.

Tashkilotlarning rahbarlari yoki ularning o'rinnbosarlari xo'jalik sudida taraflarning vakillari hisoblanadi. Mazkur shaxslar vakolatlari ularning xizmat mavqeini guvohlantiruvchi hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Bundan tashqari, boshqa shaxslar ham taraflarning vakillari bo'lishi mumkin, ularning vakolatlari tashkilotlarning tegishli tarzda rasmiylashtirilgan ishonch yorlig'i bilan tasdiqlanadi.

Nizo mavzusi yuzasidan mustaqil talablarni bayon etayotgan uchinchiligi shaxslar xo'jalik sudi qaror qabul qilguniga qadar ishga qo'shilishlari mumkin. Ular tarafning huquqlaridan foydalaradilar hamda uning barcha majburiyatlarini zimmalariga oladilar.

Agar bu shaxslar xo'jalik nizosi bo'yicha qabul qilinadigan qaror taraflardan birining huquqlari yoxud majburiyatlariga ta'sir etishi mumkin bo'lsa, xo'jalik sudi qaror qabul qilguniga qadar da'vogar yoki javobgar tomonida ishga qo'shilishlari mumkin. Ular taraflarning, prokuorning iltimosnomasiga ko'ra yoki xo'jalik sudining tashabbusi bilan ishda qatnashishga jalb etishlari mumkin. Mustaqil talablarni bayon etmayotgan ushbu shaxslar tomonlarning protsessual huquqlaridan foydalananadilar hamda protsessual majburiyatlariga ega bo'ladi. Da'vu

asosini va mavzusini o'zgartirishga, da'vo talablari miqdorini oshirishga yoki kamaytirishga, shuningdek, da'vadan voz kechishga, e'tirof etishga yoxud murosaga kelishga, qarorning majburiy tarzda ijro etilishini talab qilishga bo'lgan huquqlar bundan mustasno.

Xo'jalik sudi bir sud protsessining o'zida javobgarga nisbatan dastlabki da'veni va javobgarning mustaqil talablar bayon etmagan uchinchi shaxsga nisbatan regress da'vosini yoxud ana shunday uchinchi shaxsning tomonlardan biriga nisbatan da'vosini ko'rib chiqishga hamda regress da'vosi yuzasidan qaror qabul qilishga haqidir.

Da'vo arizasi prokuror yoki uning o'rinnbosari tomonidan xo'jalik sudiga davlat yoki tashkilot manfaatlarini ko'zlab yuborilgan yoxud xo'jalik sudining qaroriga protest bildirilgan hollarda prokuror sud protsessida ishtirok etadi. Davlat yoki tashkilotlar huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish talab etsa, prokuror sud protsessining istalgan bosqichida ishtirok etishga haqidir. Uning da'vadan bosh tortishi, da'vo talablari miqdorini kamaytirish, da'vo asosi yoki mavzusini o'zgartirishi da'vogarni da'vo talablarini dastlabki tarzda saqlab turish huquqidan mahrum etmaydi.

Qonun hujjatlariда nazarda tutilgan hollarda davlat organlari va o'zga organlar tashkilotlarning yoxud davlatning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun da'vo taqdim etishlari mumkin. Mazkur organlarning o'zlarini kiritgan da'vadan voz kechishlari da'vo berish bilan manfaatlarini himoya qilinayotgan shaxsni ish mohiyatan qarab chiqilishini talab qilish huquqidan mahrum etmaydi.

Davlat organlari va o'zga organlar, qonunda nazarda tutilgan hollarda, xo'jalik sudi tomonidan sud protsessida ishtirok etishga jalb qilinishi yoxud o'z zimmalariga yuklangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ish yuzasidan xulosa berish uchun o'z tashabbuslariga binoan sud protsessiga qo'shilishlari mumkin.

Ish yuzasidan taraflar hisoblangan jamoat birlashmalari va tashkilotlar, mehnat jamoalarining vakillari xo'jalik sudida qarab chiqilayotgan nizo bo'yicha o'z birlashmalari hamda jamoalarining fikrini bayon qilish uchun xo'jalik sudida ishtirok etadilar. Bu vakillar materiallar bilan tanishish dalil-isbotlarni ko'zdan kechirish hamda tadqiq etishda qatnashish (davlat yoki tijorat sirini qo'riqlash manfaatlariga zid bo'lgan hollar bundan mustasno), dalil-isbotlarni taqdim etish, nizolarni ko'rib chiqish davomida tug'ilayotgan barcha masalalar yuzasidan o'z dalil-asoslarini keltirish hamda iqtisodiy munosabatlarda qonuniylik huzilishining sabablarini aniqlashda ishtirok etish huquqiga egadirlar, "zlariga berilgan protsessual huquqlaridan qat'yan qonunga muvofiq olda foydalanishlari shart. Ularning vakolatlari jamoat birlashmasi yoki

mehnat jamoasining saylab qo'yiladigan organi qabul qilgan qarordan ko'chirma bilan guvohlantiriladi.

Da'vo arizasini qabul qilgan xo'jalik sudining sudyasi ish yuritishni boshlash to'g'risida ajrim chiqaradi hamda uni tomonlarga, protsessda qatnashayotgan prokurorga yuboradi. Unda da'vo arizasi qabul qilinganligi, ish xo'jalik sudining majlisida hal etishga tayinlanganligi, majlis o'tkaziladigan vaqt va joy, ishni majlisda hal etishga tayyorlash yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'ladigan harakatlardan qayd etib o'tiladi. Bu ajrim boshqa tashkilotlardan hujjatlar, ma'lumotlar va xulosalar so'rabb olinadigan yoki ularning mansabdon shaxslari xo'jalik sudiga chaqiriladigan hollarda ham yuboriladi.

Xo'jalik nizosining to'g'ri va o'z vaqtida hal etilishini ta'minlash maqsadida suda yaridagi harakatlarni amalga oshiradi:

- da'vogar ko'rsatmagan tashkilotlarni taraflar sifatida ishda qatnashishga jaib etish masalasini hal qilish;

- o'zaro munosabatlarni ixtiyoriy ravishda tartibga solish to'g'risida taklif yuborilmagan tashkilotlarni javobgarlar jumlasidan chiqarish;

- taraflar, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdon shaxslari zimmasiga muayyan harakatlarni bajarish vazifasini (hisob-kitoblarni solishtirib chiqish, dalil-isbotlarni joyida ko'zdan kechirish va shu kabilarni) yuklash;

- taraflardan, boshqa tashkilotlardan nizoni hal etish uchun zarur hujjatlarni, ma'lumotlarni hamda xulosalarni so'rabb olish;

- ekspertiza tayinlash to'g'risidagi masalani hal etish;

- yozma va ashyoviy dalil-isbotlarni joyida ko'zdan kechirish hamda tadqiq qilish;

- taraflar vakillarining xo'jalik sudi majlisida hozir bo'lishini, mansabdon shaxslarni ish mohiyati yuzasidan tushuntirishlar berish uchun chaqirishni, xo'jalik sudining majlisini tashkilot joylashgan yerda o'tkazishni talab qilish;

- nizoning to'g'ri va o'z vaqtida hal etilishini ta'minlashga qaratilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

Xo'jalik sudi tarafning, protsessda qatnashayotgan prokurorning arizasiga binoan yoki o'z tashabbusiga ko'ra, da'veni ta'minlash choratadbirlarini ko'rishga haqlidir. Ularni ko'rmaslik qarorning ijro etilishini qiyinlashtirishi yoxud yo'qqa chiqarishi mumkin bo'lsa, da'vening ta'minlanishiga yo'l qo'yiladi.

Quyidagilar da'veni ta'minlash choralarini bo'lishi mumkin:

- javobgarga tegishli mol-mulk yoki pul mablag'larini xatlab qo'yish.
- javobgarning muayyan xatti-harakatlarni sodir etishini taqiqlash.

– boshqa shaxslarning nizo mavzuiga oid xatti-harakatlarni sodir etishini taqilash;

– da'vogar norozilik bildirayotgan ijro hujjatiga yoki so'zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan boshqa hujjatga binoan undirib olishni to'xtatib qo'yish.

Da'vo ta'minlanganligi to'g'risida ajrim chiqariladi. Taraf ushbu ajrimning qay darajada qonuniyligi va asosliligini tekshirish xususida ariza bilan murojaat qilishga haqidir. Da'voni ta'minlashni bekor qilish to'g'risidagi masala ishni qarab chiqayotgan xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi, bu xususda hal qiluv qaroriga yoki ajrimga yozib qo'yiladi.

Nizolarning qarab chiqilishi, hal qiluv qarorlarining qabul qilinishi va tarqatilishi mumkin qadar qisqa muddatlarda, biror da'vo arizasi olingan kundan boshlab ko'pi bilan ikki oy ichida amalga oshirilishi lozim. Bunda hal qiluv qarori u qabul qilingan kundan boshlab ko'pi bilan besh kun ichida jo'natalidi. Nizolar xo'jalik sudi tomonidan majlisda tomonlar vakillarining ishtirokida bir yoki uch sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqiladi.

Majlisni olib borish tartibini majlisda raislik qilayotgan sudya belgilaydi. Sudya xo'jalik sudining tarkibini e'lon qiladi, protsessning qatnashchilariga ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi hamda ularga tegishli huquqlarning amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

Majlisda da'vogar va javobgar vakillarining, ekspertning hamda majlarda qatnashayotgan boshqa shaxslarning so'zi tinglanadi. Sudya nizoni hal etish uchun har qanday zarur dalil-isbotlarni taqdim etishda har bir tomonga teng va to'la imkoniyat berishi lozim va tomonlar murosaga kelishiga ko'maklashadi.

Da'vo arizasiga bildirilgan fikr yoki sudya talab qilgan materiallar taqdim etilmagan taqdirda ish ushbu masalaga oid mavjud bo'lган materiallar bo'yicha hal etilishi mumkin. Xo'jalik sudining majlisiga taraflarning vakillari kelmagan taqdirda, sudyaning fikricha bunday hozir bo'lmaslik nizoning hal etilishiga to'siq bo'lmasa hamda tarafning nizo o'z vakilining ishtirokisiz hal etilishiga qarshi yozma e'tiroznomasi yo'q bo'lsa, nizo ular yo'qligida hal qilinishi mumkin.

Xo'jalik sudi nizoni bevosita tashkilotda hal etishga haqidir. Tashkilotlarning rahbarlari bunday holda xo'jalik sudining majlisini o'tkazish uchun zarur sharoitlarni ta'minlab berishlari shart.

Shuningdek, xo'jalik sudi ish mazkur majlisda hal etilishi mumkin bo'limgan hollarda ishni eshitishni keyinga qoldirishga haqidir. Protsessning qatnashchilari navbatdagi majlis o'tkaziladigan vaqt va joy to'g'risida sudya tomonidan ajrim yoki boshqa yozma hujjat bilan xabardor qilinadilar. Alohida murakkab nizolar hal etilayotganda sudya

keyinchalik hal qiluv qarorida buni ko'rsatib o'tish sharti bilan uch kundaq oshmaydigan muddatga majlisda tanaffus e'lon qilishga haqlidir.

Xo'jalik sudi ish bilan bog'liq boshqa ishni yoki vakolatli idoralar tegishli masalani hal etguniga qadar bu muayyan ishni ko'rib chiqish mumkin bo'lмаган hollarda ishni yurgizishni to'xtatib turadi. U yana ekspertiza tayinlagan, materiallarni tergov organlariga yuborgan, tashkilot qayta tuzilganligi oqibatida biron taraf uning haqiqiy vorisi bilan almashtirilgan taqdirda, xo'jalik sudi tarafning iltimosiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan ish yurgizishni to'xtatib turishga, holatlar bartaraf etilganidan so'ng esa, ish yurgizishni qaytadan davom ettirishga haqlidir. Ish yurgizishni to'xtatib turish va uni qaytadan davom ettirish to'g'risida ajrim chiqariladi. Taraf ushbu ajrimning qonuniy va asosliligini tekshirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilishga haqlidir.

Agar quyidagi holatlar bo'lsa, xo'jalik sudi ish yurgizishni tugatadi:

- xo'jalik nizosi xo'jalik sudida hal etilishga tegishli bo'lmasa;
- ayni bir tomonlar o'rtasida, ayni bir mavzuda va ayni bir asoslarga ko'ra kelib chiqqan nizo bo'yicha tegishli organning qarori mavjud bo'lsa;
- arizachi javobgar bilan o'zaro munosabatlarni ixtiyoriy ravishda tartibga solish choralarini ko'rмаган hamda bunday tartibga solish imkoniyati yo'qqo chiqqan bo'lsa;
- ishdagi tomon hisoblangan tashkilot tugatilgan bo'lsa.

Ish yurgizish to'xtatilgan taqdirda ayni bir taraflar o'rtasida ayni shu mavzuda va ayni bir asoslarga ko'ra kelib chiqqan nizo yuzasidan xo'jalik sudiga ikkinchi bor murojaat qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ish yurgizish to'xtatilganligi haqida ajrim chiqarilib, unda sud xarajatlarini taraflar o'rtasida taqsimlashga, budjetdan davlat bojini qaytarishga, shuningdek, materiallarni o'z vaqtida jo'natmaganlik uchun jarimani undirishga oid masalalar hal etilishi mumkin. Lekin taraflar ushbu ajrimning qonuniy va asosliligini tekshirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilishga haqlidirlar.

Xo'jalik sudi quyidagi hollarda da'veni qarab chiqishdan qoldiradi:

- da'vo arizasi imzolash huquqiga ega bo'lмаган shaxs tomonidan yoxud mansab lavozimi qayd etilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo'lsa;
- ayni bir taraflar o'rtasida, ayni shu mavzuda va ayni bir asoslarga ko'ra kelib chiqqan nizo yuzasidan xo'jalik sudida ish mavjud bo'lsa;
- arizachi qонуларга binoan javobgardan qarzni bank orqali olishi kerak bo'lib, bu xususda bank muassasasiga murojaat qilmagan bo'lsa;
- da'vogar xo'jalik sudi tomonidan talab qilingan, nizoni hal etish uchun kerakli bo'lган materiallarni uzrli sabablarsiz taqdim etmay bo'lsa;

– arizachi javobgar bilan o'zaro munosabatlarni ixtiyoriy ravishda tartibga solish chora-tadbirlarini ko'rmagan va bunday tartibga solish imkoniyati yo'qqa chiqmagan bo'lsa.

Da'vo qarab chiqilmay qoldirilganligi to'g'risida ajrim chiqarilib, unda sud xarajatlarini tomonlar o'rtasida taqsimlashga oid masalalar hal etilishi mumkin. Da'voni qarab chiqmay qoldirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlar bartaraf etilganidan so'ng da'vogar xo'jalik sudiga umumiy tartibda qaytadan da'vo bilan murojaat qilishga haqlidir.

Nizoni mohiyati bo'yicha hal qilishda (da'voni qondirish, da'voni to'la yoki qisman rad etish) xo'jalik sudi hal qiluv qarori qabul qiladi. U majlisda ishning barcha holatlarini tomonlarning vakillari ishtirokida muhokama qilish natijalariga qarab, shuningdek tomonlar o'rtasida erishilgan kelishuvni hisobga olib, basharti u qonun hujjatlariga, ishning haqiqiy holatlariga va materiallariga zid bo'lmasa, qabul qilinadi.

Nizo bir necha suda tomonidan hal etilayotgan taqdirda hal qiluv qarori sudyalarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ayrim hollarda alohida murakkab ishlari yuzasidan hal qiluv qarorining qabul qilinishi uch kundan oshmaydigan muddatga kechiktirilishi mumkin.

Hal qiluv qarori yozma shaklda bayon qilinadi hamda majlisda raislik qilayotgan suda hal etayotgan bo'lsa, majlisda qatnashayotgan barcha sudyalar tomonidan imzolanadi. Hal qiluv qaroriga rozi bo'lmagan suda o'z fikrini yozma bayon qilishi mumkin. Bu ishga ilova etiladi.

Xo'jalik sudi qonun hujjatlariga zid bo'lgan shartnomani butunlay yoki qisman haqiqiy emas deb topadi, shuningdek, agar tomonlarning talablari davlat organining yoxud boshqa organning qonunlariga muvofiq kelmaydigan hujjatiga asoslangan bo'lsa, ushbu talablarning qondirilishini rad etadi.

Nizo yuzasidan hal qiluv qarorini qabul qilishda xo'jalik sudi quyidagi huquqlarga ega:

- tashkilotlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lsa, da'vo talablaridan chetga chiqishga;

- da'vogar jazo choralar to'g'risida talablar qo'yмаган bo'lsa yoki qonun hujjatlarini javobgarning mas'uliyatini pasaytirmaydigan tarzda buzgan bo'lsa, undirayotgan jarimani (neustoyka penya) respublikaning budget daromadiga to'la yoxud qisman o'tkazishga;

- majburiyatni buzgan tomonidan undirilishi lozim bo'lgan jarimaning miqdorini favqulodda hollarda kamaytirishga;

- qarorning ijro etilishini kechiktirishga yoki uzaytirishga.

Bundan tashqari, xo'jalik sudi talab qilingan materiallarni belgilangan muddatda jo'natranganlik uchun, da'vo yuzasidan fikr bildirmaganlik uchun, taraflning o'z zimmasiga yuklangan harakatlarni sodir etishdan bosh

tortganligi uchun, shuningdek, mansabdar shaxs kelishi shart bo'lgani holda xo'jalik sudiga kelmaganligi uchun aybdor tomonidan respublika budjeti foydasiga eng kam oylikkacha bo'lgan miqdorida jarima undirishga haqlidir.

Qabul qilingan qaror sudya tomonidan ish ko'rib chiqish tugallanganidan keyin e'lon qilinadi. Sudya faqat qarorning xulosa qismini e'lon qilishga haqlidir. Tomonlarga qarorning qonuniy va asosliligini tekshirish xususida ariza berish tartibi tushuntiriladi.

Agar nizo mohiyati bo'yicha hal etilmayotgan bo'lsa (ish ko'rish kechiktirilganda, ish yurgizish to'xtatib turilganda, tugatilganda, da'vo ko'rib chiqilmay qoldirilganda va shu kabilarda), xo'jalik sudi ajrim chiqaradi. Nizoni hal etish chog'ida tashkilotning, davlat organi va boshqa organning faoliyatida qonun hujjatlari buzilayotganligi aniqlangan taqdirda xo'jalik sudi xususiy ajrim chiqarishga haqlidir. U tegishli tashkilotlarga, davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdar shaxslarga yuboriladi.

Hal qiluv qarorlari va ajrimlar tomonlarga jo'natiladi yoki ularning vakillariga topshiriladi. Xo'jalik sudi tomonning arizasiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan da'vo arizasida bayon etilgan biron-bir talab bo'yicha qaror qabul qilinmagan bo'lsa, sud xarajatlari to'g'risidagi masala hal etilmagan bo'lsa qo'shimcha qaror qabul qilishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va uning o'rinnbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahar prokurorlari va ularning o'rinnbosarlari tegishli tarzda Oliy xo'jalik sudining, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining va viloyatlar xo'jalik sudlarining hal qiluv qaroriga nisbatan protest kiritishga haqlidirlar.

Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik sudi, viloyat xo'jalik sudi o'z tashabbusi bilan vakolati doirasida istalgan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqishga haqlidir. Hal qiluv qarori qonuniy va asosliliği xususida Oliy xo'jalik sudi chiqargan qaror qat'iy bo'ladi.

Hal qiluv qarorining qonuniy va asosliligini tekshirish sudlov hay'atining uch sudyasidan iborat tarkibdagi xo'jalik sudi tomonidan amalga oshiriladi. Tekshirish natijalari yuzasidan qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Qarorlarni tekshiruvchi hay'at bo'lмаган xo'jalik sudlarida tekshirish xo'jalik sudining raisi yoki uning o'rinnbosari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda o'rinnbosar qabul qilgan hal qiluv qarori rais tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Hal qiluv qarorining qonuniy va asosliligini tekshirish to'g'risidagi ariza hamda protest kiritish qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirilmay amalga oshiriladi. Ularni mohiyatan ko'rib chiqish uchun ham shunday muddat belgilangan. Xo'jalik sudi hal qiluv qarorining

qonuniy va asosliliginu tekshirish natijalari bo'yicha quyidagilarga haqlidir:

- qarorni o'zgarishsiz qoldirishga;
- qarorni o'zgartirishga;
- qarorni bekor qilish va yangi qaror qabul qilishga;
- qarorni bekor qilish va ishni yangitdan ko'rib chiqish uchun topshirishga;
- qarorni bekor qilish va ish yuritishni tugatishga;
- qarorni bekor qilish va da'veoni ko'rib chiqmay qoldirishga.

Hal qiluv qarori arizada yoki protestda bayon etilgan dalillardan qat'i nazar, to'la hajmda tekshiriladi. Bunda xo'jalik sudi hal qiluv qarorining qonuniy va asosliliginu tekshirish chog'ida birinchi bosqich sudda nizoni hal etishda xo'jalik sudiga beriladigan huquqlardan foydalanadi.

Quyidagilar qarorni o'zgartirish yoki bekor qilishga asos bo'ladi:

- ish uchun ahamiyat kasb etadigan holatlarning to'la-to'kis aniqlanmaganligi;
- ish uchun ahamiyat kasb etadigan va xo'jalik sudi aniqlangan deb hisoblayotgan holatlarning isbotlanmaganligi;
- hal qiluv qarorida bayon etilgan xulosalarining ish holatlariiga mos emasligi;
- moddiy yoki protsessual huquq normalalarining buzilganligi yoxud noto'g'ri qo'llanilganligi.

Frotsessual huquq normalalarining buzilganligi yoxud noto'g'ri qo'llanilganligi, agar bunday buzilish noto'g'ri qaror qabul qilinishiga olib kelgan yoxud olib kelishi mumkin bo'lgan taqdirda, qarorning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi uchun asos bo'ladi.

Bunday qarorlarning qonuniy va asosliliginu tekshirish natijalari yuzasidan dalil-isbotli qaror qabul qilinadi hamda u qarorlarning qonuniy va asosliliginu tekshirish bo'yicha sudlov hay'atining sudyalarini tomonidan, hay'at bo'limgan joylarda esa xo'jalik sudi raisining o'rinosi yoki o'zi tomonidan imzolanadi. Oliy xo'jalik sudining raisi, Bosh prokuror nizolar yuzasidan Oliy xo'jalik sudi tomonidan qabul qilingan qarorga nisbatan protest kiritishga haqlidirlar. Protest hal qiluv qarori O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lgan yoki boshqa davlatlarning manfaatlari buzilgan taqdirda qonuniy va asosliligi tekshirilganidan so'ng kiritiladi.

Oliy xo'jalik sudining plenumi protestni ko'rib chiqish chog'ida Oliy xo'jalik sudining hal qiluv qarori qonuniy va asosliliginu tekshiruvchi hay'at raisi yoki a'zosi (sudy)ning ish holatlari hamda protest asoslari to'g'risidagi ma'rzasini tinglaydi. Zarur hollarda tushuntirish berish uchun Plenum majlisiga tomonlarning vakillari taklif etiladi. Bunday

hollarda Plenum majlisi to‘g’risidagi xabarnoma va protest nusxasi tomonlarga yuboriladi.

Protest muhokama qilingandan so‘ng qaror qabul qilinadi. Nizoni hal etishda, qarorning qonuniy va asosliligini tekshirishda qatnashgan sudy ovoz berishga haqli emas. Plenum qarori qabul qilinishi bilanoq kuchga kiradi hamda JPKda belgilangan tartibda ijro etiladi.

Xo‘jalik sudi o‘zi qabul qilgan hal qiluv qarorini ish uchun muhim bo‘lgan hamda arizachiga ma‘lum bo‘lmagan va ma‘lum bo‘la olmaydigan yangi holatlarga binoan qayta ko‘rib chiqishi mumkin. Bunday holatlarga ko‘ra, qarorni qayta ko‘rib chiqish to‘g’risidagi ariza qarorning qayta ko‘rib chiqilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan holatlar aniqlangan kundan boshlab bir oydan kechiktirilmay beriladi. Hal qiluv qarorini qayta ko‘rib chiqish uni qabul qilgan tegishli sudlov hay’atining sudyasi (sudyalari), hay’at bo‘lmagan joyda esa qarorni qabul qilgan sudyu tomonidan amalga oshiriladi. Xo‘jalik sudi yangitdan ochilgan holatlarga ko‘ra hal qiluv qarorini qayta ko‘rib chiqish xususidagi ariza olingan taqdirda, agar bиринчи galdagi qaror ijro etilmagan bo‘lsa, ko‘rib chiqish nihoyasiga yetguncha hal qiluv qarorining ijrosini to‘xtatib turishga haqlidir. Bunday holatlarga ko‘ra qabul qilingan hal qiluv qarori umumiy tartibda tekshirilishi mumkin. Xo‘jalik sudining qarori u beradigan buyruqqa asosan ijro etiladi. Buyruq ijro hujjati hisoblanadi va qaror bilan birgalikda yuboriladi.

Pul mablag‘larini undirishga oid buyruq uni undiruvchi shaxsga topshiriladi yoki buyurtma, qimmatli xat bilan unga yuboriladi. Mablag‘lar budjet foydasiga undirilayotganda buyruq soliq organiga yuboriladi hamda belgilangan tartibda bank muassasasi orqali ijro etiladi. Qolgan buyruq sud ijrochilari tomonidan bajariladi. Birinchi galdagi va qarshi da‘volar to‘la yoki qisman qondirilganda, undirish to‘g’risidagi buyruqlar har bir da‘vo bo‘yicha alohida beriladi.

Ijro uchun buyruq taqdim etilgan organ mablag‘larni undirish to‘g’risidagi xo‘jalik sudining qarorini bajarmaganligi uchun xo‘jalik sudi tarafning arizasiga ko‘ra yoki o‘z tashabbusi bilan mablag‘ning 50 foizigacha miqdorda jarima soladi. U respublika budjetiga undiriladi. Jarima solinganligi to‘g’risida ajrim chiqariladi. Jarima solingan organ ajrimning qonuniy va asosliligini tekshirish haqida ariza bilan murojaat qilishga haqli. Hal qiluv qarorini ijro etishi shart bo‘lgan mansabdar shaxs xo‘jalik sudining qarorini ijro etmaganligi uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo‘ladi.

#### **4.10. Harbiy sudlar**

«Sudlar to‘g‘risida»gi qonunning 39-moddasiga binoan, mamlakatimizning harbiy sudlar tizimi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi harbiy hay’ati, harbiy sudi (viloyat sudi huquqi doirasida) okrug va hududiy harbiy sudlaridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudlariga quyidagi ishlar taalluqlidir:

– O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligining, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mitaning, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati organlarida, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlarida va O‘zbekiston Respublikasi qonuning hujjatlariga binoan tuzilayotgan tuzilmalarda xizmat qilayotgan shaxslar, shuningdek, o‘quv yig‘inlari vaqtida harbiy xizmatga majburlar tomonidan mamlakatimiz hududida sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar;

– O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar harbiy qismlari, qo‘shilmalari va birlashmalarning qo‘mondondonlariga nisbatan harbiy xizmatchilarning da‘vosi bo‘yicha fuqarolik ishlari va mazkur mansabdon shaxslarning g‘ayriqonuniy harakatlari ustidan beriladigan shikoyatlar, shuningdek, favqulodda holatlarga ko‘ra umumiyligi sudlar bo‘lmagan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlari, davlat sirlariga daxldor boshqa ishlar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining *Harbiy hay’ati* – rais, rais o‘rinbosari va sudyalardan tarkib topgan.

Ichki qo‘shinlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) bo‘linmalarining harbiy sudi viloyat sudining huquqi doirasida ish ko‘radi va rais, rais o‘rinbosarlari, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo‘ladi.

Okrug harbiy sudi tuman sudining huquqi doirasida ish ko‘radi va rais, harbiy sudyalar hamda xalq maslahatchilaridan iborat bo‘ladi.

Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи tomonidan 1993 yil 2 sentabrda tasdiqlangan nizom bilan belgilanadi. Ushbu niżomga ko‘ra, harbiy sudlarning sudyalari «Sudlar to‘g‘risida»gi qonunda belgilangan tartibda saylanadilar va tayinlanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay’ati sudloviga oliy ofitserlar tarkibiga kiramagan mansabdon shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar, shuningdek, ushbu shaxslarga daxldor boshqa ishlar va shikoyatlar taalluqlidir.

Harbiy sudning sudloviga o‘lim jazosi belgilanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar hamda polkovnik, birinchi rang kapitani unvoniga ega bo‘lgan shaxslarning jinoyatlari va polk komandiri lavozimi va undan yuqori lavozimlarni hamda xizmat mavqeい bo‘yicha shu lavozimlarga teng

lavozimlarni egallab turgan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Okruglar harbiy sudlari sudloviga podpolkovnik, ikkinchi rang kapitanidan yuqori bo'laman unvonga ega shaxslarning jinoyatlari hamda ushbu shaxslarga daxldor boshqa ishlar va shikoyatlar taalluqlidir.

Bir guruh shaxslarni ayplashga oid ish bo'yicha, agar ayblanuvchilardan biri to'g'risidagi ish harbiy sudga taalluqli bo'lsa va uni qonunga ko'ra alohida ish yuritishga ajratish mumkin bo'limasa, harbiy xizmatda bo'laman shaxslarga oid ish harbiy sud tomonidan ko'rildi. Yakka shaxs yoki bir guruh shaxslar bir necha jinoyatni sodir qilishda ayblanib, agar jinoyatlardan biri to'g'risidagi ish harbiy sudga taalluqli bo'lsa, hamma jinoyatlar harbiy sud tomonidan ko'rildi.

Harbiy sudlar jinoyat ishlari bilan birga harbiy qismlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, jamoat birlashmalari, shuningdek, fuqarolarning sodir etilgan jinoyatlar natijasida ularga yetkazilgan moddiy zararni undirish to'g'risidagi fuqarolik da'volarini ham ko'rib chiqadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati quyi sudlarning sudloviga taalluqli har qanday ishni birinchi instansiya tartibida qabul qilish huquqiga ega.

#### O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi:

- harbiy sudlar faoliyatini tashkil etishni tekshiradi;
- harbiy sudlar amaliyatini, shuningdek, sud statistikasi yuritilishini tashkil etishni o'rGANADI va umumlashtiradi;
- harbiy sudlar sudyalarining malakasini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi;
- sudyalarning mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarni amalgalashiradi;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Mudofaa vazirligi bilan birga xalq maslahatchilari saylovini o'tkazishni tashkil etadi, harbiy sudlarni tashkil etish va ularning moddiy texnika ta'minoti masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi harbiy sudlarning ish faoliyati masalalari bo'yicha buyruq va farmoyishlar chiqaradi. Harbiy sudlar tarkibi, shtatlar soni, mansablar ro'yxati va mansablarga mos bo'lgan harbiy unvonlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri bilan kelishilgan holda bergen taqdimnormasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Harbiy hay'at, harbiy sudlarning shaxsiy tarkibi Qurolli Kuchlar ro'yxatiga kiradi va harbiylarning barcha ta'minot turlari bilan ta'minlanadi, sudyalar va harbiy xizmatchilarning huquq va imtiyozlardan

foydalananadi. Harbiy hay'at, harbiy sudlar va okrug harbiy sudlari sudyalariga egallab turgan lavozimlariga muvofiq harbiy unvon beriladi. Harbiy sudlar sudyalariga polkovnikdan yuqori bo'lmanan unvonlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri tomonidan beriladi. Oliy harbiy unvonlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va Mudofaa vazirining birqalikdagi taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan beriladi.

Harbiy sudlar sudyalarini «Sudlar to'g'risida»gi qonunga va harbiy nizomlarga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

Harbiy sudlarning xodimlari mehnat to'g'risidagi qonunlarga muvofiq tegishli harbiy sud raisi tomonidan ishga qabul qilinadilar va ishdan bo'shatiladilar.

Harbiy sudlar va Harbiy hay'atni moddiy texnika, moliyaviy hamda transport va aloqa vositalari bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga yuklatiladi va respublika budgetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Harbiy sudlarning xizmat binolari ular amal qilib turgan yerda joylashgan harbiy qismlari tomonidan qo'riqlanadi. Gaupvaxtalarda saqlanayotgan mahbuslarni harbiy sudlarga qo'riqlab olib borish va ularni sud majlisida qo'riqlash harbiy qismlarning harbiy komendanturalari tomonidan amalga oshiriladi. Lekin boshqa saqlash joylarida, axloq tuzatish muassasalarida saqlanayotgan mahbuslarni qo'riqlash va ishni ko'rish joyiga qo'riqlab olib kelish belgilangan tartibda ichki qo'shin qismlari va ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 martda qabul qilingan 120-sonli «Sudlar faoliyatini takomillashtirishni ta'minlash choralarini to'g'risida»gi qaroriga binoan, sudlarning joriy faoliyatini moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, sudlarning binolarini qurish, ulardan foydalanimish va ularni qo'riqlash Sudlarning moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlanishini tashkil etuvchi departament tomonidan respublika budget vositalari hisobidan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya muassasalari va sudlarini rivojlantirish fondi hisobidan amalga oshiriladi. Bunday Departament sudyalarini ikkinchi saylov muddatiga saylash to'g'risidagi malaka hay'atlarining xulosalarini ko'rib chiqadi.

**5-BOB  
ADLIYA VAZIRLIGI**

**5.1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
va uning asosiy vazifalari**

O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligini adliya vaziri boshqaradi. U ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy xavfsizlik kengashining a'zosi hamdir. Bu mazkur vazirlikning jamiyat va davlat hayoti uchun ahamiyatini ko'rsatadi. Vazirlik tarkibida hay'at faoliyat ko'rsatadi. U majlislarda Adliya vazirligi faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqadi, boshqarmalar va bo'limlar rahbarlarining hisobotlarini, O'zbekiston Respublikasi sudlari raislarining ma'ruzalarini tinglaydi, kadrlarni tanlash, o'rniga qo'yish, o'qitish va tarbiyalash, qarorlarni bajarishni tekshirish, muhim buyruqlarning va vazirliklar boshqa hujjatlarining loyihibarlarini muhokama qiladi, shuningdek, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, ijro hokimiyyati mahalliy organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning rahbarlarini taklif etgan holda ulardagagi yuridik xizmatlar huquqiy ishi va faoliyatini tekshirish natijalarini muhokama qiladi. Hay'atining qarorlari vazirning buyruqlari bilan hayotga tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 8 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoniga ko'ra, adliya organlarining roli va javobgarligini oshirish, qonunchilik faoliyatini takomillashtirish, aholining yuridik himoyasini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni yaxshilash maqsadida Adliya vazirligi huquqiy siyosatni o'tkazish bo'yicha respublika davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, taraflardan biri O'zbekiston Respublikasi hisoblangan hollarda boshqa davlatlarning sudlarida huquqiy masalalarni hal qilishda Prezidentning vakili sifatida chiqadi.

Adliya vazirligi, belgilangan tartibda, boshqa respublikalar va xorijiy davlatlarning tegishli davlat organlari va yuridik muassasalari bilan, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan muzokaralar olib borish va shartnomalar tuzish huquqiga ega.

Ushbu farmon bilan Adliya vazirligi zimmasiga quyidagilar yuklangan:

– davlat va xo'jalik organlari yuridik xizmatlarining xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, attestatsiyadan o'tkazishni tashkil qilish, shuningdek, fuqarolarga huquqiy yordam berishga mo'ljallangan tadbirkorlik faoliyatiga litsenziyalari berish;

– vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar o‘z vakolatlari doirasida qabul qilayotgan umumiy majburiy tusdagi normativ hujjatlarning huquqiy ekspertizasini o‘tkazish va ro‘yxatga olish;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Adliya vazirligi vakolatida bo‘lgan qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni kiritish va ishlab chiqish^ .

Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining adliya boshqarmalari, notariat, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish muassasalari, Toshkent sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot instituti, qonunchilik muammolarini tadqiq qilish instituti, Toshkent Davlat yuridik instituti, Toshkent yuridik kolleji, «Adolat» nashriyoti, «Adolat» xo‘jalik hisobidagi huquqiy yordam ko‘rsatish markazi.

Vazirlik O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sudlarni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudidan tashqari) tashkiliy jihatdan ta‘minlashni va advokaturaga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Vazirlik «Hayot va qonun» – «Jizn i zakon» jurnalini, «Inson va qonun» – «Chelovek i zakon» gazetasini nashr etadi.

Vazirlikning asosiy vazifalari quyidagilardir:

a) adliya idoralari, sudlar, davlat organlari va respublikaning o‘zini o‘zi boshqaruvchi mahalliy organlarining huquqiy siyosat sohasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish va axborot bilan ta‘minlash;

b) qonunchilik muammolarini tadqiq qilish, respublika qonunchilik va boshqa xil normativ aktlarini tayyorlashda qatnashish, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarorlarini tartibga solish, kodifikatsiya qilish;

v) jamoat birlashmalarining ustavlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek, ularning ustavlarga qanday rivoja qilayotganliklari ustidan nazoratni amalga oshirish;

g) respublika vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining umumiy majburiy tusdagi normativ hujjatlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

d) fuqarolarga va yuridik shaxslarga yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyatini litsenziyalash;

ye) respublika vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralarining yuridik xizmatlariga uslubiy yordam ko‘rsatish, respublika muassasalari va idoralarining tashqi iqtisodiy faoliyatlarini huquqiy ta‘minlash;

j) O‘zbekiston Respublikasining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, taraflardan biri O‘zbekiston Respublikasi bo‘lib hisoblanganda boshqa respublikalar, xorijiy davlatlar sudlarida nizolar ko‘rib chiqilayotganda vakillik qilish;

z) sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'y sunishlari prinsipiiga qat'iy amal qilgan holda sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash;

i) O'zbekiston Respublikasining huquqi muhofaza qilish organlari va davlat boshqaruv organlarining yuridik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash va ular bilan ta'minlash;

k) yuridik umumiy majburiy ta'limdi tashkil etish, Toshkent sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot instituti, Qonunchilik muammolarini tadqiq qilish instituti, Toshkent Davlat yuridik instituti, Toshkent yuridik kolleji va tizimning boshqa o'quv muassasalarining faoliyatini takomillashtirish, huquqiy fanlarni rivojlantirishga va ularning yutuqlaridan O'zbekiston Respublikasining davlat, xo'jalik va madaniy qurilishida foydalanishga ko'maklashish;

l) vazirlik tizimi xodimlariga zarur mehnat va dam olish sharoitlari yaratib berish to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatish.

Adliya vazirligi o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

– boshqa respublikalar va xorijiy davlatlarning sudlarida O'zbekiston Respublikasining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor huquqiy nizolar bo'yicha da'vogar va javob beruvchi vakil sifatida ish ko'rish, buning uchun zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va hujjatlar bilan tanishish va ularni respublikaning barcha davlat organlari va jamoat tashkilotlaridan olish;

– vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, davlat xizmatlari, jamoat tashkilotlari, ilmiy muassasalar va o'quv yurtlaridan qonunchilik aktlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarorlari loyihalari yuzasidan xulosalar olish va ko'rsatilgan organlarning rahbarlari bilan kelishilgan holda ushbu loyihalarni tayyorlash bo'yicha komissiya (ishchi guruuhlari) tashkil etish;

– sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini qo'yish va ularni ko'rib chiqish uchun respublika sudlari sudyalarining malaka hay'atlariga berish;

– adliya idoralar, muassasalar, sudlarning rahbarlari va mutaxassislarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining ko'rib chiqishi uchun qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha takliflar kiritish;

– vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va kooperativlar yuridik xizmatlarining huquqiy ishlari holati va faoliyatini tekshirish, ular

tomonidan ishi to‘g‘risidagi tegishli ma’lumotlar taqdim etilishini talab qilish, ko‘rsatilgan organlarning rahbarlariga aniqlangan kamchiliklarni bir oy muddat ichida albatta bartaraf etish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish, zarur chora-tadbirlar ko‘rilmagan taqdirda, amaldagi qonunchilik ijro etilmaganligi uchun mansabdar shaxslarni javobgarlikka tortish yoki ularning aybi bilan yetkazilgan moddiy zararni undirib olish masalalari bilan yuqori organlarga yoki sudga murojaat qilish;

– fuqarolar jamoat birlashmalari ustavlarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi, shuningdek, respublika vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralar va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqarolar va tashkilotlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar tartibga solinadigan, yoxud aholining muayyan toifasi yoki yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlariga boshqacha usulda daxl qilinadigan normativ aktlari loyihibarining O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq kelishi masalalarini hal etish;

– o‘z huquqi doirasida boshqa respublikalarning, xorijiy davlatlarning yuridik organlari bilan va xalqaro yuridik tashkilotlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lish. Bular Adliya vazirligining funksiyalari va ishini tashkil etishni belgilaydi.

## **5.2. Adliya vazirligi funksiyalarini va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari**

Adliya vazirligining funksiyalariga quyidagilar kiradi:

1) huquqiy siyosat o‘tkazish bo‘yicha respublika muvofiqlashtirish kengashining faoliyatiga rahbarlik qilishni amalga oshiradi, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari va davlat boshqaruvi organlari ishtirokida respublikada qonunchilik jarayoni, qonuniylikni va huquqtartibot mustahkamlanishini ta‘minlash, shuningdek, huquqiy umumiy ta‘limning kompleks davlat dasturi bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarning uzoq muddatlari rejalarini ishlab chiqadi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

2) barcha davlat va boshqa organlardan huquqiy statistika ma’lumotlarini talab qilib oladi, ushbu masalalar bo‘yicha statistik hisobotning yuritilishiga va tahlil qilinishiga uslubiy rahbarlik qilishni ta‘minlaydi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini fuqarolarning huquqiy himoya qilinganligi va ularga yuridik yordam ko‘rsatishning ahvoli to‘g‘risida xabardor qilib turadi;

3) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bo‘yicha va o‘z tashabbuslariga ko‘ra, qonunchilik va normativ-huquqiy aktlarning loyihibarini ishlab chiqadi va ularni ko‘rib chiqish uchun tegishli organlar-

ga kiritadi, yuqorida ko'rsatilgan hujjalarning loyihalari yuzasidan yuridik xulosalar beradi, respublika qonunchiligini tartibga solish bo'yicha ishlarni olib boradi, ularga o'zgarishlar yoki qo'shimchalar kiritishga oid takliflarni tayyorlaydi;

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi bilan doimiy amaliy aloqada bo'ladi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko'rib chiqish uchun kiritilgan qonun loyihalariga o'z takliflarini beradi;

5) jamoat birlashmalari ustavlarining, respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining fuqarolar va respublikaning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxil qiluvchi normativ-huquqiy aktlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosalar beradi, ushbu xulosalar asosida ularni davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

6) fuqarolarga va yuridik shaxslarga huquqiy yordam berish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziya (ruxsatnoma) beradi;

7) xalq xo'jaligida huquqiy ishlarni muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, uni yaxshilash yuzasidan tavsyanomalar ishlab chiqadi, ishlarning qo'yilishi amaliyotini tekshiradi va tahlil qiladi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yuridik xizmatlarining ijobiy ish tajribalari joriy qilinishi chora-tadbirlarini ko'radi, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatlarini huquqiy ta'minlashni amalga oshiradi, yurist-maslahatchilarning malakasini oshirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi;

8) o'z huquqi doirasida boshqa respublikalarning, xorijiy davlatlarning tegishli yuridik organlari bilan, shuningdek, xalqaro yuridik tashkilotlar bilan ishlarni muvofiqlashtirish huquqiy yordam ko'rsatish va hamkorlik qilish to'g'risida shartnomalar yoki bitimlar tuzadi;

9) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilishni, shu jumladan, sudda himoya qilishni amalga oshiradi;

10) sudsizlari tashkil etish (joylashtirish, tuzilishi, shtatlari) masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va ularni belgilangan tartibda tegishli organlarga kiritadi, belgilangan tartibda sudyalarini tayyorlashni, tanlashni va lavozimga taqdim etishni, respublika sudsizlarning xalq maslahatchilari saylovini o'tkazishni amalga oshiradi, sudyalarining mustaqilligini mustahkamlash, odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'radi, belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi sudsizlari sudyalarining konferensiyalarini chaqiradi;

11) respublika sudsizlarning tashkiliy faoliyatini o'rganadi va umum-lashtiradi, ularni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi

fuqarolik ishlari bo'yicha sndlarning qarorlarini, ajrimlarini, jinoiy ishlarning mulkiy jazo berish qismi bo'yicha sndlarning hukmlari, jarimalari va qarorlarini, shuningdek, sud ijrochilariga yuklatilgan boshqa organlarning qarorlarini ijro etish ishlarini tashkil etadi va nazorat qiladi;

12) adliya idoralari, sudlar va davlat boshqaruv organlarining huquqiy statistikani yuritish bo'yicha ishlarini muvofiqlashtiradi va umumlashtiradi, tegishli statistik umumlashtirishlarni tayyorlaydi;

13) notariat va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralarini tashkil etadi va ular faoliyatiga rahbarlik qiladi, ularning ishini tekshiradi, tahlil qiladi va umumlashtiradi, fuqarolarga huquqiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish chora-tadbirlarini ko'radi, amalga oshirilgan notarial harakatlar va fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatdan o'tkazish statistikasini yuritadi;

14) amaldagi qonunchilik bilan belgilangan doirada va tartibda respublika advokatura muassasalari faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, advokatlar hay'ati orqali fuqarolarga va tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatishni ta'minlaydi;

15) davlat organlari va jamoat tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligin targ'ib qilish va tushuntirish ishlarini muvofiqlashtiradi, tizimning o'quv muassasalariga rahbarlikni amalga oshiradi, huquqiy axborot sohasida texnik siyosatni ishlab chiqadi va hayotga tabbiq qiladi, huquqni amalga oshirish muammolarini tadqiq etadi, uni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi, huquq va odil sudlov masalalari yuzasidan jamoatchilik fikrini o'rganadi;

16) kriminologiya, kriminalistika va sud ekspertizasi sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etadi, Toshkent sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatiga rahbarlik qiladi, huquq fanlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy konferensiyalar va kengashlar tashkil etadi;

17) adliya muassasalari organlari va sud kadrlari rezervini yaratadi, ularni tayyorlashni tashkil etadi, kadrlarni tanlashni amalga oshiradi va belgilangan tartibda ularni joy-joyiga qo'yishda qatnashadi, ularni qayta tayyorlashni uyuشتiradi, Qonunchilik muammolarini tadqiq qilish institutiga rahbarlik qiladi, bunda institutda Vazirlik tizimi, deputatlar korpusi, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyyat mahalliy organlari va xo'jalik tashkilotlari xodimlarining samarali o'qitilishini ta'minlaydi;

18) davlat organlarining yuridik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlaydi, ularni Toshkent Davlat yuridik institutida, Toshkent yuridik kollejida va Vazirlik tizimining boshqa o'quv muassasalarida tayyorlash ishlarini tashkil etadi va rahbarlik qiladi;

19) respublika oliy va o'rtalik o'quv muassasalarini talabalari va o'quvchilari uchun yuridik darsliklar va o'quv qo'llanmalarining rejalarini ishlab chiqadi, shuningdek, kodekslar, normativ aktlar to'plamlari, ilmiy-ommabop va boshqa yuridik adabiyotlarni nashr etishni tashkil qiladi, adliya idoralari muassasalarini va sudsizlarni qonunchilik materiallari bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi.

20) fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vazirlikda va unga qarashli organlarda hamda sudsizlarda ishning tashkil etilishi bilan bog'liq xatlari, arizalari, shikoyatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf etish bilan shug'ullanadi;

21) adliya tizimi va sud xodimlarini moddiy va ijtimoiy ta'minlash to'g'risida takliflar ishlab chiqadi, adliya idoralari va sudsizlarning moddiy texnika ta'minotini tashkil etadi, sudsizlar, notariatlar, va fuqarolik bolati bo'limlari va boshqa adliya muassasalarining binolari kapital qurilishini amalga oshiradi, ijob hokimiyatining mahalliy organlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflar kiritadi;

22) belgilangan tartibda o'ziga qarashli organlarni va sudsizlarni moliyaviy ta'minlaydi adliya tizimida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etadi, nazorat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 27 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish va tuzilishidagi o'zgarishlar to'g'risida»gi qaroriga binoan, Adliya vazirligining iqtisodiy islohotlar bo'yicha qonunchilik va normativ hujjalarning loyihibarlarini tayyorlash va huquqiy ekspertiza qilish boshqarmasi tarkibida Tadbirkorlar va xususiy mulk egalarining huquqlarini saqlash bo'yicha qonunlarning bajarilishini nazorat qilish bo'limi tuzildi.

Mazkur bo'lim qonunlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha operativ tadbirlar qabul qiladi, barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari, mahalliy ijob hokimiyati organlari, muassasalar, korxonalar va tashkilotlar, mansabdar shaxslarning tadbirkorlar va xususiy mulk egalarining huquqlariga rioya etilishi bo'yicha qonunlarga so'zsiz amal qilishini tekshiradi. U yuqorida sanab o'tilganlardan tegishli hujjalarni ma'lumotlar talab qilishga haqli, sanab o'tilgan organlar va korxonalarining rahbarlariga aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etishni talab qilib taqdimnoma yuboradi. Ushbu talablar barcha tashkilotlar uchun o'n besh kun muddat ichida bajarilishi majburiy hisoblanadi. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlari va xususiy mulk egalarining huquqlariga rioya qilinishi bo'yicha qonunlarni buzgan shaxslarni belgilangan javobgarlikka tortish uchun yuqori turuvchi organlar yoki sud organlariga murojaat qiladi.

1993 yil 17 iyunda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan nizomga ko'ra, Adliya vazirligi davlat qaydidan o'tgan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarning umumiyligida normativ hujjatlarining maxsus ro'yxatini yuritadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari o'zgargan taqdirda, Adliya vazirligi ushbu idoralardan ularning normativ hujjatlarini qonunga muvofiqlashdirishlarini talab qilishga haqil.

Bunday hollarda vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar bir oy ichida o'z hujjatlariga o'zgartirishlar kiritishlari va ularni Adliya vazirligiga taqdim etishlari shart. O'zgartirishlar kiritilgan yoki normativ hujjatlar bekor qilinganda ular o'zgartirishlar loyihalarini huquqiy ekspertizalar uchun taqdim etishlari zarur.

Yuqorida sanab o'tilganlar Adliya vazirligining demokratik huquqiy davlatni shakllantirishdagi roli oshib borayotganligidan dalolat beradi. Bu tabiiy. Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, boshqa davlatlarda Adliya vazirligi hal qiluvchi ahamiyatga ega vazirliklardan biridir. Mamlakatimizda esa uning faoliyatining ahamiyati bundan keyin ham o'sib bo'raveradi.

### **5.3. Adliya vazirligi ishini tashkil qilish va uning tuzillishi**

O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri Adliya vazirligi faoliyatiga rahbarlik qiladi, vazirlikka yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi, o'zining o'rinosbasarlari o'tasida vazifalarni taqsimlaydi, vazirlik faoliyatining ayrim uchastkalariga va vazirlikka qarashli organlar ishiga rahbarlik qilish uchun ularning javobgarligi darajalarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri vazirlik huquqi doirasiga taalluqli bo'lgan masalalar bo'yicha adliya organlari, muassasalari va sudlar ijro etishi majburiy bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar va yo'riqnomalarning ijrosini tekshiradi.

Vazirlikning notarial harakatlarni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatdan o'tkazish, sud qarorlarini ijro etish, respublika xalq xo'jaligidagi yuridik xizmatlarning huquqiy ishlarini va faoliyatini yaxshilash masalalari bo'yicha yo'riqnomalari va ko'rsatmalari O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha vazirliklar, idoralar, ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, kooperativlar va fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi. Vazir zarur hollarda boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar rahbarlari bilan birgalikda qo'shma buyruqlar va yo'riqnomalar chiqaradi. Shu bilan birga, u:

- o‘z huquq doirasida huquqiy masalalar bo‘yicha boshqa respublikalar va xorijiy davlatlar bilan shartnomalar va bitimlarni O‘zbekiston Respublikasi nomidan imzolaydi;
  - Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan xodimlar soni va ish haqi to‘lash fondi doirasida vazirlik markaziy apparati tarkibini belgilaydi va shtat jadvalini tasdiqlaydi;
  - vazirliklar markaziy apparati boshqarmalari va bo‘limlari to‘g‘risidagi nizomlarni, shuningdek, o‘ziga qarashli muassasalarning nizomlari (ustavlari)ni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;
  - vazirlik markaziy apparatining, shuningdek, respublika adliya idoralari, muassasalari va sudlarining xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi;
  - respublika notariat va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish muassasalari tizimini tasdiqlaydi;
  - tegishli davlat organlariga respublika adliya organlari va sudlarni tashkil etish va ularning xodimlari sonini belgilash to‘g‘risida takliflar kiritadi;
  - sudya kadrlarini tanlash, joy-joyiga qo‘yish, shuningdek, respublika sudlari sudyalarini chaqirib olish va muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish bilan bog‘liq masalalarni qonun bilan belgilangan tartibda hal qiladi;
  - boshqarmalar va bo‘limlarning rahbarlarini, vazirlik markaziy apparatining boshqa xodimlarini, adliya tizimiga kiruvchi o‘ziga qarashli muassasalarning rahbarlarini ishga qabul qiladi;
  - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari adliya boshqarmalarining tegishlichcha rahbarlari lavozimlariga nomzodlar to‘g‘risida taqdimnomalar kiritadi;
  - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi bilan birlgilikda respublika sudlari sudyalarini malaka attestatsiyasidan o‘tkazish va ularga malaka darajalari berish to‘g‘risida takliflar kiritadi;
  - respublika adliya idoralari, muassasa va sudlari xodimlarini rag‘batlantirish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqadi; respublika sudlarining raislari va raislarining o‘rinbosarlari hamda sudyalariga nisbatan intizomiylar qo‘zg‘atadi, Vazirlikning, o‘ziga qarashli muassasalarning, notariat va fuqarolik holati dalolatnomalarining qayd qilish idoralarining xodimlariga, shuningdek, sud ijrochilariga intizomiylar jazo beradi.

Adliya vazirligi apparatiga ilgari sudya va boshqa yuridik soha bo‘yicha ishlagan malakali xodimlardan tanlab olinadi. Apparat quyidagi turuvchi adliya va sud organlariga amaliy yordam ko‘rsatadi.

Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining markaziy apparati tizimiga o'zgartirishlar kiritish va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi nizom» haqidagi qarorining ilovasiga ko'ra, vazirlikning tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat;

- 1) rahbariyat;
- 2) qonunchilik boshqarmasi;
- 3) iqtisodiy islohotlar bo'yicha qonun va normativ hujjatlarning loyihalarini tayyorlash va huquqiy ekspertiza qilish boshqarmasi;
- 4) fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish boshqarmasi;
- 5) jamoat birlashmalari bo'yicha boshqarma;
- 6) xalq xo'jaligida huquqiy ishlar boshqarmasi;
- 7) sudlar faoliyatini tashkiliy ta'minlash boshqarmasi;
- 8) kadrlar boshqarmasi;
- 9) hujjat ishlarini yuritish boshqarmasi;
- 10) huquqiy siyosat va xalqaro-huquqiy aloqalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi;
- 11) markaziy hisobxona;
- 12) moliya-xo'jalik boshqarmasi.

Bunday tuzilma Adliya vazirligining ishini, jumladan, uning boshqa huquqni muhofaza qilish organlariga nisbatan muvofiqlashtiruvchi faoliyatining yo'naliшини ham ta'minlaydi.

#### **5.4. Adliya vazirligining boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorligi**

Adliya vazirligining barcha huquqni muhofaza qilish organlari va yuridik xizmatlar bilan hamkorligi, avvalambor, qonunchilik hujjatlarni ishlab chiqish bilan bog'langan. Qonun loyihalari avvalo vazirliklar, idoralarning yuridik xizmatlarda tayyorlanadi. Lekin Adliya vazirligisiz ular Oliy Majlisga ham Vazirlar Mahkamasiga ham taqdim etilmaydi.

Adliya vazirligi iqtisodiy islohotlar bo'yicha qonun va normativ hujjatlarning loyihalarini tayyorlaydi, qonunlarni, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarini tizimlashtirish va kodifikatsiya qilishda qatnashadi. Tabiiyki, Adliya vazirligi o'z faoliyatida turli davlat va tijorat tashkilotlari bilan doimiy hamkorlik qiladi.

Adliya vazirligi xalqaro-huquqiy tusdagi hujjatlarga yuridik xulosha beradi. Odatda bu hujjatlarda O'zbekiston Respublikasi tomonlardan biri sifatida ishtiroy etadi. Natijada u tashqi bozorga chiqadigan va xalqaro munosabatlarda qatnashadigan barcha vazirliklar, idoralar bilan hamkorlik qiladi.

Adliya vazirligiga quyidagi majburiyatlar yuklangan:

- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy ijroiya hokimiyatlari, barcha turdag'i korxonalar va tashkilotlardagi huquqiy ishlar holati va yuridik xizmatlarning faoliyatini, shuningdek, vazirlikda ro'yxatdan o'tgan xo'jalik birlashmalari, aksiyadorlik jamiyatları, birjalar, auditorlik firmalarining ustavlariga rioya etilayotganligini nazorat qilish;
- ulardan kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilish;
- aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatilgan organlar va korxonalarning rahbarlariga bir oy muddat ichida bajarilishi shart bo'lgan talabnomalar yuborish;
- amaldagi qonunlarni buzganligi yoki o'z ayblari bilan yetkazilgan zararni davlatga yoxud korxonaga to'lamagan mansabdor shaxslarni belgilangan javobgarlikka tortish uchun yuqori turuvchi organlar yoki sudga murojaat etish.

Adliya vazirligi, ayniqsa, sud organlari bilan katta ishlarni olib boradi. U sudlarning, birinchi navbatda, Qoraqalpog'ston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, tuman va shahar sudlarining ishlarni tashkil qiladi. Bunda u sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi prinsiplariga qat'iy amal qiladi.

Vazirlik sudlarni tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va ularni Prezident e'tiboriga havola qiladi, sudyalikka nomzodlarni tanlaydi va tayyorlaydi, sud xodimlarining malakasini oshirish bilan shug'ullanadi, sudlarni moddiy-texnik ta'minlaydi, sud ishining tashkiliy tomonlarini tekshiradi, xalq maslahatchilarini saylashni tashkil qiladi, sud amaliyotini umumlashtirishda qatnashadi, sud hisoblarini yuritadi, (jumladan sud qarorlarining bajarilishi bo'yicha) sudlarning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Sudyalarning vakolatlarini to'xtatish va bekor qilish ham Adliya vazirligi ishtirokida amalga oshiriladi. Xullas, sud xodimlari bilan ishlash bo'yicha barcha ishlar Adliya vazirligi faoliyatining tarkibiy qismidir.

Adliya vazirligi huquqiy tashviqot va tarbiya ishida prokuratura hamda Ichki ishlar vazirligi organlari bilan hamkorlik qiladi. Adliya vazirligi ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, tashkil qiladi, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining yangi qonunlarni o'zlashtirishlariga yordam beradi, ular uchun metodik tavsiyanomalar ishlab chiqadi, «O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari» to'plamini, qonunlar va Prezident farmonlarini, tarmoq qonunchiliklari kodekslariga sharhlarni nashr etadi.

**6-BOB**  
**PROKURATURA: VAZIFALARI, TUZILISHI VA FAOLIYATINING  
ASOSIY YO'NALISHLARI**

**6.1. «Prokuror nazorati» tushunchasi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 118-moddasiga muvofiq, respublika hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. Prokuror barcha vazirliklar, idoralar, mansabdar shaxslar va fuqarolarning qonunlarni aniq bajarishlarini nazorat qiladi.

Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'y sunib amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdag'i «Prokuratura to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonuniga muvofiq, barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, davlat nazorati idoralar, hokimlar, shuningdek, kimga bo'y sunishidan, kimning tasarrufida bo'lishidan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, muassasalar, korxonalar va tashkilotlar, harbiy qismlar, jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslar fuqarolar qonunlarni aniq va bir xilda ijro etishlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Prokurorlar davlat nomidan nazoratni amalga oshiradilar. Ular kim bo'lishidan qat'i nazar, qonunni buzganlarga qarshi o'z vaqtida chora ko'rishlari shart.

Prokuratura organlarini tashkil qilish, ular faoliyatining tartibi, prokurorlar vakolati O'zbekiston Konstitutsiyasiga, «Prokuratura to'g'risida»gi qonunga va O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi boshqa qonun hujjatlariga asoslangan. «Prokuratura to'g'risida»gi qonunda ko'zda tutilmagan vazifalarni prokuratura zimmasiga yuklashga yo'l qo'yilmaydi.

**6.2. Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari  
va vazifalari**

Prokuratura idoralarining faoliyati qonunning ustuvorligini har tomonlama qaror toptirishga, huquq-tartibotni mustahkamlashga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan inson va fuqaroning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari hamda erkinliklarini, shuningdek, davlat mustaqilligini, ijtimoiy davlat tuzumini,

siyosiy va iqtisodiy tizimlarni, milliy guruhlar va hududiy tuzilmalarning huquqlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar o'z faoliyatini quyidagi yo'naliishlarda amalga oshiradilar:

- inson va fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat olib borish;

- barcha idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarning ijro etilishini nazorat qilish;

- jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi idoralarning qonunlarni ijro etishlarini nazorat qilish va ularning qonunlarni qo'llashga doir faoliyatini muvofiqlashtirish;

- sudlarda jinoiy ishlar ko'rib chiqilishida davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini qarab chiqishda ishtirot etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

- soliq intizomini mustahkamlashga, soliq valuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarlarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoarat;

- ushlanganlarni saqlash, dastlabki qamoq, sud tayinlagan jazo va majburiy xarakterdagi boshqa choralarini o'tash joyalarida qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish;

- Qurolli Kuchlarda qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish;

- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

- qonunchilikni takomillashtirish va qonunlarni targ'ib qilishda hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ishtirot etish.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari quiy pog'onadagi prokurorlar yuqori pog'onadagi prokurorlarga bo'y sunish tartibida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori boshchiligidagi yagona markazlashgan tizimni tashkil etadilar. Ular nazoratni va o'z vakolatlarini davlat hokimiyyati hamda boshqaruva mahalliy idoralaridan, mansabdar shaxslardan, jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilib turgan qonunlarga, xalqaro va davlatlararo shartnomalarga (bitimlarga) qat'iy rioya etib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysungan holda amalga oshiradilar.

Bosh prokuror va uning o'rinnbosarları O'zbekiston Respublikası Prezidenti farmoniga muvofiq, Oliy Majlis Senati tasdig'idan o'tganidan keyin lavozimlariga tayinlanadilar va ozod qilinadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy vakillik organi tomonidan tayinlanadi.

Viloyatlarning prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokurorining, viloyat, tuman va shahar prokurorlarining vakolat muddati – besh yil.

Prokuratura organlari qonuniylik hamda jinoyatchilikning ahvoli, asosiy yo'naliishlari to'g'risida, boshqaruv idoralari tomonidan qonunlarga rioxva etilishini ta'minlash, davlat va jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlarini muhofaza qilish borasidagi vazifalar qanday bajarilayotganligidan, tegishli bo'lishiga qarab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy idoralarini, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatlarini, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini, hokimlarni xabardor etadilar. Ular fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish to'g'risidagi, shuningdek, davlat siri hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirmi saqlash haqidagi qonun talablariga zid kelmaydigan darajada oshkora ish ko'radilar.

Prokuratura faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbe'liston Respublikasi Oliy Majlisi nazoratida bo'ladi. Prokuraturaning qonunlar ijro etilishini nazorat qilish, arizalar va xabarlarini tekshirish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish borasidagi faoliyatiga davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining hamda ular vakillarining, shuningdek, mansabdor shaxslarning aralashishi taqiqlanadi. Prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish yoki o'z faoliyatini amalgaga oshirishga to'sqinlik qilish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron-bir ta'sir ko'rsatganlik qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Prokurorning o'zi aniqlagan qonunbuzarlik hollarini, qonun buzilishlarining sabablarini va unga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish, hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, reviziya va tekshirish o'tkazish, mutaxassis ajratish to'g'risidagi, prokuraturaga kelish va qonun buzilganligi xususida tushuntirish berish haqidagi talablarini bajarish shunday talab yuborilgan barcha idoralar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Prokurorning talablari va qarorlari ustidan shikoyat qilinishi ularning ijrosini to'xtatib qololmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralarining majlislarida belgilangan tartibda qatnashish huquqiga egadirlar. Viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlarning prokurorlari, ularga tenglashtirilgan prokurorlar belgilangan tartibda tegishli va quiyi darajadagi hokimiyat va boshqaruvi idoralarining majlislarida ishtiroy etishga haqlidirlar. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

Prokuratura idoralari fuqarolarning ariza va shikoyatlarini, davlat, jamoat hamda boshqa tashkilotlarning murojaatlarini qarab chiqadilar va hal etishning boshqa tartibi belgilanmagan bo'lsa, ularni tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radilar. Shu munosabat bilan prokuror o'ziga tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni tekshirish vazifasini, zarur hollarda, tegishli davlat boshqaruvi va nazorati idoralariga, korxona, muassasa, tashkilotlarning mansabdor shaxslariga topshirish hamda ulardan tekshirishga taalluqli barcha materiallar bilan birga, tekshirish natijalariga doir yozma axborot berishlarini talab etish huquqiga egadir.

Prokuorning shikoyat va ariza bo'yicha qabul qilgan qarori ustidan yuqori pog'onadagi prokurorga shikoyat qilish mumkin. Biroq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori shikoyat yuzasidan qaror qabul qilganidan keyin prokuratura idoralarida ana shunday shikoyatlarga doir ishlar yotqiziladi. Yangi ma'lum bo'lgan holatlarga doir shikoyatlar bundan mustasnodir.

### **6.3. Prokuratura organlarining tizimi va tuzilishi**

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi O'zbekiston Respublikasi prokururaturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokururaturasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlar, tumanlararo va boshqa hududiy prokuraturalardan iboratdir. Unga, shuningdek, transport, harbiy, tabiat muhofazasi prokuraturalari va boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalar ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonunning 18-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzurida Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashishi departamenti tashkil etildi. Departamentga lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinosariga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Departament boshlig'i rahbarlik qiladi.

Departamentni hamda uning joylardagi bo'linmalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tarkibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan viloyatlar va tumanlar prokuraturalariga tenglashtirilgan boshqa prokuraturalar, tuman prokuraturalariga ega bo'lgan shaharlarda esa, tuman prokuraturalari bo'ysunadigan shahar prokuraturalari tuzilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tuziladigan transport, tabiat muhofazasi prokuraturalari, boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalar viloyatlar, tumanlar prokuraturalari, tumanlararo prokuraturalari yoki shahar prokuraturalari vakolati bilan faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi ichki qo'shinlari va FVV bo'linmalari harbiy prokururasini tashkil etish va uning ish tartibi «Prokuratura to'g'risida»gi qonun, boshqa qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasining harbiy prokururaturasi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

Jumladan, 1993 yil 7 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining harbiy prokururaturasi to'g'risidagi nizomga ko'ra, harbiy prokuratura «Prokuratura to'g'risida»gi qonunda o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajara turib, o'z faoliyatini Qurolli Kuchlar, chegara va ichki qo'shinlarda, qorovul qo'shinlarida, shuningdek FVV bo'linmalarida qonuniylik va huquqtartibotni mustahkamlashga qaratadi. U quyidagilarni muho'aza qiladi:

- harbiy xizmatchilar, harbiy quruvchilar va yig'inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, ularning oila-a'zolari va Qurolli Kuchlar ichki qo'shinlari qo'shinlari va FVV bo'linmalari xizmatchilarining, shuningdek, boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini;

- O'zbekiston Respublikasi xavfsizligini, Qurolli Kuchlarning, chegara qo'shinlari, ichki qo'shinlarning va qorovul qo'shinlarining hamda FVV bo'linmalarining harbiy qobiliyati va harbiy tayyorgarligini, harbiy intizom va harbiy xizmatni o'tashning belgilangan tartibini;

- harbiy qismlar, Qurolli Kuchlarning muassasalarini, harbiy o'quv yurti, korxonalarini va tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini.

Harbiy prokuratura o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi:

- a) barcha harbiy boshqaruv organlari, harbiy qismlar, harbiy o'quv yurtlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, ichki qo'shinlar va FVV bo'linmalarining komandirlari, boshqliqlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan, harbiy chaqiruvdagilar, shuningdek, Qurolli Kuchlar, ichki qo'shinlar va FVV bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari tomonidan o'z xizmat

vazifalarini bajarish paytida qonunlarga, nizomlarga va boshqa harbiy qonun hujjatlariga amal qilinishini nazorat qilish;

b) Qurolli Kuchlardagi surishtiruv, harbiy prokuratura tergovchilar organlari, shuningdek, MXX surishtiruv organlari, tergovchilar tomonidan harbiy sudlarga taalluqli jinoiy ishlarni tergov qilish paytida qonunlarga amal qilinishini nazorat qilish;

v) sudlarda ishlarni ko'rib chiqish paytida ishtirot etish va sud ishlari to'g'risidagi qonunlarning bajarilishini nazorat qilish;

g) gauptvaxtalar, shuningdek, hibsga olinganiarni va qamalgan harbiy quruvchilarni saqlashning boshqa muassasalarida, intizomiylar qismlarda hamda harbiy qismlarda harbiy sudlar belgilangan jazolarni o'tashda qonunlar va harbiy nizomlarga amal qilinishini nazorat qilish.

Harbiy prokuratura Qurolli Kuchlarda, chegara qo'shinlari, qorovul qo'shinlari hamda FVV bo'linmalarida jinoyatlarga va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash bo'yicha qonunlarning ijrosini nazorat qiladi. Uning zimmasiga jinoiy ishlar bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshirish, jinoyat qilganlarni javobgarlikka tortish, jinoyatlar uchun jazoning muqarrarligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish, ularning sabablarini va sharoitlarini tugatish yuklangan.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori boshchilik qiladi. U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va ozod etiladigan, keyin O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisni Senati tasdig'idan o'tadigan birinchi o'rinosiga, o'rinosarlarga ega. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'z o'rinosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasida Bosh prokuror (rais), uning birinchi o'rinosiga, o'rinosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, O'zbekiston Respublikasining harbiy prokurori, prokuratura idoralarining boshqa rahbar xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning shaxsiy tarkibini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlaydi.

Respublika prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar tuzilib, ularda katta prokurorlar va prokurorlar bo'ladi. Bosh prokuror katta yordamchilar, maxsus topshiriq bo'yicha yordamchilar va yordamchilarga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar boshliqlarini, boshliq o'rinosarlari, Bosh prokurorning katta yordamchilarini, maxsus topshiriq bo'yicha yordamchilarini va yordamchilarini, boshqarmalar va bo'limlarning katta prokurorlari hamda prokurorlarini, O'zbekiston Respublikasi prokura-

turasining alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar va katta tergovchilarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasiga* Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori boshchilik qiladi, uning Bosh prokuror tomonidan tayinlanadigan va ozod etiladigan birinchi o'rinnbosari va o'rinnbosarlari bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori (rais), uning birinchi o'rinnbosari, o'rinnbosarlari va prokuratura idoralarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning shaxsiy tarkibini O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tasdiqlaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida boshqarmalar va bo'limlar tuziladi. Boshqarma va bo'limlarning boshliqlari, respublika prokurorining katta yordamchilari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligidagi binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining yordamchilari, boshqarmalar va bo'limlarning katta prokurorlari hamda prokurorlari, alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar va katta tergovchilar Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tomonidan tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar.

*Viloyatlar va Toshkent shahri prokuraturalariga*, ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar boshchilik qiladilar. Ularring O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadigan va ozod etiladigan birinchi o'rinnbosarlari va o'rinnbosarlari bo'ladi. Viloyatlar va Toshkent shahri prokuraturalarida, ularga tenglashtirilgan boshqa prokuraturalarda prokuraturaga boshchilik qiladigan prokuror (rais), uning birinchi o'rinnbosari, o'rinnbosarlari va prokuratura idoralarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atlarning shaxsiy tarkibini tegishli prokurorlarning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tasdiqlaydi.

Viloyatlar, Toshkent shahri prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan boshqa prokuraturalarda boshqarmalar va bo'limlar tuzilib, ularning boshliqlari, shuningdek, katta yordamchilar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar. Boshqarmalar va bo'limlar boshliqlarining o'rinnbosarlari, yordamchilar, katta prokurorlar, alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar tegishli prokuror tomonidan tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar.

*Shaharlar va tumanlarning prokuraturalariga, shuningdek, ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar boshchilik qiladilar.* Ular o'rinnbosarlar, katta yordamchilar, yordamchilarga ega bo'lishi

mumkin. Prokuratoralarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tayinlaydigan va lavozimdan ozod qiladigan katta tergovchilar va tergovchilar xizmat qiladilar.

Harbiy prokuratura, tabiatni muhofaza qilish prokuraturasi (Orol dengizi bo'yicha) va transport prokururaturasi, shuningdek, maxsus prokuratura (jazoni ijro etish muassasalarining qonunlarga rivoja etishlarini nazorat qilish bo'yicha) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Bosh prokuror tomonidan rahbarlik qilinadigan yagona va markazlashgan prokuratura tizimiga kiradi, bunda quyi turuvchi prokurorlar yuqori prokurorlarga bo'ysunadi. Masalan, harbiy prokuratura O'zbekiston harbiy prokuraturasi, garnizonlar, okruglar va ularga tenglashtirilgan tuman (shahar) prokuratoralaridan tashkil topgan.

Harbiy prokuratura o'z vakolatlarini har qanday mahalliy va harbiy organlardan mustaqil ravishda amalga oshiradi. Harbiy prokuror O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi. Garnizonlar prokurorlari va okruglarning prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar O'zbekiston Respublikasi harbiy prokurorlarining taqdimiga binoan, Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi va vazifasidan ozod qilinadi. Yuqorida ko'rsatilgan barcha prokurorlarning vakolati muddati – besh yil.

O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi qonuni prokuratora organlariga quyidagi vakolatlarni bergan.

O'zbekiston Respublikasi *Bosh prokurori* mamlakatimiz barcha prokuratura idoralarining faoliyatiga rahbarlik va nazoratni amalga oshiradi, barcha prokuratura xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar chiqaradi. Uning tergov ishlariga doir masalalar bo'yicha ko'rsatmalari barcha tergov idoralarining ijrosi uchun majburiydir. Uning buyruqlari va boshqa hujjalari Konstitutsiya hamda o'zga qonunlarga mos kelmaganda (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Bosh prokuorning o'zi tomonidan ham), bekor qilinishi mumkin. U ajratilgan shtat birligi va mablag'lar doirasida o'ziga bo'ysunuvchi prokuratoralarni tashkil etadi va tugatadi, respublika prokururaturasi apparati va quyi pog'onadagi prokuratoralar tarkibini hamda xodimlari shtatini tasdiqlaydi. Barcha darajadagi va pog'onadagi prokuratoralar tashkiliy tarkibining tuzilishi va mansab okladlarini belgilaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tegishlicha shaharlar, tumanlar va ularga tenglashtirilgan prokuratoralarning faoliyatiga rahbarlik qiladilar, o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradilar; ko'rsatmalar beradilar; ajratilgan ish haqi fondi

doirasida belgilangan lavozimlarni saqlagan holda O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi bilan kelishib apparat va o'ziga bo'y sunuvchi prokuratoralarning shtat jadvaliga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin.

Tumanlarga bo'lingan shaharning prokurori turmanlar prokuratoralari va ularga tenglashtirilgan prokuratoralarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, yuqori pog'onadagi prokurorga apparat va o'z bo'y sunuvidagi prokuratoralarning shtat sonini o'zgartirish, xodimlarni joy-joyiga qo'yishga doir takliflar kiritadi.

O'zbekiston Respublikasining harbiy prokurori harbiy prokuratoralarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, ularning ishini nazorat qiladi, kadrlarni tanlash, o'rniغا qo'yish, tarbiyalash, malakasini oshirishni ta'minlaydi, prokurorlar va tergovchilarni shahodatlashdan o'tkazadi, o'z vakolatlari doirasida buyruqlar va yo'riqnomalar chiqaradi, ko'rsatmalar beradi. Ular harbiy prokuratoralarning barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi. Harbiy prokurorlar tegishlichcha o'rinnbosar, katta yordamchi va yordamchilar, katta tergovchi va tergovchilarga ega bo'ladilar.

Prokuratoralarda Bosh prokuror qaroriga binoan prokuror, prokurortergovchi uchastkalari tuzilishi mumkin. Harbiy prokurorlar prokuratura ishini tashkil qiladilar va o'z vakolatlari doirasida buyruqlar chiqaradilar.

Harbiy prokuratora tergovchilari qonunda o'z vakolatlari doirasiga kiritilgan, shuningdek, Bosh prokuror, mamlakat harbiy prokurori yoki quyi uruvchi harbiy prokurorlar tomonidan o'zlariga berilgan ishlar bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazadilar va jinoyat-protsessual qonunchiligidagi tergovchiga berilgan barcha huquqlardan foydalanadilar. Harbiy prokuratoraning tergovchilari quyidagi jinoiylar ishlarni tergov qiladilar: harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatchilarning yig'inlariga chaqirilgan shaxslar, askarlar, matroslar, serjantlar, starshinalar, praporshiklar, michmanlar va MXX ofitserlar tarkibidagi shaxslar sodir etgan jinoyatlar; harbiy quruvchilar va qonunda maxsus ko'rsatilgan boshqa shaxslar sodir etgan jinoyatlar; Qurolli Kuchlar ishchilari va xizmatchilari o'z xizmat vazifalarini bajarishlari paytida yoki harbiy qismlar, muassasalar, harbiy-o'quv yurtlari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning tashkilotlari va korxonalari joylashgan hududda sodir etgan jinoyatlar.

Bir shaxs yoki bir necha shaxsga nisbatan bir yoki bir necha jinoyatlar sodir qilganlikda ayblov bo'lgan ishlarni tergov qilishda, agar bu shaxslardan biri yoki jinoyatlardan biri harbiy prokuratora tergovchisi vakolatida bo'lsa, jinoiylarni ajratish va biriktirish bo'yicha jinoyat-protsessual qonunchilik qonunlarida belgilangan tartibga rivoja qilgan holda harbiy prokuratora tergovchisi tomonidan tergov qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturalarida, viloyatlar, Toshkent shahri, harbiy prokuratura va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda hay'atlar faoliyat ko'rsatadi. Hay'atlar kengash qabulidagi idora bo'lib, qonuniylik va huquqtartibotning ahvoliga, prokuratura idoralarining faoliyatiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlari va ko'rsatmalarining ijrosiga, kadrlarga doir eng muhim masalalarni qarab chiqadi, o'z bo'y sunuvidagi prokurorlarning, prokuratura tarkibiy bo'linmalarining va boshqa xodimlarning hisobotlarini tinglaydi. Tegishli hay'atlarning majlislarida vazirliklar, idoralar, davlat boshqaruvi, nazorati va tekshiruvni idoralarining, korxona, muassasa va tashkilotlar, birlashmalar rahbarlarining, harbiy qismlar va qo'shilimlar komandirlari hamda o'zga mansabdor shaxslarning qonunlar ijrosi masalalariga doir axborotlari va tushuntirishlari tinglanishi mumkin. Hay'atlarning eng muhim qarorlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining va tegishli prokurorlarning buyruqlari bilan hayotga tatbiq etiladi. Bosh prokuror bilan hay'atning fikri bir yerdan chiqmagan taqdirda, Bosh prokuror o'z qarorini amalga oshiradi va bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisini voqif etadi.

Quyi pog'onadagi prokuraturalar hay'ati a'zolari o'rtasida ziddiyat kelib chiqqan taqdirda, tegishli prokuror o'z qarorini amalga oshirib, bu haqda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga yozma ravishda axborot beradi.

#### **6.4. Prokuror nazorati sohalari**

Prokuror nazoratining quyidagi sohalari mavjud:

- qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ketidan nazorat;
- jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarini ijro etilishi ustidan nazorat;
- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida jinoiy jazolarni va jinoyat huquqiy ta'sirining boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat;

Quyidagilar umumiy nazorat predmetiga kiradi:

- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalar, muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar, harbiy qismlar, jamoat tashkilotlari, partiylar va harakatlar, mansabdor shaxslar qonunlarni bajarayotganligi, shuningdek, ular chiqarayotgan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlaraiga muvofiqligi;

– shaxsning daxlsizligi to‘g‘risidagi, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquq va erkinliklari to‘g‘risidagi, ularning sha‘ni va qadr-qimmatini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlarga rioya etilishi;

– iqtisodiy munosabatlarga, atrof-muhitni muhofaza qilish va tashqi iqtisodiy faoliyatga doir qonunlarga rioya etilishi;

– fuqarolarning qonunlarga rioya etishlari.

Prokuror aralashuvini talab qiladigan qonun buzilish hollari haqida arizalar yoki boshqa ma‘lumotlar tushganda, shuningdek, yetarli asoslar bo‘lganda ham prokuror o‘z tashabbusi bilan qonunlar ijrosining tekshiruvlarini o‘tkazadi. Prokurorning xo‘jalik va boshqa turdagи faoliyatga bevosita aralashuviga, shuningdek, idoraviy boshqaruв va nazorat organlari faoliyatini amalga oshirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Prokuror o‘z vakolati doirasida nazoratni amalga oshirish chog‘ida quyidagilarga haqlidir:

– xizmat guvohnomasini ko‘rsatib, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning, tobeligidan, kimga qarashli ekanligidan va mulkchilikning shaklidan qat‘i nazar, muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, va birlashmalarining, harbiy qismlar, jamoat birlashmalarining hududi va binolariga moneliksiz kirishga, hujjatlar va materiallarni olib ko‘rishga;

– tekshirish uchun zarur bo‘ladigan qarorlar, farmoyishlar, yo‘riqnomalar, buyruqlar va boshqa hujjatlarni talab qilib olishga, qonuniylikning ahvoli to‘g‘risida va uni ta‘minlashga doir chora-tadbirlar haqida ma‘lumotlarni olishga;

– davlat idoralari, harbiy qismlarning rahbarlari va mansabdor shaxslardan o‘z nazorati ostidagi hamda o‘z bo‘ysunuvidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish va taftish etishni, tekshirishlar, idoraviy va noidoraviy ekspertizalar o‘tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga;

– mansabdor shaxslar va fuqarolarni chaqiritirib, ulardan qonunlar buzilganligiga doir og‘zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qilishga.

Bunday qonunbuzarliklar aniqlangan taqdirda, prokuror yoki uning o‘rinbosari o‘z vakolatlari doirasida quyidagilarga haqli:

– vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning, muassasalarining, korxonalar va tashkilotlar, hokimlar, harbiy qismlar va jamoat birlashmalarini hujjatlariga, shuningdek, mansabdor shaxslarning qarorlari va xatti-harakatlariga nisbatan protest keltirishga;

– qonunda belgilangan tartibda jinoiy ishlар, intizomiy ishlар yoki ma‘muriy huquqbuzarliklarga doir ishlар qo‘zg‘atishga, ko‘rib chiqishi uchun materiallarni jamoatchilik muhokamasiga topshirishga;

– qonunni ochiqdan-ochiq buzish hollariga chek qo‘yish to‘g‘risida buyruq berishga;

– qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik xususida mansabdor shaxslar va fuqarolarni yozma ravishda ogohlantirishga;

– davlat idoralari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarga qonunbuzarlik hollarini, shuningdek, qonun buzilishining sabablari va bunga yo'l ochib bergen shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritishga;

– fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish to'g'risida sudlar yoki xo'jalik sudlariga ariza bilan murojaat etishga;

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, prokurorlik nazorati amalga oshirilmaydigan davlat idoralari va jamoat birlashmalarining normativ hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos emasligi xususida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat etishga.

Prokuror yoki uning o'rinnbosari qonunga zid bo'lgan normativ hujjatga nisbatan ana shu hujjatni chiqargan idoraga yoki yuqori turuvchi idoraga protest keltiradi. Bu protest topshirilgan vaqtidan boshlab ko'pi bilan o'n kunlik muddat ichida qarab chiqilishi shart. Qonuniylik buzilganligiga tezda barham berish talab qilingan favqulodda holatlarda prokuror protestni qarab chiqishning qisqartirilgan muddatini belgilashga haqlidir. Protestni qarab chiqish natijalari to'g'risida prokurorga uch kun muhlat ichida yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Protest kollegial idora tomonidan qarab chiqilgan taqdirda majlis bo'ladigan kun prokurorga ma'lum qilinadi. U protestni ko'rib chiqishda ishtirot etishga haqlidir.

Protest g'ayriqonuniy huquqiy hujjat chiqargan idora yoki yuqori turuvchi idora tomonidan rad etilgan taqdirda, shuningdek, protest qonunda belgilangan muddat ichida qarab chiqilmagan taqdirda, prokuror tegishli sudga ana shu hujjatni g'ayriqonuniy deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqlidir. Sudga ariza protest rad etilganligi to'g'risidagi axborot qilingan paytdan boshlab bir oylik muddat ichida yoki ko'rib chiqish uchun qonunda belgilangan muddat o'tgandan keyin berilishi mumkin. Prokurorning sudga ariza berishi u sudda ko'rib chiqilguniga qadar hujjatning amal qilishini to'xtatib qo'yadi.

Biroq ba'zi hollarda prokuror umumiylanzorat tartibida jinoiy ish qo'zg'ashi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, prokuror mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan qonunning buzilish mazmunidan kelib chiqqan holda jinoiy ish, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi yoki intizomiy huquqbuzarlikka doir ish qo'zg'atish to'g'risida asosli qaror chiqaradi. Qonunda ko'zda tutilgan o'zga hollarda ham prokuror qaror chiqaradi.

Intizomiy yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish haqidagi prokuror qarori idora yoki aniq mansabdar shaxs tomonidan bu qaror tushgan kundan boshlab kechi bilan o'n besh kunlik muddat ichida ko'rib chiqilishi shart. Ko'rib chiqish natijalari to'g'risida prokurorga uch kunlik muhlat ichida yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Prokuror munosabatining boshqa bir turi taqdimnomadir. Prokuror qonunning buzilishiga, ana shu buzilishlarning sabablariga va uning buzilishiga ko'maklashgan shart-sharoitlarga barham berish to'g'risidagi taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish vakolatiga ega bo'lgan davlat idorasiga, jamoat tashkilotiga yoki mansabdar shaxslarga kiritadi. Bu taqdimnomada darhol ko'rib chiqilishi lozim. Ko'rildigan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga ma'lum qilinishi shart.

Taqdimnomada kollegial idora tomonidan qarab chiqilayotganda, prokurorga majlis o'tkaziladigan kun ma'lum qilinadi, u bu majlisda qatnashishga haqlidir.

Prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza Bilan murojaat qilishi lozim. Prokuorning arizasi sud tomonidan qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi. Qonun buzilganligi yaqqol ko'zga tashlangan hollarda va bu fuqarolar, davlat, korxona, muassasa, tashkilotning huquqlari va qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lganda amrnoma kiritiladi. Amrnoma zudlik bilan bajarilib, bundan prokuror voqif etilishi lozim. Amrnomadagi talablarga norozi bo'lgan taqdirda idora yoki mansabdar shaxs bu amrnoma ustidan yuqori pog'onadagi prokurorga shikoyat qilishi mumkin. Prokuror shikoyatni uch kunlik muddat ichida qarab chiqishi shart. Lekin shikoyat amrnoma ijrosini to'xtatib qo'ymaydi.

Nihoyat, fuqarolarning qonun tomonidan qo'riqlanadigan manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, davlat yoki jamoat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli ma'lumotlar bo'lganida huquqbuzarlikning oldini olish maqsadlarida mansabdar shaxslar va fuqarolar prokuror tomonidan qonunning buzilishiga yo'l qo'yilmaslik xususida yozma ravishda ogohlantiriladilar. Ularga huquqbuzarlik uchun javobgarlik tushuntiriladi. Ogochnoma to'g'risida prokuror yuqori turuvchi tashkilotga, shuningdek, ogochnoma chiqarilgan shaxsning ishslash, o'qish yoki yashash joyi ma'muriyatiga yoxud jamoat birlashmalariga ma'lum qilishga haqlidir.

Aktlar va boshqa zarur hujjalalar, materiallar va ma'lumotlar taqdim etish, tekshirishlar va taftishlar o'tkazish, mutaxassislar ajratish, prokuraturaga kelish va qonun buzilganligi yuzasidan tushuntirishlar

berishdan bo'yin tovlash, shu jumladan, prokuror fikri bildirilgan hujjatlarda bayon etilgan talablarni bajarishdan bosh tortish hamda ularni to'liq hajmda bajarmaslik tarzida prokuorning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish va prokuror talablarini bajarmaslik qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga olib keladi.

Jinoyat to'g'risidagi arizalar va ma'lumotlarni qarab chiqish hamda hal etish va tekshiruvlar o'tkazishning qonunlarda belgilangan protsessual tartibi, jinoyatchilikka qarshi kurash idoralari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashga qaratilgan boshqa qonunlarga og'ishmay amal qilish – jinoyatchilikka qarshi kurash idoralarining qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat qilish predmetidir. Ushbu nazorat sohasi bo'yicha prokurorlar quyidagi vakolatlarga ega:

- surishtiruv va dastlabki tergov idoralaridan tekshirish uchun jinoiylarni, hujjatlarni, materiallarni, sodir etilgan jinoyatlarga, tezkor-qidiruv, surishtiruv, dastlabki tergov ishining borishiga doir ma'lumotlarni talab qilish; sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlarga doir arizalar va ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish to'g'risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini oyida kamida bir marta tekshirish;

- tergovchilar va surishtiruv o'tkazuvchi shaxslarning g'ayriqonuniy hamda asossiz qarorlarini bekor qilish;

- jinoyatni tekshirish, ehtiyyot chorasi tanlash, o'zgartirish yoki bekor qilish, jinoyat kvalifikatsiyasini belgilash, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish to'g'risidagi yozma ko'rsatmalar berish;

- surishtiruv idoralariga jinoyat sodir etgan shaxslarni ushslash, majburiy keltirish, qamoqqa olish, tintuv o'tkazish, yashirilgan ashyolarni egasining taqdimga ko'ra olish, boshqa tergov harakatlarini bajarish to'g'risidagi qarorlarni ijro etishni topshirish, shuningdek, prokuror yoki prokuratura tergovchisi qo'lidagi ishlar yuzasidan jinoyatlarni ochish va jinoyatlar sodir etgan shaxslarni aniqlash to'g'risida ko'rsatmalar berish;

- surishtiruv va dastlabki tergovda ishtiroy etish hamda zarur hollarda har qanday ish yuzasidan shaxsan ayrim tergov harakatlarini yoki tekshiruv ishlarini to'liq amalgalash;

- tintuv o'tkazishga, pochta-telegraf hujjatlariга arest solish va ularni olib ketishga, gumon qilinayotgan yoki ayylanayotgan shaxsning telefonlar va boshqa surishtiruv apparatlari orqali olib borilayotgan suhbatlarini eshitib turishga, ayylanuvchini lavozimidan chetlatishga va qonunda nazarda tutilgan hollarda tergovchi hamda surishtiruv idorasiga boshqa xatti-harakatlar uchun ruxsat berish;

– qonunda belgilangan hollarda va tartibda tergov hamda ehtiyyot chorasi sifatida qamoqda saqlash muddatini uzaytirish;

– jinoiy ishlarni surishtiruv va dastlabki tergov idoralariga qo'shimcha tergov idoralariga qo'shimcha tergov o'tkazish to'g'risidagi o'z ko'rsatmalar bilan qaytarish;

– har qanday ishni surishtiruv idorasidan olib qo'yish va tergovchiga berish, to'la va xolis tekshiruvni o'tkazishni ta'minlash maqsadida ishni dastlabki bir tergov idorasidan olib boshqasiga berish, shuningdek, bir tergovchidan olib boshqasiga berish;

– ishni tekshirish chog'ida qonun buzilishiga yo'l qo'ygan bo'lsalar, surishtiruv o'tkazayotgan shaxsni yoki tergovchini surishtiruv yoxud dastlabki tergov ishlarini davom ettirishdan chetlatish;

– jinoiy ishlar qo'zg'atish yoxud jinoiy ishlar qo'zg'atishni rad etish;

– jinoiy ishlarni tugatish yoki yuritilishini to'xtatib turish;

– qonunlarda nazarda tutilgan hollarda tergovchi yoki surishtiruv idorasiga jinoiy ishni tugatish yoki to'xtatishga rozilik berish;

– ayplash fikrini (qarorini) tasdiqlash, jinoiy ishlarni sudga jo'natish.

Prokuroring jinoyat-protsessual qonunlarda nazarda tutilgan tartibga muvofiq surishtiruv va dastlabki tergov idoralariga tergov oldi tekshirushi, qo'zg'atilgan va tergalayotgan jinoiy ishlar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalar ana shu idoralar uchun majburiy hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari, ularga tenglashtirilgan prokurorlar, ularning o'rinnbosarları, harbiy va transport prokurorlari, shuningdek, shaharlar, tumanlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar fuqarolarni qamoqqa olishga ruxsat berish huquqiga egadir.

Prokurorlar va ularning o'rinnbosari o'z vakolatlari doirasida jinoyat-protsessual qonunlarda nazarda tutilgan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini chekllovchi xatti-harakatlarga ham ruxsat beradilar.

Prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan va jinoyat-protsessual qonuniga binoan o'z vakolatlari berilgan jinoyatlarga doir ishlarni tergov qiladilar. Prokuror har qanday jinoiy ishni o'zi yuritish uchun olishga yoki o'ziga bo'ysunuvchi prokurorga topshirishga, shuningdek, birgalikda tekshiruv o'tkazish uchun prokuratura tergovchilari, ichki ishlar idoralari hamda boshqa idoralarning tergovchilari va operativ xodimlardan iborat tergov guruhini tuzishga haqlidir.

Prokuror qonunda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek, prokurorning o'zi yoxud sud zarur deb topgan taqdirda, sudlarda ishlar ko'rib chiqilishida ishtiroy etadi. Sud majlisida ishtiroy etayotgan

prokurorning vakolatlari hajmi va doiralari O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunlari bilan tartibga solinadi.

Prokuror davlat ayblovini qo'llab-quvvatlar ekan, dalil-isbotlar o'rganilishida ishtirok etadi, jinoyat qonuni qo'llanishiga, sudlanuvchiga berilishi lozim bo'lgan jazo turi va miqdoriga doir o'z fikrini sudga bayon etadi. Bunda prokuror qonun talablariga va ish yuzasidan to'plangan materiallarning holis bahosiga amal qiladi.

Prokuror ishni qarab chiqish vaqtida qo'yilayotgan ayblov sud majlisida o'z tasdig'ini topmayapti degan xulosaga kelsa, ayblovdan voz kechadi. Bunda prokuror sud jarayonida boshqa qatnashchilar bilan teng huquqlardan foydalanan ekan, sudlarning mustaqilligi va ular faqat qonunga bo'y sunish prinsipiiga qat'iy rioya etishi, o'z faoliyati bilan odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashishi shart.

Prokuror ishning ko'rib chiqilishida ishtirok etganligidan qat'i nazar, ushbu ish xususida sudning chiqargan hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari va qarorlari qonunga hamda ish yuzasidan to'plangan materiallarga qay darajada muvofiq kelishini tekshiradi. Prokuror jinoiy, fuqarolik, xo'jalik va ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha sudning chiqargan g'ayriqonuniy qarorlari ustidan yuqori turuvchi sudga protest keltiradi. Prokurorga va uning o'rinnbosariga, ish birinchi instansiya sudida ko'rib chiqilishida ishtirok etganliklaridan qat'i nazar, o'z vakolatlari doirasida kassatsion va xususiy protest keltirish huquqi beriladi.

Prokuror, uning o'rinnbosari o'z vakolatlari doirasida hukmlari, hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari qonuniy kuchga kirgan har qanday ishni suddan talab qilib olish huquqiga egadir. Prokuror, uning o'rinnbosari yoki ularning topshirig'iga binoan prokuraturaning boshqa xodimlari sudsarda har qanday toifadagi shunday ishlarni o'rganish huquqiga ega. Prokuror sud tomonidan chiqarilgan hukmlar, hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning qonunga muvofiq emasligini aniqlagach, protest kiritish huquqiga ega, agar bu hol uning vakolat doirasiga kirmaydigan bo'lsa – yuqori pog'onadagi prokurorga taqdimnomalar bilan murojaat etib, protest kiritishni so'raydi.

Quyidagilar sudning qonuniy kuchga kirgan hukmlari, hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlariga nisbatan, protest keltirish huquqiga egadirlar:

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinnbosarlari – O'zbekiston Respublikasidagi sudsarning hukmlari, hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlariga nisbatan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi plenumlarining qarorlari bundan mustasno);

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar - tuman, shahar sudining hukmlari, hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlariga nisbatan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar sudlari, Toshkent shahar sudi rayosatlari sud hay'atlari ishni kassatsiya tartibida qarab chiqib, qabul qilgan qarorlariga, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar xo'jalik sudlarining qarorlariga nisbatan.

Sudning ma'muriy huquqbazarlikka oid ish yuzasidan chiqargan qaroriga nisbatan tuman, shahar va yuqori pog'onadagi prokurorlar hamda ularning o'rinosarlari protest keltirishi mumkin.

Jinoiy va fuqarolarga doir sudning hukmlari, hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlariga nisbatan berilgan kassatsiya, xususiy va nazorat tartibidagi protest ish sudda ko'rib chiqilgunga qadar to'ldirilishi, o'zgartirilishi yoki protest keltirilgan prokuror, shuningdek, yuqori pog'onadagi prokuror tomonidan chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shahar va tuman prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, ayblastirish fikrini tasdiqlagan prokurorlar jinoiy ishni ayblanuvchini sudga berishga qadar va prokuror tomonidan qo'zg'atilgan fuqarolik ishini sudda qarab chiqilishiga qadar chaqirib olish huquqiga egadirlar. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori har qanday sudning protest keltirilgan hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qarori ijrosini ish nazorat tartibida hal etilgunga qadar to'xtatishga haqidir. Fuqarolik va xo'jalik ishlari ustidan nazorat tartibida protest keltirish huquqi berilgan prokurorlar qonun buzilganligidan dalolat beruvchi ma'lumotlar yetarlicha bo'lgani taqdirda ishni talab qilib olish bilan birga sudning hal qiluv qarori, ajrimi va qarorining ijrosini ular ustidan protest keltirganga qadar ko'pi bilan uch oy muhlatga to'xtatishga haqidirlar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining plenumi va Oliy xo'jalik sudining plenumi majlislarida, uning o'rinosarlari esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatining majlislarida ishtiroy etadilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar prokurorlari va Toshkent shahri prokurori Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar sudlari va Toshkent shahar sudi rayosatarining, tegishli xo'jalik sudlari hay'atlarining majlislarida ishtiroy etishga haqidirlar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining va Oliy xo'jalik sudining plenumlari muhokamasiga jinoiy, fuqarolik, xo'jalik, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi va boshqa sudlov ishlarini qarab chiqish chog'ida yuzaga keladigan qonunlarni

qo'llash bilan bog'liq masalalar bo'yicha tushuntirishlar berish to'g'risida taklif kiritishga haqlidir.

Ushlanganlarni saqlab turish, dastlabki qamoq, sud tayinlagan jazo va majburiy xarakterdagi boshqa choralarни o'tash joylarida qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat predmeti quyidagilardan iborat:

– ushlanganlarni saqlab turish, dastlabki qamoq, ozodlikdan mahrum etish joylarida va axloq tuzatish ishlariga yuborilgan joylarda, majburiy davolash va tarbiyalash muassasalarida shaxslarni saqlab turish qonumi ekanligi;

– ushlanganlar va qamoqqa olingenlarni saqlab turish, jazoni o'tash, mahkum etilganlarni tarbiyalash, qonunlarga muvofiq majburiy davolash va tarbiyalash chorasi qo'llanilgan shaxslarni saqlash tartibi va sharoitlariga rioya etilayotganligi;

– ushlanganlar, qamoqqa olingenlar, hukm etilganlar, shuningdek, majburiy davolash va tarbiyalash choralar ko'rilgan shaxslarning qonunda belgilangan huquqlari va burchlariga rioya etilishi ta'minlanayotganligi;

– axloq tuzatish mehnat qonunlarini qo'llaydigan mansabdor shaxslar va idoralarning faoliyatida qonuniylikka rioya etilayotganligi.

Yuqoridagi nazoratni amalga oshira turib, prokuror o'z vakolati doirasida quyidagilarga haqli:

– ushlanganlarni saqlab turish, dastlabki qamoq, ozodlikdan mahrum etish joylarida, majburiy davolash va tarbiyalash muassasalariga istalgan vajtda moneliksiz kirish va binoning hamma joylari bilan tanishish;

– shaxslarni saqlab turishga, dastlabki qamoq joylarida saqlashga, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni va boshqa jazo choralarini o'tashga yoxud majburiy davolash va tarbiyalash choralar qo'llashga asos bo'lgan hujjatlar bilan tanishish;

– ozodlikdan mahrum etish joylarida g'ayriqonuniy ravishda saqlab turilgan yoki qonunga xi洛f tarzda ushlangan, dastlabki qamoqda saqlanayotgan, majburiy ravishda davolanayotgan yoki tarbiyalananayotgan shaxslarni darhol ozod qilish;

– qamoqlarda saqlanayotgan, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan qo'llanilgan intizomiy choralar qonunga muvofiq kelmasa, bu qarorlarni bekor qilish, o'z qarori bilan yuqorida uqtirilgan shaxslarni jarima izolatoridan, kamera tipidagi binodan, karserdan, intizomiy izolatoridan darhol ozod qilish;

– ushlangan, qamoqqa olingen, hukm etilgan hamda majburiy davolash va tarbiyalash chorasi ko'rilgan shaxslarni so'rab-surishtirish;

– ma'muriyatlar chiqargan buyruqlar, farmoyish va qarorlar, ular ko'rgan tezkor-qidiruv tadbirlarining, ana shu muassasalarida odamlarni saqlab turish tartibi va sharoitlarini hamda jazoni o'tashning tartibi va

shartlari belgilab qo'yilgan qonunlarga qay darajada muvofiqligini tekshirish; bunday hujjatlar qonunlarga zid bo'lsa, ularning ijrosini to'xtatish va ular ustidan protest keltirish.

Ushlangan, qamoqqa olingen, ozodlikdan mahrum etilgan va boshqa jazo chorasi qo'llangan shaxslarni, shuningdek, majburiy tarzdag'i choralar ko'rilgan yoki maxsus psixiatriya muassasasiga joylashtirilgan shaxslarni saqlashning qonunda belgilangan tartibi va sharoitlari ijrosiga doir prokuorning qaror va talablari ma'muriyat tomonidan, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasagan jazo chorasi ko'rilgan mahkumlarga nisbatan sudlar chiqargan hukmni ijro etuvchi idoralar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Prokuror ushlangan, qamoqqa olingen, ozodlikdan mahrum etilgan hamda majburiy davolash va tarbiyalash choralar ko'rilgan shaxslarning davlat idoralari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslarga shikoyat hamda arizalar bilan murojaat qilish huquqlari to'g'risidagi hamda ma'muriyatning shikoyat va arizalarni qonunda belgilangan tartibda kimga tegishligiga muvofiq jo'natish to'g'risidagi qonun talablarining rioya etilishini kuzatib boradi. Prokuror tushgan shikoyat va arizani belgilangan muddatda qarab chiqadi va zarur chora-tadbir ko'radi hamda o'z qarori to'g'risida arizachiga ma'lum qiladi.

## **6.5. Huquqni muhofaza qilish organlari tizimida prokuratoraning muvofiqlashtiruvchi roli**

Qonunchilikni mustahkamlash faoliyatini muvofiqlashtirish bir necha bosqichga ega va turli organlar tomonidan tashkil etiladi. Bunday muvofiqlashtirishning eng yuqori va keng miqyosli bosqichi Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rahbarligida amalga oshiriladi.

Huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish deganda, ushbu organlarning harakatlarini maqsad, vaqt, ijrochilar hamda harakat dasturi bo'yicha kelishib olish tushuniladi. Boshqacha aytganda, muvofiqlashtirish kadrlar va vositalarni bosh yo'naliш bo'yicha yo'naliшdir. Bu har bir organ o'z vakolati doirasida oldiga qo'ygan maqsadga yetishish uchun boshqa organlar bilan kelishgan holda jinoyatchilikka qarshi kurash usullari va metodlaridan foydalanib harakat qiladi deganidir. Bunda ishlab chiqilgan dastur va jinoyatchilikka qarshi kurashning kelishilgan tadbirlar rejasiga bo'yicha harakat qilinadi. Shundagina jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Muvofiqlashtirish, shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida qonuniylikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Chunki u huquqni muhofaza qilish organlarining holati, ehtimol tutilgan

huquqbuzarliklarga qay tarzda aks-ta'sir ko'rsatishi haqida to'la axborot beradi.

Prokuraturaning muvofiqlashtiruvchi rolining bosh vazifasi – mamlakatimiz rahbariyatiga jinoyatchilik darajasini pasaytirishda, uni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishda yordam berishdir. Shahar, tuman, viloyat, respublikada esa huquqni muhofaza qilish organlarining kelishilgan harakatlariiga, jinoyatlar sonini kamaytirishga, shuningdek, ma'muriy hududda va transportda qonuniylikni mustahkamlashga ko'maklashishdir.

Muvofiqlashtirishning oraliq vazifasi muayyan masalani hal qilish, masalan, jinoyatlarning ochilish darajasini yaxshilash, dastlabki tergovning kamchiliklarini aniqlash va oldini olish, jinoyatlarning ba'zi turlariga qarshi kurashni kuchaytirish kabilar bo'lishi mumkin. Muvofiqlashtirishning boshqa bir vazifasi huquqbuzarliklarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qilish organlarining kuchlarini birlashtirish, ularning tarqoqligiga barham berishdir. Bu vazifa «Prokuratura to'g'risida»gi qonundan kelib chiqadi. Uchinchi vazifa esa huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida bir-birini takrorlashni bartaraf etish va uni konkretlashtirishdir.

Ushbu masalalarni hal qilish asosida huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatlarga qarshi kurash sohasidagi faoliyatlarida muvofiqlikka erishish samaradorligi oshirilishi kerak.

Prokuratura organlari harakatlarini muvofiqlashtirish bir vaqtda bir yoki bir necha huquqni muhofaza qilish organlari bilan bo'lishi mumkin. Bu qo'yilgan eng yaqin yoki oraliq vazifaga bog'liq. O'ziga xos xususiyatga ega bo'lган, lekin alohida huquqni muhofaza qilish organlarining vakolatiga tegishli bo'lган faoliyat muvofiqlashtirishga tegishli emas. Masalan, prokurorlarning qonunlar aniq bajarilishini nazorat qilishi, sudarning konkret jinoiy ishlarni ko'rib chiqishi, Ichki ishlar vazirligi operativ qidiruv faoliyatining taktikasi va metodikasi kabilar.

Huquqni muhofaza qilish organlarining kelishilgan faoliyati o'zaro aloqada bo'lган bir necha qismlar va komponentlardan tashkil topgan. Ular quyidagilar: mazmun, tashkil qilish va protsedura. Ular har doim yaxlit bir narsani tashkil qiladi. Muvofiqlashgan faoliyatning mazmuni uni o'z faoliyatiga kiritgan tashkilot orqali namoyon bo'ladi. Bu tashkilot muvofiqlashtiruvchi faoliyatni u yoki bu protsedura doirasida amalga oshiradi.

Huquqni muhofaza qilish organlarining muvofiqlashtiruvchi faoliyatini uning tarkibiy qismlari orqali tahlil qilish faqat nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Bu tahlil har bir qismning maqsadini va

jinoyatchilikka qarshi kurashda amal qilinadigan talablarni yaxshiroq aniqlab olishga imkon beradi. Shunda ulardan ko'proq foyda bo'ladi.

Muvofiqlashgan faoliyatning mazmuni o'z ichiga maqsadli yo'naliish, rejalashtirish va istiqbolni belgilashni oladi.

*Maqsadli yo'naliish* muvofiqlashgan faoliyatning kelajagini ko'rishga imkon beradi, yakuniy va oraliq maqsadlarni belgilaydi, shuning uchun bu maqsadlarning yo'naliishini to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsadli yo'nalihsiz muvofiqlashgan faoliyat tavakkal bo'lishi va tasodifiy motivlarga asoslanishi mumkin. Bu esa samarasiz bo'ladi. Maqsad esa axborotlarni tahlil qilish va tabiiyki, jinoyatchilikka qarshi kurashning amalii ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanishi lozim.

*Rejalashtirish* maqsadli yo'naliishdan kelib chiqadi. U ijtimoiy hodisalarни kerakli yo'naliishda rivojlantirishning ta'sir doirasini oshirish uchun zarur. Bu holda ushbu yo'naliish jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarni kamaytirish, tuman, shahar, viloyat, respublikada qonuniylikni mustahkamlashdir.

Ijtimoiy munosabatlarni (hodisalarни) rivojlantirishning *istiqbolini belgilash* – axborotlarni tahlil qilish natijalariga asoslangan bo'lib, qonuniylik va jinoyatchilikning rivojanishidagi tamoyillalarni aniqlaydi. Muvofiqlashgan faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida u rejalashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

Kelishilgan faoliyatni tashkil qilish quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: axborotlarni tahlil qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash yo'naliishini tanlab olish, takliflar, kelishilgan tadbirlar va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini ishlab chiqish. Bu o'zaro bog'langan elementlar muvofiqlashtirishning bosh yo'naliishini, uni qonuniy amalga oshirishni aniqlab beradi. Maqsadlar aniqlangach, asosiysi muvofiqlashtirishni tashkil qilishdir. Uni to'g'ri tashkil qila bilish kerak.

Huquqni muhofaza qilish organlarining kelishilgan faoliyati protsedurasi uni amalga oshirishning butun tartibi va alohida tadbirlar, muvofiqlashtirishning shakllarini belgilab beradi. U bir qator elementlardan tashkil topgan. Bu elementlar axborotlarni to'plash va tahlil qilish, jinoyatchilikka va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash bo'yicha kelishilgan tadbirlarning rejasini ishlab chiqish ularni bajarish hamda bajarilishini nazorat qilishni belgilab beradi.

Protsedura kelishilgan faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yishda sezilarli ahamiyatga ega. Chunki u bu faoliyatni ma'lum doiraga soladi, uni huquqni muhofaza qilish organlarining, shuningdek, alohida shaxslarning vakolatidan tashqariga chiqib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Shu bilan birga, protsedura kelishilgan faoliyatning xususiyatlarini noto'g'ri talqin qilishdan saqlaydi, hamda murakkabliklar, idoraviy tor manfaatlarni

bartaraf etadi. Har qanday kelishilgan faoliyatni amalga oshirishda jinoyatchilikning holati haqidagi axborotlarni tahlil qilishda tartib, to kelishilgan tadbirlarning natijalarini tekshirishgacha faqat nima va kim emas, balqi qanday, qay tartibda kelishilgan tadbirlarni bajarishi aniq belgilab qo'yilishi shart.

Hozirgi paytda shahar, tuman, viloyat, respublika prokurorlarining muvofiqlashtiruvchi roli quyidagilarni tashkil etishdan iborat:

– tegishli bosqichdagisi huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlarining doimiy amal qiluvchi muvofiqlashtiruvchi kengashlarining ishini tashkil qiladilar, majlislarni belgilangan muddatda chaqiradilar, ularda raislik qiladilar;

– jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha ishlarning yakunlarini muhokama qilishga oid idoralararo kengashning faoliyatini tashkil qiladilar va unga raislik qiladilar;

– jinoyatchilikning holati, tuzilishi, dinamikasi haqidagi axborotlarni tahlil qilishni tashkil etadilar. Ular asosida huquqni muhofaza qilish organlari kelishilgan faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha zarur tadbirlar haqida qarorlar qabul qiladi;

– jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha kelishilgan tadbirlar rejasining loyihasini ishlab chiqishni tashkil qiladilar. Loyihalar muvofiqlashtiruvchi kengashlarning majlislarida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi;

– rejalashtirilgan tadbirlarning bajarilishini nazorat qilishni tashkil etadilar;

– hokimiyatlar uchun jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlari nomidan takliflar tayyorlash va kiritishni tashkil qiladilar;

– quyi turuvchi organlar uchun muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha tavsiyalar tayyorlashni tashkil qiladilar.

Amaliyotda prokuromning kollektiv organlar bo'lmish muvofiqlashtiruvchi kengashlar faoliyatini tashkil qilishdagisi roli haqidagi masala mavjud. Bu organlar huquqni muhofaza qilish organlarining rahbarlari (prokuror, IIV va adliya organlarining boshliqlari, tegishli sud raisi)dan tashkil topadi.

Tegishli bosqichdagisi prokuror shahar, tuman, viloyat, respublikada huquqni muhofaza qilish organlarining harakatlarini muvofiqlashtirish bo'yicha majburiyatlarni bajaradi. Lekin u mazkur organlarning kelishilgan faoliyatiga rahbarlik qilmaydi. Muvofiqlashtiruvchi kengashda prokuror mazkur kengash ishini tashkil etuvchi hisoblanadi: u majlis chaqiradi, unda raislik qiladi. Ko'rsatilgan tashkiliy funksiyalardan chetga chiqish mumkin emas.

Hozirgi paytda muvofiqlashtiruvchi kengashlarning ma'lum funksiyalari bor. Ulardan asosiyilari huquqni muhofaza qilish organlarining o'zaro hamkorligi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Muvofiqlashtiruvchi kengashlarning funksiyalarini kengroq ko'rib chiqsak, ular quyidagilardan iborat:

– ma'lum davr uchun huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashdagi kelishilgan faoliyatining natijalarini muhokama qiladi, jinoyatlarga qarshi kurashda maqsad va vazifalarni belgilaydi;

– ma'lum davr uchun jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha kelishilgan faoliyat rejalarining loyihasini ko'rib chiqadi. Lekin bunday tadbirlarni huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlarining o'zlarini o'tkazadilar;

– jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha qonun chiqaruvchi va ijroiya organlariga kiritish uchun umumiyl takliflar ishlab chiqadi;

– muvofiqlashtirishning ijobjiy tajribalarini o'rganadi va tarqatadi;

– quyi turuvchi muvofiqlashtiruvchi kengashlarning muvofiqlashtirish haqidagi ma'ruzalarini tinglaydi va ularga mazkur ishlarni yaxshilash bo'yicha metodik yordam beradi;

– kelishilgan tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydi;

– idoralararo kengashlarni chaqirish zarurati va muddatlari haqidagi masalani hal qiladi va bu kengashlarning kun tartibini belgilaydi.

Lekin bu muvofiqlashtiruvchi kengash shug'ullanadigan masalalarning to'la ro'yxati emas. Sharoitdan kelib chiqib, ular boshqa masalalarni ham hal qilishlari mumkin.

Muvofiqlashtiruvchi kengashning majlislari har chorakda o'tkaziladi. Lekin huquqni muhofaza qilish organlari ehtiyojidan kelib chiqib, navbatdan tashqari ham o'tkazilishi mumkin. Ayni paytda muvofiqlashtiruvchi kengash huquqni muhofaza qilish organlarining ishiga tashkiliy, metodik rahbarlik qilishi mumkin emas. Prokuror shunday urinishlarga yo'l qo'ymasligi shart.

Muvofiqlashtiruvchi kengash muvofiqlashtirish maqsadida tuziladi va faqat o'ziga xos maqsadiga ega. Ya'ni ular metodik tavsiyalar ishlab chiqadi, muvofiqlashtirishga metodik rahbarlik qiladi (huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatiga emas). Muvofiqlashtiruvchi kengashning tavsiyalarini muayyan talablarga javob berishi kerak.

Birinchidan, ularda quyi turuvchi huquqni muhofaza qilish organlari uchun ko'rsatmalar va ularning faoliyatini baholash bo'lmasisligi kerak. Bunday ko'rsatmalarini faqat vakolatli rahbarlar beradi (masalan, prokurorlarga – faqat yuqori turuvchi prokurorlar).

Ikkinchidan, tavsiyalar real bo'lishi kerak. Qonuniylik va jinoyatchilikning ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar har tomonlama to'liq bo'lgardagina, ushbu ahvolga ta'sir etuvchi holatlarning xususiyatlari va huquqni muhofaza qilish organlarining huquqbuzarliklarga qarshi kurashi darajasining samaradorligini aks ettirgandagina, bu tavsiyalar real bo'la oladi.

Uchinchidan, tavsiyalarda huquqni muhofaza qilish organlari tizimining real imkoniyatlari va konkret ijrochilar, mavjud zaxiralar hisobga olinishi zarur.

To'rtinchidan, tavsiyalar o'z vaqtida bo'lishi, huquqni muhofaza qilish organlarining vakolatlarini hisobga olgan holda, ular tizimidagi yuzaga kelgan muammolarga mos kelishi zarur.

Beshinchidan, tavsiyalarda mazmunning to'laligiga erishish kerak. Chunki bu ijrochilar ularni amalgalashirayotganda barcha savollarga javob topishi uchun zarur. Ularda maqsad va vazifalar, ya'ni nimaga intilish kerakligi, maqsadga erishish uchun nimalar qilish zarurligi, maqsadga erishishning yo'llari va usullari, mas'ul ijrochilar, tavsiyalarning bajarilish muddati, ijrochilar harakatlarining kelishib olinganligi, bajarishni nazorat qilish metodlari ko'rsatilgan bo'lishi zarur.

Nihoyat, tavsiyalar ilgari qabul qilingan tavsiyalarga mos kelishi, ularga zid bo'lmasligi lozim. Aks holda, ularni bajarish qiyin bo'ladi va maqsadga erishmay qolish mumkin. Ushbu shartlarga rioya qilish ularning samaradorligini oshiradi, qaysidir ma'noda real hayot va huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatidan uzoqlashishining oldini oladi.

Muvofiqlashtirish munosabati bilan prokurorlar quyidagilarni amalgalashirishga majburdirlar:

- kelishilgan tadbirlarni ishlab chiqishda qonunlarga qat'iy amal qilinishi va qonunga asoslanmagan tadbirlar rejaga kiritilmasligini nazorat qilish;

- mazkur tadbirlar huquqni yo'llash funksiyasiga ega bo'lgan biror davlat organi yoki jamoat birlashmalarining funksiyalarini bajaradigan shaklga kirib qolishiga yo'l qo'ymaslik (masalan, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha komissiyaning);

- kelishilgan tadbirlarni o'tkazishda qonunchilik buzilishiga yo'l qo'ymaslik, huquqbuzarliklar aniqlanganda esa, ularni bartaraf etish va abyordarlarni jazolash choralarini ko'rish;

- jinoyatlarning oldini olish va ularni ochish bo'yicha kelishilgan faoliyat jarayonida fuqarolar, davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining huquq va erkinliklari buzilishiga yo'l qo'ymaslikni nazorat qilish.

Shunday qilib, mazkur hollarda ham prokurorlarning «Prokuratura to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunidan kelib chiqadigan majburiyatlari to‘liq, har doim va prinsipial bajarilishi shart.

## ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI VA UNING ORGANLARI

### 7.1. Ichki ishlar vazirligining tuzilishi

Ichki ishlar vazirligi (IIV) juda katta vazifalarni bajaradi. U idoravijj, hujjatlar bilan tasdiqlangan murakkab tuzilishga ega. IIV rahbariyati vazir, vazirning birinchi o'rinnbosari, bir necha o'rinnbosarlari va yordamchisidan tashkil topgan. Vazir qoshida kollegiya mavjud. U bir oyda bir marta, yig'iladigan maslahat organidir.

Ichki ishlar vazirligi rahbariyatida bosh nozirlar guruhi bor. Bu, guruhning bosh inspektori vazirlik boshqarmasi o'rinnbosarlarining, huquqlariga ega.

Ichki ishlar vazirligining «aqliy markazi» *Tashkality-inspektorlik boshqarmasidir*. Unga tashkiliy-inspektorlik bo'limi, navbatchilik qismlarining ishini tashkil etish bo'limi – navbatchilik qismi tahliliy, bo'limi, ikkinchi maxsus bo'lim kiradi.

Mustaqillikdan so'ng huquqni muhofaza qilish organlarining xalqaro aloqalari faollandi. Natijada mazkur aloqalarni amalga oshiruvchi bo'linmaga ehtiyoj tug'ildi. Shunday bo'linma tuzildi U xorijiy aloqalar bo'limidir. Bu bo'lim ko'plab mamlakatlarning politsiya muassasalarini bilan katta ish olib bormoqda. Yozishmalar hajmining kattaligi tufayli uning tarkibida kanselariya mavjud. Kanselariyada mudir, katta ish yurituvchi, ish yurituvchi va kotib ishlaydi.

Ichki ishlar organlarining huquqiy axborot bilan ta'minlanganligi, ular ishida oshkorali kning kuchayishi talabi munosabati bilan Ichki ishlar vazirligida Huquqiy ta'minlash va ommaviy axborot vositalari bilan aloqa, qilish boshqarmasi faoliyat ko'rsatmoqda. U huquqiy ta'minlash bo'limi jumladan, normativ hujjatlarni tayyorlash bo'linmasi, yuridik byuro, matbuot-markazi va kanselariyadan iborat. Bu tuzilma ichki ishlar organlarini barcha zarur huquqiy hujjatlar bilan ta'minlaydi va Ichki ishlar vazirligiga ommaviy axborot vositalari bilan yaxshi aloqada bo'lishiga imkon beradi.

Ichki ishlar Vazirligi tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida ushbu tizimda quyidagi o'zgarishlar amalga oshdi. Birinchidan, IIV tizimida mavjud bo'lgan Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi hamda korrupsiya, reket va terrorizmga qarshi kurash bosh boshqarmasi tugatilib, ularning o'miga Terrorizmga qarshi kurash va jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi (TQK va JQBB) tuzildi. Ana shu asosda Qoraqalpog'iston IIV, Toshkent shahar IBB, viloyatlar IIB, Transport IIBda terrorizmga qarshi kurash va jinoyat qidiruv boshqarmalari tashkil etildi. Shahar,

tuman va temir yo'1 IIIBlarda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va jinoyat qidiruv bo'limlari tashkil etildi. Ikkinchidan, IIIV Tergov boshqarmasi o'rniga IIIV Tergov bosh boshqarmasi tuzildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi IIIV, Toshkent shahar IIIBB, viloyatlar IIB va Transport II Bd a mavjud bo'lgan tergov bo'limlari o'rnida tergov boshqarmalarini tashkil etildi. Bunda tergov boshqarmalarining boshliqlari IIB boshliqlarining o'rnbosarlari bo'lib hisoblanishi ko'zda tutildi.

Quyi ichki ishlar idoralarida ham hudud shunday holat amalga oshirildi. Bunda shahar, tuman, temir yo'1 IIIB tergov bo'limi boshliqlari tergovni olib borishda yuqori turuvchi tergov boshqarmalari boshlig'iغا bo'y sunishi, ichki xizmat bo'yicha esa IIB boshliqlariga bo'y sunishi ko'zda tutilgan. Uchinchidan, IIIV Davlat avtomobil nazorati boshqarmasi o'rniga IIIV Yo'1 harakati xavfsizligi davlat xizmati tashkil etildi. U o'z ichiga IIIV Yo'1 harakati xavfsizligi bosh boshqarmasini, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIIV, Toshkent shahar IIIBB, viloyatlar IIB yo'1 harakati xavfsizligi bo'yicha boshqarmasini, shahar, tuman II Blarda esa avtotransport vositalarini nazorat qilish bo'yicha bo'limlarini qamrab oladi. To'rtinchidan, IIIV Jamoat tartibini saqlash va patrul-post xizmati bosh boshqarmasi tashkil etildi. Qoraqalpog'iston IIIV, Toshkent shahar IIIBB, viloyatlar II Bd esa boshqarmalar, shahar, tuman II Blarda bo'limlar tashkil etildi. Beshinchidan, IIIV profilaktika xizmati boshqarmasi, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'limagan jazoni ijro etish bo'yicha boshqarma, jazoni ijro etish bosh boshqarmasi o'rniga IIIV Huquqbuzarliklarni oldini olish bosh boshqarmasi (HOOBB) tashkil etildi. Oltinchidan, Yong'indan saqlash boshqarmasi qayta tashkil etilib, IIIV Yong'in xavfsizlik davlat xizmatiga aylanitirildi. Ushbu xizmat tarkibiga IIIV Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi, Qoraqalpog'iston IIB yong'in xavfsizligi bosh boshqarmalari, shahar, tuman IIB yong'in xavfsizligi bo'limlari, yong'in xavfsizligi qismlari kiritildi.

Ichki ishlar organlari tizimida qidiruv xizmati asosiy bo'g'in hisoblanadi. Uning asosiy kuchi – *Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash bosh boshqarmasidir*. U bir qator bo'linmalarni o'z ichiga olib, quyidagi yo'naliishlarda ishlaydi: uyushgan jinoyatchilik va shaxsga qarshi jinoyatlarga, jumladan, barqaror jinoiy tuzilmalar va o'ta xavfli jinoyatlarga qarshi kurash; xorijiy fuqarolar bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurash; mulkka qarshi jinoyatlarga (bosqinchilik, talonchilik, o'g'rilik, avtoulovlarini olib qochish, haydovchilarga bosqinchilik maqsadida hujum qilish) qarshi kurash; narkotiklarga qarshi (narkotiklar bo'yicha axborotlarni to'plash va ishlash; giyohvandlik moddalari bilan qonunga xi洛f ravishda muomala qilish; noqonuniy yetishtirish) kurash;

qidiruvni tashkil etish (jinoyatçilarni, bedarak yo'qolganlarni qidirish, jasadlarning shaxsini aniqlash).

Jinoyat qidiruv xodimlari operativ-qidiruv tadbirlarini o'tkazadilar, jinoyat protsessual qonunlarida ko'zda tutilgan kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini amalga oshiradilar (gumonlanuvchini ushslash, hodisa joyini ko'zdan kechirish va h.k.). Jinoyat qidiruv xodimlari takroriy jinoyatçilikka qarshi kurashning holati uchun bevosita javob beradi va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha katta ishlar olib bormoqda.

Bundan tashqari, Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash bosh boshqarmasida axborot, tahlil va nazorat bo'limi mavjud.

Ichki ishlar vazirligi tarjibadagi katta xizmatlardan biri *Patrul-post va jamoat tartibini saqlash xiznatidir*. Unga vazir o'rinosari rahbarlik qiladi. Uning tarkibida quyidagi bo'linmalar mavjud: xizmat bo'limi (bo'linmalar: patrul-post xizmati ishini tashkil qilish bo'limi, ommaviy tadbirlar o'tkazilayotgan va aholi migrantsiyasi paytida jamoat tartibini saqlash bo'linmasi, ruxsat berish tizimi bo'limi); qo'riqlash-karantin tadbirlarini ta'minlash bo'limi; IIO maxsus muassasalarining ishiga rahbarlik bo'limi; diplomatik vakolatxonalarini qo'riqlash ishlarini tashkil qilish bo'limi. Bu boshqarma ham o'z kanselariyasiga ega.

Ushbu boshqarma tarkibida patrul-post naryadlari, mexanizatsiyalashgan ko'chma patrul-post guruhlari faoliyat ko'rsatadi. Hududiy boshqarmalar, bo'limlar va ichki ishlar bo'linmalarida navbatchilik qismlari mavjud. Ular xizmat ko'rsatadigan mikrotumanlarda uchastka profilaktika vakillari muhim funksiyalarni bajaradi.

Xorijga chiqishkelish va fuqarolik boshqarmasining faoliyatida IIO faoliyatining ko'pqirraligi namoyon bo'ladi. Unda pasport bo'limi eng katta tuzilmadir. Ishi muhim bo'lgan boshqa bo'limlar ham mavjud. Masalan: xorijiy fuqarolarni hisobga olish va qayd etish bo'limi; «O'zbekiston Respublikasiga kelish va xorijga chiqish bo'limi; «Toshkent» aeroportida xorijiy fuqarolarni hisobga olish va qayd etish bo'limi; operativ hisob bo'limi; «Shimoliy» temir yo'l vokzalida xorijiy fuqarolarni hisobga olish va qayd etish bo'limi; «Janubiy» vokzalda va «Toshkent» avtovokzalida xorijiy fuqarolarni hisobga olish va qayd etish bo'limi; tashkiliy-tahlil bo'linmasi; kanselariya.

Profilaktik xizmati bilan IIIdagi barcha xizmatlar shug'ullanadi. Lekin alohida, mustaqil Huquqbazarlikning oldini olish bosh boshqarmasi ham mavjud.

Huquqbazarlikning oldini olish bosh boshqarmasi uch bo'lim va devonxonadan iborat. Bu bo'limlar quyidagilar: profilaktika uchastka vakillarining ishiga rahbarlik bo'limi, ijtimoiy axloq sohasidagi qonunbuzarliklarning oldini olish bo'limi, voyaga yetmaganlar va yoshlar

orasidagi huquqbazarliklarning oldini olish bo'limlari. Aytib o'tilgan bo'limlar tarkibida ixtisoslashgan bo'linmalar mavjud. Masalan, voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida huquqbazarliklarning oldini olish bo'limi o'z ichiga quyidagi oladi: voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha inspeksiya; voyaga yetmaganlarni qabul qilish – taqsimlash muassasalarining ishini va boshqa maxsus muassasalar bilan hamkorligini tashkil qilish guruhi; yoshlar orasidagi huquqbazarliklarning oldini olish guruhi; jamoatchilik bilan hamkorlik, istiqbolni aniqlash va tahlil guruhi; devonxona. Bunday tuzilish voyaga yetmaganlar orasida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil qilishga imkon beradi.

Yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmatiga katta vazifalar yuklangan. Avtomotransport vositalari sonining ko'payib borayotganligi va avtohalokatlar YHXDXning murakkab tuzilishini belgilab beradi. Ushbu boshqarmada quyidagi bo'limlar mavjud: yo'l-patrul xizmati; yo'l harakatini tashkil etish; texnik nazorat; targ'ibot va tashviqot; ma'muriy amaliyot; qidiruv va surishtiruv; tashkiliy-tahlil bo'limi va kanselariya.

YHXDXning asosiy ishi ko'chalar, maydonlar va boshqa jamoat joylarida o'tadi. Ushbu xizmatning «bosh figurasi» YHXDX nazoratchisidir. Hozirgi kunda YHXDX xodimlari tarkibini malakali kadrlar bilan to'ldirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida tegishli o'quv guruhlari tashkil qilingan.

Jinoyatlarning taxminan 65%ni ichki ishlar organlari tergovchilar tergov qilishadi. Ichki ishlar vazirligining eng qudratli tergov apparatiga ega ekanligi tasodif emas. IV Tergov bosh boshqarmasi quyidagi tuzilmalardan tashkil topgan: nazorat-metodik bo'lim; yo'l harakati hodisalari, yong'inlar va o't qo'yishlar bo'yicha jinoyatlar tergovini tashkil qilish bo'linmasi; umumiy tusdag'i jinoyatlarni tergov qilish bo'limi; iqtisodiyotdagi o'ta xavfli va og'ir jinoyatlarni tergov qilish bo'limi; korrupsiya va uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish bo'limi; kanselariya va surishtiruv bo'limi.

Tergovchi – mustaqil protsessual shaxs. Shuning uchun Tergov bosh boshqarmasidagi barcha ishlar tergovchilar tomonidan olib boriladi.

Ichki ishlar vazirligi tizimining murakkabligidan kelib chiqib, uning tarkibida *Ijtimoiy va moliyaviy ta'minlash xizmati* faoliyat ko'rsatadi. Unga vazirning o'rinosari rahbarlik qiladi. Bu xizmatning yetakchi bo'linmasi Moliya-iqtisod boshqarmasidir. U vazirlikning barcha moliyaviy ishlarni yuritadi, loyihibar va smetalar ekspertizasini o'tkazadi, nazorat-taftish faoliyatini amalga oshiradi, mehnatga ish haqi, buxgalteriya hisobi va hisoboti masalalarini hal qiladi.

Ichki ishlar vazirligining *Xo'jalik boshqarmasi* ichki ishlar organlarini avtomotransport, moddiy texnika, qurollar bilan ta'minlash va ichki ishlar

organlari xodimlarining kommunal-maishiy ishlari, maktabgacha tarbiya va bolalar muassasalarining xizmatini bajarish bilan shug'ullanadi.

*Tibbiyot boshqarmasi shaxsiy tarkibga davolash-profilaktika yordami, sanatoriya, kurort davolashini tashkil qiladi. Sudlanganlarga tibbiy xizmat ko'rsatadi.*

*Yong'in xavfsizligi davlat xizmatiga jiddiy vazifalar yuklangan. U davlat yong'indan saqlash nazoratini, yong'inga qarshi tashviqotni, yong'in xavfsizligi bo'yicha tashviqot va tahvilni amalga oshiradi.*

Ichki ishlar organlarining ko'p sonli tarkibi uchun *Shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmati* faoliyat ko'rsatadi. Bu xizmatga vazir o'rinosari rahbarlik qiladi. Bu xizmat ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatni o'tashlarini nazorat qiladi, ularni kasbiy va jismoniy tayyorlashni amalga oshiradi, sport musobaqalarini tashkil qilish, shaxsiy tarkibning huquqiy himoyasini ta'minlash masalalari bilan shug'ullanadi, Ichki ishlar vazirligi o'quv yurtlariga rahbarlik qiladi.

*Bundan tashqari, vazirlikda shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash bo'limi, harbiy-safarbarlik va fuqaro mudofaasi bo'limi* faoliyat ko'rsatadi.

Ekspert-kriminalistika bo'limi kriminalistik ekspertizalarni tashkil qiladi, jinoiy ishlar bo'yicha maxsus tadqiqotlar o'tkazadi, kriminalistik texnikani joriy qiladi va qo'llanishini nazorat qiladi.

## **7.2. Ichki ishlar organlari xodimlarining vazifalari, asosiy huquq va majburiyatlarি**

Ichki ishlar organlari – davlatning huquqni muhofaza qilish organi bo'lib, u fuqarolarni, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni, jamiyat va davlatni jinoiy va boshqa g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qiladi. U jamoat tartibini, mulkchilikning barcha turlarini muhofaza qiladi. Shundan kelib chiqib, IIO xodimlarining muhim vazifalari quyidagilar iborat: fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini, jamoat tartibini ta'minlash va saqlash; jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish; jinoyatlarni to'liq va o'z vaqtida fosh qilish; barcha mulk shakllarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilish, aholiga ijtimoiy va huquqiy yordam ko'rsatishda qatnashish; jinoiy jazo va ma'muriy javobgarliklarni ijro etish.

Ichki ishlar organlari xodimlariga qonunda belgilanmagan vazifalarni yuklashga yo'l qo'yilmaydi. Qonunda belgilangan organlar va mansabdon shaxslardan boshqa hech kim ichki ishlar organlari faoliyatiga aralashish huquqiga ega emas.

Ichki ishlar organlari faoliyati qonunlarga qat'iy amal qilishga asoslangan bo'lishi kerak. Bu uning muhim prinsipidir. Bundan tashqari, IIO xodimlari faoliyatining prinsiplariga quyidagilar kiradi: shaxsga

hurmat; ijtimoiy adolat; demokratizm; baynalmilallik; insonparvarlik; jamoalar va aholi bilan hamkorlik; jamoatchilik fikrini har doim hisobga olish.

Xalq deputatlari kengashlari va hokimiyatlar IIOning ishi haqidagi hisobotlarni muntazam ko'rib boradilar, unga o'z ishini tashkil qilishda, xo'jalik masalalarini hal qilishda, shaxsiy tarkibning madaniy maishiy ehtiyojlarini qondirishda zarur yordam beradilar.

Ichki ishlar organlari faoliyati oshkora, fuqarolar, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalar uchun ochiqdir. II O davlat organlari, jamoat birlashmalari, jamoalar, aholi va ommaviy axborot vositalarini huquqtartibotning holati va uni mustahkamlash bo'yicha tadbirlar haqida xabardor qilib boradi. Davlat, xizmat va tijorat sirlarini tashkil etuvchi xabarlar, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayoti, qadr-qimmati va sha'niga oid xabarlar oshkor qilinmaydi.

Ichki ishlar organlari ishining huquqiy asoslari quyidagilar: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Ichki ishlar organlari oddiy va boshliqlar tarkibi tomonidan xizmatni o'tashning tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizom va boshqa qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining normativ hujjatlari, mahalliy xalq deputatlari va hokimlarning buyruqlari, Ichki ishlar vazirligining normativ hujjatlari.

O'z shaxsiy, axloqiy va ish fazilatlari, ma'lumoti va sog'lig'ining holatiga ko'ra, o'ziga berilgan vazifalarni bajara oladigan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari ko'ngilli asosda II Oga ishga qabul qilinadilar. Ular qasamyod qabul qiladilar va ularga maxsus unvon, guvohnoma va kiymiy beriladi.

Ichki ishlar organlari xodimlariga har qanday turdag'i tadbirkorlik bilan shug'ullanish, ish tashlashlarda qatnashish va ularni tashkil qilish, o'rindoshlik asosida ishslash man qilinadi. Ilmiy, ijodiy va o'qituvchilik faoliyati bundan mustasno.

Ichki ishlar organlari o'ziga yuklatilgan vazifalarni boshqa davlat organlari, jamoat birlashmalari, jamoalar, shuningdek jamoat tartibini saqlashda ko'maklashish uchun tuzilgan tuzilmalar bilan hamkorlikda bajaradi. Davlat organlari, jamoalar, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalari II O xodimlariga jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda yordam berishlari shart.

Jamoat tartibini saqlashda ichki ishlar organlari xodimlariga har tomonlama yordam berish har bir fuqaroning burchidir. Shu munosabat bilan har bir fuqaro ko'ngilli ravishda II Oning shtatsiz xodimlari bo'lib ishslashlari mumkin.

Ichki ishlar organlarining xodimlari, Ichki ishlar vazirligi o'quv yurtlarining kursantlari va tinglovchilari jamoat tartibini saqlashga, jinoyatchilikka qarshi kurashga jalb etilganlarida II O xodimlari uchun

belgilangan huquqlar, kafolatlar, majburiyatlar, ijtimoiy himoyadan foydalanishga haqlidirlar.

Vazifalarni bajarish uchun ichki ishlar organlari xodimlariga quyidagi huquqlar beriladi:

– fuqarolar va mansabdor shaxslardan jamoat tartibini saqlash, ichki ishlar organlarining vakolatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi huquqbazarliklarni to'xtatishni talab qilish, talab bajarilmagan hollarda esa qonunda belgilangan majburlov choralarini qo'llash;

– jinoyat qilgan yoki boshqa huquqbazarliklarni sodir etgan deb gumonsirashga asoslar bo'lganda, fuqarolardan ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish;

– boshqa choralar qolmaganda huquqbazarliklarning oldini olish maqsadida ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxslarni ichki ishlar idoralariga yoki boshqa xizmat xonalariga olib kelish, qonunda boshqa muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, ularni uch soatgacha ushlab turish, ularning shaxsiy buyumlarini ko'zdan kechirish, hujjatlarini va boshqa buyumlarini olib qo'yish;

– ma'muriy huquqbazarliklar haqidagi ishlarni yuritishni ta'minlashning qonunda belgilangan boshqa choralarini qo'llash;

– qonunda belgilangan hollarda ma'muriy javobgarlik belgilash yoki ma'muriy huquqbazarliklar haqidagi materiallarni o'rtoqlik sudlariga, jamoat birlashmalariga yoki jamoalarga ko'rib chiqish uchun berish;

– jazoni ijro etish joylaridan ozod qilingan va ma'muriy nazoratga olingan shaxslarni hisobga olish,unning har qanday qismida ularning yashash joylariga kirish, nazoratdagilarni qayd etishni ta'minlash, ularga nisbatan qonunda belgilangan boshqa cheklashlarni qo'llash;

– daydilik va tilanchilik uchun ushlangan shaxslarni qonunda belgilangan tartibda ular uchun maxsus ajratilgan xonalarda saqlash;

– qonunda belgilangan hollarda vasiysiz qolgan yoki ijtimoiy qilmish sodir etgan, o'n sakkizga to'limgan shaxslarni ushlash va ularni darhol jamiyatdan ajratib qo'yish, zarur bo'lsa, qabul qilish-taqsimlash punktlarida saqlash;

– harbiy patrullar bo'limganda, jamoat tartibini buzayotgan harbiy xizmatchilarni ushlash va ularni harbiy komendantlar yoki harbiy qism komandirlariga topshirish;

– jinoyat qilganlikda shubhalanayotgan shaxslarni jinoyat-protsessual qonunlariga muvofiq ushlash va qamoqxonada saqlash;

– ichki ishlar organlari yurituvida bo'lgan ishlar va materiallar bo'yicha fuqarolarni idoraga chaqirish;

– qonunda belgilangan asoslar va tartibda profilaktik ta'sir ko'rsatilishi kerak bo'lgan shaxslarni aniqlash va hisobga olish;

- qonunda belgilangan hollar va tartibda fuqarolarni ichki ishlar idoralariga keltirish, shuningdek, ularni tibbiy muassasalarga olib kelish;
- qonunda belgilangan hollarda fuqarolarni g'ayriijtimoiy harakatlarga yo'l qo'ymasliklari to'g'risida rasmiy ogohlantirish va bunday shaxslarni qayd etishni amalga oshirish;
- jinoyat qilganlikda, daydilik yoki tilanchilikda shubhalanayotgan, qamoqqa olingen, qasddan jinoyat sodir etishda ayblanayotgan, ma'muriy qamoqqa tortilgan shaxslarni suratga olish, ovozini yozish, kino va videosyomka qilish, barmoq izlarini olish, qayd etib borish;
- jinoyatlarni aniqlash, fosh etish, bartaraf etish va ularning oldini olish, maqsadida texnik vositalarni qo'llagan holda oshkora va yashirin operativ qidiruv tadbirlarini o'tkazish, olingen ma'lumotlardan qonunda nazarda tutilgan hollar va tartibda foydalanish;
- jamoat tartibini, jamoat xavfsizligini, fuqarolarning sog'lig'i va hayotini qo'riqlash, shuningdek, ba'zi tergov harakatlarini o'tkazish maqsadida, alohida joy va obyektlarga fuqarolarning kirishini vaqtinchha chegaralash;
- jinoyatda shubhalanayotgan shaxslarni ta'qib etish maqsadida, favqulodda holatlar va hodisalar paytida kunning har qanday qismida fuqarolarning yashash va boshqa binolariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning binolariga to'sqiniksiz kirish va ularni ko'zdan kechirish.
- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar (xorijiy diplomatik vakolatxonalaridan tashqari)ning hududiga va binolariga, fuqarolar yakka va boshqa turdag'i mehnat faoliyati, tadbirkorlik turi uchun foydalanayotgan ishlab chiqarish binolariga to'sqiniksiz kirish, mulk egasi yoki uning vakili bilan birgalikda ishlab chiqarish, ombor, savdo, xizmat xonalarini, transport vositalarini, boshqa saqlash va foydalanish xonalarini ko'zdan kechirish ( mulk egasi yoki uning vakili ko'zdan kechirish, namunalar olishni o'tkazishdan bosh tortsa, bu harakatlar jamoat birlashmalari, hokimiyatlar vakillarini jalb qilgan va o'tkazilgan harakatlar haqida prokurorga bir kunlik muddat ichida xabar bergan holda, mulk egasi yoki uning vakilisiz ham amalga oshirilishi mumkin).
- mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning mansabdor shaxslari, rahbarlari, xodimlaridan, shuningdek, yakka tartibdagi va boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslardan tekshirilayotgan faoliyatga taalluqli hujjalari, ma'lumotlar va tekshirilayotgan faoliyatga taalluqli yozma tushuntirishlar talab qilib olish;
- davlat, kooperativ va ijtimoiy mulkning korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hisobotidagi mulk bilan to'g'ri kelishini tekshirib ko'rish; tekshiruv, inventarizatsiya, taftish va nazorat o'tkazishni talab qilish,

o'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashishga mutaxassislarni qonunda belgilangan tartibda taklif etish;

– banklar va boshqa moliya-kredit muassasalaridan pul— kredit va tashqi iqtisodiy aloqalar operatsiyalari to'g'risida operativ va hisobot ma'lumotlarini olish, cassalar, pul, tovar-moddiy qimmatliklari va hujjatlar saqlanadigan boshqa joylarni muhrlab qo'yish; kontrol xaridlar kilish, xom ashyolarning, yarimfabrikatlar va mahsulotlarning namunalarini olish;

– xalq xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, sotish va transportirovka qilish paytida, aholiga xizmatlar ko'rsatishda iste'molchilarining huquqlarini himoya kilish normalari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

– keyinchalik prokurorga xabar qilgan holda, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlariga, mansabdar shaxslariga va boshqa xodimlariga, shuningdek, yakka tartibdagi va boshqa mehnat faoliyati, tadbirkorlikning boshqa turlari bilan shug'ullanayotgan shaxslarga rasmiy ogohlantirishlar berish;

– zarur hollarda ko'chalarda va avtomobil yo'llarida transport vositalarining, piyodalarining harakatini cheklash yoki man qilish;

– ko'cha harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

– texnik holati yo'l harakati uchun xavf tug'diradigan yoki ular chiqqagan gazzagi zararli moddalar yo'l qo'yilgan me'yordan oshib ketadigan transport vositalarining harakatini man kilish;

– zarur hollarda transport vositalarini to'xtatish va haydovchilarining transport vositalaridan foydalanish va boshqarish huquqini beruvchi hujjatlarini tekshirish;

– yo'l varaqalari va yuklarning tovar-transport hujjatlariga mos kelishini tekshirish;

– transport vositalari g'ayriqonuniy maqsadlarda foydalaniyotganligi gumon qilingan hollarda ularni ko'zdan kechirish;

– mast holdagi kishilarni, transportni boshqarish yoki undan foydalanishga huquqi bo'limgan shaxslarni transport haydashdan chetlatish;

– qonunda nazarda tutilgan hollarda, haydovchilarни transport vositasini boshqarish huquqidан mahrum qilish;

– mamlakatimiz fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga, qonunga muvofiq tarzda hujjatlarni rasmiy lashtirish va berish;

– korxonalar, tashkilotlar, muassasalarga qonunda belgilangan ro'yxat asosida qurollar, o'q-dorilar, portlovchi, o'tkir kimyoviy, zaharli va boshqa moddalarni olishga, saqlashga, tashishga ruxsatnomalar berish, fuqarolarga esa – o'qotar qurollar, o'q-dorilar olishga, olib yurishga, saqlashga ruxsatnomalar berish, shuningdek, ularni bekor qilish;

– qurollar, o‘q-dorilarni saqlash, olib yurish, foydalanish qoidalari buzilgan hollarda esa yuqorida ko‘rsatilgan jismoniy va yuridik shaxslardan sanab o‘tilgan buyumlarni olib qo‘yish;

– korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning (diplomatik vakolatxonalar, konsulliklar va xorijiy davlatlar boshqa vakolatxonalarining, xalqaro tashkilotlarning transport vositalari bundan mustasno) fuqarolar, jamoat birlashmalarining transport vositalaridan tabiiy ofat joylariga yetib borish, tez tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarni tibbiy muassasalarga olib borish, jinoyatchilarni ta’qib etish, ularni ichki ishlar idoralariga olib kelish, shuningdek, kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda hodisa joyiga yetib kelish maqsadida to‘sqiniksiz foydalanish;

– muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalariga, kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda esa fuqarolarga ham tegishli aloqa vositalaridan xizmat maqsadlarida foydalanish;

– qonunda belgilangan tartibda, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalaridan zarur axborotlarni olish;

– tegishli davlat organlari, jamoat birlashmalari yoki mansabdor shaxslarga jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklarni sodir etishga imkon beruvchi sabablar va sharoitlarni bartaraf etish zarurligi to‘g‘risida taqdimmoma berish;

– ommaviy axborot vositalaridan jinoyatlarning va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish, jamoat tartibini mustahkamlash, jinoyat sodir etilgan holatlar, shaxslarni aniqlash, jinoyatchilarni, bedarak yo‘qolgan shaxslarni topish maqsadida foydalanish;

– jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda namuna ko‘rsatgan fuqarolarni rag‘batlantirish.

Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqlarini amalga oshirish tartibi va shartlari qo‘srimcha ravishda IIV idoraviy hujjatlari bilan belgilanishi mumkin. Ichki ishlar organlari xodimlarining quyidagi majburiyatlar bor:

– jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish;

– jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklarni keltirib chiqargan sharoitlar va sabablarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

– huquqbazarlar bilan yakka tartibda profilaktik ishlar olib borish, fuqarolarning huquqiy tarbiyasida ishtirok etish;

– jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va oldini olish;

– ko‘chalar, maydonlar, parklar, transport magistrallari, aeroportlar va boshqa jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash;

- boshqa huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat birlashmalari bilan birga, bolalar qarovsizligining oldini olish;
- jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklar, shuningdek, ularni sodir etgan shaxslar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va qayd etish;
- jinoyatlar haqidagi arizalar va xabarlarga zudlik bilan javob berish, qonuniy asoslar bo'lganda jinoiy ishlar qo'zg'atish yoki ularni rad etish, surishtiruv o'tkazish;
- prokuror, tergovchining qidiruv va tergov harakatlarini o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarini va ko'rsatmalarini bajarish, ularga tergov harakatlarini o'tkazishda ko'maklashish;
- huquqni muhofaza qilish organlariga jinoyatlarning oldini olish va fosh etishda yordam bergan guvohlar, jabrlanuvchilar va boshqa shaxslarning shaxsi va mulkini muhofaza qilish choralarini ko'rish;
- jinoyat qilgan, tergov, surishtiruv va suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan qochib yurgan, bedarak yo'qolgan, shuningdek, qonunda belgilangan boshqa shaxslarni aniqlash va qidirish;
- fuqarolar, mansabdar shaxslarning jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi qonunlarni bajarishlarini nazorat qilish;
- avariylar, yong'inlar, halokatlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, odamlarni qutqarish, ularga yordam berish, qarovsiz qolgan mulkini qo'riqlash choralarini ko'rish;
- huquqbazarliklar va baxtsiz hodisalardan zarar ko'rgan, yordamga muhtoj bo'lgan, shuningdek, mast holda bo'lgan shaxslarga, basharti ular atrofdagilarga yoxud o'zlariga ziyon yetkazadigan holatda bo'lsalar, zudlik bilan yordam ko'rsatish;
- o'z vakolati doirasida yo'l-harakati xavfsizligini ta'minlash;
- bu sohadagi qoidalar, normativlar va standartlarga rivoja etilishini nazorat qilish;
- avtomototransport vositalarini qayd etish va hisobga olish, haydovchilik guvohnomalarini berish;
- tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlikni saqlash bo'yicha qonunda nazarda tutilgan tadbirlarni o'tkazishda qatnashishi;
- qurollar, o'qdorilar, portlovchi moddalar, kuchli ta'sir etuvchi kimyoiy, zaharli va boshqa predmetlarni, moddalar va materiallarni olish, saqlash,tashish, qonunda belgilangan ro'yxat bo'yicha obyektlar ochish va faoliyat ko'rsatishining qoidalariga rivoja etilishini ta'minlash;

– pasportlar hamda chegara zonasiga kirishga ruxsatnomalar berish, fuqarolarni hisobga olish va hisobdan chiqarish;

– fuqarolar va mansabdar shaxslarning qonunda belgilangan pasport tizimi qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilish;

– O‘zbekistonga kelayotgan, unda to‘xtab o‘tayotgan, chiqib ketayotgan xorijiy fuqarolarning, mamlakatimiz fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning qonunda belgilangan kirish-chiqish qoidalariga amal qilishlarini, shuningdek, fuqarolik bo‘yicha boshqa qonunlarni bajarishlarini ta’minlash;

– shartnomalar asosida mulklarni qo‘riqlash;

– sudlarning ajrimlarini, prokurorlar va tergovchilarining qarorlarini, voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalarining chaqiruv bo‘yicha kelishdan bosh tortgan shaxslarni olib kelish to‘g‘risidagi qarorlarini, shuningdek, hibsga olish to‘g‘risidagi prokuror qarorlarini va qamoqqa olish to‘g‘risida ular sanksiya bergen tergovchilarining qarorlarini, sudlarning hukmlarini, ajrimlar va qarorlarini ijro etish;

– ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish;

– qonunda nazarda tutilgan hollarda jazoni ijro etish joylaridan bo‘shatilgan shaxslarni nazorat qilish;

– shartli qamalganlar, shuningdek, hukm muddati keyinga surilgan sudlanganlarning xulq-atvorini kuzatish;

– jinoiy jazoni o‘tab qaytgan, shuningdek, ilgari daydilik va tilanchilik bilan shug‘ullangan shaxslarning ishga joylashishiga ko‘maklashish;

– topilgan va IIoga topshirilgan hujjatlar, buyumlar, qimmatbaho va boshqa buyumlarni saqlash, ularni qonuniy egalariga qaytarish choralarini ko‘rish;

– o‘z vakolatlari doirasida jinoiy va ma’muriy jazoni ijro etish;

– ushlanganlar va hibsga olinganlarni qo‘riqlash, kuzatib borish;

– ichki ishlar organlariga keltirilgan, ushlangan, qamalganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, zarur bo‘lganda ularga zudlik bilan tibbiy va boshqa yordam ko‘rsatish, shuningdek, fuqaroga uning huquq va erkinliklari cheklanganligining asoslari va sabablarini tushuntirib berish.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlari xodimlari o‘z vakolatlari doirasida xalq deputatlariga, deputatlikka nomzodlarga, davlat organlariga, mansabdar shaxslarga, jamoat birlashmalariga ularning organlari va vakillariga o‘z majburiyatlarini o‘tashlarida yordam beradi.

**8-BOB**  
**MILLIY XAVFSIZLIK XIZMATI**

**8.1. Milliy xavfsizlik xizmatining umumiyyat tavsifi**

O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati (MXX) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 25 avgust va 26 sentabrdagi farmonlari asosida tashkil etilgan.

MXX va uning joylardagi organlari xorijiy davlatlar va xorijiy tashkilotlar maxsus xizmatlarining O'zbekistonga qarshi qaratilgan razvedka-qo'poruvchilik faoliyatiga qarshi kurash olib boradi, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini, konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy butunligini, iqtisodiy, ilmiy-tehnikaviy va mudofaa qudratini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni amalga oshiradi.

O'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu xizmat Qoraqalpog'iston Respublikasida (uning davlat hokimiyati va boshqaruva organlari bilan kelishgan holda) viloyatlarda, alohida shaharlar va tumanlarda o'zining organlarini tuzadi.

Milliy xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasi hokimiyati va boshqaruva organlarining ishlashini nodo'stlik kayfiyatidagi davlatlar va konstitutsiyaga qarshi ichki tuzilmalar maxsus xizmatlarining razvedka-qo'poruvchilik va boshqa xil jinoiy tajovuzlaridan samarali himoya qilish uchun javobgardir va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Oliy Majlisiga oldida muntazam ravishda hisob berib turadi. Milliy xavfsizlik xizmati va uning joylardagi organlari o'zlarining amaliy faoliyatlarida mehnatkashlar bilan yaqindan aloqada bo'ladilar, doimo ularning yordamiga suyanadilar.

Milliy xavfsizlik xizmatiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tayinlanadigan va keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida tasdiqlanadigan rais boshchilik qiladi. MXX raisining birinchi o'rinnbosari va o'rinnbosarlari O'zbekiston Respublikasi MXX raisining taqdimnomasiga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tayinlanadilar. Milliy xavfsizlik xizmatining raisi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan respublika vazirlariga berilgan huquqlardan foydalanadi.

MXX amaldagi buyruqlar va ko'rsatmalarga muvofiq, agar ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lmasa, operativ-qidiruv va boshqa xil xizmat faoliyatlarini amalga oshiradi. Milliy xavfsizlik xizmati raisi va uning o'rinnbosarlari o'z vakolatlari doirasida buyruqlar, ko'rsatmalar va yo'riqnomalar chiqaradilar.

Xavfsizlik organlari ishini tashkil etish masalalarini hal qilish uchun tarkibida xizmat raisi, uning o'rinnbosarları va xizmatning boshqa rahbar xodimlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati kengashi tuziladi. Kengash a'zolarining shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda xizmat raisi tomonidan tasdiqlanadi.

## **8.2. Milliy xavfsizlik xizmati organlarining vazifalari va vakolatlari**

Milliy xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasi manfaatlari yo'lida, razvedka va kontrrazvedka faoliyati bilan shug'ullanish va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash hisoblanadi.

Milliy xavfsizlik xizmati organlari:

- razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshiradilar;
- davlat xavfsizligi manfaatlariga daxldor bo'lgan terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash olib boradilar;
- O'zbekiston Konstitutsiyasi va mustaqilligini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlaydilar, chet ellarda O'zbekiston Respublikasining diplomatiya, savdo va boshqa rasmiy vakillarining xavfsizligi ta'minlaydilar, zarur bo'lgan hollarda respublika fuqarolarining chet elga jo'nab ketishida va u yerda bo'lishida ularning xavfsizligini ta'minlashni tashkil etadilar;

- Prezidentni, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarini xavfsizlik manfaatlariga daxldor bo'lgan masalalar yuzasidan xabardor qilib turadilar, O'zbekiston Prezidentini, davlat hokimiyyati va boshqaruvining yuqori organlarini xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy, mudofaa qurilishi va fan-tekniqa taraqqiyoti, tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq vazifalarni hal etish uchun ularni zarur bo'lgan axborot bilan ta'minlash maqsadida axborot berish-tahsil qilish ishlarini amalga oshiradilar;

- xavfsizlik manfaatlariga daxldor bo'lgan ijtimoiy jarayonlarni va muammolarni tadqiq qiladilar va oldindan aytib beradilar;

- xalq xo'jaligi va boshqa obyektlarda davlat sirlarini saqlashga oid choralarmi ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashadilar, tijorat sirlarini saqlashda korxonalarga, muassasalarga va tashkilotlarga yordam ko'satadilar;

- tergov qilish xavfsizlik organlari ixtiyoriga o'tkazilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergov ishlarini olib boradilar, bunday jinoyatlarni sodir etgan yoki sodir etishda shubha qilinayotgan shaxslarni qidirishni amalga oshiradilar;

- jinoyat sodir qilgan shaxslarning hisobini yuritadilar;

- xalq xo'jaligi va boshqa obyektlarda xavfsizlikni ta'minlaydilar;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarori bo'yicha ichki ishlar organlari bilan birgalikda fuqarolarni himoya qilishda, transport va aloqa, aholi hayotini ta'minlash obyektlarini, muhim xalq xo'jaligi va harbiy obyektlarni qo'riqlashda, qonunchilikni va huquqiy tartibotni tiklashda, ommaviy tartibsizliklarning, millatlararo nizolarning oldini olishda qatnashadilar;

– atom energetikasi obyektlaridagi, neft va gaz mahsulotlari quvurlaridagi, transportdagи, sanoatning mudofaa tarmoqlari obyektlaridagi va boshqa muhim xalq xo'jaligi obyektlaridagi yirik avariyalarning, halokatlarning va boshqa favqulodda hodisalarning oldini olishga oid tadbirlarni amalga oshirishda, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootik kasalliklar, ekologik halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarning oqibatlarini tugatishda qatnashadilar;

– davlat organlarining so'rovlar bo'yicha davlat sirlaridan iborat ma'lumotlarni yaxshi bilgan shaxslar to'g'risida, ularning chet elga jo'nab ketayotganliklari va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishlari haqidagi iltimosnomalari munosabati bilan axborotlar taqdim etadilar;

– maxsus yuklarni tashishning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan choralar ishlab chiqishda va amalga oshirishda boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikda qatnashadilar;

– urush davrida milliy xavfsizlik organlarining safarbarlik tadbirlarini ta'minlashda qatnashadilar;

– davlat sirlarini saqlashga, bojxona qoidalariga, qurol va o'q-dorilar sotib olish va saqlashga tegishli masalalarni hal etishda O'zbekiston Respublikasi xavfsizligini ta'minlash yuzasidan umum davlat tadbirlarini ishlab chiqishda qatnashadilar;

– milliy xavfsizlik organlarining moddiy-texnika bazalarini rivojlantirish rejalarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar;

– o'z xavfsizliklarini ta'minlashda qidirishda qatnashadilar.

### **8.3. Milliy xavfsizlik xizmati organlari faoliyatining asosiy prinsiplari**

Milliy xavfsizlik organlarining faoliyati qonuniylik, qonun oldida hammaning tengligi, shaxsni, uning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, insonparvarlik va baynalmilallik *prinsiplari* asosiga quriladi. Bu prinsiplarning ko'pinig oldindi boblarda ko'rib chiqqanimizga qaramay, ularga yana bir bor to'xtalib o'tamiz.

*Qonuniylik prinsipi* shuni anglatadiki, barcha MXX xodimlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi va Jinoyat protsessual kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlari talablariga aniq riyox qilishlari shart. Ulardan chekinish belgilangan javobgarlikka olib keladi.

Milliy xavfsizlik xizmati organlarining vazifalari, maqsadi va vakolatlari qonunlarda belgilab berilgan. Operativ-qidiruv tadbirlari esa idoraviy yo'riqnomalarga asoslangan.

Oliy sud va boshqa sud organlari bu xizmatning operativ-qidiruv faoliyatini nazorat qiladi, uning natijalarini baholaydi va fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari to'g'risidagi shikoyatlarni hal qiladi. Sud quyidagilar haqida xabardor qilinishi kerak:

- jinoiy ishlarning tergovi va ko'rib chiqilishidan oldingi, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyati qanday amalga oshirilayotganligi;

- dalillar to'plash uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar qay tarzda aniqlanayotganligi;

- bunda fuqarolarning huquq va erkinliklariga qay darajada real daxil qilinayotganligi.

Milliy xavfsizlik xizmatining operativ faoliyatida qonunchilikning kafolati prokuror nazoratidir. Prokuror bu organlar operativ faoliyatidagi har qanday qonun buzilishini o'z vaqtida aniqlashi va fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash choralarini ko'rishi zarur. Bu organlarning operativ faoliyati maxfiydir. Lekin barcha bo'g'indlardagi prokurorlar o'z buyruqlari bilan MXX faoliyatida qonunlarga rioya etilishini nazorat qiluvchi xodimlarni belgilaydilar. Mamlakatimiz prokuraturasida esa bu maqsad uchun maxsus bo'lim bor.

*Barchaning qonun oldida tengligi* prinsipi shuni bildiradiki, milliy xavfsizlik organlari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, barchaga birday munosabatda bo'ladilar. E'tiqodi uchun ta'qib qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Milliy xavfsizlik xizmati ishidagi asosiy prinsiplardan biri *shaxsni, uning huquq va erkinliklarini hurmat qilishdir*. Mazkur xizmatning har bir xodimi o'z ishida o'zi munosabatda bo'ladigan shaxslarning qadri va sha'nini hurmat qilishi shart. Tazyiq o'tkazish, jumladan, zarur axborot olish maqsadida yoki intizomni mustahkamlash uchun tazyiq o'tkazish qonunda ma'n qilingan.

Shuningdek, insonning sha'ni, qadr-qimmatini yerga uruvchi, uning shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlar tarqatishga, sog'lig'ini xavf ostiga qo'yishga, jismoniy va ruhiy azob chekishiga olib keluvchi harakatlar qilish, qarorlar chiqarish, ham ma'n qilingan. Narkotik, psixotrop va toksik moddalar yordamida odamlarga ta'sir ko'rsatishga ham yo'l qo'yilmaydi.

Milliy xavfsizlik xizmatining butun faoliyati insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatiga nisbatan gumanizm muammosining turli jihatlari bor. Insonparvarlik prinsipi O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik xizmati haqidagi nizomda aks etgan. Shu prinsipdan kelib chiqib, Milliy xavfsizlik

xizmatining butun operativ faoliyati ogohlantiruvchi tusga ega. Operativ-qidiruv tadbirlari faqat himoya qilinayotgan manfaatlarni boshqa usulda muhofaza qilishning imkonini bo'lmagandagina amalga oshiriladi.

Ushbu prinsip asosida operativ-qidiruv faoliyatini tashkil qilish hokimiyatdan yashirinchada tayyorlanayotgan jinoyatlarni aniqlash, oldini olish, bartaraf etish shart ekanligidan kelib chiqadi. Jinoyat protsressual qonunlarida nazarda tutilgan jinoyatlarni tergov qilish sodir etilgan jinoyat haqida biror ma'lumot olingandan, ya'ni jinoyat aniqlangandan keyingina boshlanishi mumkin. Ko'pincha, bunday jinoyatlar haqida fuqarolar, ma'lumotlarga ega mansabdon shaxslar xabar qilishadi. Lekin bunday ma'lumotlarni kutib o'tirish yoki ularga umid qilib o'tirish yetarli emas. Operativ-qidiruv ishi o'z vaqtida jinoiy harakatlarni aniqlash, tergov qilish uchun sharoit yaratish va shu orqali jinoyatchiga qarshi kurashish uchun mavjud.

Operativ-qidiruv faoliyatining dastlabki qidiruv faoliyati uning oshkoraliqi chegaralarini belgilaydi. Tabiiyki, fuqarolar operativ-qidiruv faoliyatni amalga oshiruvchi organlarning ishidan; maqsad va vazifalaridan; ish prinsiplaridan; ularning ijtimoiy munosabatlar sohasiga qay darajada aralashishlaridan; o'zaro huquq va majburiyatlaridan; faqat berilgan vakolat doirasidagina faoliyat ko'rsatish kafolatlaridan belgilangan tarzdagina umumiyligini xabardor bo'ladilar.

Operativ-qidiruv harakatlari va ularning natijalari esa har gal ham oshkor qilinavermaydi. Bu ko'pincha operativ manbaning maxfiyligini ta'minlaydi. Maxfiylik, o'z navbatida, operativ ma'lumotlarni oshkora tekshirish va ular asosida sudda hukm chiqarish, tergovda ayb qo'yishning iloji yo'qligini keltirib chiqaradi. Bu jumladan, texnik vositalar (foto, kino, videosyomkalar) yordamida olingan ma'lumotlarga ham tegishli. Bundan tashqari, faqat operativ yo'l bilan olingan ma'lumotlar asosida fuqarolarni protsessda ishtirok etishga jalb qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Operativ-qidiruv faoliyatida shaxslarning aybdorligi haqida qaror qabul qilinishi mumkin emas. Bunday qarorlar jinoiy protsessga xosdir. Bu protsess operativ-qidiruv faoliyati natijasida olingan asoslarga ko'ra boshlanishi mumkin.

Shuning uchun ham operativ-qidiruv yo'l bilan olingan axborotlarni vaqtidan avval oshkor qilishga yo'l qo'yilmaydi. Operativ axborot qonuniy va rasmiy ravishda shaxsni davlat nomidan jinoyatga aloqador deb hisoblashga asos bo'la olmaydi.

Milliy xavfsizlik xizmati ishidagi baynalmilallik prinsipi avvalo fuqarolarning irqi, millati, dini, e'tiqodi, jinsi, manzili, ijtimoiy va moliyaviy mavqeidian qat'i nazar, qonun oldida tengligida namoyon bo'лади.

Mustaqillik yutuqlarini tashqi tajovuzlardan himoya qilish, fuqarolarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash bilan birga, milliy xavfsizlik organlarining ishi, birinchi navbatda, Vatanga xiyonat qilishga, josuslikka davlatga qarshi boshqa faoliyatga moyil bo'lgan shaxslarga qaratilgan. Shu bilan birga, bu organlar tinchlik va xavfsizlikka qarshi qaratilgan jinoyatlar, ayniqsa, uning xavfli turi bo'lmish agressiya, odam yollash, terrorizmning oldini olish, bartaraf etish uchun kurashadilar.

#### **8.4. Milliy xavfsizlik organlarining huquqlari**

O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik organlari o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun keng huquqlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

1) qonun bilan tergov qilish milliy xavfsizlik organlari ixtiyoriga o'tkazilgan jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va ularni ochish maqsadida, shu jumladan, texnika vositalaridan foydalangan holda, oshkora va nooshkora operativ-qidiruv tadbirlarini belgilangan tartibda amalga oshiradilar, olingen ma'lumotlardan qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda foydalanadilar;

2) milliy xavfsizlik organlari zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun fuqarolarning roziligi bilan oshkoraliq va nooshkoraliq asosida ularning yordamidan foydalanadilar, shu jumladan, ko'ngilli asosda fuqarolarni xavfsizlik organlarining shtatsiz xodimlari sifatida jalb qiladilar;

3) chet davlatlar va chet el tashkilotlari maxsus xizmatlarining O'zbekistonga qarshi razvedka-ko'poruvchilik faoliyatini, konstitutsiyaviy tuzumga va respublikaning mustaqillik huquqiga qarshi tajovuzkorliklarning payini qirqish maqsadida, pochta jo'natmalarini tekshiradilar, telefonlar va boshqa so'zlashuv qurilmalaridan foydalanib gaplashuvchi ayrim shaxslarning gaplarini eshitadilar, va bu ishlardan prokuorni xabardor etib jinoyat-protsessual qonunchiligidagi milliy xavfsizlik xizmati organlariga tegishli bo'lgan jinoyatlarni tergov qilib davlatga qarshi jinoyatlarni fosh qiladilar;

4) ichki ishlar organlari bilan birga o'zaro hamkorlikda jinoyatlarning oldini olish va ularni ochib tashlash uchun operativ-qidiruv tadbirlarini amalgya oshiradilar;

5) ichki ishlar organlari bilan kelishilgan holda xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan tadbirlar o'tkazish uchun bu organlarning kuchi va vositalarini jalb qiladilar;

6) tergov qilish qonun bilan milliy xavfsizlik organlari ixtiyoriga berilgan jinoyatlarni sodir qilganlikda asosli ravishda shubhalanilgan yoxud jinoyatlar sodir qilgan fuqarolarning, ularning shaxsini tasdiqlovchi

hujjatlarini, shuningdek, bajarilishini nazorat qilish xavfsizlik organlari zimmasiga yuklatilgan qoidalarga rioya qilinishini tekshirish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni tekshiradilar;

7) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat korxonalariga tegishli, shoshilinch hollarda esa fuqarolarga tegishli aloqa vositalaridan xizmat maqsadlarida moneliksiz foydalanadilar;

8) kechiktirib bo'lmaydigan hollarda korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, jamoat birlashmalariga yoki fuqarolarga tegishli (chet davlatlar, xalqaro tashkilotlarning diplomatiya vakilliklari, konsullik va boshqa muassasalaridan tashqari) transport vositalaridan jinoyatlarning oldini olish, jinoyat sodir etgan yoki jinoyat qilganlikda shubhalanilayotgan shaxslarni kuzatish va ushlash, shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarni davolash muassasalariga yetkazish uchun, shuningdek, voqeа sodir etilgan yoki tabiiy ofat ro'y bergan joyga yetib borish uchun foydalanadilar. Transport vositalari egalarining talabiga ko'ra milliy xavfsizlik organlari oqibat-natijada ularga keltirilgan zararni belgilangan tartibda to'laydilar;

9) tekshirish qonun bilan milliy xavfsizlik organlari ixtiyoriga berilgan jinoyatlarning bevosita oldini olishda, bunday jinoyatlarni sodir etganlikda shubhalanilayotgan shaxslarni ta'qib qilishda, xavfsizlikka tahdid soluvchi favqulodda holatlarda kunning xohlagan vaqtida uylarga va fuqarolarga tegishli bo'lgan boshqa xonalarga, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hududlariga va binolariga hech qanday moneliksiz kiradilar hamda ko'zdan kechiradilar, so'ngra bir kun muddat ichida qilingan harakatlar to'g'risida prokurorga xabar beradilar;

10) davlat hokimiyati yuqori organlarining qaroriga ko'ra iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni aniqlashga oid tadbirlarni amalga oshiradilar; bunday hollarda IIO xodimlariga berilgan huquqlardan foydalanadilar;

11) tekshirilishi qonun bilan milliy xavfsizlik organlariga berilgan jinoyatlarning oldini oladilar. Qonunda nazarda tutilgan hollarda fuqarolarni huquqqa qarshi harakatlarning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida rasmiy ravishda ogohlantiradilar, keyinchalik bu haqda prokuorni xabardor qiladilar;

12) qonun bilan belgilangan tartibda jinoyatchilikning oldini olish chorasi sifatida hibsga olingen shaxslarni va milliy xavfsizlik organlari tomonidan jinoyatlar qilishda shubhalanib ushlangan shaxslarni, ayrim hollarda esa prokuror sanksiyasi bilan ushlangan va ichki ishlar organlari, prokurorlar va sudlar tomonidan, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda ushlangan va qamoqqa olingen shaxslarni saqlash uchun tergov izolatorlari va boshqa xonalarga ega bo'ladilar;

13) o‘z huquqlari doirasida davlat sirlari, maxsus aloqa turlari va shifrlash ishlari xavfsizligining saqlanishini qanday ta’minlashni, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda, jamoat birlashmalari organlarida, Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlarida va qonunda nazarda tutilgan boshqa harbiy tuzilmalarda xavfsizlikning boshqa masalalarini qanday hal etishni tashkil qiladilar va nazorat etadilar; xavfsizlik manfaatlariiga tegishli aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida yozma dokladlar taqdim etadilar, tegishli choralar ko‘rishni va milliy xavfsizlik organlarini ularning ijrosi to‘g‘risida xabardor qilib qo‘yishni talab qiladilar;

14) O‘zbekiston Respublikasi hududida ro‘yxatdan o‘tmagan ma‘lumotlar bilan yoki belgilangan qoidalarni buzgan holda ishlovchi, shuningdek, o‘rnatilgan talablarni buzib bajaradigan, davlat sirlaridan iborat bo‘lgan ishlarni uzatuvchi radioelektron vositalardan foydalanishni taqiqlaydilar;

15) vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, korxonalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalaridan xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan majburiyatlarni ijro etish uchun zarur axborotlarni belgilangan tartibda rasmiy ravishda talab qiladilar va oladilar;

16) milliy xavfsizlik organlari faoliyatiga taalluqli shoshilinch tergov va boshqa ma‘lumotlarning davlat tomonidan saqlanishini amalga oshiradilar va ularni hisobga olish, saqlash va foydalanish tartibini aniqlaydilar, axborot tizimlarini tashkil etadilar;

17) milliy xavfsizlik organlarining harbiy xizmatchilari O‘zbekiston qonuniga muvofiq qurol va maxsus vositalarni olib yurish, saqlash, qo‘llash va foydalanish huquqiga egadirlar.

Milliy xavfsizlik organlarining kadrlarini harbiy xizmatchilar tashkil etadi. ularning soni va tuzilishini Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

MXX raisi xodimlar soni va tuzilmalari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati va uning viloyat organlari bo‘linmalari funksiyalarini belgilaydi va shtatlarini tasdiqlaydi.

Milliy xavfsizlik xizmati organlarining generallari, ofitserlari, praporshiklari va muddatdan tashqari harbiy xizmatchilari harbiy xizmatni Qurolli Kuchlar ustavlari va Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining tegishli toifalari tomonidan harbiy xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi nizomga muvofiq o‘taydilar. MXX raisi intizomiy hokimiyatga ega va ulardan to‘liq hajmda foydalanadi. U MXX organlari mansabdar shaxslarining huquqlarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik organlaridagi ofitserlar tarkibi vaqtiga vaqtiga bilan attestatsiyadan o‘tkazib turiladi. Shuningdek,

navbatdagi va navbatdan tashqari harbiy unvonlar berish to‘g‘risidagi masalalarini ko‘rib chiqish uchun ham attestatsiya komissiyalari tuziladi.

MXX ishchi va xizmatchilarining mehnat sharoitlari O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi bilan boshqariladi. Ularni ijtimoiy himoya qilishni davlat kafolatlaydi. Milliy xavfsizlik organlarining harbiy xizmatchilari davlat tomonidan, albatta, shaxsiy sug‘urta qilinishlari kerak. Xizmat majburiyatlarini yoki xizmat burchini bajarishi bilan bog‘liq holda ularning mol-mulkiga yetkazilgan zarar to‘liq hajmda qoplanadi.

## **9-BOB** **DAVLAT CHEGARASINI QO'RIQLASH ORGANLARI**

### **9.1. Davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash to'g'risidagi tashkiliy-siyosiy qoidalar**

O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi mamlakatimiz hududi doirasini belgilovchi chiziq va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat. U mamlakatimiz suverenitetini quruqlikda, suvda, yer ostida belgilaydi. Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish davlatning chegara siyosati bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat chegara siyosati davlat hokimiyyati, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, tashkilotlar va fuqarolarning kelishilgan, muvofiqlashtirilgan hamkorlikdagi faoliyatidir. Bu faoliyat Davlat chegaralari va unga tutash hududlarda suverenitetni, chegaralar daxlsizligini, hududlar butunligini ta'minlashga va boshqa zarur milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan.

1999 yil 20 avgustdagagi «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi qonunga muvofiq, mamlakatimiz Davlat chegarasini o'rnatish va o'zgartirishda milliy xavfsizlikni ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi va quyidagi prinsiplarga amal qiladi:

- davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligini, davlat chegaralari daxlsizligi va buzilmasligini o'zaro hurmatlash;
- chegara masalalarini tinch yo'l bilan hal etish;
- chet el davlatlari bilan har tomonlama teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish;
- qo'shni davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid kilmaslik.

Davlat chegarasini himoya qilish milliy xavfsizlikni ta'minlash va davlat chegara siyosatini amalga oshirish tizimining tarkibiy qismidir. U siyosiy, tashkiliy-huquqiy, diplomatik, iqtisodiy, mudofaa, chegara, razvedka, kontrrazvedka, operativ-qidiruv, bojxona, tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-epidemiologiya va O'zbekiston Respublikasi quruqlik, suv va havo chegaralarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha boshqa choralarни qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Davlat chegarasini qo'riqlash deganda, undan noqonuniy o'tishga yo'l qo'ymaslik, jismoniy va yuridik shaxslarning Davlat chegarasidan o'tkazish punktlari rejimiga amal qilishlari bo'yicha tadbirlar yig'indisiga aytildi.

Qonunning 15-moddasiga muvofiq, quyidagilar davlat chegarasini buzuvchilar hisoblanadi:

– Davlat chegarasini Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridan boshqa joydan yoki o'tkazish punktlari orqali bo'lsa-da, lekin chegarani kesib o'tish qoidalarini buzgan holda har qanday usul bilan kesib o'tgan yoki kesib o'tishga harakat qilayotgan shaxslar;

– chet elga ketayotgan transport vositalariga O'zbekiston Respublikasidan noqonuniy ravishda chiqib ketish maqsadida chiqib olgan yoki chiqib olishga urinayotgan shaxslar;

– O'zbekiston Respublikasi ichki suvlariiga, shuningdek chegara bo'yи daryolari, ko'llari va boshqa suv havzalari suv qismiga ularga kirish yuzasidan belgilangan qoidalarni buzgan holda kirgan chet el noharbiy kemalari va harbiy kemalari;

– Davlat chegarasini tegishli davlat organlarining ruxsatisiz kesib o'tgan yoki Davlat chegarasi orqali uchib o'tish qoidalarini boshqa tarzda buzgan havo kemalari va boshqa xil uchish apparatlari.

Tegishli ruxsati bo'lmay turib yoki belgilangan tartibni buzgan holda har qanday texnikaviy yoki boshqa xil vositalar bilan kesib o'tish ham Davlat chegarasini buzish hisoblanadi.

Davlat chegarasini qo'riqlash chegara qo'shlari, Qurolli Kuchlar, boshqa milliy xavfsizlik kuchlari va organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bular O'zbekiston Respublikasining qonunlarida ko'rsatilgan. Davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlashda ishtirok etish, xuddi Qurolli Kuchlarda xizmat qilish kabi har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash va davlatning chegara siyosatini amalga oshirish maqsadida Davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlashning yagona tizimi tuzilgan. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: chegara qo'shlari, Mudofaa vazirligi va II Vning birlashmalari, qo'shlari, qismlari, MXX va Mudofaa vazirligining razvedka organlari, MXX, sanitariya, bojxona va boshqa nazorat organlari, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari.

Davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlashning yagona tizimiga O'zbekiston Respublikasining MXX umumiy rahbarlik qiladi.

## **9.2. Davlat chegarasini qo'riqlash organlarining vazifalari**

Davlat chegarasini qo'riqlash organlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklangan:

– Davlat chegarasini ishonchli himoya qilish va qo'riqlashni ta'minlash, dushman qurolli tuzilmalarining mamlakatimiz hududiga o'tishiga yo'l qo'ymaslik;

– chegara qo'shinlarining xizmat, jangovor, operativ faoliyatiga samarali rahbarlik va boshqaruvni, ularning mamlakat hududi butunligi va chegaralar daxlsizligini himoya qilishga tayyorligini ta'minlashni tashkil qilish;

– shaxsiy tarkibni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, unda vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan jangovar, axloqiy-ruhiy sifatlarni shakllantirishning amal qiluvchi tizimini yaratish;

– Davlat chegarasini qo'riqlash masalasi bo'yicha Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, IIV, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan, shuningdek, joylardagi boshqa vazirliklar, ido:alar, hokimiyat organlari bilan aniq muvofiqlashgan va o'zaro hamkorlikni ta'minlash;

– ehtimol tutilgan jangovar harakatlar hududida sharoit rivojlanishining xususiyatlari va ko'zda tutilgan variantlarini chuqur tahlil va bashorat qilish;

– O'zbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlarining bosh shtabi bilan birgalikda chegara qo'shinlarining tarkibi, tuzilishi, soni va joylashshini, ularning zamonaviy qurol turlari, harbiy texnika va chegarani qo'riqlashning maxsus texnikasi bilan qurollantirishni modellashtirish;

– Davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash manfaatida boshqa davlat va xalqaro tashkilotarning tegishli chegara idoralari bilan hamkorlikni amalga oshirish.

### **9.3. Davlat chegarasini qo'riqlash organlarining asosiy funksiyalari**

Davlat chegarasini qo'riqlash organlarining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

– O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda, Davlat chegarasini qo'riqlash masalalari bo'yicha qonunchilik va normativ huquqiy hujjatlarni tayyorlashda, chegaradan odamlar, transport vositalari, yuklar, tovarlar, boshqa buyumlar va hayvonlarni o'tkazishda, shuningdek, Davlat chegarasini qo'riqlash organlarining vakolatlariga tegishli boshqa masalalarni hal qilishda ishtiroy etish;

– Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish konsepsiyasini amalga oshirish, chegara qo'shinlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ular faoliyatini takomillashtirishning maqsadli kompleks

dasturlarini tayyorlash va bu dasturlarni amalga oshirishning huquqiy tashkiliy, iqtisodiy va boshqa mexanizmlarini ishlab chiqish;

– mamlakatimiz hududiga qurolli yorib kirishlarni barataraf etish, Davlat chegarasidagi turli ig‘vogarliklarning oldini olish bo‘yicha o‘z bo‘ysunuvidagi qismlar va bo‘linmalarning harakatiga rahbarlik qilish;

– O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi o‘tishini joylarda noqonuniy o‘zgartirishning oldini olish va bartaraf etish, Davlat chegarasi rejimini saqlash, chegara rejimi va chegaradan o‘tkazish punktlari rejimiga amal qilish va ularni ta‘minlashni nazorat qilish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish;

– Davlat chegarasidan o‘tkazish punktlarida chegara nazoratini tashkil etish;

– O‘zbekiston Respublikasining chegara qo‘sishinlarida operativ va harbiy tayyorgarlikka rahbarlik qilish;

– chegara qo‘sishinlarining shaxsiy tarkibini jangovar, huquqiy, axloqiy, shuningdek, ma’naviy-ruhiy tayyorlash ishlarini o‘tkazish;

– chegara qo‘sishinlarining faoliyatini axborot-tahliliy ta‘minlash, Davlat chegarasini himoya qilish va qo‘riqlash muammolarini tabhliliy tadqiq etishni tashkil qilish, Prezidentga va manfaatdor davlat hokimiyati organlariga axborotlarni tayyorlash va taqdim etish;

– Davlat chegarasini himoya qilish va qo‘riqlash sohasida mamlakatimiz xavfsizligiga tahdidlar haqidagi axborotlarni qo‘lga kiritish va ko‘rib chiqish;

– chegara qo‘sishinlarining jangovar qo‘llanilishi va tashkiliy tuzilishi rejalarini ishlab chiqish;

– davlatimiz fuqarolarini harbiy xizmatga tanlab olish va chaqirishni, belgilangan xizmat muddatini o‘tagan harbiy xizmatchilarini zaxiraga bo‘shatishni rejalashtirish va o‘tkazish;

– chegara qo‘sishinlarida boshqaruv va aloqa tizimini rivojlantirish, qo‘sishlarga rahbarlik qilishning yashirinligini ta‘minlash, dushmanning razvedka kuchlari va vositalariga, radioelektron kurashiga qarshi turish, operativ-taktik niqoblanish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish;

– xizmat jarayonida va chegara operatsiyalarini o‘tkazishda Milliy xavfsizlik xizmati, Mudofaa vazirligi, IIV, DBQ, boshqa vazirliklar va idoralar hamda joylardagi davlat hokimiyat organlari bilan harakatlarni muvofiqlashtirish;

– jangovar kadrlar, moddiy-texnika, moliya, ilmiy, axborot, ruhiy, tibbiy va ta‘minotning boshqa turlarini, shuningdek, chegara qo‘sishinlarining kapital qurilish, kazarma uy-joy fondlari, mulklarining holatini, ularning ishlatalishini nazorat qilish;

- chegara qo'shinlarining javobgarligini, viloyatlarning ma'muriy-hududiy bo'linishidan va Davlat chegarasining eng zaif joylaridan kelib chiqib belgilash;
  - chegara qo'shinlarining qurol-yarog', harbiy texnika, o'q-dorilar va boshqa moddiy texnika vositalariga talabini aniqlash, operativ va daxlsiz zaxiralarni jamg'arish, joylashtirishni rejalahtirish;
  - Davlat chegarasini qo'riqlashning zamonaviy texnik, elektron vositalarini joriy qilish;
    - qo'shinlar xizmatini tashkil qilish, uning holatini nazorat qilish, o'z bo'ysunuvidagi qo'shilmalar va qismlarda nizom tartibini ta'minlash;
  - O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasiga chegara qo'shinlarining budgetini tashkil qilish, ularning tuzilishi va rivojlanishi dasturini mablag' bilan ta'minlash bo'yicha takliflar kiritish;
  - harbiy xizmatdan bo'shagan harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga, qonunda belgilanganidek, nafaqalar to'lash, ijtimoiy va huquqiy kafolatlarini ta'minlash;
  - O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish, mamlakatimiz hukumati imzolagan xalqaro shartnomalar va bitimlar doirasida boshqa davlatlarning chegara idoralari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, respublikaning chegara vakillariga rahbarlik qilish;
  - davlat, harbiy va xizmat sirlariga ega hujjalarning himoyasini ta'minlash;
  - yuqori turuvchi organlarning qarorlarini, buyruqlari va topshiriqlarini chegara qo'shinlarining qo'shilmalari va qismlariga yetkazish, ularning bajarilishini nazorat qilish.
- Davlat chegarasini qo'riqlash organi o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

#### **9.4. Chegara qo'shinlarining huquqlari va majburiyatları**

«O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi qonunning 39-moddasiga muvofiq, Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishda chegara qo'shinlari quyidagi huquqlarga ega:

- belgilangan tartibda o'zlariga berilgan yer uchastkalarida zarur muhandislik-texnik inshootlarni qurish, aloqa liniyalari va kommunikatsiyalar qurilishini amalga oshirish, texnika va qurol-yarog'larni joylashtirish hamda ulardan foydalanish;
- joylarning har qanday uchastkalarida chegara naryadlarini joylashtirish hamda harakat qilish, transport vositalarini chegara naryadlari bilan kuzatib borish, transport vositalarini belgilangan tartibda ko'zdan kechirish;

– qo'shinga oid, razvedka, kontrrazvedka, tezkor qidiruv faoliyatini hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa faoliyatni amalga oshirish;

– Davlat chegarasi rejimi, chegara oldi rejimini yoki Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi rejimni buzgan shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy tartibda ushslash;

– ma'muriy tartibda ushlangan, shuningdek jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib ushlangan shaxslarni maxsus jihozlangan joylarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda saqlash;

– chegara qo'shinlari bo'linmalariga shaxslarni taklif etish va ularga ma'lum bo'lgan Davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tish yoki Davlat chegarasi rejimini, chegara oldi rejimini yoki Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi rejimni boshqa tarzda buzish holatlari to'g'risida ulardan tushuntirishlar olish, (Zarur hollarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidabuxzarlik holatlari to'g'risidagi tushuntirishlar boshqa joylarda ham olinishi mumkin);

– Davlat chegarasi orqali o'tayotgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kirish yoki undan chiqish huquqi to'g'risidagi hujjatlarini tekshirish, ularga tegishli belgililar qo'yish, zarurat bo'lganda bu hujjatlarini belgilangan tartibda olib qo'yish, O'zbekiston Respublikasiga kirish yoki undan chiqish huquqini beruvchi haqiqiy hujjatları bo'linagan shaxslarni ular hujjatlarini lozim dara, id: rasmiylashtirunga yoki chet elda bo'lgan chog'ida hujjatlarini yo'qtganlik holatlari apiqlangunga qadar Davlat chegarasi orqali o'tkazmaslik;

– manfaatdor organlar va transport tashkilotlari bilan hamkorlikda Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida transport vositalari to'xtash (to'xtab turish) joylari va muddatlarini belgilash;

– chegara oldi qidiruvlari va operatsiyalari o'tkazilayotgan vaqtida, odamlarning sog'lig'i va hayotini himoya qilish maqsadida, ayrim hududlarda shaxslar va transport vositalari harakatini cheklash yoki man etish, zarur hollarda fuqarolarni bunday yerlarga kiritmaslik, ulardan o'sha joyda turishi yoki bu hududdan chiqib ketishini talab qilish;

– Davlat chegarasi uchun tahdid tug'ilgan paytda uning ayrim hududlarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, manfaatdor korxona, muassasa, tashkilotlarni ogohlantirgan holda har xil ishlar olib borishni vaqtincha cheklab qo'yish (Mudofaa ahamiyatiga molik ishlar yoki tabiiy ofat yoxud o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning oldini va oqibatlarini tugatish bilan bog'liq ishlar bundan mustasno);

– O'zbekiston Respublikasi hududiga bostirib kirishni daf etish, chegara oldi qidiruvlarini o'tkazish, huquqbuzarlik sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab kelish chog'ida korxonalar, muassasalar,

tashkilotlar, jamoat birlashmalarining va alohida hollarda, fuqarolarning aloqa, transport vositalaridan foydalaniб qilingan xaratjatlar va yetkazilgan zararni egalariga belgilangan tartibda qoplash. Ushbu huquq diplomatik, konsullik, chet el davlatlarining boshqa vakolatxonalariga va xalqaro tashkilotlarga tegishli aloqa va transport vositalariga tatbiq etilmaydi.

Chegara qo'shinlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadirlar. Davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash paytida chegara qo'shinlari quyidagilarga majbur:

- Davlat chegarasi chizig'ining joylarda huquqqa xilof tarzda o'zgartirilishiga yo'l qo'ymaslikka;
- Davlat chegarasida harbiy va boshqa fitnalarning oldini olishga;
- Davlat chegarasi noqonuniy ravishda kesib o'tilishiga yo'l qo'ymaslik, Davlat chegarasini buzuvchierni aniqlash va u'llashga;
- Davlat chegarasi rejimiga, chegara oldi rejimiga va Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi rejimga rioya qilinishi ustida naazoratni amalga oshirishga;
- shaxslar, transport vositalari, tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlarning Davlat chegarasi orqali belgilangan tartibda o'tkazishini amalga oshirishga;
- Davlat chegarasi orqali olib o'tilayotgan kontrabanda boyumini aniqlash va hamda noqonuniy ravishda olib o'tilayotgan tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlarni, shuningdek transport vositalarini aniqlash va belgilangan tartibda ushlab qolishga;
- Davlat chegarasi rejimini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olishga majbur. Chegara qo'shinlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maburiyatlarga ham ega.

## 10-BOB SOLIQ TIZIMI

### 10.1. Davlat soliq qo'mitasи

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 18 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi farmoniga ko'ra, nazorat qiluvchi organlarning faoliyatini tartibga solish, yagona soliq siyosatini o'tkazish, mamlakatimiz iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi negizida Davlat soliq qo'mitasi tuzildi.

Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 4 martda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasini tashkil qilish va uning faoliyati to'g'risida»gi 114sonli qaroriga muvofiq, ushbu qo'mita s olib siyosatini amalga oshirish, shuningdek, mamlakatimizning iqtisodiy manfaatlarini va mulkiy huquqlarini himoya kilish sohasidagi nazorat organi hisoblanadi. Soliq qo'mitasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari barcha vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan, ularning mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, bajarilishi shartdir. Ko'rsatilgan farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi nizom ham tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 12 yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 14-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan yangi nizom O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining maqomi, vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy asoslarni belgilab beradi. Davlat soliq qo'mitasi soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlash, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasida nazorat qilish bo'yicha markaziy organi hisoblanadi.

Davlat soliq qo'mitasining tasarrufida bo'lgan va mamlakatimiz soliq organlarining yagona tizimini tashkil etuvchi organlar quyidagilar hisoblanadi:

- Qoraqalpog'ston Respublikasi va Toshkent shahar davlat soliq bosh boshqarmalari;
- viloyatlar davlat soliq boshqarmalari;

– tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va unga qarashli muassasalarning mansabdar shaxslari huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining vazifalari hisoblanadi:

a) O'zbekiston Respublikasida o'tkazilayotgan soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita qatnashish;

b) nazorat organlari tomonidan olib borilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini barcha tekshiruv va taftishlarini muvofiqlashtirish;

v) quyidagilar bo'yicha ishni tashkil etish va ular ustidan nazorat qilish;

– soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioxaya etilishi, soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar (keyingi o'rnlarda soliqlar deb yuritiladi) to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi;

– soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioxaya etilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko'rsatish;

– soliq solinadigan subyektlar va obyektlarning to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash;

– soliqlar bo'yicha huquqbazarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va ularga barham berish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi o'ziga yuklatilgan vazifalarni boshqa davlat boshqaruv organlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradi.

Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) qonun hujjatlariga rioxaya etilishi, soliqlar to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi, mana shu maqsadda:

– soliq solinadigan subyektlar va obyektlar, hisoblab chiqilgan va to'langan soliqlarning to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini, jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish tartibiga rioxaya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

– soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish faktlarini to'plash, tahlil etish va baholash hamda soliqlar bo'yicha huquqbazarliklarga yo'l ochib

berayotgan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida tegishli organlarga takliflar kiritish;

– yuridik va jismoniy shaxslarga ular soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatga olinganliklari to‘g‘risidagi hujjatlarni, ro‘yxatdan o‘tkazish (identifikatsiyalash) tartib raqamlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berish;

– soliq tushumlarini ta‘minlash bo‘yicha topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil etish;

– jismoniy shaxslarning daromadlari yalpi deklaratsiya qilinishini bosqichma-bosqich joriy etish;

– xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini soliq bilan tartibga solish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, soliq siyosatini muvofiqlashtirish bo‘yicha hukumatlararo bitimlar va shartnomalarni, shuningdek, ikki tomonlama soliq solishni bartaraf etish bo‘yicha bitimlarni tayyorlash va tuzish;

– muddatida to‘lanmagan soliqlarni undirish, musodara qilingan, egasiz mol-mulkni, xazinalarni, shuningdek, meros qilib qoldirish huquqi bilan davlatga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tgan mol-mulkni hisobga olish, baholash va sotish ustidan nazoratni yuritish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

2) yagona umurmdavlat soliq siyosatining amalga oshirilishida qatnashadi, shu maqsadda:

– soliq haqidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha uslubiy va metodologik ishlarni olib boradi;

– Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasining boshqa vazirliklari va idoralari bilan birgalikda soliq to‘g‘risidagi qonunlarni va boshqa qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududida bajarish majburiy bo‘lgan yo‘riqnomalar va boshqa normativ hujjatlarni belgilangan tartibda chiqaradi;

– budjetga soliqlar tushumi prognozini ishlab chiqishda qatnashadi;

– soliqlarni hisoblash va to‘lash bilan bog‘liq hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqadi;

– soliq haqidagi qonun hujjatlari bo‘yicha normativ hujjatlar to‘plamlarini tayyorlaydi va nashr etadi, o‘ziga qarashli organlarning qonun hujjatlari va yo‘riqnomalar materiallari, soliq to‘lovchilarni hisobga olish shakllari bilan ta‘minlash chora-tadbirlarini ko‘radi;

3) yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoya qiladi, soliq solish va soliq haqidagi qonun hujjatlari buzilishi masalalari bo‘yicha shikoyatlar va arizalarni belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi, shu maqsadda:

– soliq haqidagi qonun hujjatlari masalalari bo'yicha normativ hujjatlar soliq to'lovchilarga o'z vaqtida yetkazilishi;

– soliq haqidagi qonun hujjatlari to'g'risidagi axborot nashr etilishi, ko'paytirilishi va o'ziga qarashli tashkilotlarga yetkazilishi uchun servis-markazlar faoliyatini, soliq to'lovchilarni soliqlarni to'g'ri hisoblashga o'rqtish, hisobotlar va deklaratsiyalar taqdim etish, shuningdek, maslahat xizmatlari ko'rsatish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

4) O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlaridan kelib chiqib va davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq haqidagi qonun hujjatlari qo'llanilishi amaliyotini hisobga olib davlat soliq xizmati organlari ishining ustuvor yo'naliishlarini belgilaydi, ular faoliyatini takomillashtirishning kompleks dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, davlat soliq xizmati organlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlar loyihibarini belgilangan tartibda ishlab chiqadi va kiritadi;

5) huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqlar bo'yicha huquqbuzariliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

6) soliq haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa axborotni tekshiradi;

7) davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari xizmat vazifa'sarini bajarayotganda ular faoliyatining xavfsizligini ta'minlaydi;

8) qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar sir saqlanishi bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

9) o'ziga qarashli bo'linmalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

10) kadrlar tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish bo'yicha davlat soliq xizmati organlari ishini tashkil etadi, kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi, shu maqsadda davlat soliq xizmati organlarining kadrlarini tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv yurtlari va markazlar tashkil etadi;

11) davlat soliq xizmati organlari xodimlarining lavozimlari malaka tavsiyfnomalarini ishlab chiqadi, rahbarlar va mutaxassislarini attestatsiyadan o'tkazadi, ularga belgilangan tartibda maxsus unvonlar beradi;

12) davlat soliq xizmati organlarining samarali ishlashini ta'minlash maqsadida:

– ko'p mehnat talab qiladigan jarayonlarni avtomatlashtirish, soliq axborotini qabul qilish, qayta ishlash, o'tkazish va saqlash maqsadida soliq tushumlari, barcha soliq to'lovchilar – yuridik va jismoniy shaxslar

haqidagi ma'lumotlarni ishlab chiqish bo'yicha yagona kompyuter tizimini barpo etadi va undan foydalanadi, soliq to'lovchilar – yuridik va jismoniy shaxslarning yagona reyestirni shakllantiradi va yuritadi;

– davlat soliq xizmati organlarini moddiy-texnik ta'minlaydi, materiallar va asbob-uskunalarga ajratilgan fondlar foydalaniishi ustidan nazoratni amalgalashadi;

– davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va ularni moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasining shakllantirilishi, taqsimlanishi va undan foydalanish to'g'riligini nazorat qiladi;

– xorijiy soliq organlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, soliqlar va soliq to'lovchilarni hisobga olishning yagona kompyuter tizimini yaratish, davlat soliq xizmati organlarini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalgalashadi;

13) yuridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilishni belgilangan tartibda muvofiqlashtiradi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilishni to'xtatish haqida taklif kiritadi.

Davlat soliq qo'mitasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

## **10.2. Davlat soliq qo'mitasining huquqlari va majburiyatlar**

Davlat soliq qo'mitasiga va uning bo'yusuvidagi bo'linmalarga yuklangan vazifalarni samarali bajarish maqsadida quyidagi huquqlar berilgan:

a) mulkchilik shaklidan qat'i nazar, vazirliklar, idoralar, korxonalarda (xorijiy investitsiyalarga ega korxonalarni ham qo'shgan holda) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarida, fuqaroligi bo'lmagan va xorijiy fuqarolarda, shuningdek, maxsus rejimli korxonalarda, harbiy qismlarda soliqlar va boshqa budjet va budjetdan tashqari majburiy to'lovlari bilan bog'liq pul va buxgalterlik hujjatlarini, deklaratsiyalarni yuritishni tekshirish, tekshirish paytida yuzaga kelgan masalalar bo'yicha zarur ma'lumotlarni, izohlarni olish;

b) soliqqa tortish maqsadida korxonalar, muassasalar, tashkilotlardan, jumladan, banklardan, sug'urta va auditorlik tashkilotlaridan, fuqarolardan tekshirilayotgan faoliyat to'g'risida ma'lumotlar, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;

v) korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalaridan foya yoki daromadni yashirib qolganligi haqida guvohlik beruvchi

hujjatlarni olib qo'yish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish tartibini buzgan fuqarolardan esa litsenziyalar, patentlar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni olib qo'yish;

g) zarur hollarda kassalar, seyflar, boshqa hujjat saqlanadigan joylarni muhrlab qo'yish, xomashyolar, yarim fabrikat mahsulotlar, shuningdek, hujjatarning namunalarini olib qo'yish, ularni qonunga muvofiq, tahlillar, tadqiqotlar, ekspertizalar o'tkazish uchun jo'natish;

d) mulkchilik shaklidan qat'i nazar, savdo va xizmat korxonalarning, savdo qoidalari, narxlar, tovarlarni berish, xizmat ko'rsatish tartibini tekshirish;

ye) o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida korxonalarning, maxsus rejimdagi muassasalar va harbiy qismlarning, shuningdek, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan fuqarolarning foyda yoki daromad olish uchun mo'ljallangan har qanday omborxonalari, savdo va boshqa xonalarini, ularning joylashgan joyidan qat'i nazar, ko'zdan kechirish;

j) barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalari jumladan, maxsus rejimda ish yurituvchi korxona va harbiy qismlar, shuningdek fuqarolar foydalananayotgan ekin maydonlari va boshqa tabiiy zaxiralari hajmini nazorat tarzida o'lchab ko'rish;

z) korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalarining rahbarlaridan va fuqarolardan aniqlangan soliq va boshqa majburiy to'lovlari to'g'risidagi qonunbuzarliklar, hujjatlar buzilganligi holatlarini bartaraf etishni talab qilish;

i) korxonalarning banklardagi va boshqa moliya-kredit muassasalaridagi hisob va boshqa raqamlaridagi operatsiyalarini, basharti ular tekshirish o'tkazishga yoki Davlat soliq organlari xodimlarining daromad olishga mo'ljallangan xonalarni ko'zdan kechirishga, soliq organlarining mansabdar shaxslariga buxgalterlik hisobi, balanslar, deklaratsiyalar va soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlari bilan bog'liq boshqa hujjatlari haqidagi ma'lumotlarni olishlariga to'sqinlik qilgan hollarida, to'xtatib qo'yish;

k) tegishli sudsiga korxonalar va fuqarolardan davlat hisobiga to'lanmagan soliqlar va majburiy to'lovlarni, shuningdek, ularning qonunda belgilanmagan hollarda tuzilgan bitimlaridan va boshqa noqonuniy mablag'laridan to'lovlarni undirib berish haqida da'volar berish;

l) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga soliq haqidagi qonunlarni takomillashtirish to'g'risida tegishli tartibda takliflar kiritish;

m) zarur hollarda, amaliy yordam berish maqsadida huquqni muhofaza qilish organlari, banklar va boshqa organlarning vakillarini, ilmiytadqiqot institutlarining xodimlarini takli f qilish;

n) davlat hokimiyat organlariga quyi turuvchi hokimiyat organlarining respublika soliq va bojxona qonunchiligiga mos tushmaydigan qarorlarini o'zgartirish haqida takliflar kiritish;

o) belgilangan tartibda korxonalar va fuqarolarga soliq qonunlarini buzganliklari uchun moliyaviy va ma'muriy jarimalar qo'llash;

p) soliq organlarining vakolatlariga kiritilgan huquqbazarliklar bo'yicha zarur operativqidiruv tadbirdarini o'tkazish, jinoyat belgilari bo'lgan hollarda jinoyat qonunlari jinoyat-protsessual qonunlariga muvofiq ravishda jinoiy ish qo'zg'atish, surishtiruv o'tkazish;

r) soliq organlari maxsus bo'linmalarining xodimlariga quroq saqlash va olib yurishga, shuningdek belgilangan tartibda o'qotar quroq va individual maxsus himoya vositalaridan foydalanish huquqi beriladi.

Davlat soliq qo'mitasini va uning joylardagi bo'linmalarining mansabdar shaxslari davlat va tijorat sirlarini saqlashga majburdirlar. Ular yozma ravishda soliq qonunlariga og'ishmay rioya qilishga so'z beradilar.

Davlat soliq qo'mitasining mansabdar shaxslari o'z vazifalarini bajarmagan yoki yetarlicha bajarmagan hollarda javobgarlikka tortiladilar. Davlat soliq organlari tomonidan noqonuniy undirilgan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar qaytarilishi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkazilishi shart. Ularning noqonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zarar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda, tegishli budjet sarmoyalari hisobidan to'lanadi. Noqonuniy soliq to'lovini undirgan mansabdar shaxslar intizomiy va moddiy javobgarlikka tortiladilar.

Davlat soliq organlarining xodimlari o'z xizmat faoliyatlarini o'tayotgan paytlarida davlat xizmatchilari hisoblanadilar va ularga belgilangan barcha imtiyozlardan foydalanadilar.

Agar soliq organining xodimiga uning faoliyatiga to'sqinlik qiladigan darajada jismoni shikast yetkazilgan bo'lsa, unga yigirma besh oylik ish haqi barobarida bir martalik ish haqi to'lanadi. Bu respublika budjetidan, keyinchalik aybdor shaxslardan undirib olish hisobiga amalga oshiriladi. Soliq organining xodimiga o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati yetkazilganda esa elliq oylik barobaridagi ish haqi to'lanadi. Bu respublika budjetidan, keyinchalik aybdor shaxslardan undirib olish hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat soliq organi xodimining yoki uning yaqin qarindoshlarining mulkiga uning xizmat faoliyati bilan bog'liq hollarda yetkazilgan zarar respublika budjeti hisobidan, keyinchalik aybdor shaxslardan undirib olish hisobiga qoplanadi.

### 10.3. Mahalliy soliq organlari

*Mahalliy soliq organlariga quyidagilar kiradi:*

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat soliq bosh boshqarmasi;

2) viloyatlar Davlat soliq boshqarmalari, Toshkent shahar Davlat soliq bosh boshqarmasi;

3) tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlarning davlat soliq inspeksiyalari.

Ushbu organlarga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi boshlig'i tomonidan tayinlanadigan boshliqlar rahbarlik qiladilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat soliq bosh boshqarmasining boshlig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi rahbariyatining tavsiyasiga ko'ra tayinlanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmalari boshliqlarining o'rinnbosarlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining raisi tomonidan; shaharlar, tumanlar va shaharlardagi tumanlar soliq inspeksiyalari boshliqlarining o'rinnbosarlari, shuningdek, ushbu inspeksiyalar bo'lim boshliqlari esa – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarining tegishli boshliqlari tomonidan tayinlanadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Davlat soliq qo'mitasi boshqarmalari o'z tarkiblarida kollegial organ – kengashlarga ega.

Mahalliy soliq organlarining asosiy vazifasi soliq haqidagi qonunlarning ishlashini ta'minlash, barcha soliq va boshqa majburiy to'lovlar to'lovchilarni hisobga olish, ushbu to'lovlarning to'g'ri amalga oshirilishini nazorat qilishdir.

Mahalliy soliq organlarining o'zlariga yuklatilgan vazifalarini samarali bajarishni ta'minlash maqsadida ularga quyidagi huquqlar berilgan:

a) vazirliklar va idoralar, korxonalar, birlashmalar, kooperativlar, kichik korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda, mulkchilik va xo'jalik shaklidan qat'i nazar, xorijiy yuridik shaxslar va fuqarolar qatnashgan korxonalar, birlashmalar, sug'urta jamiyatlarida, mamlakatimiz fuqarolarining banklari va sug'urta jamiyatlarida pul va buxgalteriya hujjatlarini tekshirish, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bilan bog'liq deklaratziyalar va boshqa hujjatlarni tekshirish davomida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha tushuntirishlar, ma'lumotlar, zarur hujjatlarni olish;

b) soliqqa tortish maqsadida tekshirilayotgan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalari (banklar, sug'urta va auditorlik tashkilotlari, boshqa kredit muassasalari va fuqarolar)dan ularning faoliyati haqidagi soliqqa tortish uchun zarur tushuntirishlar, ma'lumotlar, hujjatlar va hujjatlardan nuxsalarni olish;

v) daromad yoki foydani soliqdan yashirish yoxud kamaytirib ko'rsatganlik haqida xabar beruvchi ma'lumotlarni korxonalar,

tashkilotlar, muassasalar, fuqarolardan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish tartibini buzayotgan fuqarolardan esa – litsenziyalar, patentlar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni keyinchalik ushbu faoliyat bilan shug‘ullanishga ruxsat bergan hokimiyatlarga qonunbuzarliklar haqidagi materiallarni berish sharti bilan olib qo‘yish;

g) foyda va daromadni yashirish yoki boshqa suiste’ molliklar faktlari aniqlanganda, kassalar va boshqa hujjatlarni saqlash joylarini muhrlab qo‘yish, xom ashyolar, yarim fabrikatlar, mahsulotlar namunalarini, hujjatlarni olib qo‘yish va tahvil, tadqiqot, ekspertiza o‘tkazish maqsadida ularni yuborish;

d) nazorat xaridlari o‘tkazish va muassasalar, tashkilotlardagi savdo, narx, mahsulotlarni sotish va xizmat ko‘rsatish qoidalarini tekshirish;

ye) o‘z vakolatlarini amalga oshirishda qonunda belgilangan tartibda korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, maxsus rejimdagi korxonalarining har qanday omborxonalarini va boshqa xonalarini fuqarolarning foyda yoki daromad olish uchun ishlatalayotgan yoxud soliqqa tortish bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday ishlab chiqarish xonalar, omborlar va boshqa xonalarini ko‘zdan kechirish. Korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning rahbarlari, mansabdar shaxslari va fuqarolarning soliq xodimlarining ushbu xonalarga kirishiga to‘sqinlik qilgani hollarida, soliq xodimlari jismoniy shaxslarni ular olgan daromadlar haqidagi hujjatlar asosida va o‘xshash faoliyat bilan shug‘ullanayotgan shaxslarni soliqqa tortishni hisobga olgan holda soliqqa tortiladigan daromadlarini belgilashlari, yuridik shaxslarga nisbatan esa qonunda belgilangan choralarini qo‘llash;

j) tekshirilayotgan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar rahbarlari, mansabdar shaxslaridan, fuqarolardan soliq va boshqa majburiy to‘lovlari va tadbirkorlik haqidagi qonunlarni buzish hollarini bartaraf etishni talab qilish, ularning bajarilishini nazorat qilish;

z) korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning banklardagi va boshqa moliya va kredit muassasalaridagi hisob-kitob va boshqa raqamlari bo‘yicha operatsiyalarni, basharti ular tekshiruv o‘tkazish yoki o‘z binolariga soliq inspeksiyasi xodimlarini daromad olish uchun foydalilanayotgan binolarni o‘rganib chiqish uchun kiritishni rad etgan, buxgalteriya hisobotlari, balanslar, hisob-kitoblar va deklaratsiyalar, shuningdek soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlarni amalga oshirish haqidagi ma‘lumotlarni berishni rad etgan hollarida to‘xtatib qo‘yish;

i) noqonuniy yo‘l bilan topilgan mablag‘larni davlat foydasiga o‘tkazish haqida korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga nisbatan tegishli sudlarga da‘volar taqdim etish;

k) O‘zbekiston Respublikasi hukumatiga soliq qonunlarini va soliq ishini takomillashtirish haqida belgilangan tartibda takliflar kiritish;

l) amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarish va huquqlarini amalga oshirish uchun zarur hollarda huquqni muhofaza qilish, statistika, bank va boshqa nazorat organlari, shuningdek, auditorlik xizmatlari xodimlarini jalg etish;

m) tegishli hokimliklarga quyi turuvchi hokimlarning amaldagi soliq qonunlariga zid keluvchi qarorlarini bekor qilish haqida takliflar kiritish.

Soliq inspeksiyalaridan farqli ravishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar soliq boshqarmalari yuqori turuvchi organ sifatida buyruq berish funksiyalariga ham ega. Lekin davlat soliq inspeksiyalari – korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, turli tijorat tuzilmalari, fuqarolar bilan soliq faoliyatini amalga oshiruvchi organlar ekanligini hisobga olgan holda ularning boshliqlariga, boshliqlar o'rinnbosarlariga quyidagi huquqlar berilgan:

– yashirilgan yoki pasaytirib ko'rsatilgan foyda (daromad)ning butun summasini to'lash shaklidagi moliyaviy sanksiyalarini korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, fuqarolarga nisbatan qo'llash, bir yil ichida ushbu qoidabuzarliklar takrorlanganda esa – butun summani ikki barobari tarzidagi jarimani qo'llash;

– hisobotlarni buzib ko'rsatish, foyda yoki daromadlarni ko'rsatmaganlik, belgilangan shaklidagi soliq deklaratsiyalari, hisobotlar, hisob-kitoblar va boshqa hujjatlarni taqdim etmaganlik uchun to'lanadigan soliq va boshqa majburiy to'lovlardan o'n foizini jarima sifatida undirib olish;

– O'zbekiston Respublikasi bank muassasalariga soliq haqidagi qonunlarni buzgan korxonalar, tashkilotlar, muassasalardan, shuningdek, fuqarolardan sud tartibida (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni chiqarib tashlagan holda), birinchi galda to'lanmagan soliqlarni to'lamagan har bir kun uchun, shuningdek, boshqa sanksiyalarning jarimalarini 0,5 foiz miqdorda qonunda belgilangan tartibda undirib olish,

– soliqlarga tortilishi kerak bo'lgan foyda (daromad)ni yashirish yoki soliqqa tortilishi kerak bo'lgan barcha obyektlarni kamaytirib ko'rsatish, shuningdek, buxgalteriya hisoboti bo'limganda yoki belgilangan tartibni buzib yuritilganda, buxgalteriya hisoboti, balanslar, deklaratsiyalar, soliqlarni hisoblash, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardni budget va budgetdan tashqari fondlariga to'lash qoidalarini buzib ko'rsatgan, boshqa hujjatlarni taqdim etgan hollarida korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning mansabdor shaxslariga ma'muriy jarimalar yuklash.

Shu bilan birga, davlat soliq inspeksiyalariga quyidagi jiddiy majburiyatlar yuklangan:

a) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga va boshqa normativ hujjalariiga, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariiga qat'iy amal qilish;

b) soliqlar haqidagi qonunlarning bajarilishini, ularning o'z vaqtida to'lanishini, davlat soliqlari, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;

v) yuqori hokimiyat va boshqaruva organlarining topshirig'iga ko'ra, boshqa organlar bilan hamkorlikda qonunda belgilangan tartibda nafaqa fondlari, ijtimoiy sug'urta va boshqa budjetdan tashqari fondlarga to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;

g) to'lovchilar, soliq obyektlari, fuqarolarning soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lashlarini ta'minlash, shuningdek, yakka tartibdag'i tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishning tartibiga rioya etilishini nazorat qilish;

d) qonunda belgilangan tartibda fuqarolarga yakka tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini beruvchi hujjalarni berish;

ye) mamlakatimizda o'tkazilayotgan soliq siyosatini amalga oshirishda qatnashish;

z) foydalar (daromadlar) yoki soliqqa tortiladigan boshqa obyektlarni yashirish belgilarini aniqlash, foya (daromad)ni qasddan yashirgan shaxslarni aniqlash, soliq qonunchiligi sohasidagi huquqbazarliklarning oldini olish va bartaraf etish maqsadida surishtiruvlar o'tkazish;

i) amaldagi qonunlarni buzganlik fakti bo'yicha, aybdorlarni javobgarlikka tortish davlat soliq inspeksiyasi vakolatiga kirmagan hollarda, tergov va sud organlariga materiallarni berish;

k) qonunda belgilangan tartibda soliq va boshqa majburiy to'lovlardan masalalari bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish.

Davlat soliq organlarining mansabdon shaxslari tijorat, davlat va xizmat sirlarini saqlashlari shart. Shuning uchun ushbu shaxslar qonunda belgilangan tartibda o'zlariga yuklangan majburiylarni bajarishga yozma ravishda va'da beradilar.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdon shaxslari o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qonun hujjalariiga muvofiq, intizomiyl, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan noto'g'ri undirilgan soliq summalarini va ular yuzasidan jarimalar soliq to'lovchining soliqlar bo'yicha qarzi bo'lmasa, uning yozma arizasiga binoan, bir oy muddatda qaytarilishi lozim yoki kelgusi to'lovlardan hisobiga o'tkaziladi.

Davlat soliq xizmati organlari mansabdon shaxslarining xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat ushbu shaxslar bevosita

bo'ysunadigan davlat soliq organlariga qilinadi. Ular bo'yicha qarorlar bir oy muddat ichida qabul qilinadi. Ushbu qarorlar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasida shikoyat tartibida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Fuqarolarning soliq organlari, jumladan, Davlat soliq qo'mitasi qarorlaridan noroziligi sud tartibida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Shikoyat berilganligi shikoyat qilinayotgan harakatlarni to'xtatib qo'ymaydi.

Davlat soliq organlarining ma'muriy jazo bilan bog'liq harakatlari ustidan shikoyat qilish O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 13 martdagи «Davlat soliq xizmati organlarining faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga binoan, Davlat soliq qo'mitasi tarkibida Soliq sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash bo'yicha bosh operativ boshqarma tuzildi. Bu boshqarmaga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy boshqarmalari bevosita bo'ysunadilar. Boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish, soliq organlarida hisobga qo'yishdan, soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortib yurgan yuridik va jismoniy shaxslarni, naqd pul muomalasi tartibining buzilish hollarini aniqlash, jinoiy ishlarni qo'zg'atish va ularni tergovga tegishliligiga qarab, huquqni muhofaza qilish organlariga berish va h.k.

Davlat soliq qo'mitasining markaziy apparatida Nazorat-taftish bosh boshqarmasi ham tuzilgan. Uning funksiyalariga belgilangan tartibda xo'jalik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat va hujjatlar bo'yicha tekshirish o'tkazish va taftish qilish kiradi.

Ayni paytda Rejim va kadrlar ishi bo'yicha bosh boshqarma, uning tarkibida esa Davlat soliq xizmati organlarida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha maxsus boshqarma tuzilgan.

Soliq sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash bo'yicha bosh operativ boshqarma va uning hududiy boshqarmalari, Nazorat-taftish bosh boshqarmasi – Davlat soliq qo'mitasi raisi birinchi o'rinnbosarining; Rejim va kadrlar ishi bo'yicha bosh boshqarma esa – Davlat soliq qo'mitasi raisining rejim va kadrlar ishi bo'yicha o'rinnbosari bo'ysunuvidadir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 6 iyulda qabul qilgan «Iqtisodiyot va soliq jinoyatlariga qarshi choralar ko'rish to'g'risida»gi 291-sonli qaroriga muvofiq, iqtisodiyot va soliq jinoyatlariga qarshi kurash samaradorligini oshirish, davlatning hamda yuridik va jismoniy shaxslarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida, Davlat Soliq qo'mitasi tarkibida Soliq sohasidagi jinoyatlarga

qarshi kurashuvchi tezkor bosh boshqarma, O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi qoshida Soliq sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashuvchi Departament va uning joylardagi organlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tarkibida tashkil etilgan Soliq sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashuvchi tezkor bosh boshqarmaning asosiy maqsadi soliq sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurash va soliq intizomini mustahkamlash uchun qidiruv va tahlil ishlarini tashkil etishdir. Operativ-qidiruv va tahlil ishlarini tashkil etuvchi departament mustaqil huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida tan olinadi.

## 11-BOB BOJXONA ORGANLARI

### 11.1. Davlat bojxona qo‘mitasi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi (DBQ) davlat boshqaruv organi hisoblanadi va o‘z vakolatlari doirasida yagona boj siyosati o‘tkazilishini, DBQ organlari tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi. U o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchiligi va xalqaro bitimlariga, Prezident farmonlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga amal qiladi.

DBQning qonunchilikka muvofiq qabul qilgan qarorlari barcha jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar tomonidan, ularning mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, bajarilishi majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi 1997 yil 30 iyulda tasdiqlangan Davlat bojxona qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, DBQ organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va belgilangan vakolatlar doirasida uning iqtisodiy xavfsizligin ta‘minlash;
- respublika boj siyosati ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida qatnashish;
- boj qonunlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga ko‘maklashish;
- xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashish;
- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi bojxona ishiga oid majburiyatlarining bajarilishini ta‘minlash;
- boj poshlinalari, soliqlar va boshqa boj to‘lovlari undirish;
- respublikaning boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, valutamoliyaviy munosabatlarini boj-tarif tartibga solish vositalarini ishlab chiqish va samarali qo‘llash;
- O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o‘tadigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona tekshiruvini ta‘minlash;
- respublikaning bojxona chegarasi orqali tovar oboroti o‘tishini jadallashtirishga ko‘maklashuvchi shart-sharoitlar yaratish;
- kontrabandaga, bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashish, respublikaning bojxona chegarasi orqali giyohvandlik moddalar, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog‘, valuta boyliklari, milliy

boylik hisoblangan badiiy, madaniy-tarixiy va arxeologik meros buyumlari, intellektual mulk obyektlari g'ayriqonuniy olib o'tilishining oldini olish;

– bojxona statistikasi va maxsus bojxona hisoboti tizimini yuritish, O'zbekiston Respublikasi hukumatini, manfaatdor vazirliklar va idoralarni bojxona ishiga tegishli masalalar bo'yicha axborot bilan ta'minlash;

– bojxona ishi sohasidagi faoliyat to'g'risidagi axborotni to'plash va uni ishlashning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

– tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasini yuritish;

– kadrlar to'g'ri tanlanishi va joy-joyiga qo'yilishini, DBQ organlari shaxsiy tarkibi xizmat tayyorgarligi va intizomi yuqori darajada bo'lishini ta'minlash, davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun bojxona rasmiylashtirishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

– bojxona brokerlari, bojxona tashuvchilar faoliyati, bojxona va erkin omborlar, bojsiz savdo do'konlari ishi, tovarlarga bojxona hududida va bojxona nazorati ostida qayta ishlov berilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

– bojxona ishi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini va maslahatlar berishni tashkil etish;

– bojxona organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, bojxona atrofi infrastrukturasi rivojlanishiga ko'maklashish;

– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va tuzilgan xalqaro shartnomalar va bitimlar bilan belgilanadigan boshqa vazifalar.

DBQ organlari yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradilar:

– yagona bojxona siyosati amalga oshirilishining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqadi, ularning amalda qo'llanilishini ta'minlaydi, bojxona ishi sohasida qonun hujjatlari va normativ hujjatlar loyihalari tayyorlanishida qatnashadi;

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ishlab chiqilishida qatnashadi, belgilangan tartibda va o'z vakolatlari doirasida bojxona masalalari bo'yicha xalqaro bitimlar va shartnomalar tuzadi;

– respublikaning bojxona hududida davlat xavfsizligini, jamoat tartibi, inson hayoti va salomatligi himoya qilinishi, hayvonlar va o'simliklar muhofaza qilinishi, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

– belgilangan tartibda bojxona nazorati amalga oshirilishini ta'minlaydi va uning shakllarini takomillashtiradi;

– bojxona qonunchiligiga va o'z vakolatlari doirasida – soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

– bojxona tartibga solish vositalari qo'llanilishini ta'minlaydi, bojxona-tarif mexanizmi ham shu jumlaga kiradi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari, litsenziyalash va deklaratsiya taqdim etish, ularni ishlab chiqish va amalga oshirilishida belgilangan tartibda qatnashadi;

– boj poshlinalari, soliqlar va boshqa to'lovlar davlat budgetiga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlaydi;

– o'z vakolatlari doirasida valuta nazoratini amalga oshiradi;

– bojxona statistikasi metodologiyasini takomillashtiradi, bojxona ishi sohasida statistika ma'lumotlari to'planishi, ularga ishlov berilishi va tahlil qilinishini tashkil etadi, respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, tashqi savdo va to'lov balansini mustahkamlash bo'yicha proqnoz hisob-kitoblarni amalga oshiradi va takliflarni ishlab chiqadi;

– bojxona faoliyati to'g'risida axborot to'planishi va ishlab chiqilishi hamda avtomatlashtirilgan tizim joriy etilishini yuritadi, shuningdek, bojxona statistika ma'lumotlarini tegishli idoralar va manfaatdor organlarga taqdim etadi;

– kontrabandaning, bojxona qonunchiligining, o'z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish va ularga barham berish chora-tadbirlarini mustaqil ravishda yoki huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlab chiqadi va qo'llaydi, shuningdek, xalqaro terrorizmga va O'zbekiston aeroportlarida xalqaro fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishga qarshi kurashishga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qo'llaydi;

– bojxona organlari vakolatiga tegishli bo'lgan ishlar bo'yicha surishtiruv va qonunchilikka muvofiq bojxona qoidalari buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi;

– yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan bojxona qoidalari buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralarini belgilangan tartibda qo'llaydi;

– giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog' respublikaning bojxona chegarasi orqali g'ayriqonuniy olib o'tilishining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va qo'llaydi;

– respublikaning va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan birgalikda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar nazorat ostida yetkazib berilishini amalga oshiradi;

– milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari bilan o'zaro hamkorlikda qonunchilikda belgilangan tartibda tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshiradi;

– aybdorlarni javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masala bojxona organlari vakolatlari doirasidan tashqariga chiqqanda qonun buzilishlari faktlari bo‘yicha materiallarni tergov, sud organlari va boshqa organlarga topshiradi;

– bojxona organlarining mansabdon shaxslar tomonidan qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, bojxona organlari mansabdon shaxslarining xatti-harakatlari va qarorlari ustidan tushgan shikoyatlar va e’tirozlarni belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi;

– bojxona organlariga yuklangan vazifalar va funksiyalar amalga oshirilishini ta’minlovchi ilmiy-texnik xizmatlar, laboratoriyalar, o‘quv markazlari, boshqa korxonalar va tashkilotlarni tashkil etadi;

– bojxona organlari xodimlarini, shuningdek, davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun bojxona rasmiylashtirishi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlaydi, qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi;

– bojxona omborlari va erkin omborlar, bojsiz savdo do‘konlari, bojxona brokerlari va bojxona tashuvchilar, tovarlarga bojxona hududidan tashqarida, bojxona hududida yoki bojxona nazorati ostida ishlov berishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda faoliyatning sanab o‘tilgan turlarini amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsatnomalar beradi;

– xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashadi, xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning bojxona xizmatlari bilan axborotni o‘zaro ayirboshlaydi;

– bojxona organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi, tashqi savdo yuklarini bojxona rasmiylashtirishi uchun mo‘ljallangan punktlar tarmog‘ini va bojxona infrastrukturasingning boshqa obyektlarini kengaytirish ham shu jumлага kiradi;

– DBQning moddiy yordam, ijtimoiy himoya qilish, bojxona organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasiga tushadigan mablag‘lar hisobiga respublikada bojxona ishini rivojlantirish chora-tadbirlarini mablag‘ bilan ta’minalaydi.

Davlat bojxona qo‘mitasiga qonunchilik bilan boshqa funksiyalar ham yuklatilishi mumkin.

Davlat bojxona qo‘mitasi organlarining mansabdon shaxslari yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish maqsadida qonunchilikda belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega bo‘ladi:

– bojxona punktlarida tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish uchun tovarlar olib kirayotgan va chiqayotgan barcha transport vositalarini to'xtatish;

– tovarlarni noqonuniy olib kirish va olib chiqish ularga boj poshlinalari belgilash maqsadida yuridik va jismoniy shaxslardan ko'zdan kechirish va qayta ko'rib chiqish uchun tovarlar va transport vositalarini, shuningdek, zarur hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;

– bojxona rasmiylashtirishida texnik nazorat vositalarini qo'llash;

– bojxona organlarining faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarga muvofiq, yuk tashuvchi bilan birgalikda, komissiya aktini tuzgan holda, plombalarni ochish, bagajniklar, yuk bo'limlari, transport vositalari kuzovlari, konteynerlar va boshqa transport tarasining tamaqurilmalarini ochish;

– respublikadan tovarlar noqonuniy olib ketilayotganligi aniqlangan hollarda tegishli tashkilotlarga axborot va taqdimnomalar berish;

– yetarlicha asoslar bo'lgan hollarda fuqarolarning o'zini qonunda belgilangan tartibda ko'zdan kechirish;

– boj poshlinsi belgilash, shuningdek, bojxona rasmiylashtirishining boshqa maqsadlarida tovarlar va boshqa buyumlardan probalar va nusxalar olish;

– tovarlar deklaratsiyasini tuzishda qonunda belgilangan tartibda shaxsdan uning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;

– korxonalar va tashkilotlarning bojxona nazorati o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar saqlanayotgan hududlariga va binolariga kirish;

– kontrabanda va bojxona qoidalari buzilganligi aniqlangan hollarda bayonnomalar va boshqa zarur hujjatlarni tuzish;

– belgilangan tartibda bojxona qoidalari buzilishining bevosita obyekti bo'lgan buyumlarni olib qo'yish;

– noqonuniy tovarlar va transport vositalarini qonunda belgilangan tartibda ushlab turish;

– qonunda belgilangan tartibda bojxona qoidalarini buzgan korxonalar va fuqarolarga ma'muriy jazo qo'llash;

– bojxona tekshiruvi o'tkazishda bojxona qoidalarini buzish, kontrabanda va boshqa huquqbazarliklarni aniqlashning texnik va maxsus vositalarini qo'llash;

– xizmat vazifasini bajarish paytida shaxsiy o'qotar qurolini hamda maxsus himoya vositalarni saqlash va olib yurish, zarurat tug'ilganda esa, ularni qonunda belgilangan tartibda qo'llash.

Davlat bojxona qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tayinlanadigan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisi palatalarida tasdiqlanadigan rais boshchilik qiladi. U birinchi o'rinosari va o'rinosarlariga ega.

Davlat bojxona qo'mitasi raisi DBQ organlari tizimiga umumiy rahbarlikni ta'minlaydi, o'z vakolatlari doirasida buyruqlar, yo'riqnomalar va normativ hujjatlar chiqaradi, ularning bajarilishini tekshirishni tashkil etadi, bojxona organlarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini va bojxona ishiga ko'maklashgan fuqarolarni mukofotlash va O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonlarini berish, ko'krak nishonlari, faxriy yorliqlar va rag'batlantirishning boshqa turiari bilan mukofotlash to'g'risida takliflar kiritadi, qonunchilik tomonidan o'z vakolatiga kiritilgan boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Bojxona organlarining faoliyatini takomillashtirish, kadrlarni joy-joyiga qo'yish, ularni ijtimoiy himoya qilish, moddiy-texnik ta'minlash, tavsiyalar ishlab chiqarish, boshqaruv qarorlari va tavsiyalari ishlab chiqish maqsadida DBQda hay'at faoliyat ko'rsatadi.

Qo'mitaning qarorlari Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyruqlari bilan hayotga tatbiq etiladi.

Davlat bojxona qo'mitasi organlarining xodimlariga ular xizmatni o'tayotgan paytlarida ichki ishlar organlarining xodimlariga belgilangan ijtimoiy himoya, shaxsiy va mulkiy huquqlarni himoya qilish kabi imtiyozlar ham joriy qilinadi.

Davlat bojxona qo'mitasi organlarining mansabdor shaxslari tijorat va davlat sirlarini saqlashlari shart. Ular bojxona qonunlariga qat'iy amal qilishga yozma ravishda va'da beradilar. O'z vazifalarini bajarmaganlari yoki kerakli darajada bajarmaganlari uchun amaldagi qonunlarga ko'ra javobgarlikka tortiladilar.

Noqonuniy undirilgan bojxona soliqlari, poshlinalari,yig'imlari va boshqa majburiy to'lovlari qaytarib berilish yoki kelgusidagi to'lovlar hisobiga yozilishi shart. Mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zarar esa tegishli budget mablag'lari hisobidan qonunda belgilangan tartibda qoplanishi kerak. Noqonuniy bojxona to'lovi undirishga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar esa intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

## 11.2. Bojxona xizmatlari

Davlat bojxona qo'mitasi organlari *tizimini* quyidagilar tashkil qiladi: Davlat bojxona qo'mitasining markaziy apparati; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha Davlat bojxona qo'mitasi boshqarmalari; maxsus bojxona komplekslari; bojxona komplekslari va postlari.

Shunday qilib, Qoraqalpog'ston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bojxona boshqarmalari mavjud bo'lib, ularda boshliq, boshliqning 3–4 o'rinnbosari va quyidagi bo'limlar bor:

- bojxona nazoratini tashkil qilish bo'limi;
- kontrabanda, bojxona qoidalarini buzishga qarshi kurash va surishtiruv bo'limi;
- barter va valuta operatsiyalari, eksport-import shartnomalarini nazorat qilish bo'limi;
- tahlil va bojxona statistikasi bo'limi;
- yuridik xizmat;
- buxgalteriya hisobi va to'lovlar bo'limi;
- qurilish bo'limi;
- moddiy texnika ta'minoti bo'limi;
- shaxsiy tarkib bo'yicha bo'lim va inspeksiya;
- navbatchilik qismi;
- kotibiyat.

Eng quyi bojxona bo'linmasi bojxona kompleksi yoki posti hisoblanadi. Bojxona komplekslari (postlari) yuklarni bojxona tartibida rasmiylashtiradi, barter ishlari ustida ishlaydi, bajarilishini va eksport-import operatsiyalarini nazorat qiladi, har kuni o'z vaqtida yuklarga bojxona deklaratsiyalarini berilishini ta'minlaydi, o'z uchastkalarida bojxona ishlarini muvofiqlashtiradi, muntazam holda laboratoriya tahlili o'tkarish uchun tovarlardan namunalar oladi, yuk o'tkazish vedomostlari bilan shug'ullanadi, o'z uchastkalarida bojxona qonunlari bo'yicha profilaktik tushuntirish ishlari olib boradi, yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklarni aniqlaydi, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qiladi, jinoiy ishlar qo'zg'atadi va surishtiruv o'tkazadi, ish yuritishini tekshiradi.

### **11.3. Bojxona ishlarini tartibga solish sohasidagi xalqaro hamkorlik**

1994 yil 18 iyulda MDH bojxona xizmatlari rahbarlari tomonidan imzolangan hujjatda MDH davlatlari bojxona qonunlarining asosi belgilab qo'yilgan. Uning asosini MDH davlatlari bojxona siyosatini, shuningdek, chegaralardan tovarlar, transport vositalari olib o'tish, bojxona to'lovlarini olish, bojxonada rasmiylashtirish, bojxona nazorati va bojxona siyosatini amalga oshirishning boshqa vositalari tashkil qiladi. MDHdagi bojxona ishi xalqaro normalar asosida uyg'unlashishga yo'naltirilgan. Bojxona siyosati esa MDH davlatlari ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismidir.

Har bir davlat o'z bojxona hududiga ega. U quruqlik, suv, havo hududlaridan iborat. Shuningdek, u dengizdag'i iqtisodiy hududlarda

joylashgan sun'iy orollar, davlat yurisdiksiyasidagi qurilmalar va binolarni o'z ichiga oladi.

Davlat bojxona hududi chegaralari, shuningdek, erkin bojxona zonalari, omborxonalar davlatning bojxona chegarasi hisoblanadi.

MDH davlatlari xalqaro iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish maqsadida boshqa davlatlar bilan bojxona ittifoqlari, erkin savdo zonalari tuzadilar. Xalqaro huquq normalari asosida bojxona masalalari bo'yicha bitimlar tuzadilar.

Bojxona ishida bojxona deklaratsiyalari qabul qilingan kunda amalda bo'lgan qonunlar qo'llaniladi. Tovarlar va transport vositalarining bojxona chegaralaridan noqonuniy o'tigan kuni ularning bojxona chegarasidan amalda o'tgan kuni hisoblanadi.

Agar bojxona bo'yicha milliy qonunlarda boshqa qoidalar nazarda tutilgan bo'lsa, u holda MDH davlatlari bojxona qonunlarining asoslarida ko'rsatilgan qoidalar qo'llaniladi. Bojxona ishini MDH davlatlarining huquqni muhofaza qilish organlari hisoblangan bojxona organlari amalga oshiradi. Bojxona ishiga markaziy bojxona organlari bevosita rahbarlik qiladi. Markaziy bojxona organi, uning vazifalari, vakolatlari milliy qonunlar bilan belgilanadi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat organlaridan boshqa hech qanday organ ularga boshqa vazifalarni yuklashi, ularning ishiga aralashishi mumkin emas.

MDH davlatlari 1992 yil 15 martda bojxona siyosatining prinsiplari haqida bitim imzoladilar. Bu xalqaro huquqning mustaqil subyekti bo'lgan Bojxona ittifoqidir. Bu ittifoqqa a'zo davlatlar yagona bojxona hududiga ega.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari umumiy bojxona ta'rifini kelishib oladilar hamda umumiy bojxona hududidagi tovarlar va boshqa mahsulotlar uchun yagona soliq to'lovini joriy qildilar. Bojxona ittifoqi ichida muomalada bo'lgan tovarlar muqobil harakatdagi poshlinalar va boshqa soliqlar, yig'implarga tortilmaydi.

Bu davlatlar o'zaro bojxona to'siqlari qo'yishdan voz kechmoqdalar va amaldagi cheklashlarni bekor qilish arafasida turibdilar. Bunda miqdoriy cheklashlar davlatlar o'rtasidagi o'zaro kelishuv asosida ma'lum tovarlarga va muayyan muddatga joriy qilinishi mumkin.

Bojxona siyosati prinsiplari haqidagi kelishuv MDH davlatlarining ichki qonunlarida belgilangan davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholining sog'lig'i va axloqi, xalqlarning madaniy-tarixiy merosi, kamyob hayvonlar va o'simliklarni saqlash tartiblariga bo'lgan huquqni cheklamaydi.

Bojxona ittifoqining amal qilishini ta'minlash, umumiy bojxona siyosatini ishlab chiqish va o'tkazish, bojxona xizmatlarining hamkorligini muvofiqlashtirish, bojxona statistikasini to'plash va tahlil qilish uchun

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari Bojxona kengashini tuzganlar. U Bojxona ittifoqining oliv organi hisoblanadi. Ushbu kengashning faoliyati barcha MDH davlatlari tasdiqlagan nizomga asoslangan.

Bojxona kengashining faoliyatini ta'minlashga qaratilgan moddiy- texnik, moliyaviy, kadrlar, ijtimoiy va boshqa masalalar uchun budjet Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari to'laydigan a'zolik badallari asosida shakllanadi. Boshqa davlatlardan Bojxona ittifoqi a'zolari bo'lgan davlatlarning umumiy bojxona hududiga kiritilayotgan va olib chiqilayotgan tovarlarga qo'yilgan bojlar va sohiqlardan tushadigan daromadlar Ittifoq a'zolarining budgetiga aylantiriladi.

Barcha a'zolarning roziligi asosida Bojxona ittifoqiga har qanday davlat qo'shilishi mumkin. 1995 yili Belorus Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston yanada mustabkamroq Bojxona ittifoqi haqida shartnoma tuzdilar. Unga Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston qo'shildi.

1992 yil 13 martda qabul qilingan Bojxona ittifoqi haqidagi nizomga ko'ra, Bojxona ittifoqining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Bojxona ittifoqining amal qilinishini ta'minlash;
- Bojxona ittifoqi a'zolarining manfaatlarini hisobga olgan yagona bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- monopolizmga, xorijiy davlatlar hamda ularning ittifoqlari tomonidan bo'ladigan kamsituvchi xatti-harakatlarga qarshi turish;
- eksport operatsiyalari o'tkazishda noto'g'ri raqobatning oldini olish;
- Bojxona ittifoqi a'zolarining birlashgan bozori doirasida iste'mol va ishlab chiqarish bozorlarini hirroya qilish;
- Bojxona ittifoqi a'zolarining jahon xo'jaligiga qo'shilishini tezlashtirish maqsadida bojxona qonunlarini bixillashtirish;
- Bojxona ittifoqi a'zolarining bojxona xizmatlari hamkorligini muvofiqlashtirish;
- bojxona ishini rivojlantirish maqsadida aniq dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Bojxona ittifoqi bojxona statistikasini to'plash va tahsil qilish.

Maqsadlardan kelib chiqqan holda, Bojxona ittifoqining funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Bojxona ittifoqi a'zolari bojxona siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish, ko'rib chiqish, tasdiqlash;
- bojxona poshlinalari miqdorini, tarif imtiyozlari va preferensiyalarni belgilash, bekor qilish yoki o'zgartirish;
- bojxona poshlinalarini, jumladan maxsus, dempingga qarshi va kompensatsion poshlinalarni qo'llash;
- bojxona poshlinalarini qo'llash to'g'risidagi qarorlar qabul qilishga olib keladigan zarur protseduralarni tashkil qilish va o'tkazish;

– umumiy bojxona tarifining nomenkulatura qismini o'zgartirish;

– Bojxona ittifoqi delegatsiyalariga bojxona-tarif boshqaruvi va Ittifoq vakolatiga kiruvchi boshqa masalalar bo'yicha ko'rsatmalar, eksport-import operatsiyalaridagi, noqonuniy raqobatlarning oldini olish, tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi monopolizmga qarshi kurash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

– Bojxona ittifoqi a'zolarining xalqaro konsultatsiyalar va kelishuvlar o'tkazishdagi o'z vakolatlariga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqish, ularni tasdiqlash;

– Bojxona ittifoqi a'zolari kelishib olgan bojxona hamkorligi masalalarining butun majmuini, bojxona tizimlarining texnik jihatlarini, ularning bixilligi va muvofiqlanganligining yuqori darajasiga yetishning amaliy takliflarini o'rganib chiqish;

– Bojxona ittifoqi a'zolarining amaldagi qonunlarida bir xillikni ta'minlovchi (tovarlarni klassifikatsiya qilish uchun nomenkulatura masalalarini hisobga olgan holda, shuningdek, bojxona ishi bo'yicha hujjatlarni sharhlash va qo'llash uchun) qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

– Bojxona ittifoqi a'zolarining bojxona-tarif boshqaruvi va bojxona protsedurasi masalalari bo'yicha axborotlarini tarqatishni, bojxona masalalalri bo'yicha Bojxona ittifoqiga a'zo davlatlarga takliflar kiritishni ta'minlash;

– Bojxona ittifoqi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

Kengash o'z ishida quyidagilarga asoslanadi: Bojxona siyosati haqidagi kelishuv, Bojxona ittifoqi haqidagi nizom, Kengashning ish tartibi haqidagi reglament, Bojxona poshlinalari o'rnatish, almashish va o'zgartirish stavkalari haqidagi nizom, Bojxona maqsadlari haqidagi qoidalar, Tovar ishlab chiqilgan mamlakatni aniqlash to'g'risidagi qoidalar.

Bojxona kengashi quyidagi huquqlarga ega:

a) olib kirilayotgan va chiqilayotgan tovarlarga va boshqa buyumlarga bojxona poshlinalarini belgilash va ularga o'zgartirishlar kiritish;

b) mavsumiy boj poshlinalarini o'rnatish;

v) shaxsiy iste'mol buyumlariga bojxona poshlinalari o'rnatish, o'zgartirish va bekor qilish;

g) Bojxona ittifoqi a'zolarining bojxona hududidan yig'ish, montaj, dastlabki va qayta ishlash uchun olib kirilgan tovarlarni olib chiqishda bojxona poshlinalarini qaytarish shartlarini belgilash;

d) Bojxona ittifoqi a'zolari bo'lgan davlatlarda ishlab chiqilmagan yoki kam ishlab chiqiladigan, o'zida ilmiy-texnik taraqqiyotning yangi

yutuqlarini jamlagan tovarlar va boshqa predmetlarni bojxona poshlinasi to'lashdan ozod qilish;

ye) Bojxona ittifoqi a'zolari bo'lgan davlatlarning bozorini himoya qilish va tartibga solish maqsadida, xalqaro normalar va amaliyotni hisobga oлган holda Umumiy bojxona tarifi nomenkulaturasiga o'zgartirishlar kiritish;

j) Bojxona ittifoqi a'zolari bo'lgan davlatlar qonunlarida ko'zda tutilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi vositalardan samaraliroq foydalanish va ularni xalqaro amaliyotga yaqinlashtirish maqsadida boshqa qoidalarni o'rnatish;

z) Bojxona ittifoqi a'zolari bo'lgan davlatlar hukumatlariga ushbu davlatlar umumiy bozorini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish tizimini takomillashtirishga qaratilgan, jumladan, soliqqa tortish, miqdoriy tartibga solish, xorijiy investitsiyalar bo'yicha Umumiy bojxona tarifining samarali bo'lishi uchun yordam beruvchi masalalarni ham hisobga oлган holda tavsiyalar kiritish;

i) Bojxona ittifoqi a'zolari bo'lgan davlatlarning davlat organlari xo'jalik subyektlari va bank muassasalaridan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni so'rash va olish;

k) Bojxona ittifoqining faoliyatini ta'minlovchi moddiy-texnik, moliyaviy, kadrlar, ijtimoiy va boshqa masalalar bo'yicha, shuningdek, davlat'araro bojxona ishi dasturlarini amalga oshirish uchun budjetni tasdiq'ash.

Bojxona ittifoqi kengashining a'zolari Bojxona ittifoqi a'zolarining hukumat a'zolaridan iborat. Ulardan har biri o'z muovinlari va ko'pi bilan uchta maslahatchi yoki ekspertdan iborat o'z vakillarini belgilashi mumkin.

Kengash o'z raisini saylaydi va uning vakolatini belgilaydi, kotibini tayinlaydi. U Kengash ishchi apparati va maxsus texnika qo'mitalari faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Kengash o'z ijroiya organlarini tuzadi. Ular milliy bojxona xizmatlarining ishini muvofiqlashtiradi. Zarur hollarda Kengash maxsus texnik qo'mitalar tuzadi. Budjet vositalari konkret davlatlararo bojxona ishini ta'minlashga yo'naltiriladi.

Bojxona ittifoqi Kengashining kotibiyati bojxona statistikasini yuritadi va Bojxona ittifoqi a'zolaridan tuziladi. Kengash apparatining xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarayotganlarida Bojxona ittifoqi a'zolari umumiy bozorning manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar va Bojxona ittifoqi biror a'zosi, idorasasi yoki tashkilotining pozitsiyalariga xizmat qilmasliklari kerak.

Bojxona kengashining budjeti, jumladan, uning valuta qismi ham Bojxona ittifoqi a'zolarining vznoslari hisobidan shakllantiriladi. Kengashning budjet yili 1 yanvardan boshlanib, 31 dekabrgacha davom etadi. Bojxona ittifoqi a'zolari esa o'z vznoslarini budjet yilining 1 fevraligacha to'lashlari lozim.

Kengashning shtab-kvartirasi Moskvada joylashgan. Kengashning yig'ilishlari zaruratga qarab, lekin kamida ikki oyda bir marta Bojxona ittifoqi a'zolari bo'lgan davlatlarning poytaxtlarida o'tkaziladi. Kengash qarorlari a'zolari yoki ularning o'rinnbosarlarining to'la roziligi asosida qabul qilinadi.

A'zolarning umumiyligi asosida Kengash davlat organlari, xo'jalik faoliyati subyektlari, bank muassasalari va xalqaro tashkilotlarning vakillarini maslahat ovozi bilan o'z majlislariga taklif qilishi mumkin. Kengash qarorlari Kengash raisi tomonidan imzolanadi va Kengash belgilagan rasmiy nashrda umumiyligi axborot sifatida nashr etiladi.

Kengashning qarorlari qat'iy bo'lib, barcha Bojxona ittifoqi a'zolari davlatlarida qo'shimcha protseduralarsiz bevosita qo'llanilishi shart. Kengashning umumiyligi ahamiyatga ega qarorlari agar ular ilgarigi qarorlarga qaraganda imtiyozli normalar belgilamagan bo'lsa, e'lon qilingan kunidan boshlab bir oy o'tgach kuchga kiradi.

Shunday qilib, Bojxona ittifoqiga a'zo davlatlarning bojxona ishida yaqin xalqaro hamkorlikka intilish mujassamlashgan. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari umumiyligi bojxona huquqi tufaylidir.

## 12-BOB ADVOKATURA VA YURIDIK XIZMAT

### 12.1. Advokatura tushunchasi va advokatlik faoliyatining turlari

O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi qonuniga asosan, advokatura – huquqiy tizim bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Advokatura O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lмаган shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi.

Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin. Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olish uchun shaxs malaka imtihonini topshirishi shart. Muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, sudlangan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'il qo'yilmaydi. Advokatura o'z faoliyatini qonunning ustunligi, mustaqillik va demokratiya prinsiplari asosida amalga oshiradi.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyani olgan shaxs o'z advokatlik byurosini ohib, yoxud ixtiyoriylik asosida boshqa advokatlar bilan hay'atlar va firmalar tuzishga haqlidir. Advokatlar byurolari, hay'atlari, firmalari, birlashmalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning joylardagi organlari tomonidan ro'yxatga olinadi. Ularni tuzish, shtatlari, vazifalari, mablag'lari, vakolatlari va boshqa masalalar ularning nizomlari va qoidalari bilan tartibga solinadi.

Viloyatlarda va Toshkentda advokatlar hay'atining prezidiumi faoliyat ko'rsatadi. Ular boshqaruv vazifalarini bajaradilar. Jumladan, yangi yuridik maslahatlar tashkil qiladilar. Masalan, Toshkent shahar advokatlar hay'ati prezidiumi rahbarligida bir qator maxsus yuridik maslahatlar tashkil qilingan: avtotransport ishlari bo'yicha, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha, fuqarolik ishlari va ayollarni muhofaza qilish bo'yicha, harbiy xizmatchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha, xalqaro-huquqiy ishlar bo'yicha. bojxona ishlari bo'yicha.

Ular ro'yxatga o'tgan kundan e'tiboran, yuridik shaxs maqomini oladilar hamda fuqarolar va yuridik shaxslardan tushadigan pul mablag'lari evaziga faoliyat ko'rsatadilar.

1999 yilda O'zbekiston Respublikasida «O'zbekiston Respublikasi Advokatlari assotsiatsiyasi» tuzildi. U «Advokat» jurnalini nashr etadi.

Advokatlik faoliyatining turlari quyidagicha:

– huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar, qonun hujjatlari yuzasidan og'zaki va yozma ma'lumotnomalar berish;

– huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuzish;

– fuqarolik ishlari hamda ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshirish;

– jinoiy ishlar bo'yicha dastlabki tergovda va sudda himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviylar da'vogar, fuqaroviylar javobgar sifatida ishtiroy etish;

– jismoniy va yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko'rsatish.

Advokat qonun hujjatlarda man etilmagan boshqa turdag'i yuridik yordam ham ko'rsatishi mumkin.

## **12.2. Advokatning huquqlari va majburiyatlari**

Advokatlik erkin kasb turiga kiradi. Advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

– tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo'lgan barcha organlar, korxonalar, muassasalar, va tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning topshirig'iga muvofiq, ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya qilish;

– sudlarda, shuningdek, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqayotgan organlarda dalil sifatida foydalanimishi mumkin bo'lgan faktlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash;

– yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan davlat organlaridan, korxonalar, muassasalar, tashkilotlardan hamda jamoat birlashmalaridan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar, tavsiyanomalar va boshqa hujjatlarni surishtirish va olish;

– yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar yuzasidan ekspertlar xulosalarini, mutaxassislarining ma'lumotnoma-maslahatlarini mijozning roziligi bilan so'rash va yozma tarzda olish;

– unga vakolat bergen yoki uning himoyasida bo'lgan shaxsga nisbatan ish yuritayotgan sudga va boshqa davlat organlariga to'plangan materiallarni taqdim etish;

– mansabdor shaxslarga iltimosnama va shikoyat berish hamda ulardan yozma tarzda dalil-isbotli javob olish;

– qonun hujjatlarda ko'zda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish.

Advokat o‘z kasbiy faoliyatida amaldagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi, unga yuridik yordam so‘rab murojaat etgan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarni himoya etish uchun qonunda ko‘zda tutilgan vositalar va usullardan foydalanishi shart va muayyan ish bo‘yicha yuridik yordam ko‘rsatayotgan yoki avval yuridik yordam ko‘rsatgan shaxslarning manfaatlari ishni olib borishni so‘rab murojaat etgan shaxsnинг manfaatlari zid kelgan yoki u sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruv o‘tkazuvchi shaxs, jamoat ayblovchisi, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, jabrlanuvchining, fuqaroviylar da‘vogarning, fuqaroviylar javobgarning vakili, guvoh, xolis, tarjimon sifatida ishtirot etgan, shuningdek, ishni dastlabki tergov qilishda yoxud sudda advokatning qarindoshi bo‘lmish mansabdar shaxs ishtirot etgan yoki ishtirot etayotgan bo‘lsa, xuddi shuningdek, advokat bevosita yoki bilvosita shu ishdan shaxsan manfaatdar bo‘lgan va bu hol unga o‘z ishni topshirgan shaxsnинг manfaatlari zid keladigan hollarda yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi topshiriqni qabul qilishga haqli emas.

Advokat kimning manfaatlarni himoya qilish topshirig‘ini olgan bo‘lsa, o‘z vakolatlaridan shu shaxsnинг zarariga foydalanishga hamda gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini himoya qilishdan bosh tortishga, agar mijozning o‘zi uni bundan ozod etmasa, haqli emas. Bundan tashqari, jinoiy ishni ko‘rib chiqishda qatnashishga tayinlangan advokat fuqaroning to‘lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yorda ko‘rsatishdan bosh tortishga haqli emas.

Ishni yengillashtirish uchun advokat yordamchiga ega bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining yuridik ma‘lumotga ega bo‘lgan fuqarosi advokat yordamchisi bo‘lishi mumkin. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, sudsanganligi bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan shaxs advokat yordamchisi bo‘lishi mumkin emas. Yordamchining vakolatlari advokatnikidan kamroq. Jumladan, uning surishtiruv, dastlabki tergov organlarida, sudsarda va boshqa davlat organlarida ishlarni olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Advokat advokatlik sirini saqlashi shart. Advokatlik siri jumlasiga mijoz advokatdan so‘rab murojaat etganligining o‘zi, mijoz yordam so‘rab murojaat etgan masalalar, advokatdan mijoz olgan maslahatlar, nasihatlar va tushuntirishlarning mohiyati, advokatning mijoz bilan o‘tkazgan suhbatida to‘xtab o‘tilgan barcha masalalar kiradi.

Advokat, advokat yordamchisi, advokatlar byurolari, hay’atlari va firmalarining mansabdar shaxslari va texnik xodimlarining advokatlik siri bo‘lmish ma‘lumotlarni oshkor etishi va bu ma‘lumotlardan o‘z

manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlari yo'lida foydalanishi man etiladi.

Advokatning kasbga oid huquqlari, sha'ni va qadr-qimmati qonun bilan qo'riqlanadi. Advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda aralashish, ular o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda oлган muayyan ma'lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek, advokatlar birlashmalarining mansabdor shaxslaridan va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma'lumotlarni talab qilish taqiqlanadi. Advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganida unga biror-bir shaklda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Advokat himoyachilik yoki vakillik vazifasini bajarayotganda o'ziga ma'lum bo'lib qolgan tafsilotlar yuzasidan guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas. Advokat kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan qo'lga kiritgan **advokatlik dalillari** (ashyolari), hujjatlari undan olib qo'yilishi yoki ko'zdan kechirilishi mumkin emas. Uning o'zi yuridik yordam ko'rsatayotgan shaxslar bilan uchrashish huquqi cheklanishi mumkin emas.

Advokatning ish yuzasidan huquqiy nuqtai nazari xususida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqqidnoma kiritishi, shuningdek, sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas. Advokat qonunga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatayotganligi munosabati bilan uni jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki bunday javobgarlikni qo'llash bilan qo'rqtish mumkin emas.

Advokatlarning mehnatiga ko'rsatilgan yuridik yordam uchun jismoniy va yuridik shaxslardan advokatlar byurolari, hay'atlari va firmalariga kelib tushgan mablag'lar hisobidan haq to'lanadi. Yuridik xizmat uchun haq to'lash advokat bilan mijoz o'rtasida ixtiyoriy ravishda tuziladigan bitim (shartnoma) asosida amalga oshiriladi. Shaxs to'lovga qobiliyatsizligi sababli ko'rsatilgan yuridik yordam haqini to'lashdan ozod etilganda, jinoiy ishni ko'rib chiqishda qatnashishga tayinlangan advokatning yuridik yordami uchun haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat hisobidan amalga oshiriladi.

Advokatga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar belgilash va to'lash hamda davlat pensiya ta'minoti qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Advokatlar byurolari, hay'atlari va firmalari advokatlarning ijtimoiy ehtiyojlariga ishlataladigan fondlar tuzishga haqlidirlar.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 25 dekabrdagi «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi qonuniga binoan, advokatning hayoti va sog'lig'i davlat himoyasidadir. Advokatura o'z hisobidan advokatlarning hayoti va sog'lig'ini majburiy

sug‘urta qiladi. Sug‘urta tashkilotlari quyidagi hollarda sug‘urta pulini to‘laydilar:

– advokat o‘z kasbiy faoliyatini bajarish yoki bu faoliyatni tugatganidan so‘ng halok bo‘lganda (vafot etganda), basharti uning o‘limi o‘z xizmat majburiyatarini bajarish bilan bog‘liq hollarda yetkazilgan tan jarohati yoxud sog‘liqqa boshqacha ziyon yetkazilganligi natijasida kelib chiqqan bo‘lsa, uning merosxo‘rlariga advokatning o‘rtacha oylik ish haqining ellik barobari miqdorida;

– advokatga o‘z xizmat vazifasini bajarilishi bilan bog‘liq hollarda tan jarohati yoki uning sog‘lig‘iga advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishiga imkon bermaydigan boshqacha zarar yetkazilganda – advokat o‘rtacha oylik ish haqining yigirma besh barobari miqdorida.

– advokatga o‘z xizmat vazifasini bajarishi bilan bog‘liq holda tan jarohati yetkazilganda, basharti bu kelgusida advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishiga imkon bermaydigan darajada mehnatga layoqatini yo‘qotishga olib kelmagan bo‘lsa, advokat o‘rtacha oylik ish haqining besh barobari miqdorida.

### **12.3. Advokatlarning malaka komissiyalari va javobgarligi**

Zarur bilimga va kasb malakalariga ega bo‘lgan shaxslarga advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani berish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahri hokimliklari adliya boshqarmalari huzurida malaka komissiyalari tuziladi.

Ular Qoraqalpog‘iston Respublikasi adliya vaziri, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari adliya boshqarmalari boshliqlarining buyruqlari bilan advokatlar hamda adliya organlari xodimlarini teng miqdorda kiritgan holda besh yil muddatga tuziladi.

Malaka komissiyalarining qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni qarab chiqish, malaka komissiyalari ishi tajribasini umumlashtirish va tahlil qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Oliy malaka komissiyasi tuziladi. Uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri hamda advokatlarning respublika jamoat birlashmasi tomonidan adliya organlari xodimlari hamda advokatlarni teng miqdorda kiritgan holda tasdiqlanadi.

Malaka komissiyalarining vakolatlari va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan qoidaga ko‘ra belgilanadi.

Advokatlik faoliyatini to‘xtatib turish yoki tugatish litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki uni bekor qilish orqali amalga oshiriladi. Advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda litsenziyani bergen organning qarori bilan

litsenziyaning amal qilishi u ayblanuvchi sifatida javobgarlikka tortilganidan boshlab, sud hukmi kuchga kirgunga qadar, yoxud oqlovchi asoslarga binoan uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to‘g‘risida qaror qabul qilunga qadar to‘xtatib turilishi mumkin.

Litsenziya uni bergan organ tomonidan malaka komissiyasining tasdig ‘idan so‘ng quyidagi asoslarga binoan bekor qilinadi:

– advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxsning arizasiga binoan;

– ushbu shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotgan taqdirda;

– muomala layoqati belgilangan tartibda cheklangan hollarda yoki advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxs muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

– advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxsga nisbatan sud chiqargan ayblov qarori qonuniy kuchga kirganda;

– shaxs litsenziyani olish chog‘ida noqonuniy xatti-harakatlar qilganligidan dalolat beruvchi holatlar ma‘lum bo‘lib qolganda;

– advokat kasb odobi normalarini muntazam ravishda buzganida yoki qonun hujjatlарining talablarini qo‘pol ravishda buzganida.

Litsenziya malaka komissiyasining intizomiy jazo berish to‘g‘risidagi qaroriga yoki advokatning intizomiy javobgarligiga asosan litsenziyani bergan organ tomonidan to‘xtatib qo‘yilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Litsenziyaning amal qilinishini to‘xtatib turish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi qaror ustidan ushbu qaror olingen paytdan boshlab bir oy muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Advokatura to‘g‘risidagi qonun talablarini va advokatlik faoliyatini tartibga solib turuvchi boshqa qonun hujjatlarni buzganlik uchun advokatga nisbatan quyidagi intizomiy choralar qo‘llanilishi mumkin:

– ogohlantirish (malaka komissiyasining qaroriga binoan);

– advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini olti oygacha muddatga to‘xtatib turish (litsenziya bergan organ tomonidan malaka komissiyasining qaroriga asosan);

– advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani bekor qilish (litsenziya bergan organ tomonidan malaka komissiyasining qaroriga asosan).

Advokatlik faoliyati bu faoliyatni amalga oshirayotgan shaxsning tashabbusiga asosan, lekin agar mijoz talab qilsa, avval qabul qilingan topshiriq bajarilib bo‘lgach, advokatlik faoliyatini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelgan taqdirda to‘xtatilishi mumkin.

Advokatlar byurolari, kollegiyalari va firmalaridagi a'zolik ularning nizomiga ko'ra to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o'z vakolati doirasida advokatlar malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshirishga yordamlashadi, advokatura faoliyati to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini to'playdi va o'rganadi, advokatlarning ijobiyligi ishlashda tajribalarini ommalashтиради, advokatlar byurolari, hay'atlari va firmalariga uslubiy yordam ko'rsatadi, advokatlarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq tarzdagi ta'qiblar, asossiz cheklashlar va tajovuzlardan advokatlarni himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radi, advokatlar byurolari, hay'atlari, firmalari va Oliy malaka komissiyasi faoliyatiga yordam beradi.

#### **12.4. Davlat va tijorat korxonalarini, muassasalarini, tashkilotlarda yuridik xizmatni tashkil etish**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 2 martdagi qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvinin organlari va korxonalarida yuridik xizmat to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom barcha davlat korxonalarini, tashkilotlari, muassasalarini, jamiyat birlashmalariga, shuningdek, tadbirkorlik tuzilmlariga taalluqli. U davlat boshqaruvinin organlari va barcha mulkchilik shakllaridagi yuridik xizmatlarning huquqlari, majburiyatlarini va vazifalarini belgilab beradi.

Yuridik xizmatning asosiy vakili *yurist-maslahatchi*dir. Oliy yuridik ma'lumotga ega shaxslar yurist-maslahatchi bo'lib ishlashlari mumkin. Yurist-maslahatchi, shuningdek, korxonalar, tashkilotlari, muassasalarini, jamiyat birlashmalarini, davlat boshqaruvinin organlari, vazirliklar, idoralar yuridik xizmatining boshlig'i bo'lish uchun kamida besh yil yurist-maslahatchi bo'lib ishlagan bo'lish kerak.

Yuridik oliy o'quv yurtlari kelgusida yurist-maslahatchi bo'lib ishlovchi talabalar uchun oxirgi kursda amaliy malaka oshirishlari uchun bevosita boshqaruvinin organlari yoki korxonalarda stajirovka tashkil qiladilar. Davlat boshqaruvinin organlari va korxonalar besh yilda bir marta yuridik xizmatlar xodimlarini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining adliya boshqarmalariga qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tish uchun yuboradilar. Yosh xodimlar va homilador ayollar bundan mustasno. Attestatsiya komissiyasi ishining tartibi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Attestatsiya va qayta tayyorlash uchun to'lov hajmi ham Adliya vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi. Adliya vazirligi va uning joylardagi organlari tomonidan qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tgan yuristikonsultlar reyestri yuritiladi.

Attestatsiyada salbiy baho qo'yilgan hollarda yurist-maslahatchi olti oydan kam bo'lmagan muddatdan so'ng yana attestatsiya va qayta tayyorlashdan o'tish uchun yuboriladi. Agar attestatsiyadan o'tuvchi komissiya xulosasidan norozi bo'lsa, Adliya vazirligiga shikoyat qilishi mumkin.

Boshqaruv organlari va korxonalar o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatlarida qonuniylikni ta'minlash maqsadida yurist-maslahatchilarining samarali ishlashi uchun sharoit yaratib berishlari kerak. Adliya vazirligi shartnoma asosida yuridik xizmatlarni huquqiy masalalar bo'yicha materiallar, to'plamlar, qo'llanmalar hamda yuridik adabiyotlar bilan ta'minlaydi.

Endi boshqaruv organlari va korxonalardagi yuridik xizmatlarning majburiyatlarini alohida ko'rib chiqamiz. *Boshqaruv organlarining yuridik xizmatlari majburiyatlariga quyidagilar kiradi:*

a) boshqa tuzilmalar bilan birgalikda vazirliklar, idoralar, boshqa boshqaruv organlarining markaziy apparatlarida va tizimida qonunlarni to'g'ri qo'llashga qaratilgan tadbirilar ishlab chiqish, quyi turuvchi boshqaruv organlarining, korxonalarning g'ayriqonuniy hujjatlarini bekor qilishga qaratilgan choralar ko'rish, qonunlarni qo'llash amaliyotini o'rganish va umumlashtirish, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, ularni vazirliklar, idoralar, boshqa boshqaruv organlarining e'tiboriga havola qilish;

b) boshliq imzosiga taqdim etilayotgan buyruqlar va boshqa hujjatlarning qonunlarga mos kelishi uchun javobgarlikni zimmasiga olish, ularga viza qo'yish. Bunda idoraviy normativ hujjatlarning qonunga mos kelishi oldindan yuridik xizmatlar tomonidan tekshirmay turib chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi;

v) vazirliklar, idoralar, boshqa boshqaruv organlariga kelayotgan, ularda chiqarilayotgan normativ hujjatlarning tizimlashgan hisobi va saqlanishini tashkil qilish, boshqa bo'linmalar bilan birgalikda normativ hujjatlarni tartibga solish bo'yicha ishlar o'tkazish, ularning to'plamini nashr etish, vazirliklar va idoralarning amaldagi yoki kuchini yo'qotgan normativ hujjatlarini bekor qilish bo'yicha takliflar tayyorlash;

g) xo'jalik hisobi, ijara munosabatlari va mehnatni rag'batlanirishning boshqa shakllarini mustahkamlash, xo'jalik shartnomalarining rolini oshirish va ularning bajarilishi uchun javobgarlikni oshirish maqsadida choralar ko'rish;

d) xorijiy mamlakatlarning kompaniyalari va firmalari bilan iqtisodiy va ilmiy-texnik aloqalarni o'mnatishda idoraviy korxonalarga huquqiy yordam berish;

ye) mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat haqidagi qonunlarga amal qilish, mehnat intizomini mustahkamlash, rastratlar, talon-tarojlar,

qo'shib yozishlar, ishlab chiqarishdagi isrofgarchiliklar va yo'qotishlarning oldini olish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun huquqiy tusdagi tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etishda qatnashish;

j) da'vo ishi sohasidagi holatni tahlil qilish, xo'jalik sudida nizolarni ko'rib chiqish natijasida aniqlangan, korxona faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun tadbirlar qabul qilish;

z) qonunda belgilangan tartibda vazirliklar, idoralar, boshqaruva organlarining manfaatlarni sudda, xo'jalik sudida, boshqa tashkilotlarda huquqiy masalalarni ko'rish paytida himoya qilish;

i) idoralar, vazirliklar, boshqaruva organlaridagi huquqiy ishga rahbarlik qilish, quyi turuvchi korxonalarda bu ishlarning holatini tekshirish, uning amaliy qo'llanilishiga ko'maklashish, yuridik xizmatlarning faoliyati hamda huquqiy ishlar bo'yicha tavsiyalar va ko'rsatmalar ishlab chiqish;

k) vazirliklar, idoralar, boshqaruva organlari markaziy apparatining xodimlarini umumiyligi yuridik o'qitishni tashkil qilishda ishtirok etish, qonunlarni tushuntirish ishlarini yo'lga qo'yish;

l) ~~zamonaviy~~ ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanim, qonunlar bo'yicha axborot-tahlil ishini olib borish, qo'l ostidagi tashkilotlarga amaldagi normativ hujjatlardagi o'zgarishlar, Adliya vazirligining ko'rsatmalarini va respublika xo'jalik sudlari amaliyotini zudlik bilan yetkazish, vazirliklar, idoralar rahbarlariga qonunlar bo'yicha ma'lumot beruvchi materiallarni tayyorlab berish, huquqiy masalalarda maslahatlar berish;

m) vazirliklar, idoralar, boshqaruva organlarining tizimlarida qonunlar buzilganligi aniqlangan hollarda, tegishli rahbarga bu kamchiliklarni bartaraf etish va oldini olish uchun choralar ko'rishi haqida xabar berish.

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, davlat va tijorat korxonasiда, muassasasida, tashkilotidagi yuridik xizmat quyidagilarni amalga oshirishga majbur:

- ishning huquqiy ta'minlanishini tashkil qilish, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning, bo'linmalar o'zaro hamkorligi va iqtisodiy javobgarligi, xo'jalik-iqtisod hamda ijtimoiy faoliyati masalalarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarini tayyorlash va joriy qilishda ishtirok etish, ushbu ishga rahbarlik bilan kelishgan holda, mansabdor shaxslar va mutaxassislarni jalb etish;

- korxonada o'rnatilgan xo'jalik ichidagi da'volarni ko'rsatish va qarab chiqishning tartibiga rioya etilishini nazorat qilish;

- iqtisodiy, moliyaviy, buxgalteriya xizmatlari va boshqa bo'linmalar bilan birga korxonaning xo'jalik faoliyati natijalarini iqtisodiy-huquqiy

tahlil qilish, noishlab chiqarish xarajatlarining tuzilishi va kelib chiqish sabablarini, balansdagi debitor va kreditor qarzlarning holatini o'rganish, pul va tovar-moddiy boyliklarining yetishmovchiligi va talon-taroj qilinganligi bo'yicha materiallarni sud va tergov organlariga yuborish uchun rasmiylashtirish;

– yuqori turuvchi boshqaruvi organlarining qonunchilik hujjalari, normativ aktlarini, korxonalarining mahalliy normativ hujjalarni tizimli holda hisobga olish va saqlash, boshqa tuzilmalar bilan birga idoraviy hujjalarni tartibga solish bo'yicha ishlarni olib borish;

– korxona rahbariga imzolash uchun taqdim etilayotgan buyruqlar va huquqiy tusdagi boshqa hujjalarning loyihalari qonunchilikka to'g'ri kelishini tekshirish, ularga vizalar qo'yish;

– tuzilmaviy birliklar va bo'linmalar rahbarlari chiqargan qonunchilik hujjalarinining qonunlarga mos kelishini nazorat qilish;

– boshqa korxonalar bilan xo'jalik shartnomalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning kompaniyalari va firmalari bilan kontraktlarni tayyorlash, tuzish va bajarilishini nazorat qilish, ularga vizalar qo'yish;

– da'vo ishlarni yuritish, sudsarda da'volarni taqdim etish, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalarining sudsarda, xo'jalik sudsarida, shuningdek, boshqa organlarda manfaatlarini belgilangan tartibda himoya qilish;

– moddiy qimmatliklarni hisobdan chiqarib tashlash uchun tuzilgan hujjalarga taftishlar va inventarizatsiya o'tkazilishi davomida huquqbazarliklar va suiiste'mol qilishlar aniqlansa, huquqiy xulosalar berish;

– korxonaning ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish masalalari bo'yicha jamoada o'zini o'zi boshqarish va qonuniylikka rioya qilinishiga ko'maklashish, jamoa shartnomalari tayyorlash va tuzishda qatnashish, jamoa kengashiga, kasaba uyushmasiga va boshqa jamoat birlashmalariga o'z vakolatlarini amalga oshirishda huquqiy yordam ko'rsatish;

– umumiy yuridik o'qitishni tashkil etishda qatnashish, xodimlarga amaldagi qonunlar haqida axborot berish, ularning qo'llaniishi amaliyotini tushuntirish;

– korxonalar, tashkilotlar, muassasalar faoliyatida qonunbazarliklar aniqlanganda, ularni bartaraf etish va oldini olish choralarini ko'rishi uchun rahbarlarga xabar berish.

Yuridik xizmat quyidagi *huquqlarga* ega:

1) davlat boshqaruv organlari, korxonalar, tuzilmaviy birliklarning faoliyatida qonuniylikka rioya qilinayotganligi holati bilan tanishib chiqish;

2) davlat boshqaruv organi, korxonalarda belgilangan tartibda mansabdor shaxslardan o'z vakolatlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisob-kitoblar va boshqa ma'lumotlarni olish;

3) rahbariyatga qonunlarning buzilishini bartaraf etish, zararni undirish amaldagi qonunlarni buzgan bo'linmalar va xizmatlar rahbarlarini, boshqa xizmatchilarni javobgarlikka tortish to'g'risida takliflarni taqdim etish;

4) davlat boshqaruv organi, korxonalar rahbarlarining roziligi bilan normativ hujjatlarni va boshqa hujjatlarning loyihalarini tayyorlash uchun boshqa bo'linmalarning xodimlarini jalb etish, shuningdek, yuridik xizmatga uning vakolatlari doirasida yuklangan majburiyatlardan kelib chiqib, boshqa tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

5) davlat boshqaruv organi yoki korxonalar rahbariyati tomonidan chaqirilgan hay'at majlislari, tegishli kengashlar, yig'ilishlarda ishtirok etish.

O'z majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun yuridik xizmatlarning xodimlari mehnat qonunlari asosida intizomiy va moddiy javobgarlikka tortiladilar. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi organlari korxonalarning, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalarining yuridik xizmatlari xodimlari o'zlarining vazifalarini bajarmaganliklari uchun intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritishlari mumkin.

Yuridik xizmatlarga huquqiy ishga aloqasi bo'lmagan vazifalarni yuklashga yo'l qo'yilmaydi. Yuridik xizmatlarga o'z vazifalarini bajarish va berilgan huquqlardan foydalanishga qarshilik qilgan mansabdor shaxslar basharti bunday to'sqinlik natijasida qonunlar buzilgan, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari cheklangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning organlari tomonidan huquqiy javobgarlikka tortiladilar.

**13-BOB  
NOTARIAT**

**13.1. Asosiy qoidalar**

O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi 1996 yil 26 dekabr qonuniga ko'ra, mamlakatimizda notariatning vazifasi jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarni notariuslar tomonidan qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan himoya qilishni ta'minlashdan iboratdir. Buni davlat notarial idorasida ishllovchi yoki xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notariuslar amalga oshiradi. Davlat notarial kontoralari va xususiy notariuslarning reyestirini Adliya vazirligi yuritadi.

Notariuslar bo'lmanan aholi punktlarida fuqarolar yig'inlarining raiislari (oqsoqollari) quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi: vasiyatnomalarni tasdiqlaydi; ishonchnomalarni tasdiqlaydi, (avtotransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno); meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi; hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarining to'g'riligini shahodatlaydi (ma'lumot haqidagi hujjat nusxalari bundan mustasno); hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi.

Boshqa davlatlarning hududida notarial harakatlarni O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining ushbu harakatlarni amalga oshirish vakolati berilgan mansabdar shaxslari amalga oshiradi.

Mamlakatimizda notarius lavozimiga oliv yuridik ma'lumotga ega bo'lgan, davlat notarial idorasida yoki xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius huzurida kamida bir yillik muddatli stajirovkani o'tab malaka imtihonini topshirgan, notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tayinlanadi. Bu talab fuqarolar yig'inlarining oqsoqollariga va konsullik muassasalarining mansabdar shaxslariga tatbiq etilmaydi.

Notariuslar oliv yuridik ma'lumotli stajor va yordamchini ishga qabul qilishga haqlidirlar. Bu mehnat shartnomasi asosida adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Lekin xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq oliv yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar orasidan stajorni, shuningdek, yordamchini mustaqil tarzda ishga qabul qilishga haqlidir.

Yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida uch yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxslar uchun stajirovka muddati tegishlicha adliya

boshqarmasining qarori bilan kamaytirilishi mumkin. Bunday hollarda stajirovka muddati olti oydan kam bo'lmasligi kerak.

Notariuslar davlat notarial idorasida ishlashidan yoki xususiy amaliyot bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, notarial harakatlarni amalga oshirishda teng huquqlarga va bir xil majburiyatlarga egadir. Notariuslar tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlar bir xil yuridik kuchga ega.

Litsenziya berish rad etilganligi ustidan sudga tegishli adliya boshqarmasining qarori olingen kundan boshlab bir oy ichida shikoyat qilish mumkin.

Litsenziya olgan, lekin uch yil mobaynida notarius lavozimida ish boshlamagan fuqaroga malaka imtihonini qayta topshiriganidan keyingina notarius lavozimida ishlashiga yo'i qo'yiladi.

Stajirovkadan o'tgan va notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya olish to'g'risida belgilangan tartibda ariza bergen shaxslar Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari qoshida tashkil etiladigan malaka komissiyasiga imtihon topshiradilar. Malaka komissiyasining qarori ustidan shikoyatlar, ushbu komissiyaning qarori manfaatdor shaxsning qo'liga topshirilgan kundan boshlab, bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi qoshidagi appellatsiya komissiyasiga beriladi. Malaka komissiyasining imtihonidan o'ta olmagan shaxslar ushbu komissiya qarori chiqqan kundan boshlab, kamida bir yildan so'ng qayta imtihon topshirishga qo'yiladi.

Notarius o'z faoliyatida mustaqil bo'lib, bu faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladi.

Notariusning, notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxslarning, shuningdek, amalga oshirilayotgan notarial harakatlardan xizmat vazifasini bajarish munosabati bilan xabardor bo'lib qolgan shaxslarning o'zlariga ma'lum bo'lgan axborotlarni oshkor qilishi, shu jumladan mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin ham oshkor qilishi taqiqlanadi.

Amalga oshirilgan notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar (ma'lumotlar) sud, prokuraturaning, tergov organlarining talabiga binoan ular yuritayotgan ishlar munosabati bilan beriladi. Fuqarolar mulkiga o'tayotgan mol-mulkning qiymati haqidagi ma'lumotnomalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda soliq organiga taqdim etiladi. Vasiyatnomasi to'g'risidagi ma'lumotnomalar vasiyat qiluvchining vafotidan keyingina beriladi.

Amalga oshirilgan notarial harakatlarning maxfiyligini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Notarius quyidagilarni amalga oshirishga haqli emas:

– ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari, tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga;

– shartnomalar tuzishda vositachilik xizmati ko'rsatishga.

Davlat notarial idoralari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ochiladi va tugatiladi. Davlat notarial idoralarida ishlaydigan notariuslarga qonun hujjatlariga binoan maxsus unvonlar – mansab darajalari beriladi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius yuridik shaxsdir. U o'z idorasiga ega bo'lish, bankda hisob-kitob varag'i va boshqa hisobvaraqlar ochish, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarga ega bo'lish, xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzish va ularni to'xtatish, tushgan daromadni tasarruf etish, sudda o'z nomidan qatnashish va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqlidir.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar Jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunda belgilangan tartibda tuziladigan notarial palataga birlashishlari mumkin. Bunday notariuslar ta'tilga chiqish va davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarning barcha turini olish huquqidan foydalananadi.

Notariuslar notarial ishlarni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tasdiqlaydigan qoidalarga muvofiq yuritadilar. Davlat notarial idoralarining notariuslari, notarial harakatlarni amalga oshiruvchi fuqarolar yig'inlarining raislari (oqsoqollari) va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar belgilangan buxgalterlik va statistika hisobotlarini yuritadilar, moliya va soliq organlariga budgetga to'lanadigan soliqlarni hisoblash va ularni to'lash bilan bog'liq ma'lumotlarni hamda boshqa hujjatlarni taqdim etadilar.

Mamlakatimizda notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Lekin rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius yoki notarial harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs tomonidan rus tilida yoki imkon bo'lsa, maqbul tilda beriladi.

Notariuslarning o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishi ustidan nazoratni adliya organlari amalga oshiradi.

Notarius lavozimi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ta'sis etiladi va tugatiladi, notarial okrugdag'i notariuslar lavozimining soni belgilanadi.

Notariusga muayyan hududda, ya'ni notarial okrugda notarial harakatlarni amalga oshirish vakolatlarini berish mamlakatimiz Adliya vazirligi yoki uning topshirig'iga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi yoki tegishli adliya boshqarmasi tomonidan litsenziyasi

bo‘lgan shaxslar orasida tanlov asosida amalga oshiriladi. Tanlov o‘tkazish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilaydi.

Davlat notarial idorasida ishlayotgan notarius bilan mehnat shartnomasini bekor qilish mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari muvofiq amalga oshiriladi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius o‘z xohishi bilan zimmasidagi vakolatlarni soqit qiladi yoki uning vakolatlari quyidagi hollarda sudning notarial faoliyati bilan shug‘ullanish huquqlaridan mahrum qilish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori asosida bekor qilinadi:

– qasddan jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan taqdirda – hukm qonuniy kuchga kirganidan so‘ng;

– qonunda belgilangan tartibda – muomala layoqatiga ega emas deb topilgan taqdirda;

– qonun hujjatlarini buzgan, kasalligi tufayli (tibbiy xulosa bo‘lsa) kasbiy majburiyatlarini bajarishning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda – litsenziya bergen organning iltimosiga binoan.

Notariusning vakolatlari bekor qilingan taqdirda, tegishli adliya organi unda saqlanayotgan hujjatlarni boshqa notariusga topshirish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Notariusning faoliyat ko‘rsatish hududi, ya’ni notarial okrug O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy bo‘linishiga muvofiq belgilanadi. Tumanlarga bo‘lingan shaharlarda tegishli shaharning butun hududi notarial xizmat ko‘rsatish hududi hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi yoki tegishli adliya boshqarmasi sodir etilish joyi qonun hujjatlarda belgilangan notarial harakatlarni bajarish yuzasidan notarius o‘z vazifalarini amalga oshirishga haqli bo‘lgan hududni belgilab beradi.

Bu adliya organlari aniq holatlarni hisobga olib, notariusning vakolatlari amal qiladigan hududni o‘zgartirishi mumkin. Ko‘rsatilgan hudud doirasida notariusning o‘z ish joyi bo‘lishi shart.

Notariusning notarial harakatni belgilangan faoliyat hududidan tashqarida amalga oshirishi bu harakatni haqiqiy emas, deb topishga asos bo‘lmaydi.

### **13.2. Notariusning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi**

Notarius quyidagi *huquqlarga ega*:

– o‘ziga murojaat qilgan barcha shaxslar uchun «Notariat to‘g‘risida»gi qonunda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga

oshirish (notarial harakatni amalga oshirish joyi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno);

– bitim va arizalarning loyihamini tuzish, hujjatlarning nusxalarini va ulardan ko'chirmalarni tayyorlash, shuningdek notarial harakatlarning amalga oshirilishiga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

– jismoniy va yuridik shaxslardan notarial harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni talab qilib olish.

Notarius quyidagilarni bajarishi shart:

– jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishda va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko'maklashishi, ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirib berishi;

– tomonlar taqdim etgan bitimlar loyihamining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirishi, ushbu bitimlar mazmuni tomonlarning asl maqsadiga mos kelish-kelmasligini va qonun talablariga zid kelish-kelmasligini tekshirishi;

– yuridik jihatdan bexabarlik jismoniy va yuridik shaxslar zarariga foydalanimasligi uchun amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning oqibatlari haqida ularni ogohlantirishi;

– qonun hujjatlariha mos kelmaydigan notarial harakatni amalga oshirishni rad etishi;

– notarial harakatlarni amalga oshirish vaqtida fuqarolar yoki mansabdar shaxslar tomonidan qonunchilik buzilganligini aniqlagan taqdirda zarur chora-tadbirlar ko'riliishi uchun tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yoki prokurorga bu haqda xabar qilishi;

– qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda meros yoki hadya tartibida o'tayotgan mol-mulkdan undiriladigan soliqni hisoblab chiqish uchun fuqarolarning mulkiga aylanayotgan mol-mulkning qiymati to'g'risida soliq organiga ma'lumotnomasi berishi.

Davlat notarial idorasida ishlovchi yoki xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius qonunga zid harakatlar qilsa, belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius amalga oshirilgan notarial harakat haqidagi ma'lumotlarni qasddan oshkor qilgan bo'lsa yoki qonun hujjatlariha zid bo'lgan notarial harakatlarni amalga oshirgan bo'lsa, buning oqibatida yetkazilgan ziyonni sud qaroriga binoan qoplashi shart.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius o'z faoliyatini sug'urta qilish to'g'risida shartnomasi tuzishi shart. U sug'urta shartnomasini tuzmasdan o'z majburiyatlarini bajarishga haqli emas. Sug'urta summasi belgilangan eng kam oylik ish haqining yuz barobaridan kam bo'lmasligi kerak.

Davlat notarial idorasida ishlovchi notarius notarial harakatlarni amalgalashirganlik hamda hujjatlardan nusxa (dublikat) berganlik uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan stavkalar bo'yicha davlat boji undiradi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius qonun hujjatlarida notarial shaklda bo'lishi majburiy qilib qo'yilgan harakatlarni bajarganlik uchun xuddi shu harakatlarni davlat notarial idoralarida bajarganlik uchun olinishi nazarda tutilgan davlat boji miqdorlariga muvofiq tariflar bo'yicha haq undiradi.

Davlat boji haqidagi qonun hujjatlarida jismoniy va yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar davlat notarial idoralarida ishlovchi notariuslar ham, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar ham notarial harakatlarni bajarganlarida, hujjatlar loyihibarini tuzganlarida, hujjatlarining nusxalarini berganlarida va boshqa texnik ishlarni bajarganlarida mazkur shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Notarius notarial harakatni bajarish uchun o'z ish joyidan tashqariga chiqqanida manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar uning amaldagi transport xarajatlarini qoplaydilar.

Notariusga murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan notarius o'rtasidagi kelishuvga muvofiq notariuslar tomonidan huquqiy va texnik tusdagi qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilganligi uchun haq undirilishi mumkin.

Davlat notarial idoralari O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning notarial harakatlarni amalgalashirganlik hamda huquqiy va texnik tusdagi xizmatlar ko'rsatilganlik uchun olgan pul mablag'lari, qonun hujjatlariga zid bo'limgan boshqa moliyaviy tushumlari uning faoliyatini mablag' bilan ta'minlash manbai hisoblanadi. Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius tomonidan olingan pul mablag'lari davlat budjetiga soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin notariusning mulkiga o'tadi.

Depozit hisob varaqlarda turgan pul mablag'lari xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning daromadi hisoblanmaydi.

### 13.3. Notarial harakatlar

Davlat notarial idoralarida ishlovchi notariuslar quyidagi *notarial harakatlarni* amalgalashiradilar:

- bitimlarni, vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar beradi;

- mol-mulkni o‘zga shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yadi va taqiqni bekor qiladi;
  - merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma beradi;
  - meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘radi;
  - hujjatlar nuxxalarining va hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlaydi;
  - hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;
    - hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi;
    - ko‘chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma beradi;
  - fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi;
  - fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;
  - fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;
  - hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlaydi;
  - jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga topshiradi;
  - pul summalarini va qimmatli qog‘ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
  - hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;
  - pul to‘lash uchun cheklarni taqdim etadi va cheklar bo‘yicha pul to‘lanmaganligini tasdiqlaydi;
  - ijro xatlarini yozadi;
  - veksellarning protestlarini amalga oshiradi;
  - dengiz protestlarini amalga oshiradi;
  - notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini hamda reyestrlardan ko‘chirmalarni beradi.

Davlat notarial idoralarida ishlovchi notariuslar qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar yuqorida nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshiradi, mol-mulkni o‘zga shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yish va taqiqni bekor qilish, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berish va meros mol-mulkni qo‘riqlash chora-tadbirlarini ko‘rish bundan mustasno.

Fuqarolar yig‘inlarining raislari (oqsoqollar) quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

- a) vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- b) ishonchnomalarini tasdiqlaydi (avtotransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno);
- v) meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘radi;

g) hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlaydi, (ma'lumot haqidagi hujjat nusxalari bundan mustasno);

d) hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (oqsoqollari) qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishlari mumkin.

Quyidagilar notarial tasdiqlangan hujjatlarga tenglashtiriladi:

– kasalxonalarda, gospitallarda, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki qariyalar va nogironlar uylarida yashayotgan fuqarolarning ushbu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh shifokorlari, ularning tibbiyot bo'yicha o'rinnbosarları yoki navbatchi shifokorlari, shuningdek, gospitallarning boshliqlari, qariyalar va nogironlar uylarining direktorlari va bosh shifokorlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

– O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ostida suzib yurgan kemalarda safarda bo'lgan fuqarolarning shu kemalarning kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

– qidiruv ekspeditsiyalarida yoki shunga o'xhash boshqa ekspeditsiyalarda bo'lgan fuqarolarning shu ekspeditsiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

– harbiy xizmatchilarining, harbiy qismlar joylashgan, notariuslar bo'lmagan punktlarda esa, shu qismlarda ishlovchi harbiy xizmatchi bo'lmagan shaxslarning, ular oila a'zolarining hamda harbiy xizmatchilar oila a'zolarining harbiy qismlarning komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari va ishonchnomalari;

– ozodlikdan mahrum etish joylaridagi yoki qamoqdagi shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari va ishonchnomalari.

O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

– bitimlarni (shartnomalar, vasiyatnomalar, ishonchnomalar va hokazolarni) tasdiqlaydi (O'zbekiston Respublikasidagi uy-joylarni boshqa shaxsga o'tkazish va garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomalar bundan mustasno);

– fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi;

– fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;

– fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;

– hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlaydi;

– meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi;

– merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomalar beradi;

- er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi haqida guvohnomalar beradi;
- hujjatlarning nusxalari va hujjatlardan olingen ko'chirmalar to'g'riligini shahodatlaydi;
- hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini shahodatlaydi;
- hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;
- pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
- saqlash uchun hujjatlarni qabul qilib oladi;
- ijro xatlarini yozadi;
- dengiz protestlarini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **13.4. Notarial harakatlarni amalga oshirish qoidalari**

Notarial harakatlar notarial idora yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi joylashgan binoda amalga oshiriladi. Lekin fuqaro kasalligi, nogironligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra, davlat notarial idorasiga, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius huzuriga bora olmaydigan ayrim hollarda notarial harakatlar mazkur fuqaro turgan joyda amalga oshirilishi mumkin.

Qonun hujjatlarida notarial harakatlar notarial idoralarning hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining binolaridan tashqarida amalga oshiriladigan boshqa hollar ham nazarda tutilishi mumkin.

Notarial harakatlar haq to'langanidan so'ng zarur bo'lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kuni amalga oshiriladi. Bu qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilib olish yoki hujjatlarni ekspertizaga yuborish zarur bo'lganida kechiktirilishi mumkin.

Notarial harakatlarni amalga oshirish, basharti qonunga binoan manfaatdor shaxslardan ushbu harakatlarni amalga oshirishga e'tiroz boryo'qligini so'rash zarur bo'lganda, kechiktirilishi mumkin. Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish muddati bir oydan oshmasligi lozim.

Notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan shaxsning talabiga ko'ra, unga notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish haqidagi qaror beriladi. Manfaatdor shaxs tasdiqlashni so'rayotgan huquq yoki fakt ustida da'volashish uchun sudga murojaat qilish istagidagi boshqa manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra, notarial harakatni amalga oshirish ko'pi bilan o'n kun muddatga kechiktirilishi mumkin. Agar bu

muddat ichida ariza tushganligi haqida suddan ma'lumot olinmasa, notarial harakat amalga oshirilishi lozim.

Bir manfaatdor shaxs tasdiqlashni so'rayotgan huquq yoki fakt ustida da'volashayotgan boshqa manfaatdor shaxsdan ariza tushganligi to'g'risida suddan ma'lumot olingen taqdirda notarial harakatni amalga oshirish mazkur ish sudda hal bo'lguniga qadar to'xtatib turiladi.

Qonun hujjatlardida notarial harakatlarni amalga oshirishni kechiktirish va to'xtatib turishning boshqa asoslari ham belgilanishi mumkin.

Notariuslar va notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxslar notarial harakatlarni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan kishilarning shaxsini aniqlaydi. Notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan kishining shaxsi uning shaxsiga nisbatan har qanday shubhalarni istisno etadigan pasporti yoki boshqa hujjatlariiga asosan aniqlanishi kerak.

Bitimlar tasdiqlab berilayotganida ularda ishtirok etayotgan fuqarolarning muomala layoqati belgilangan tartibda aniqlanadi va yuridik shaxslarning huquq layoqati tekshiriladi. Bitim vakil tomonidan tuzilgan taqdirda, uning vakolati ham tekshiriladi.

Notarial tasdiqlanadigan bitimlar, shuningdek, arizalar va boshqa hujjatlar notarius ishtirokida imzolanadi. Agar fuqaro jismoniy nuqsoni, kasalligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko'ra bitim, ariza yoki boshqa hujjatni o'z qo'li bilan imzolay olmasa, bitim, ariza yoki boshqa hujjatni uning topshirig'iga ko'ra uning o'zi va notarius hozirligida boshqa fuqaro imzolashi mumkin, buuda notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan fuqaroning hujjatni o'z qo'li bilan imzolay olmaganligi sabablari yozib qo'yilishi lozim.

Basharti notarial idoranining yig'majildlarida korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining vakolatlari tekshirilganligi haqida ma'lumotlar, imzolarining shaxsan murojaat qilingan vaqtida olingen namunasi bo'lsa va ularning imzolari haqiqiyligiga shubha tug'ilmaydigan bo'lsa, notarius bu mansabdor shaxslarning o'zлari kelishini talab qilmasligi mumkin.

Notariuslar notarial harakatlarni amalga oshirish uchun qirib o'chirilgan yoki qo'shimchalar kiritilgan, so'zлari ustidan chizilgan va izoh berilmagan boshqa tuzatishlari bo'lgan hujjatlarni, shuningdek, qalamda yozilgan hujjatlarni qabul qilmaydi. Notarial tasdiqlanadigan bitimlarning matni aniq va ravshan yozilgan bo'lishi kerak, hujjatning mazmuniga taalluqli sana va muddatlar hech bo'lmaganda bir marta so'z bilan, yuridik shaxslarning nomlari esa organlarining manzillarini ko'rsatgan holda qisqartirishlarsiz yozilishi lozim. Fuqarolarning familiyasi, ismi, otasining ismi to'liq yozilib, yashash joyi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bir varaqdan

ortiq bo'lgan hujjat ip o'tkazib tikilgan, varaqlari raqamlangan va muhr bosib tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Bitimlarni tasdiqlashda, hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini, hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini, hujjatlarning bir tildan boshqa tilga qilingan tarjimasi to'g'riligini tasdiqlashda, hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlashda tegishli hujjatlarga tasdiqlovchi yozuvlar yoziladi, merosga bo'lgan huquq, mulk huquqi tasdiqlanganda, fuqaroning tirik ekanligi va muayyan joyda ekanligi faktlari, fuqaroning fotosuratda aks etirilgan shaxs ekanligi tasdiqlanganda, saqlash uchun hujjatlar qabul qilib olinganida tegishli guvohnomalar beriladi.

Notariuslar o'z nomiga va o'z nomidan, xotini (eri) nomiga hamda uning nomidan, xotinining (erining) va o'zining qarindosh-urug'lari (otasonasi, bolalari, nabiralar, tug'ishgan aka-uka va opa-singillari), ular bilan vasiylik va homiylik tufayli bog'langan shaxslar nomiga hamda ularning nomidan, shuningdek, mazkur davlat notarial idorasining xodimlari yoki xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notariusning qo'lida ishlovchi shaxslar nomiga va ularning nomidan notarial harakatlarni amalga oshirishga haqli emas.

Notarius quyidagi hollarda notarial harakatni amalga oshirishni rad etadi:

- notarial harakatni amalga oshirish qonunga zid bo'lsa;
- notarial harakat boshqa notarius tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lsa;
  - muomalaga layoqatsiz fuqaro yoxud zarur vakolatlari bo'lmagan vakil notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan bo'lsa;
  - yuridik shaxs nomidan amalga oshiriladigan bitim uning ustavida yoki nizomida ko'rsatilgan maqsadlarga zid bo'lsa;
  - bitim qonun talablariga muvofiq bo'lmasa;
  - notarial harakatni amalga oshirish uchun taqdim etilayotgan hujjatlar qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmasa.

Notarial harakatni amalga oshirish rad etilgan taqdirda, notarial harakatni amalga oshirishni rad etish haqida murojaat qilingan kundan boshlab uch kundan kechiktirilmasdan notarius qaror chiqaradi.

Notarius notarial harakatni amalga oshirish to'g'risidagi murojaati rad etilgan shaxsnинг iltimosiga binoan rad etish sababini yozma ravishda bayon etishi va rad etish ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntirib berishi lozim.

Amalga oshirilgan notarial harakatni, kechiktirish yoki notarial harakatni amalga oshirishni rad etish to'g'risidagi qarorni noto'g'ri deb hisoblagan manfaatdor shaxs bu xususda davlat notarial idorasi yoki

xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius turgan joydagi sudga shikoyat qilishga haqlidir.

Notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan notarial harakatlar reyestrda ro'yxatga olinadi. Har bir notarial harakat alohida tartib raqami bilan ro'yxatga olinadi. Notariuslar jismoniy yoki yuridik shaxslarning yozma arizasiga binoan notarial harakatlarni ro'yxatga olish registrlaridan ko'chirmalar beradi.

Notarius tomonidan tasdiqlangan yoki berilgan, nusxalari notarial idoraning yig'majildlarida saqlanayotgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda nomidan yoxud topshirig'iga binoan notarial harakatlar bajarilgan jismoniy va yuridik shaxslarning yoki ular qonuniy vakillarining yozma arizasiga ko'ra yo'qolgan hujjatlarning dublikatlari beriladi.

**14-BOB**  
**OLIY MAJLISNING INSON HUQUQLARI BO'YICHA VAKILI**  
**(OMBUDSMAN)**

**14.1. Umumiy qoidalar**

2004 yil 27 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonunning 1-moddasiga binoan, inson huquqlari bo'yicha vakil mansabdon shaxs bo'lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdon shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari va vositalarini to'ldiradi. Vakil O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ularni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi ijtimoiy ongini oshirishga ko'maklashadi.

U o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, xalqaro huquqning umum e'tirof etgan prinsiplari va normalariga asoslanadi.

Vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdon shaxslarga tobe bo'lмаган tarzda amalga oshiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi. Vakil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga sayylanadi.

Vakil lavozimiga nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining Vakilni saylash to'g'risidagi qarori palatalarning majlislarida ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Saylanish kuni yigirma besh yoshga to'lgan, kamida besh yil O'zbekiston hududida muhim yashayotgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi Vakil lavozimiga saylanishi mumkin.

Vakil o'zining vakolatlari muddati tugagach, yangi Vakil saylangunga qadar o'z vazifasini bajarishni davom ettirib turadi.

Vakilning belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan saylanadigan o'rribosari bo'ladi. Vakil o'z lavozimidan muddatidan oldin ozod qilingan taqdirda Vakil o'rribosari uning vazifasini yangi Vakil saylangunga qadar bajarib turadi va Vakil uning belgilangan kafolatlariga ega bo'ladi.

Vakil faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, adolatparvarlik, demokratizm, insonparvarlik, oshkoraliq, har bir inson uchun ochiqlikdir.

U har yili Oliy Majlisiga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi va bu hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasida e'lon qilinadi. U inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro shartnomalarining bajarilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining yillik ma'ruzalarini tayyorlashda ishtirot etadi.

Vakil vakolatlarini bajarish muddati davomida siyosiy partiyaga a'zolikni yoki unda ishtirot etishni to'xtatib turishi yoxud butunlay to'xtatishi shart. Vakil haq to'lanadigan biror-bir boshqa lavozimni egallashi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas. O'qituvchilik, ilmiy va ijodiy faoliyat bundan mustasno.

Vakil Oliy Majlis tomonidan quyidagi hollarda lavozimidan muddatidan oldin ozod qilinishi mumkin:

- o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilish to'g'risida ariza bergenida;
- salomatligi jiddiy ravishda buzilgan va bu tibbiyot guvohnomasi bilan t'sidiqlanganda;
- i'qonunga ko'ta Vakil faoliyatiga nomuvofiq bo'lgan lavozimga saylangan yoki tayinlangan taqdirda;
- sudning unga nisbatan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda.

Vakil O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgan ajnabiylar fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni buzgan tashkilotlar yoki mansabdar shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi ustidan bergen shikoyatlarini ko'rib chiqadi va o'z tekshiruvini o'tkazish huquqiga ega.

U uchinchi shaxslar, shu jumladan, jamoat birlashmalarining aniq bir kishi yoki bir guruh shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi ustidan bergen shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun qabul qiladi, buning uchun ularning roziligi bo'lishi shart. Lekin u sudning vakolatiga taalluqli bo'lgan masalalarni ko'rib chiqmaydi.

Vakil arizachining o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi ma'lum bo'lib qolgan paytdan boshlab yoki agar arizachi o'z huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning boshqa vositalaridan foydalangan hamda qabul qilingan qarorlardan qoniqmagan bo'lsa, o'z

shikoyati bo'yicha qabul qilingan oxirgi qarordan xabar topgan paytdan boshlab, bir yil davomida bergen shikoyatlarini ko'rib chiqadi.

Vakilga berilgan shikoyatda arizachining familiyasi, ismi, otasining ismi, arizachining manzili, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilinayotgan tashkilotning nomi, mansabdor shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilishi, arizachining fikricha uning huquqlari buzilishiga olib kelgan harakatlar yoki harakatsizlik mohiyati bayon etilishi zarur.

Shikoyatga arizachining talablarini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa dalillar ilova qilinadi. Vakilga berilgan shikoyat uchun davlat boji olinmaydi.

#### **14.2. Vakilning huquqlari va majburiyatlar**

Vakil quyidagi huquqlarga ega:

– shikoyatni ko'rib chiqish;

– arz qiluvchi o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan vositalar va shakllarni ko'rsatish;

– shikoyatni uning mohiyatiga ko'ra hal qilishga vakolatli bo'lgan tashkilot yoki mansabdor shaxsga yuborish;

– arz qiluvchi uning huquqlari va qonuniy manfaatlari daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishtirish;

– shikoyatni ko'rib chiqishni, sababini albatta ko'rsatgan holda, rad etish;

– qonun hujjatlariga zid bo'lмаган boshqa chora-tadbirlarni ko'rish.

Shikoyatni ko'rib chiqish, shuningdek fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan hollarni o'z tashabbusi bilan tekshirish chog'ida Vakil quyidagi huquqlarga ega:

– aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirishda ko'maklashishni so'rab tashkilotlar va mansabdor shaxslarga murojaat qilish;

– aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirish uchun tashkilotlarning vakillari va mansabdor shaxslarni taklif etish. Tekshiruv o'tkazishni harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilinayotgan tashkilot yoki mansabdor shaxsga topshirish mumkin emas;

– tashkilotlarga va mansabdor shaxslar huzuriga bemalol kirish;

– tashkilotlar va mansabdor shaxslardan hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni so'rash va olish;

– mansabdor shaxslardan tushuntirishlar olish;

– tashkilotlar va mutaxassislarga aniqlanishi zarur bo'lgan masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlashni topshirish;

– tashkilotlar va mansabdar shaxslar tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari daxildor masalalar yuzasidan o'tkazilayotgan tekshiruvlarda ishtirot etish;

– ushlangan yoxud qamoqda saqlanayotgan shaxs bilan uchrashish va suhbatlar o'tkazish;

– harakatlarida inson huquqlari va erkinliklarini buzish hollari aniqlangan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida iltimosnoma bilan tegishli organlarga murojaat etish.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan holatlarni tekshirish chog'ida ma'lum bo'lib qolgan, arz qiluvchining va boshqa shaxslarning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlar ularning roziligidisiz oshkor qilinishi mumkin emas.

Mansabdar shaxslar Vakil so'ragan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etishlari shart.

Vakil o'z faoliyati masalalari bo'yicha davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, jamoat birlashmalarining rahbarlari va boshqa mansabdar shaxslari tomonidan kechiktirmasdan qabul qilinish huquqidan foydalanadi.

Faoliyati davlat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlar bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar, muassasalar va korxonalarga Vakilning kirish tartibi shuningdek Vakilga davlat siri yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan iborat bo'lgan axborotni taqdim etish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Vakilning vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo'ldi.

Vakil shikoyatni tekshirish natijalariga binoan:

– arz qiluvchiga ko'rib chiqish natijalarini ma'lum qilishi;

– harakatlari va harakatsizligida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi aniqlangan tashkilot yoki mansabdar shaxsga buzilgan huquqlarni tiklash yuzasidan tavsiyalar bayon etilgan o'z xulosasini yuborishi shart.

Bunda Vakilning xulosasini olgan tashkilot yoki mansabdar shaxs uni ko'rib chiqishi va bir oydan kechiktirmay asosli javob yuborishi lozim.

Vakilning xulosasida quyidagi tavsiyalar nazarda tutilishi mumkin:

– ishning tashkilot yoki mansabdar shaxs tomonidan oxiriga yetkazilishi zarurligi;

– tashkilot yoki mansabdar shaxsning qarori o'zgartirilishi yoxud bekor qilinishi kerakligi, shuningdek, u asoslanishi zarurligi;

– tashkilot yoki mansabdar shaxs qo'shimcha qaror qabul qilishi lozimligi.

Vakilning xulosasida boshqa tavsiyalar ham ifodalanishi mumkin.

Vakil daxilsizlik huquqidan foydalanuvchi va u O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi palatalarining roziligesiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi yoki sud tomonidan beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Oliy Majlis vakiliga nisbatan jinoiy ish faqat O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Vakilni majburiy tarzda olib kelish, ushlab turish, shuningdek uning shaxsiy buyumlari, yuki, transporti, turar joyi yoki xizmat xonalarini ko'zdan kechirishga yo'l qo'yilmaydi.

Vakilga shikoyat bergen shaxs, shuningdek Vakil tomonidan axborot to'plash va uni tahlil etish yoki ekspert bahosi berish topshirilgan shaxslar bu harakatlari uchun ta'qib ostiga olinishi yoki boshqa tarzda huquqlari cheklanishi mumkin emas.

#### **14.3. Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiya va kotibiyat**

«Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonunning 20-moddasiga ko'ra, vakilning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish yuzasidan faoliyatiga ko'maklashish uchun uning rahbarligida Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiya tuziladi. Ushbu komissiyaning asosiy vazifasi Inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyatining samaradorligiga har tomonlama yordam berishdir. Ular quydagilardan iborat:

– Vakil nomiga kelayotgan shikoyatlar va arizalarni qabul qilish, ko'rib chiqish va tekshirishda yordam berish;

– ko'rib chiqilgan shikoyatlar bo'yicha asosli javoblar va xulosalar loyihalarini tayyorlash;

– insonning huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga va ularni himoya qilishga qaratilgan mexanizmlar loyihalarini yaratish bo'yicha takliflar kiritish, Oliy Majlisga yillik hisobot ma'ruzalarini tayyorlashda qatnashish;

– respublika qonunlari va inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarning bajarilishini tekshirishda qatnashish;

– aholi orasida axborot-tashviqot ishlari olib borish;

– inson huquqlariga rioya qilish va ularni himoya qilish borasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda qatnashish;

– Vakilga muntazam ravishda qilingan ishlar yuzasidan hisobot taqdim etish;

Komissiya a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

– Vakilning topshirig'iga binoan, tegishli organlar, tashkilotlar va mansabdar shaxslarni to'sqiniksiz borib ko'rish;

– ulardan fuqarolarning shikoyatlarini, tekshirish uchun zarur axborotlarni olish;

– Vakilning topshirig'iga ko'ra, respublika mintaqalaridagi xalqaro tadbirlarda uning vakili vazifasini bajarish, Vakil bilan kelishgan holda, davlat hokimiyat organlari, nohukumat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

– inson huquqlari va Ombudsman faoliyati sohasidagi o'z bilimlarini oshirish, mamlakatimiz yoki xorijiy davlatlarning o'quv yurtlarida o'qish yoxud stajirovka o'tash;

– Komissiya o'z faoliyatida Oliy Majlis Kengashi tasdiqlagan reglamentga amal qiladi. Bu reglament uning asosiy vakolatlarini amalga oshirish tartibini, boshqa organlar va vakolatli organlar bilan hamkorligi mexanizmini, fuqarolarning shikoyatlari bilan ishlash tartibini boshqaradi va h.k.

Vakil Komissiya a'zosini O'zbekiston Respublikasining mintaqalarida, xalqaro tadbirlarda yoki boshqa xolatlarda o'z vakili qilib tayinlashi mumkin. Bu vakil uning nomidan va topshirig'iga ko'ra ish ko'radi hamda o'ziga berilgan funksiyalarni bajaradi.

Vakilning mamlakatimiz hududidagi vakili funksiyasini bajaruvchi Komissiya a'zolari quyidagilarni bajarishga majbur;

– o'ziga biriktirilgan hududda yashovchi fuqarolarning shikoyatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish;

– fuqarolarning ko'rib chiqilgan shikoyatlari bo'yicha xulosalar loyihalarini tayyorlash;

– Vakilning faoliyatini ta'minlash uchun tuzilgan kotibiyatdan kelib tushgan shikoyatlar ko'rib chiqilishi jarayonini nazorat qilish;

– Vakil bilan kelishilgan holda, davlat organlari, fuqarolarning jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

– qilingan ishlar haqida muntazam ravishda Vakilni xabardor qilish va bu haqda yarim yilda kamida bir marta hisobot taqdim etish;

– kotibiyat Vakilning, shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini saqlash bo'yicha komissiyaning va uning joylardagi vakillarining funksiyalarini yuridik, tashkiliy axborot-ma'lumot, tizimli-tahvilili jihatdan samarali ta'minlashni amalga oshiradi.

Komissiya tarkibiga quyidagilar kiradi: kotibiyat rahbari; faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha referentlar; Vakilning faoliyatini texnik

ta'minlovchi katta nozir. Kotibiyatga kiruvchi xodimlarining huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va boshqa qonunlar bilan, shuningdek, Vakilning Kotibiyat to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi. Nizom Vakil tomonidan imzolanadi. Vakil Vakilning kotibiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

#### **14.4. Faoliyatining asosiy yo'nalishlari**

Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning vakili (Ombudsman) instituti kiritilgan paytdan boshlab, uning faoliyati quyidagi yo'nalishlarda o'tmoqda:

- 1) inson huquqlari sohasidagi qonunlarga rioya qilinishini nazorat etish;
- 2) fuqarolarning shikoyatlari va arizalari bilan ishlash;
- 3) hokimiyat, boshqaruv organlari, sudlar, jamoat birlashmalari bilan hamkorlik;
- 4) axborottashviqot va tahliliy ishlar;
- 5) xalqaro hamkorlik.

Vakil faoliyati davomida insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etish komissiyasi a'zolari, Oliy Majlis qo'mitalari, Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonunlar monitoringi instituti, huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari bo'yicha boshqa tuzilmalarning vakillari bilan birgalikda Jizzax viloyatida «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida», «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzgan qarorlar va harakatlar ustidan sudga shikoyat berish to'g'risida»gi qonunlarga, Toshkent shahri va viloyatida Mehnat kodeksiga, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkentda «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida «Fuqarolarning nafaqa ta'minoti to'g'risida»gi qonunlarga rioya qilinishini nazorat etish o'tkazildi.

Mamlakatimiz Oliy Majlisi ratifikatsiya qilgan xalqaro shartnomalar va bitimlarning bajarilishini nazorat qilish davomida Vakil tomonidan bir qator vazirliklar va idoralarning 1966 yil 16 dekabrdagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966 yil 16 dekabrdagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1984 yil 10 dekabrdagi Qiynash va muomala qilish hamda jazolashning shafqatsiz, noinsoniy yoki qadr-qimmatni poymol qiluvchi boshqa turlariga qarshi konvensiyalarni bajarishlari bo'yicha faoliyatları tahlil etildi.

Ushbu konvensiyalar va shartnomalar respublika qonunlarini tekshirish natijalari bo'yicha viloyat hokimiyatlari va tegishli tuzilmalar,

vazirliklar, idoralar, Oliy sud, jamoat birlashmalariga aniqlangan kamchiliklarni tugatish bo'yicha va qonunlarni bajarish yuzasidan tavsiyalar jo'natildi.

Ko'rsatilgan davr mobaynida vakilning apparatida Oila, Yer, Uy-joy kodekslari, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida», «Mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar to'g'risida» «Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida», «Advokatlik faoliyati va advokatlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi qonunlarning loyihalari o'r ganib chiqildi va ularning sifatini oshirishga qaratilgan takliflar kiritildi.

Vakil tomonidan milliy qonunlarni Oliy Majlisning vakili (Ombudsman) haqidagi qonunlarga moslashtirish taklifi kiritildi. U inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarni doimiy tahlil qilib bormoqda va o'r ganmoqda. Inson huquqlarini himoya qilishning davlat ichidagi va xalqaro ma'lumotlar bazasi yaratilgan. Ular fuqarolar huquqini himoya qilishni yanada yaxshilash va milliy qonunlarimizni xalqaro standartlarga moslashtirishning zarurligidan guvohlik bermoqda.

Inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning samarali usuli, Qonunning 10-moddasida ko'rsatilganidek, vakilning apparatiga kelib tushayotgan shikoyat va arizalarni ko'rib chiqish hamda muntazam tahlil qilishdir. Tahlillardan ko'rindaniki, ko'pincha, fuqarolarning erkinlik va shaxs daxsizligi, sudgacha va sud paytidagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkmalab qo'yilgan huquqlari buzilmoqda.

Vakil instituti ish boshlagandan beri 10.000 dan ortiq shikoyat olingan. Har uchinchi murojaat fuqarolarning huquqlari va erkinliklarining yaqqol buzilganligini ko'rsatadi. Ular nazoratga olindi va ko'pchiligi ijobji hal qilindi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, asosan murojaatlar fuqarolarning protsessual huquqlari buzilganligi ustidan, sudiarning qonuniytiq, asoslanganlik va adolatlilik prinsinlariga amal qilmay, hukmlar chiqarganligi ustida bo'layotir. Shu masalalar bo'yicha 2000 ta fuqaro shaxsan qabul qilindi. Vakilning tekshiruvi natijalariga ko'ra, O'zbekiston Prokuraturasi va Oliy sud tomonidan sud qarorlarini bekor qilish bo'yicha 40 ta protest keltirildi hamda jinoi ishlar qaytadan ko'rib chiqiladigan bo'ldi.

Vakilning turli organlar va jamoat birlashmalar bilan hamkorligi, bir tomonidan, qonunlarga amal qilish va inson huquqlarini saqlashning samaradorligini oshirishga, ikkinchi tomonidan, fuqarolar huquqini sudda va suddan tashqari himoya qilishning imkoniyatlari, vositalaridan faolroq foydalanishga qaratilgan. Bundan tashqari, inson huquqlariga rioya

qilishning mexanizmlarini ta'minlashda davlat va jamiyatning kuchini birlashtirishga qaratilgan.

Vakil va Konstitutsiyaviy sud o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bitim tuzilgan. U inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan.

Vakil nodavlat tashkilotlari bilan ham hamkorlikni rivojlantirayotir. Bu inson huquqlari sohasidagi monitoring muammolari bo'yicha, eng ko'p uchraydigan inson huquqlarini buzish turlariga oid obyektiv axborot olish bo'yicha bo'lmoqda. 30 dan oshiq tashkilotlarning vakillaridan so'rovlar olindi. Olingen axborotlar tegishli davlat organlariga yetkazildi.

So'rovlarни tahlil qilish asosida vakilning nodavlat tashkilotlar bilan hamkorligining konsepsiysi yaratildi. U tegishli nodavlat tashkilotlar vakillarining xalqaro shartnomalar va O'zbekiston Respublikasi qonunlarining bajarilishida ishtirot etishlarini nazarda tutuvchi tadbirlarni ishlab chiqishga imkon berdi.

Shuningdek, Vakilning funksiyalarini samaraliroq qilish uchun uning ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik konsepsiysi ishlab chiqilgan. Vakil bu hamkorlik jarayonida muayyan fuqarolarning huquqlari buzilganligi holati bo'yicha materiallarni chop etib boradi.

Vakilning axborot-tashviqot va tahlili faoliyati inson huquqlari bo'yicha boshqa milliy tuzilmalar bilan birgalikda amalgalashmoqda. Bu Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonunlar bo'yicha monitoring instituti, Toshkent Davlat yuridik instituti qoshidagi Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi kabilardir.

Vakilning tashviqot faoliyati o'ziga xos. U keng ommani ularning huquqlari va Ombudsmanning faoliyati, uning inson huquqlarini himoya qilish tizimidagi o'rni bilan tanishtirib boradi.

Jamiyatdagi huquqiy madaniyatni ta'minlashga hissa qo'shish maqsadida Vakilning faoliyati quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

1) jamiyatni Vakilning vazifalari va funksiyalaridan xabardor qilish;

2) inson huquqlari sohasida huquqiy madaniyatni oshirish;

3) inson huquqlariga riyoa qilishning xususiyatlari to'g'risida xalqaro va respublika konferensiyalarini, seminarlarini o'tkazish;

4) inson huquqlari bo'yicha oliy, o'rta maxsus va o'rta o'quv yurtlarida ta'lim dasturlari va kurslarini amalgalashmoqda;

5) mamlakatimizda va xalqaro tashkilotlar tashkil etgan seminarlar, konferensiyalarda ma'ruzalar va xabarlar bilan chiqish.

O'zbekistonda «O'zbekistonning inson huquqlarini himoya qilish tizimi» seriyasida «O'zbekiston Respublikasining Ombudsmani» nomli risola chop etildi. U vakilning faoliyatidan jamiyatni xabardor qilish

maqsadida, Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi va Qochoqlar ishi bo'yicha oliv komissarning vakili bilan hamkorlikda chiqariladi. Risola ingliz va rus tillarida bo'lib, ushbu institutning yaratilishi tarixi, huquqiy asoslari, funksiyalari va fuqarolarning Ombudsmanga murojaat qilishlari tartibi haqidadir. «Adolat» nashriyotida «Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning Vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonunga sharhlar chop etildi. Shuningdek, Vakil Inson huquqlari bo'yicha urumujahon deklaratsiyasiga sharhlarning o'zbek tiliga moslashtirilgan variantini chiqarishda katta ishlar qildi.

Mamlakatimiz mintaqalarida ham ko'p ishlar qilinmoqda. Andijon, Buxoro, Navoiy, Nukus, Zarafshon, Shahrisabzda «Demokratiya va inson huquqlari» mavzusida maxsus seminarlar o'tkazildi. Ular, shuningdek, Konrad Adenauer fondi bilan birgalikda, Olmalik, Qarshi, Farg'onada bo'lib o'tdi. Ularda huquqni muhofaza qilish organlarining ham inson huquqlari sohasidagi, O'zbekistonda qonunlarning ustuvorligini ta'minlashdagi vazifalari muhokama qilindi.

Ombudsman tomonidan quyidagi tadbirlar ham o'tkazildi: «Ombudsman va nodavlat tashkilotlarining hamkorligi», «Shaxsnинг huquqlari va burchlari birligi» (1999 yilning 16 fevralidagi voqealar bo'yicha), oila va mehnat huquqlarini himoya qilish, Vakilning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha sudlov organlari bilan hamkorligi (BMT vakillari ishtirokida) muammolari bo'yicha seminarlar, shuningdek, «Harbiy xizmatchilarining huquqlari va demokratik davlatda ularni ta'minlash» (Pentagon vakili, Bundestagda Harbiylar ishi bo'yicha Ombudsman byurosining rahbari (Germaniya) ishtirokida) mavzularidagi seminarlar.

Perventiv tadbirlarga katta e'tibor berilayotir. Ular mansabdor shaxslar va davlat organlari tomonidan fuqarolarning huquqlari buzilishiga qarshi qaratilgan. Vakil ishtirokida huquqni muhofaza qilish organlarining huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy konferensiylar o'tkazildi.

Vakil asta-sekin fuqarolarning arizalarini kompleks tahlil etish tizimini yaratishga o'tmoqda. Axborot tizimini kengaytirish uchun internet tarmog'iga ulanish amalga oshirildi, internetda uch tildagi (o'zbek, rus, ingliz) Ombudsman sahifasi ochildi. YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiya bilan hamkorlikda «Inson huquqlari va axborot texnologiyasi» seminari o'tkazildi.

Ombudsman instituti ish boshlagandan buyon, 100dan ortiq xalqaro tadbirlar o'tkazildi. Vakil, shuningdek, Qizil Koch xalqaro qo'mitasi, Notijorat huquq bo'yicha xalqaro markaz, Xyuman Rays Voch, Amnesti

Interneyshnl va boshqa nodavlat xalqaro tashkilotlar bilan ham faol hamkorlik qilmoqda.

Xorijiy matbuot vositalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Vakilning «BBS», «Amerika ovozi» radiostansiyalarining vakillari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Ombudsman huzurida maslahat kengashi tuzildi. U inson huquqlari bo'yicha milliy va xalqaro tashkilotlarning vakillaridan tuzilgan.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning vakili (Ombudsman) obro'li xalqaro tashkilot bo'lmish – Xalqaro Ombudsman institutining ovoz huquqiga ega a'zosidir. Shuningdek, Buyuk Britaniya, Latviya, Niderlandiya, Polsha, Ukraina, Shvetsiya davlatlarining Ombudsmanlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

**15-BOB**  
**INTERPOL: TASHKIL ETILISHI, VAZIFALARI VA  
FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI**

**15.1. Interpolning nizomi va vazifalari**

*Interpol*, ya'ni Jinoyat politsiyasi xalqaro tashkiloti (JPXT) milliy politsiya muassasalarining vakillaridan tashkil topgan bo'lib, politsiya organlarining o'zaro ish aloqalarini o'rnatishni, jinoyatchilikka qarshi kurashda barcha milliy huquqni muhofaza qilish organlarining kuchlarini birlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Interpol o'n minglab jinoyatchilarning kartotekasini yuritadi va ulardan ko'pini fosh etish hamda zararsizlantirishda ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritgan.

Interpol nizomi uning a'zolarining maqsadlari, huquqlari va majburiyatlarini, organlarining tuzilishini, budget manbalarini hamda Interpolning boshqa tashkilotlar bilan munosabatini belgilab beradi.

Interpol nizomining 4-moddasiga ko'ra, o'z mamlakatlari nomidan vakil qilingan rasmiy politsiya organlari, basharti ularning funksiyalari Interpol faoliyati doirasidan tashqariga chiqmasagina, bu tashkilotga a'zo bo'lishlari mumkin. Bu siyosiy, milliy, xalqaro masalalar bilan shug'ullanuvchi (jumladan, kontrrazvedka) politsiya tashkilotlarining Interpolga a'zo bo'lishlarini istisno qiladi.

1998 yil 1 iyulga kelib 185 davlat Interpol a'zosi edi. Uning a'zolari sonining o'sishi faoliyatidagi yutuqlar bilan izohlanadi.

*Bosh assambleya* – Interpolning oliv tashkiliy-huquqiy instansiysi. Uning tarkibiga barcha milliy politsiya organlarining delegatlari kiradi. Har bir davlatning delegatsiyasi bir yoki bir necha odamdan tashkil topishi mumkin. Delegatsiya rahbari o'z mamlakatining hukumat organlari tomonidan tayinlanadi. Ko'p davlatlar o'z mamlakatlari politsiyalarining Interpolga kirganligini hukumat rahbarining yoki ichki ishlar vazirining qo'shimcha imzolagan hujjatlari orqali qayd etib qo'yadilar. Ba'zi davlatlar uni qonunchilik yo'li bilan rasmiylashtiradi (Argentina, Boliviya, Marokko, AQSH va boshq.).

Bosh assambleya sessiyasi yiliga bir marta chaqiriladi. Lekin Nizomda favqulodda sessiya chaqirish imkoniyati ham ko'zda tutilgan.

Barcha xalqaro tashkilotlar kabi Interpolning manfaatlari ham hamma qit'alarga taalluqli. Bu har bir holda ularga sharoitdan kelib chiqib, individual yondashishni talab qiladi. Bundan tashqari, Interpolning faoliyatiga a'zolar sonining tez o'sishi ham ta'sir qildi. Bosh assambleya sessiyalari alohida davlatlar yoki davlatlar guruhining muammolarini yechib

bera olmasligi ma'lum bo'lib qoldi. Shuning uchun 60 yillarning boshida JPXTning yordamchi sessiya organlari sifatida hududiy konferensiyalarni chaqirish amaliyoti shakllanadi.

Tashkilotlarning o'ziga xosligini hisobga olib, Nizom (7-modda) shuni nazarda tutadiki, milliy delegatsiyalar tarkibiga zarur kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan, politsiya muassasalarida mas'ul lavozimlarni egallagan shaxslar, shuningdek, kun tartibidagi masalalar bo'yicha mutaxassislar kirishi kerak.

Barcha delegatsiyalar bitta ovozga ega. Qarorlar esa ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Tashkilotning prezidentini saylash va Nizomni o'zgartirish masalalari bundan mustasno. Mazkur hollarda qaror ovozlarning uchdan ikki qismi bilan qabul qilinadi. Lekin Bosh assambleya sessiyalarida a'zolarning yuz foiz qatnashishlarini ta'minlab bo'lmayapti.

Ko'pincha Bosh assambleya sessiyalarida BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning vakillari kuzatuvchi sifatida qatnashmoqdalar. Har yilgi sessiyalarning ochilishi tantanali ravishda bo'lib o'tadi. Ular davlat rahbarlari yoki premyer-ministr tomonidan ochib beriladi va keng reklamatarga ega bo'ladi. Har bir davlat politsiya organlarining Interpoldagi ishtiroki haqidagi hisobot o'sha davlatning taniqli hukumat arboblari tomonidan parlamentda o'qib eshitiriladi.

Nizomning 8-moddasiga binoan, Bosh assambleya quyidagilarni amalga oshiradi:

- tashkilotning faoliyat prinsiplarini belgilaydi va uning nizomidagi vazifalarni bajarishga ko'maklashuvchi tadbirlarni ishlab chiqaradi;
- Kotibiyat taqdim etgan yillik ish rejasini ko'rib chiqadi, qarorlar qabul qiladi, Interpolning mansabdar shaxslarini saylaydi;
- o'z vakolatlari doirasida tashkilotning alohida a'zolariga tavsiyalar beradi;
- moliaviy masalalarni ko'rib chiqadi, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik masalalarini muhokama etadi va qaror qabul qiladi.

Bosh assambleya turli masalalar bo'yicha doimiy va vaqtinchalik qo'mitalar tuzadi. Bunday qo'mitalar, qisman, tashkilotning Nizomini o'zgartirish haqidagi masalani ko'rib chiqish uchun tuziladi.

Har bir sessiyaning oxirida Bosh assambleya bir qancha takliflar ichidan ovoz berish yo'li bilan tanlab olib, keyingi sessiya o'tkaziladigan shaharni aniqlaydi.

*Interpolning ijroiya qo'mitasiga* tashkilotning prezidenti rahbarlik qiladi. Bu qo'mita o'z ichiga uchta vitse-prezident va to'qqizta a'zoni oladi. Qo'mitaning 13 ta a'zosi turli mamlakatlar politsiyalarining va iloji boricha barcha qit'alarning namoyondalari bo'lishlari kerak (Nizomning

15-moddasi). Prezident to'rt yilga, vitse-prezidentlar va qo'mita a'zolari uch yilga saylanadilar. A'zolar bir mamlakatning emas, balki tashkilotning vakillari sifatida o'z majburiyatlarini ado etadilar.

*Tashkilotning prezidenti* Bosh assambleya va Ijroiya qo'mitagaga rahbarlik qiladi. Barcha Interpol organlarining faoliyati qabul qilinayotgan qarorlarga mos bo'lishini kuzatadi, Bosh kotib bilan aloqada bo'ladi. Interpol prezidentlari – odatda prezidentlikka saylangunlaricha o'z politsiyalarining obro'li professional rahbarlari va turli sessiyalarda o'z delegatsiyalarining boshliqlari bo'lgan kishilar bo'lishadi yoki Ijroiya qo'mitaning a'zolari yoxud vitse-prezidenti bo'lib ishlagan bo'ladilar. Ular o'z lavozimlaridan bo'shangach, mamlakatdagi katta politsiya mansablarini egallaydilar yoki xususiy xizmatlarga rahbarlik qiladilar. Masalan, Interpolning sobiq prezidenti R.Jekson ingliz xususiy qidiruv firmasi «Sekyurkor»ning vitse-prezidenti bo'lib ko'p yillar ishlagan.

Nizomning 22-moddasiga muvofiq, Ijroiya qo'mitaning vazifalari quyidagicha:

- a) Bosh assambleyaning qarorlari bajarilishini nazorat qilish;
- b) Bosh assambleya majlisining kun tartibini tayyorlash;
- v) Oliy kongressga ish rejalarini va takliflarni taqdim etish;
- g) Bosh kotibning faoliyatini nazorat qilish;
- d) Bosh assambleya o'ziga yuklagan vazifalarni bajarish.

Ijroiya qo'mita yiliga kamida bir marta chaqirilishi kerak (20-modda). Lekin ko'pincha u ikki yilda bir marta chaqirilmoqda.

*Bosh kotibiyat* Interpolning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi xizmatidir. Tashkilot Nizomining 26-moddasida ko'rsatilganidek, u:

- muntazam ravishda Bosh assambleya va Ijroiya qo'mitaning qarorlarini hayotga tatbiq etadi;
  - jinoyatchilikka qarshi kurashishning xalqaro markazi hisoblanadi, maxsus axborot markazi sifatida harakat qiladi;
  - tashkilot nomidan maxsus vakolatlarga ega, milliy va xalqaro tashkilotlar bilan aloqada bo'ladi;
  - milliy politsiya muassasalari orqali jinoyatlarni tergov qilishga ko'maklashadi;
  - Interpolning nashrlarini tayyorlaydi va chiqaradi;
  - Bosh assambleya, Ijroiya qo'mitaning majlislari paytida kotibiyat vazifasini bajaradi;
  - har yilgi ish rejalarini tuzadi;
  - tashkilotning prezidenti bilan doimiy ravishda bevosita aloqa qiladi.
- Interpol Bosh kotibiyatining Nizomda ko'rsatilgan vakolatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) bevosita jinoyatchilikka qarshi kurashga yo'naltirilgan politsiya faoliyatini muvofiqlashtirish. U axborotlarni markazlashtiradi, eng muhim xabarlarni ajratib oladi, turli manbadan olingen xabarlarni sintez qiladi, manfaatdor a'zolarga jo'natadi, yig'ma hisobotlar tuzadi;

2) ilmiy tadqiqotlar va rejalashtirishni amalga oshiradi. Interpolning maxsus kutubxonasi va turli tillardagi jurnalni ushbu maqsadlarga xizmat qiladi;

3) Interpol turli organlarining kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladi, ularning kelgusi va hozirdagi ish faoliyati vositalarini, mablag'lарини belgilab beradi, Interpol a'zolarining doimiy aloqasini, ularni texnik vositalar bilan ta'minlaydi.

Bosh kotibiyatga besh yil muddatga tayinlanadigan Bosh kotib rahbarlik qiladi. U Bosh assambleya tomonidan, Ijroiya qo'mitaning taklifiga binoan, tayinlanadi. Nizom bu lavozima oly malakali, 65 yoshdan oshmagan shaxsni tanlashni tavsiya qiladi. Apparatda 20 dan ortiq mamlakatlarning vakillari ishlaydi.

Bosh kotib va uning qo'l ostidagilari o'z faoliyatida mustaqildirlar. Ular hukumat tashkilotlariga bo'yusunmaydi «Ular o'zlarining xalqaro vazifalarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi har qanday harakatlarning oldini olishlari shart.

Tashkilotning har bir a'zosi Bosh kotib va uning xodimlari tomonidan bajarilayotgan vazifalarning xalqaro ahamiyatini hurmat qilishlari zarur, ularga o'z vazifalarini bajarayotgan paytlarida ta'sir o'tkazmasliklari va ularni har qanday usullar bilan qo'llab-quvvatlashlari shart» (Nizomning 30-moddasi).

Apparat xodimlarining aksariyati turli mamlakatlar politsiyalarining tajribali xodimlaridir. Interpol xodimlarining doimiy shtatlari yildan yilga ko'payib bormoqda. Bunga nizomda yo'l qo'yilgan. Nizom turli mamlakatlarning politsiyachilariga jinoyatchilikka qarshi kurashda o'z mahoratlarini ko'rsatishga imkon bergen.

## 15.2. Interpolning rivojlanishi

1923 yilning 3 sentabrida Jinoyat politsiyasi xalqaro kongressi to'plandi. U Vena shahrida 20 mamlakatning 183 politsiya organlari delegatsiyasi ishtirokida o'tdi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda dunyo mamlakatlaridagi turli politsiya tashkilotlarining bevosita va doimiy aloqalarini o'rnatishga qaror qilindi.

Vena kongressining kun tartibida quyidagi masalalar bor edi:

1) jinoyat politsiyasi organlarining davlatlararo aloqalarini tashkil qilish;

2) jinoyatlarga qarshi kuchli kurashni yo'lga qo'yish;

**3) hibsga olingen jinoyatchilarni bir-birlariga berish va mamlakatdan chiqarib yuborish;**

**4) politsiya organlarining xalqaro ish tilini qabul qilish;**

**5) alkogolizmga va giyohvandlikka qarshi kurash;**

**6) kriminalistika fanini rivojlantirish.**

Kongress ishtirokchilarining turli xizmatlardan tashkil topgan tarkibi ikkita muhim qaror qabul qildi:

**a) mamlakatlarning politsiya xizmatlari o'rtasida bevosita aloqalar o'rnatishning zarurligi;**

**b) xalqaro politsiya tashkiloti tuzish to'g'risida.**

Shunda bo'lajak tashkilotning nizomi qabul qilingan edi. Avstriya vakili B.Shuls, uni Jinoyat politsiyasi xalqaro komissiyasi (JPXK) deb atashni taklif qildi. Kongressda jami 29 ta maxsus ma'ruza o'qildi. Ularda jinoyatchi umuminsoniy osoyishtalikni buzganligi uchun hech qayerdan panoh topmasligi zarurligi qayd etib o'tilgan edi. Yana jinoyatchi qaysi davlatda jinoyat qilganligi va qaysi davlatda qo'lga tushganligidan qat'i nazar, javobgarlikka tortilishi zarurligi haqidagi fikr ham targ targ 'ib etildi.

Shunday qilib, 1923 yil 7 sentabrda Nizom qabul qilingan kundan boshlab, Interpolning tarixi boshlanadi. Lekin 1923 yilda xalqaro komissiya hali mustaqil tashkilot emas, balki butun jahon politsiya kongressining organi sifatida tashkil etilgan edi.

Nizomning 1-moddasiga ko'ra, JPXKning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat edi:

**a) barcha mamlakatlardagi xavfsizlik organlarining o'zaro xizmat yordamini rasmiylashtirish;**

**b) jinoyatchilikka qarshi muvaffaqiyatli faoliyat olib boradigan muassasalar tuzish.**

Tarkib va vakillik haqida 3-moddada shunday deyilgan edi: «Jinoyat politsiyasi xalqaro komissiyaning a'zolari Venada yig'ilayotgan kongress tomonidan shunday saylanadilarki, har bir davlat hech bo'limganda bir vakilga ega bo'ladi. Kongressda vakilligi bo'limagan davlatlar hukumati o'z vakillarini tanlash uchun taklif qilinadilar. Bundan keyin barcha nomzodlar komissiya a'zolari bo'lishlari mumkin, basharti ularning komissiya ishlarida yordamlari tegishga asos bo'lsa. Bunday nomzodlarning komissiya a'zoligiga qabul qilinishi haqidagi masala ko'pchilik ovoz bilan hal qilinadi».

Avvaliga JPXKning yaratilishiga qalbaki pul yasovchilarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik asos qilib olingenligidan kelib chiqib, qalbaki pul yasovchilarga qarshi kurashning xalqaro markazi tuzilgan edi.

1924 yilning may oyida JPXKda quyidagi bo'limlar tashkil qilindi: xalqaro jinoyatchilar haqida axborotdar markazi; yashirinib yurgan

jinoyatchilarни топиш маркази. Шу йилнинг о'зидаги ушбу ташкilotда ойлик нашр «Халқаро жинойат полисијасининг журнали» chop etila бoshlandi, 1926 yildan boshlab esa ijtimoiy xavfli shaxslarning xalqaro hisob bo'limi ish boshiadi.

1930 yilda Jinoyat politsiyasi xalqaro komissiyasi mustaqil ish boshladi. Bundan keyin JPXKning Bosh assambleyasi har yili chaqiriladigan bo'ldi va yanada kengroq masalalarni ko'rib chiqsa boshladi. Qalbaki pul yasovchilarga, «jonli tovar» bilan savdo qiluvchilarga qarshi kurash metodlarini cheklash, narkotiklar tashish imkoniyatlarini cheklash, xalqaro firibgarlar va o'g'rilariga qarshi kurash kabilalar jumlasidandir.

Tashkilot o'z deklaratsiyalarida «qonunlarni universal qo'llash», «internatsional jinoyat yurisdiksiyasini yo'lga qo'yish», fuqaroligidan qat'i nazar, jinoyatchi qaysi davlatda qo'lga tushgan bo'lsa, o'sha davlatda sud qilinishiga chaqira boshladi. 1939 yilda Berlinda o'tkazilishi kerak bo'lgan tashkilotning syezdi urush tufayli o'tkazilmay qoldi.

Avstriya Germaniyaga qo'shib olingach, JPXKning materiallari Berlinga olib ketildi va Berlindagi Vanza villasi ушбу ташкilotning shtab-kvartirasiga aylandi. Urush paytida ko'plab arxiv materiallari yo'qolib ketdi va faqat 1946 yilda mazkur tashkilot o'z ishini qaytdan davom ettira boshladi.

JPXKning yangi nizomini ishlab chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Shtab kvartira endilikda Parijga ko'chirildi. 1947 yilda Jinoyat politsiyasi xalqaro komissiyasi Oliy kongressining navbatdagi sessiyasi chaqirildi. U JPXKning nomini Interpol deb o'zgartirdi. Buning muallifi ушбу соҳада ishlayotgan italyan jurnalistlarining bir guruhiadir.

Jinoyatlarga qarshi xalqaro kurashish dunyo davlatlari ko'pchiligining e'tiborini torta boshladi. BMT ушбу ташкilotga nohukumat konsultativ maqomini berdi. Bu uning butun jahon tomonidan tan olinishiga sabab bo'ldi.

Venadagi 25-kongressda 1956 yilning 13 iyunidan kuchga kirgan va hozir amalda bo'lgan Interpolning yangi nizomi qabul qilindi. U Bosh assambleyaning har yilgi majlislari har gal turli davlatlarda o'tkazilishini nazarda tutadi.

1960 yilda majlis birinchi marta Yevropa qit'asidan tashqarida, Washingtonda o'tkazildi. Bosh assambleyaning keyingi sessiyalari Osijo davlatlarida o'tkazila boshlandi, uning shtab-kvartirasi esa Lionga ko'chib o'tdi.

80-yillarning o'rtasidan boshlab Interpol «Jinoyatchilikni to'xtatish» dasturini keng reklama qila boshladi. Bu dastur 25 yilga mo'ljallangan edi.

Unda terrorizm, kontrabanda, narkobiznes, qalbaki pul yasashga qarshi kurash masalalari kiritilgan.

1990 yilda Interpolga sobiq SSSR ham kirdi. U tugab ketgach esa SSSR tarkibidagi respublikalar ham Interpolga a'zo bo'ldilar. O'zbekiston Respublikasi 1994 yilda Interpolga a'zo bo'ldi va Osiyo qit'asidagi subyektlar o'ttasida katta rol o'ynay boshladi.

### **15.3. Interpol ishining yo'naliishi va O'zbekiston Respublikasining u bilan hamkorligi**

Jinoyatchilikning o'sishi eng xavfli jinoyat turlariga karshi kurashda xalqaro o'zaro yordam zaruratini yuzaga keltirdi. Bunday o'zaro yordam quyidagilardan kelib chiqadi:

*birinchidan*, davlatlararo kommunikatsiyalarning rivojlanishi, chegara protsedralarining oddiylashtirilishi, xalqaro turizm va boshqa aloqlarning rivojlanishi bilan jinoyatchilarning bir mamlakatdan boshqasiga o'tishlariga katta imkoniyatlar tug'ildi;

*ikkinchidan*, uyushgan va professional jinoyatchilik o'sib bormoqda;

*uchinchidan*, ko'p davlatlar uchun kontrabanda, narkotiklar, qurol savdosi, terrorizm, bolalar va ayollarni sotish jinoyatlarining olibini olish muhim bo'lib qoldi;

*to'rtinchidan*, yashiringan jinoyatchilarni qidirish, topishning yanada qat'iyroq protsessual bixilligi zarur bo'lmoqda.

Interpolning tuzilishi unchalik murakkab emas. Bosh assambleya Bosh kotibiyatida to'rtta bo'lim bor: 1) umumiy ma'muriyat; 2) jinoiy ishlari; 3) ilmiy tadqiqot; 4) tahririyat-noshirlilik.

Birinchi bo'limni ma'muriy-texnik bo'lim deb atash ham mumkin. U moliya-budget, texnik ta'minot, aloqa vositalari, Interpol organlarining hujjatlari kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Bular asosan tashkilotning ichki ishlariadir.

Ikkinci bo'lim Interpol tizimidagi muhim organ hisoblanadi. Uning bo'linmalari turli jinoyatlar bilan shug'ullanadi:

a) qotillik, bosqinchilik, bola o'g'irlash, garovga olish;

b) firibgarlik, pullarni, rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirish, san'at asarlari, qadimiy buyumlarni kontrabanda qilish;

v) narkotiklar sotish va ularni kontrabanda qilish, fohishabozlik va axloqqa qarshi boshqa jinoyatlar;

g) qalbaki pul yasash va o'tkazish.

Interpolning jinoyatlar va jinoyatchilar haqidagi axborotlar operativ banki mayjud. Undagi 3 mln.dan ortiq jinoyatlar haqidagi hujjatlar saqlanadi. Unda barcha materiallar fransuz tilida saqlanadi.

Interpol kartotekasi uch guruhga bo'linadi: 1) alohida jinoyatchilar haqidagi hujjatlar; 2) suratlar to'plami va jinoyatchilarning daktiloskopik kartasi; 3) xalqaro tusdagi jinoyatlar haqidagi hujjatlar. Ushbu kartotekadan turli jinoyatlar haqidagi xilma-xil ma'lumotlarni olsa bo'ladi.

Uchinchi bo'lim axborot va ilmiy-tadqiqot markazidir. Uning xodimlari politsiya xizmatlarining yangi metodlarini o'rGANADILAR va umumlashdirilar, turli aloqalarni yo'lg'a qo'yadilar. Bo'limning rejasiga ko'ra, ilg'or politsiya tajribalarini almashish bo'yicha xalqaro seminarlar o'tkaziladi.

To'rtinchchi bo'lim Interpolning «Jinoyat politsiyasi xalqaro sharhi» degan jurnalini chiqaradi. Uning hajmi 200 bet bo'lib, ikki oyda bir marta chiqariladi. U bilan birga «Qalbaki va qo'lدا yasalgan» bulleteni chiqadi. Bu «Jinoyat politsiyasi xalqaro sharhi» jurnalining ilovasi bo'lib, Interpol oladigan 180 dan ortiq maxsus jurnallardan olingan maqolalarning eng qiziqarlilarni nashr etadi.

«Axborot bulleteni» bir necha tillarda qalbaki pullar va metall pullarning belgilarini nashr etadi. Shuningdek, «Politsiyachining ma'lumotnomasi» nashr etiladi. Jinoyatlar statistikasining oylik tahibili ham nashr etiladi.

Interpolga kiradigan mamlakatlarda axborot tarqatish uchun Bosh assambleya bir necha xabarnomalar tarqatadi:

1) turli maqsadlarda tarqatiladigan individual xabarnomalar. Masalan, «qidirilmoxda» xabarnomasi Interpolga a'zo mamlakatlar huquqini muhofaza qilish organlarining iltimosiga ko'ra chiqariladigan, biror jinoyatchini hibsga olish va qidirilayotgan davlatga berish uchun tarqatiladi; «diqqat» xabarnomasi turli mamlakatlarda mavjud bo'lgan professional jinoyatchilar haqida axborot beradi; «Shaxsi noma'lum jasad» xabarnomasi murdani tanib olish uchun chiqariladi. «Xalqaro jinoyatchi qidirilmoxda» xabarnomasi barcha a'zo-davlatlar tomonidan hibsga olish uchun xalqaro rasmiy order sifatida ko'rildi.

2) o'g'irlangan mulk haqidagi xabarnoma. U iloji boricha o'g'irlangan predmetlarning surati bilan birga bo'lishi loz'im. Chunki san'at asarlarini so'z bilan tasvirlash juda mushkul;

3) «modus operandi» xabarnomasi. U xalqaro jinoyatlarning boshqa mamlakatlarga yoyilib ketishi mumkin bo'lgan yangi yoki g'ayrioddiy belgilarini batafsil ko'rsatadi;

4) sirkular xatlar, izohli ma'ruzalar va risolalar. Ular jinoyatlar va jinoyatchilarning ba'zi tiplari haqida turli axborotlar beradi.

Interpolda so'rovnomalarning maxsus blanklari ishlab chiqilgan. Ularning burchagida rangli kvadratlar bosilgan.

*Qizil kvadrat* – jinoyatchini qamash va boshqa davlatga berishning o'ta zarurligi, *havo rang kvadrat* – jinoyatchi shaxsi yoki jinoyat haqida ma'lumotlarni zudlik bilan yuborish, *yashil kvadrat* – kuzatuvdagi shaxslar haqida ma'lumot kerak, *qora kvadrat* – jasadning shaxsini aniqlash uchun ma'lumotlar zarur, degan ma'nolarni beradi.

Rangli kvadratga ega hujjatlar, ayniqsa, qizil ranglisi juda sinchiklab o'rganib chiqiladi va shundan so'ng rang indeksi qo'yiladi. Qizil rangli sirkular xatni chiqarishdan oldin Interpol zarur dalillar borligi va quyidagi uch shart mavjudligiga ishonch hosil qilishi kerak:

1) huquqbuzarlik har qanday mamlakatning qonunlari bo'yicha jinoyat ekanligi;

2) qamoqqa olish haqidagi buyruq yoki order berilganligi;

3) qidirayotgan odam ushlanganligi ma'lum bo'lishi bilanoq, qamoqqa olishni talab qilayotgan mamlakat ekstraditsiya jarayoniga kirishishi.

Bu kartochkalar bilan birga, Interpolda «qidiruv varaqalari» mavjud. U yo'qolgan qimmatbaho buyumlarni qidirish uchun ishlatiladi. Bunda o'g'irlangan, hali iziga tushilmagan san'at asarlari yoki zeb-ziynatlar nazarda tutilmoqda. Ular haqidagi xabarlar jinoyat-qidiruv xizmatlari va bojaxonalarga jo'natiladi.

Interpol tarkibida Nazorat komissiyasi mavjud. U arxivlardagi muayyan shaxs haqidagi ma'lumotlar:

a) Interpol Nizomi asosida olinishi va ishlatilishini;

b) faqat belgilangan maqsadda foydalanihini;

v) aniq bo'lishini;

g) Interpolda ko'rsatilgan muddatga saqlanishini nazorat qiladi.

Interpol Nizomining 36-moddasiga ko'ra, maxsus bilimlar talab qilinadigan masalalarni ishlab chiqish va tayyorlash uchun turli mamlakatlardan professional xodimlar, olimlar chaqirilishi mumkin. Ular maslahatchi-konsultant sifatida jalb qilinadilar va Ijroiya qo'mita tomonidan uch yilga saylanadilar. Maslahatchilar o'z mehnatlari bilan tashkilotni qiziqtirayotgan sohada xalqaro obro' topgan shaxslardan tanlab olinadi.

Doimiy maslahatchilar instituti bilan birga, Interpol a'zolariga ilmiy-texnik yordam ko'rsatish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi. Bunday o'zaro yordam turlari quyidagicha:

– o'quv kurslari va ilmiy seminarlar. Amaliy seminarlar yiliiga ikki marta o'tkaziladi;

– maxsus stipendiyalar (Interpol o'quv kursini tugatganlarga stajirovkani Bosh kotibiyat yoki o'z mamlakatida emas, balki boshqa biror

mamlakatning Milliy markaziy byurosida o'tkazish maqsadida xorijiy politsiya maktablariga komandirovka qilinganlar uchun);

– ekspertlar bilan ta'minlash (Interpol shtab-kvartirasi o'z hisobidan milliy byurolarga yuqori malakali ekspertlarni so'rovnomasida darhol yuboradi);

– texnik uskunalar (Interpol a'zolariga millatlararo va shtab-kvartira bilan aloqa uchun uskunalar. Ular Interpol kreditlari hisobidan bo'ladi);

– alohida davlatlarning politsiya organlari va ilmiy muassasalariga yordamning boshqa shakllari.

#### **15.4. O'zbekiston Respublikasi Interpol Milliy markaziy byurosining tashkil etilishi va faoliyati**

Interpolga kirgan har bir davlat politsiya xizmatlarining Milliy markaziy byurolari (MMB) tuzilgan. Ular «o'z mamlakatlari qonunlari doirasida Interpolning faoliyatiga yordam berish uchun hamma ishni qilishlari kerak» (Nizomning 31-moddasi).

Har bir mamlakatning Milliy markaziy byurolari ushbu mamlakatning xohlagan politsiya muassasasi bo'lishi mumkin. Masalan, Braziliyada Interpol bilan aloqa qilish uchun xalqaro jinoyat politsiyasi ma'muriyati tuzilgan, Buyuk Britaniyada Skotland Yard bo'linmalaridan biri, Islandiyada – yustitsiya departamenti, AQSHda ikki organ – Moliya vazirligining maxfiy xizmati va ushbu idoranining narkotiklar bo'yicha byurosi, GFRda – Federal politsiyaning xorijiy bo'limi bu vazifani bajarmoqda.

Lekin, eng asosiyisi, Milliy markaziy byurolarni tashkil etish o'zini oqladi. Ular ilk bor 1927–1928 yillarda Amsterdam, Berlin, Bryussel, Vena va Parijda tuzilgan edi. Politsiya organlarining xalqaro hamkorligi juda nozik ish. Bu hamkorlik Milliy markaziy byuroda yuqori malakali xodimlar bo'lishini talab qiladi.

Interpol Nizomining 32-moddasiga ko'ra, Milliy markaziy byurolar uch yo'nalishdagi doimiy aloqalardan foydalananadilar:

- 1) o'z mamlakatlарining turli muassasalar bilan;
- 2) boshqa mamlakatlarning Milliy markaziy byurolari bilan;
- 3) Interpol Bosh kotibiyati organlari bilan.

Milliy markaziy byurolar alohida mamlakat doirasidan chiqib ketadigan xavfli jinoyatlar haqidagi axborotlarni to'playdilar. Interpolning topshirig'iga ko'ra, Milliy markaziy byurolar jinoyatchilarni qidirish, topish va hibsga olish haqida o'z mamlakatlarning politsiyalariga buyruq va ko'rsatmalar beradilar, o'z mamlakatlarning yashirinib yurgan jinoyatchilarni topish va ushslash to'g'risidagi iltimosini Interpolga yetkazadilar.

Milliy markaziy byurolarning muayyan vazifalariga, xususan quyidagilar kiradi:

- xalqaro qidiruv e'lon qilish;
- Interpol doirasida qidiruv e'lon qilingan jinoyatchilarni berish, so'roq qilish va ularga nisbatan boshqa harakatlarga taalluqli tadbirlarni o'tkazish.

Umuman olganda, Milliy markaziy byurolar Interpol a'zolari bo'lgan davlatlar o'rtaсидаги доимий алоқа органидир. Milliy markaziy byurolarning harakatlari tezkor va samaralidir.

Yuqoridagilarni hisobga olib, 1994 yil 29 noyabrda Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan (573-son), Ichki ishlar vazirligi tarkibida Interpolning O'zbekiston Respublikasidagi Milliy markaziy byurosi tashkil etildi. Bu byuro mamlakatimiz huquqni muhofaza qilish organlariga quyidagilarda yordam beradi:

- narkotiklarning g'ayriqonuniy muomalasi, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, firibgarlik, qalbaki pul yasash, iqtisodiy jinoyatlarning oldini olishda;
- respublikada jinoyat qilib, xorijda yashirinib yurgan jinoyatchilarni qidirishda;
- O'zbekiston fuqarolarining huquq va manfaatlarini ta'minlovchi axborotlarni xorijdan olishda.

In'terpol Milliy markaziy byurosining yordamida xalqaro jinoya'shilikkka qarshi kurash tajribalari olinmoqda, jinoyatlarning oldini olishning yangi metodlari va shakllari o'zlashtirilmoqda. Tegishli normativ bazani yaratish maqsadida 1995 yil 28 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 287-sonli buyrug'i chiqdi. Ushbu buyruq Interpol Milliy markaziy byurosi va Ichki ishlar vazirligi axborot markazining o'zaro hamkorligi tartibini belgilab berdi.

1995 yil 23 noyabrda esa 323-sonli buyruq O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining Interpol yo'nalishi bo'yicha so'rvonomalar va topshiriqlarni bajarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani belgilab berdi.

Byuroning Ichki ishlar vazirligidagi manfaatdor xizmatlar bilan hamkorligi ham belgilab berilgan va amalga oshirilmoqda. Bu, birinchi navbatda, jinoyat qidiruv Bosh boshqarmasi (xalqaro qidiruv masalalari bo'yicha), Korrupsiya, reket va terrorizmga qarshi kurash bosh boshqarmasiga taalluqlidir. Shuningdek, Xorijga chiqish-kelish va fuqarolik boshqarmasi, Tashkiliy inspektorlik boshqarmasi, DANBB, Jinoyatlarning oldini olish boshqarmasi bilan hamda O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi, Tashqi ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa vaziriiklar hamda idoralar bilan ham hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Milliy markaziy byuroning har yilgi hujjatlar aylanishi o'z ichiga minglab so'rovnomalari, sirkularlar, xabarlar, qidirilayotgan jinoyatchilar va bedarak yo'qolganlar haqidagi xabarnomalarini oladi. Milliy markaziy byuro axborotlari bo'yicha o'g'irlangan avtoulovlar qidiriladi, O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat qilgan va boshqa davlatlarda yurganlar ushlanadi.

Ichki ishlar vazirligining tegishli xizmatlari bilan hamkorlikda qo'shmachilik bilan shug'ullanib, O'zbekiston Respublikasidan «yengiltak» ayollarni Bahrayn, Birlashgan Arab Amirligi, Turkiyaga yetkazib turgan jinoyatchilar guruhi fosh etilgan edi.

AQSH elchixonasining murojaatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasidan noqonuniy ravishda AQSHga ishchi kuchi yetkazib berayotgan firibgarlar guruhi faoliyatining oldi olindi. «Sovplastital» aksionerlik jamiyati rahbariyatining 250 ming dollar qarzni qaytarib olishga yordam so'rab murojaat etishi natijasida, Buyuk Britaniya va Germaniya fuqarolari aniqlandi va ular Bavariya (GFR)da qamoqqa olindi.

Toshkent shahar prokuraturasining topshirig'i bilan Buyuk Britaniyaga dam olishga qalbaki «staymsher»lar – yo'llanmalarini sotayotgan Buyuk Britaniya fuqarolari aniqlandi va h.k.

Bank sohasidagi firibgarliklarning oldini olish maqsadida Milliy markaziy byuro Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligiga, bankiga va boshqa manfaatdor muassasalariga bankdagi pul vositalarini talon-taroj qilishning, qalbaki pul yasashning usullari va ularga qarshi kurashish metodlari, ishonchli bo'limgan xorijiy firmalar to'g'risidagi axborotlarni yuborib turadi.

Milliy markaziy byuroda maxsus ma'lumotlar bazasi yaratilgan, Interpol tajribasi keng o'rganilmoqda. Milliy markaziy byuro xodimlari Pekindagi Bosh assambleyaning 64-sessiyasiga, Xalqaro terrorizm bo'yicha 10-simpoziumga va Noqonuniy olingen pul vositalari bo'yicha 5-xalqaro kengashga qatnashib keldilar. Tajriba almashish uchun xodimlar Interpol Bosh assambleyasining 21-seminariga bordilar.

Interpol bosh kotibiysi O'zbekiston Respublikasi Interpol Milliy markaziy byurosiga doimiy yordam bermoqda. Mamlakatimizga 1995 yil sentabrda kotibiyat vakili Iqbol Rizviy keldi. O'shanda Milliy markaziy byuroning O'rta Osiyoda narkotiklarga qarshi kurash ishi muvofiqlashtirildi. AQSH va Pokistonning bu boradagi tajribalari almashildi. O'zbekiston Milliy markaziy byurosiga moddiy-texnik yordam ko'rsatish ham Bosh kotibiyatning rejalariga kiritilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Interpol Milliy markaziy byurosi quyidagilar bilan shug'ullanadi:

– xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha rasmiy va maxfiy (operativ qidiruv) xabarlarining almashinuvini ta'minlaydi;

– Bosh kotibiyat va Interpol Milliy markaziy byurolariga O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatlar, jinoyatchilar haqidagi xabarlarni yuborish to'g'risidagi iltimoslarini yo'llaydi;

– O'zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatlar va jinoyatchilar haqidagi xabarlarni jo'natish to'g'risidagi iltimoslarini Bosh kotibiyat va boshqa Milliy markaziy byurolarga yuboradi.

– Bosh kotibiyat va Milliy markaziy byurolarning shunday iltimoslarini qabul qiladi, tarjima qiladi, O'zbekiston Respublikasining tegishli organlari orqali shaxslarni, predmetlar va hujjatlarni aniqlash bo'yicha, yuridik va jismoniy shaxslarni tekshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

– bunday so'rovlarning sifati va muddatini nazorat qiladi;

– zarur bo'lganda Bosh kotibiyat va Milliy markaziy byurolarga O'zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolar qilgan jinoyatlar, qo'lga olinganlar, sudlanganlar haqida xabar beradi;

– O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarining axborotlari asosida Interpol faoliyatiga oid hisobotlarni tuzadi va ularni Bosh kotibiyatga yuboradi;

– O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarining hamkc.ligi jarayonida olingan shaxslar, faktlar, predmetlar, hujjatlar haqida ma'lumotlar bankini yaratadi. Milliy markaziy byurodagи operativ ma'lumot hisobotlarini IIV, Interpol tavsiyalarini hisobga olgan holda yuritadi;

– huquqni muhofaza qilish organlarini jinoyatchilikka qarshi xalqaro kurash talablari va shartlari, jinoyatlarning oldini olish va ularni ochish bo'yicha hamkorlik amaliyoti haqida xabardor qiladi, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

– o'z vakolatlari doirasida tashkilotning faoliyatini takomillashtirishga, Interpol Bosh assambleyasining qarorlari va tavsiyalarini bajarishga ko'maklashadi;

– Bosh kotibiyat kutubxonasidan a'zo mamlakatlarning zarur qonun hujjatlari va normativ hujjatlarni, xorijiy politsiyalar faoliyati haqida xabarlarini oladi, shunday axborotlar fondini yaratadi;

– Interpol va boshqa davlatlar politsiyalarining jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikka tegishli materiallari bo'yicha tahliliy sharhlar, ma'ruzalar va xabarlar tayyorlaydi, ularni O'zbekiston Respublikasining ichki ishlari va huquqni muhofaza qilish organlariga yuboradi;

– o‘z vakolatlari doirasida Interpolga a’zo mamlakatlar huquqni muhofaza qilish organlarining O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlari bilan muayyan jinoyatlarni ochish va oldini olish, ish tajribasini almashish borasidagi amaliy hamkorligiga ko‘maklashadi;

– Interpol Bosh kotibiyati o‘tkazadigan ishchi yig‘ilishlari, konferensiyalari, Bosh assambleya sessiyalaridagi tadbirlarda qatnashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Interpol Milliy markaziy byurosi Milliy markaziy byuroning direktori, kotibiyat, moliyaviy bo‘lim (bo‘limlardan birining boshlig‘i direktor o‘rinbosari vazifasini ham bajaradi) kompyuterchilar guruhi va texnik ta’minot bo‘limi, IIV, IIB aloqa xizmatlarining aloqa ofitserlaridan tashkil topgan.

## MUNDARILJA

<b>SO'Z BOSHI .....</b>	<b>3</b>
<b>1-bob. «O'zbekiston RESPUBLIKASINING HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI» KURSINING PREDMETI VA ASOSIY TUSHUNCHALARI .....</b>	<b>5</b>
1.1. «O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari» fanining predmeti, uning boshqa yuridik fanlarni o'rganishdagi ahamiyati .....	5
1.2. Huquqni muhofaza qilish organlarining O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimidagi o'mni .....	7
1.3. Huquqiy davlat nazariyasi – o'rganiyatotgan fanning metodologik asosi .....	12
1.4. Kursining asosiy tushunchalari .....	14
<b>2-bob. SUD HOKIMIYATI, UNING TUZILISHI VA VAKOLATLARI .....</b>	<b>16</b>
2.1. «Sud hokimiyati tushunchasi .....	16
2.2. Sudyalarning maqomi .....	18
2.3. Sudyalar mustaqilligining asosiy kafolatlari .....	21
<b>3-bob. KONSTITUTSIYAVIY SUD .....</b>	<b>24</b>
3.1. Konstitutsiyaviy sudning O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlari tizimidagi o'mni. Uning vakolatlari .....	24
3.2. Konstitutsiyaviy sudni sylash tartibi, uning tarkibi va tuzilishi hamda hisoboti .....	26
3.3. Konstitutsiyaviy sudda ishni tashkil qilish .....	29
<b>4-bob. FUQAROLIK, JINOIY VA MA'MURIY SUD ISHLARI SOHASIDAGI SUD HOKIMIYATI ORGANLARI.</b>	<b>35</b>
<b>XO'JALIK SUDLARI HARBIY SUDLAR .....</b>	<b>35</b>
4.1. O'zbekiston Respublikasining sud tizimi .....	35
4.2. Sudlarni tashkil qilish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari .....	40
4.3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi .....	42
4.4. O'rqaqlopg'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar sudlari, Toshkent shahar sudi .....	47
4.5. Tuman sudlari va tumanlararo (shahar) sudlar .....	49
4.6. Sudyalarning malaka darajalari va ularni attestatsiyadan o'tkazish .....	51
4.7. Sud apparati .....	53
4.8. Xo'jalik sudlarining tizimi va tuzilishi .....	55
4.9. Xo'jalik sudlari faoliyatini tashkil etish .....	60
4.10. Harbiy sudlar .....	74
<b>5-bob. ADLIYA VAZIRLIGI .....</b>	<b>77</b>
5.1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning asosiy vazifalari .....	77
5.2. Adliya vazirligi funksiyalari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari .....	80
5.3. Adliya vazirligi ishini tashkil qilish va uning tuzilishi .....	84
5.4. Adliya vazirligining boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hankorligi .....	86
<b>6-bob. PROKURATURA: VAZIFALARI, TUZILISHI VA FAOLIYATNING ASOSIY YO'NALISHLARI .....</b>	<b>88</b>
6.1. «Prokuror nazorati» tushunchasi .....	88
6.2. Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari va vazifalari .....	88
6.3. Prokuratura organlarining tizimi va tuzilishi .....	91
6.4. Prokuror nazorati sohalari .....	97
6.5. Huquqni muhofaza qilish organlari tizimida prokuraturaning muvofiglashtiruvchi roli .....	106
<b>7-bob. ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI VA UNING ORGANLARI .....</b>	<b>113</b>

7.1. Ichki ishlar vazirligining tuzilishi .....	113
7.2. Ichki ishlar organlari xodimlarining vazifalari, asosiy huquq va majburiyatları.....	117
<b>8-bob. MILLIY XAVFSIZLIK XIZMATI.....</b>	<b>125</b>
8.1. Milliy xavfsizlik xizmatining umumiy tavisi .....	125
8.2. Milliy xavfsizlik xizmati organlarining vazifalari va vakolatlari .....	126
8.3. Milliy xavfsizlik xizmati organlari faoliyatining asosiy prinsiplari .....	127
8.4. Milliy xavfsizlik organlarining huquqlari.....	130
<b>9-bob. DAVLAT CHEGARASINI QO'RIQLASH ORGANLARI .....</b>	<b>134</b>
9.1. Davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash to'g'risidagi tashkiliy-siyosiy qoidalar .....	134
9.2. Davlat chegarasini qo'riqlash organlarining vazifalari.....	135
9.3. Davlat chegarasini qo'riqlash organlarining asosiy funksiyalari .....	136
9.4. Chegara qo'shinchalarining huquqlari va majburiyatları .....	138
<b>10-bob. SOLIQ TIZIMI .....</b>	<b>141</b>
10.1. Davlat soliq qo'mitasi .....	141
10.2. Davlat soliq qo'mitasingin huquqlari va majburiyatları .....	145
10.3. Mahalliy soliq organlari .....	147
<b>11-bob. BOJXONA ORGANLARI .....</b>	<b>154</b>
11.1. Davlat bojxona qo'mitasi .....	154
11.2. Bojxona xizmatlari .....	159
11.3. Bojxona ishlarini tartibga solish sohasidagi xalqaro hamkorlik .....	160
<b>12-bob. ADVOKATURA VA YURIDIK XIZMAT .....</b>	<b>166</b>
12.1. Advokatura tushunchasi va advokatlik faoliyatining turlari .....	166
12.2. Advokatning huquqlari va majburiyatları .....	167
12.3. Advokatlarning malaka komissiyalari va javobgarligi .....	170
12.4. Davlat va tijorat korxonaları, muassasalari, tashkilotlarda yuridik xizmatni tashkil etish .....	172
<b>13-bob. NOTARIAT .....</b>	<b>177</b>
13.1. Asosiy qoidalar .....	177
13.2. Notariusning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi .....	180
13.3. Notarial harakatlar .....	182
13.4. Notarial harakatlarni amalga oshirish qoidaları .....	185
<b>14-bob. OLIY MAJLISNING INSON HUQUQLARI BO'YICHA VAKILI (OMBUDSMAN).....</b>	<b>189</b>
14.1. Umumiy qoidalar .....	189
14.2. Vakilning huquqlari va majburiyatları .....	191
14.3. Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga riyo etilishi bo'yicha komissiya va kotibiyat .....	193
14.4. Faoliyatining asosiy yo'naliishlari .....	195
<b>15-bob. INTERPOL: TASHKIL ETILISHI, VAZIFALARI VA FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI.....</b>	<b>200</b>
15.1. Interpolning nizomi va vazifalari .....	200
15.2. Interpolning rivojlaniishi .....	203
15.3. Interpol ishining yo'naliishlari va O'zbekiston Respublikasining u bilan hamkorligi .....	206
15.4. O'zbekiston Respublikasi Interpol Milliy markaziy byurosining tashkil etilishi va faoliyati .....	209

**MIRENSKIY Boris Aronovich,**

*yuridik fanlar doktori, professor;*

**RAHMONQULOV Ahror Xudoyorovich,**

*yuridik fanlar nomzodi, dotsent;*

**CHINIBAYEV Husan Jumaqulovich**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI**

**Darslik**

**Muharrir: N. T. Imomov, B. A. Yarov**

**Texnik muharrir M. M. Safarov**

**Kompyuterda teruvchi va sahifalovchi E. S. Jlyanbayeva**

---

Bosishga 20.04.2005 y. da ruxsat etildi. Nashriyot hisob tabag'i 15,8.  
Buyurtma № 76. Adadi 300 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda

---

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
700197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68

Akademiya Noshirlik Markazi

